

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

M.F. HAKIMOVA

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT

TOSHKENT – 2019

УДК: 330(075)
65.9(5Y)-56
Б57

Hakimova M. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma.* – T.: IQTISODIYOT, 2019.-184 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada muallif hozirgi kunda "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" fanida erishilgan eng so'nggi yutuqlar nuqtai nazaridan yondoshgan. O'quv qo'llanmada fanning nazariy va metodologik asoslari, predmeti, maqsadi, vazifalari, zamonaviy ta'limda qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalar, pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanish tarixi, pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali o'qitishni tashkil etish mazmuni va shakllari, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda muammoli ta'limni qo'llash texnologiyasi, o'quv faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishda didaktik o'yinli texnologiyalardan foydalanish, keys-stadi va loyiha metodining kelib chiqish tarixi, keys texnologiyasining tuzilishi va turlari, pedagogik jarayonni samarali rejalashtirishda o'qituvchining innovatsion tayyorgarligi va ijodkorligi, o'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarishda pedagogning mahorati haqida mulohaza yuritilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma pedagoglar, Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining o'qituvchi va talabalariga kasbiy pedagogik mahoratni egallash, uni uzluksiz takomillashtirib borishga hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan qiziquvchi kitobxonlarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: ps.f.n., dots. Lutfullaeva N.X.

Taqrizchilar: p.f.d. Mirsoliyeva M.T., ps.f.n., dots. Fayzullayeva N.S.

М.Ф.Хакимова *Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Учебное пособие.* –Т.: IQTISODIYOT, 2019.-184с.

К работе над учебным пособием «Педагогические технологии и педагогическое мастерство» автор подошёл с точки зрения последних достижений в данной науке. В учебном пособии рассмотрены теоретические и практические основы науки, предметы, цели, задачи, использование передовых педагогических технологий в современном образовании, история развития концепции педагогических технологий, научно-методические основы использования педагогических технологий, содержание и формы организации обучения через современные педагогические технологии, применение проблемного образования в организации и управлении учебным процессом, использование дидактических игровых технологий в активизации и ускорении учебной деятельности, история возникновения кейс-стади и метода проекта, структура и виды кейс технологии, инновационная подготовка и творческий подход преподавателя в эффективном планировании педагогического процесса, мастерство педагога в управлении учебно-воспитательным процессом.

Данное учебное пособие предназначено для педагогов, преподавателей и студентов высших и средних специальных учебных заведений для овладения профессиональными педагогическими навыками, непрерывного их совершенствования, а также для читателей, интересующихся современными образовательными технологиями.

Ответственной редактор: к.п.н., доц. Лутфуллаева Н.Х.

Рецензенты: д.п.н. Мирсалиева М.Т., к.п.н., доц. Файзуллаева Н.С.

M.F.Khakimova *"Pedagogical technologies and pedagogical skills. Tutorial.* –T.: IQTISODIYOT, 2019. pages -184

In this tutorial, the author looks at the latest advances in pedagogical technology and pedagogical skills. The textbook provides theoretical and methodological bases, subjects, aims, tasks, advanced pedagogical technologies used in modern education, development of the concept of pedagogical technology, scientific-methodological basis of using pedagogical technologies, content and forms of organization of teaching through modern pedagogical technologies. and the use of problem-based learning in management, using didactic gaming technologies to activate and accelerate learning activities, HQ-stages of the case history of the origin and method of the project, the structure and the types of technology, innovative teacher training in planning and making effective educational process, educational process management skills assessment.

The textbook is intended for teachers, teachers and students of higher and secondary special educational institutions, who are interested in acquiring, continuously improving the professional pedagogical skills and modern readers.

Responsible editor dosent. Lutfullayeva N.X.

Reviewers: doctor of Pedagogical sciences. Mirsoliyeva M.T., dosent. Fayzullayeva N.S

Тошкент давлат иқтисодиёт университети илмий кенгаши томонидан чоп этишига тавсия қилинган

ISBN-978-9943-330-30-6

УДК: 330(075)
ББК 65.9(5Y)-56
Б57

© IQTISODIYOT нашриёти, 2019.
© M.F. Hakimova, 2019.

MUNDARIJA

KIRISH	9
I bob “PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT” FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI	11
1. Pedagogik texnologiyalarning vujudga kelishi va shakllanishi.....	11
2. Pedagogik texnologiyalarning maqsadi, mazmuni va vazifalari.....	13
3. Bugungi kunda pedagogik texnologiyalarga berilayotgan ta’riflarning tahlili.....	16
4. Pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanish tarixi.....	20
II bob PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILMIIY-METODIK ASOSLARI	25
1. Pedagogik texnologiyalarning turlari.....	25
2. O’qitishning mazmunli qismi, o’qitish maqsadlari.....	26
3. Ta’lim texnologiyasining bosqichlari.....	27
4. Ta’lim-tarbiyaga texnologik yondashuv.....	31
5. O’quv jarayonining diagnostikasi.....	52
III bob ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI O’QITISHNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI	55
1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali o’qitishni tashkil etish mazmuni va shakllari.....	55
2. Ta’limni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar.....	58
3. Trening texnologiyasi.....	63
IV bob MUTAXASSISLIK FANLARINI O’QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI	67
1. O’qitish metodlarining ta’lim berish jarayonidagi o’rni va vazifasi.....	67
2. O’qitish metodlarining tasniflanishi.....	71
3. Faol o’qitish metodlari va ularning xususiyatlari.....	74
V bob O’QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MUAMMOLI O’QITISH TEXNOLOGIYASINING DOLZARBLIGI	75
1. Muammoli ta’limning vujudga kelish tarixi.....	75
2. O’quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda muammoli ta’limni qo’llash texnologiyasi.....	76
3. Ta’lim samaradorligini oshirishda muammoli ta’limni qo’llash mahorati.....	79
VI bob O’QUV FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH VA JADALLASHTIRISHDA DIDAKTIK O’YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	83
1. Didaktik o’yinli texnologiyalar haqida tushuncha.....	83

2.	Ishbilarmon o’yinlarni tuzish va tashkillashtirish tamoyillari.....	94
3.	Ishbilarmon o’yinlarni tashkillashtirish bosqichlari.....	99
VII bob	IQTISODIY TA’LIM TIZIMIDA KEYS TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. LOYIHA METODI, MAQSAD VA VAZIFALARI	104
1.	Keys-stadi metodini kelib chiqish tarixi. Keys texnologiyasining tuzilishi, turlari. Keys texnologiyasining mazmuni, maqsadi.....	104
2.	Keys-stadi texnologiyasining konseptual asoslari.....	110
3.	Keys-stadi texnologiyasini samarali amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	124
4.	Keys manbalari, keyslarni yaratish tamoyillari va bosqichlari.....	125
5.	Loyiha metodi, uning mazmuni va maqsadi. Loyihaning turlari. O’quv jarayonida loyiha metodini qo’llash mahorati.....	132
VIII bob	PEDAGOGIK JARAYONDA O’QITUVCHINING INNOVATION FAOLIYATI	137
1.	Innovatsion texnologiyalar yordamida iqtisodiy fanlarni o’qitish.....	137
2.	Pedagogik jarayonni samarali rejalashtirishda o’qituvchining innovatsion tayyorgarligi va ijodkorligi.....	151
3.	Zamonaviy o’qituvchi modeli.....	155
IX bob	PEDAGOGIK MAHORAT TUSHUNCHASIGA ZAMONAVIY YONDASHUV, UNING BO’LAJAK O’QITUVCHI KASBIY FAOLIYATIDA TUTGAN O’RNI VA AHAMIYATI	158
1.	O’qituvchining kasbiy mahorati haqida tushuncha.....	158
2.	Yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta’minlovchi omillar.....	163
3.	Bo’lajak o’qituvchi kasbiy faoliyatining asosiy yo`nalishlari.....	169
	XULOSA	173
	IZOHLI LUG’AT (Glossariy)	175
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI	181

СОДЕРЖАНИЕ

ПРЕДИСЛОВИЕ		9
I глава	ПРЕДМЕТ, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ДИСЦИПЛИНЫ “ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО”	11
1.	Образование и формирование педагогических технологий.	11
2.	Цель, содержание и задачи педагогических технологий.....	13
3.	Анализ описания педагогических технологий на сегодняшний день.....	16
4.	История развития концепции педагогической технологии.....	20
II глава	НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ	25
1.	Виды педагогических технологий.....	25
2.	Значимая часть обучения, цели обучения.....	26
3.	Этапы образовательной технологии.....	27
4.	Технологический подход к образовательно-воспитательному процессу.....	31
5.	Диагностика учебного процесса.....	52
III глава	ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ОБУЧЕНИЯ ПО СОВРЕМЕННЫМ ПЕДАГОГИЧЕСКИМ ТЕХНОЛОГИЯМ	55
1.	Содержание и формы организации обучения по современным педагогическим технологиям.....	55
2.	Современные педагогические технологии в организации образования.....	58
3.	Технология “Тренинг”.....	63
IV глава	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНОЙ МЕТОДИКИ В ПРЕПОДАВАНИИ ДИСЦИПЛИН ПО СПЕЦИАЛЬНОСТИ	67
1.	Роль и функции методов обучения в процессе преподавания.....	67
2.	Классификация методов обучения.....	71
3.	Методы активного обучения и их особенности.....	74
V глава	АКТУАЛЬНОСТЬ ПРОБЛЕМНОЙ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА	75
1.	История возникновения проблемного образования.....	75
2.	Технология применения проблемного образования в организации и управлении учебным процессом.....	76
3.	Навыки использования проблемного образования в повышении эффективности преподавания.....	79
VI глава	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В АКТИВИЗАЦИИ И УСКОРЕНИИ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	83
1.	Понятие о дидактических игровых технологиях.....	83

2.	Принципы построения и организации деловых игр.....	94
3.	Этапы организации деловых игр.....	99
VII глава	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ КЕЙС В СИСТЕМЕ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ. МЕТОД ПРОЕКТА, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ	104
1.	История происхождения метода кейс-стади. Структура и виды кейс технологии. Содержание и цель кейс технологии	104
2.	Концептуальные основы технологии кейс-стади.....	110
3.	Педагогические условия эффективной реализации технологии кейс-стади.....	124
4.	Источники кейса, принципы и этапы создания кейса.....	125
5.	Метод проекта, его содержание и цель. Виды проекта. Мастерство применения метода проекта в учебном процессе.....	132
VIII глава	ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ	137
1.	Преподавание экономических дисциплины с использованием инновационных технологий.....	137
2.	Инновационная и творческая подготовка преподавателя в эффективном планировании педагогического процесса.....	151
3.	Модель современного преподавателя.....	155
IX глава	СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД К ПОНИМАНИЮ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА, ЕГО РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО ПРЕПОДАВАТЕЛЯ	158
1.	Понятие о профессиональном мастерстве преподавателя.....	158
2.	Факторы, обеспечивающие формирование высокого педагогического мастерства.....	163
3.	Основные направления профессиональной деятельности будущего преподавателя.....	169
	ЗАКЛЮЧЕНИЕ	173
	ТОЛКОВЫЙ СЛОВАРЬ (Глоссарий)	175
	ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА	181

CONTENTS

INTRODUCTION.....		9
I chapter	PURPOSE AND OBJECTIVES OF THE “PEDAGOGICAL TECHNOLOGY AND PEDAGOGICAL SKILLS	11
1.	The emergence and formation of pedagogical technologies	11
2.	The purpose, content and objectives of pedagogical technologies .	13
3.	Analysis of definitions for pedagogical technologies today.....	16
4.	History of the development of the concept of pedagogical technology.....	20
II chapter	SCIENTIFIC-METHODICAL BASIS FOR USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES	25
1.	Types of pedagogical technologies.....	25
2.	Meaningful part of teaching, learning objectives.....	26
3.	The stages of educational technology.....	27
4.	Technological approach to education.....	31
5.	Diagnosis of the educational process.....	52
III chapter	Forms of Teaching Through Modern Pedagogical Technology	55
1.	Forms of teaching through modern pedagogical technology	55
2.	Modern pedagogical technologies in the organization of education	58
3.	Technology of training.....	63
IV chapter	METHODOLOGY OF INTERACTIVE METHODS FOR TRAINING SPECIALTIES	67
1.	The role and objectives of teaching methods in the teaching process.....	67
2.	Classification of teaching methods	71
3.	Active teaching methods and their features	74
V chapter	The Impact of Problem-Based Teaching Technology in Improving the Efficiency of the Teaching Process	75
1.	History of problem-based education	75
2.	Technology of application of problem-based education in the organization and management of the educational process.....	76
3.	The ability to use problem-based learning to enhance learning effectiveness.....	79
VI chapter	THE USAGE OF WITNESS-INTENTIAL TECHNOLOGICAL GAMES IN IMPROVING EDUACTION	83
1.	The concept of didactic gaming technologies.....	83

2.	Principles of creation and organization of business games.....	94
3.	Stages of organization of business games.....	99
VII chapter	USE OF KEYS TECHNOLOGIES IN THE ECONOMIC EDUCATION SYSTEM. PROJECT METHODS, OBJECTIVES AND OBJECTIVES	104
1.	The history of the case study method. Structure of case technology, types. Content and purpose of case technology.....	104
2.	Conceptual basis of case study technology.....	110
3.	Pedagogical conditions for effective implementation of case study technology.....	124
4.	Case sources, case studies and principles.....	125
5.	Project method, content and purpose. Types of projects. Skills in using project methodology in teaching.....	132
VIII chapter	INNOVATIVE ACTIVITIES OF TEACHER IN THE PEDAGOGICAL PROCESS	137
1.	Teaching economic disciplines using innovative technologies	137
2.	Innovative training and creativity of the teacher in effective planning of the pedagogical process.....	151
3.	A modern teacher model.....	155
IX chapter	Contemporary Approach to the Understanding of Pedagogical Teaching and its Place and Significance	158
1.	The concept of the professionalism of the teacher.....	158
2.	Factors that facilitate the formation of high pedagogical skills.....	163
3.	The main directions of future professional activity of the teacher....	169
SUMMARY.....		173
GLOSSARY.....		175
REFERENCES.....		181

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini shakllan va mazmunan isloh qilish, uning huquqiy bazasini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ta'lim-tarbiya mazmunini, shakl va metodlarini samaradorligini oshirish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Chunki, ta'lim jahon miqyosida o'z o'rniga ega, obro'-e'tibor qozongan jamiyat barpo etish, mamlakatimizning demokratik taraqqiyotini ta'minlash va fuqarolik jamiyatini shakllantirish, uni demokratlashtirish va liberallashtirish, fuqarolarning siyosiy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy ongi hamda dunyoqarashi darajasini oshirish, sog'lom tafakkurli barkamol avlodni shakllantirishning poydevori hisoblanadi.

Shuning uchun ham bugungi kunda ta'limdagi strategik yo'nalishlardan biri – ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyati asosiy omil sifatida belgilab berilayapti. Hozirgi sharoitda har bir bo'lajak mutaxassis ta'lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib etishi va uni amaliyotda ta'lim muassasalarining innovatsion jarayonlariga qo'shilishidagi ahamiyatini anglab etishi hamda yaratish imkoni mavjud bo'lgan innovatsion maydonda o'zini ko'rish va eng muhimi, yangiliklarni o'zlashtirishdan iborat.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasida ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida pedagogik texnologiyalarning rivojlanishida buriilish kerakli axborotni mustaqil izlab topish, muammolarni aniqlash va ularni oqilona yechish yo'llarini topish, o'zlashtirilayotgan bilimlarni tanqidiy tahlil qilish va yangi vazifalarni yechishda ularidan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Tayyor bilimlarni o'zlashtirish va umumlashtirish maqsad emas, balki insonning intellektual rivojlanishiga ko'maklashuvchi vositalardan biri hisoblanadi. Har qanday ijtimoiy texnologiyaning mazmuni va vazifasi jarayonni optimallashtirishdan, faoliyatning ijtimoiy samaraga erishish uchun zarur bo'lmagan barcha turlarini undan chiqarib tashlashdan iborat. Texnologiyalardan foydalanish boshqaruv xarajatlarini kamaytirish, boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirish imkoniyatini beruvchi bosh resurs.

So'nggi yillarda insoniyatning sof iqtisodiy o'sish vositasida yanada rivojlanishi va texnik qudratning kuchayishi naqadar xavfli ekanligi, shuningdek bo'lg'usi rivojlanish ko'proq insonning madaniyati va oqillik darajasi bilan belgilanishi yanada teranroq tushunib etilmoqda. Erix Fromm fikricha, rivojlanish inson nimaga ega ekanligi bilan emas, balki insonning kimligi, u o'z ixtiyorida mavjud narsalar bilan nima qilishga qodir ekanligi bilan belgilanadi. Bularning barchasi insoniyatning global muammolarini yechishda ta'lim ulkan rol o'ynashi lozimligini ko'rsatadi.

Jamiyat rivojlanishiga qarab daromad manbai sifatida bilimlar, innovatsiyalar va ularni amalda qo'llash usullari ko'proq amal qilishi ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Iqtisodiy rivojlanishda bilim birinchi darajali ahamiyat kasb eta boshlashi ijtimoiy hayotda ta'limning o'rni, ta'lim va iqtisodiyot kabi sohalarining o'zaro nisbati butunlay o'zgarishiga olib keladi. Yangi bilimlar, axborot, o'quv va ko'nikmalarni o'zlashtirish, ularni yangilash va rivojlantirishga qarab mo'ljal olish postindustrial

iqtisodiyotda band bo'lgan insonlarning fundamental xususiyatlariga aylanadi. Mazkur jamiyatda ta'lim sohasi jamiyat hayotining iqtisodiy sohasi bilan sezilarli darajada kesishadi, ta'lim faoliyati esa uning iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi muhim omilga aylanadi. Yana shuni ham unutmaslik kerakki, axborot va nazariy bilim mamlakatning strategik resurslari hisoblanadi va ta'limning rivojlanish darajasi bilan bir qatorda, uning suvereniteti va milliy xavfsizligini ko'p jihatdan belgilaydi.

Qayd etish lozimki, respublikamizda oliy ta'lim islohotlari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi, chunki oliy ta'lim darajasi uning bo'lg'usi rivojlanishini belgilashni tushunamiz. Shu siyosatga muvofiq talabalar kontingenti va oliy o'quv yurtlari sonini ko'paytirish, bilimlar sifati, oliy maktabning yangi funksiyalari, axborot miqdorining o'sishi, yangi axborot texnologiyalarining keng tarqalishi bilan bog'liq masalalar hal qilindi. Jamiyatning hozirgi rivojlanish darajasi ta'lim oluvchilarda kelajakni rejalashtirish qobiliyati, kelajak uchun javobgarlik hissi, o'ziga va o'z kasbiy qobiliyatlariga ishonchni shakllantirishga qodir bo'lgan yangi ta'lim tizimi – “innovatsion ta'lim”ni talab qiladi.

Respublikamizda iqtisodiy rivojlanishning globallashuvi sharoitida davlatning raqobatbardoshligi uning mavjud ilmiy-ma'rifiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatidan to'laonli foydalanish, innovatsiyalarni iqtisodiyotgagina emas, balki ta'lim sohasiga ham samarali joriy etish imkoniyatlari bilan bevosita bog'liq. An'anaviy kasblar tarkibida, xodimlarning iqtisodiy xulq-atvorida, kasb tanlashda qadriyatlar va mo'ljal tizimi hamda mehnatni tatbiq etish sohalarida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Bularning barchasi mutaxassisning yangicha tipi – innovatsion fikrlash uslubiga ega bo'lgan xodim paydo bo'lganini tasdiqlaydi.

Yuksak texnologiyalar ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi odamlardan yuksak darajada kasbiy mahoratga, tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyatiga, to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'nikmasiga ega bo'lishni talab qiladi. Aynan shu sababli o'quv yurtlarining bitiruvchilari shu jumladan global fikrlash salohiyatiga ega bo'lishlari, o'z mintaqasi, mamlakatidagina emas, balki butun dunyoda yuz berayotgan jarayonlarni bilishlari va tushunishlari lozim. Bu ta'limning mazmun va mohiyatiga nisbatan butunlay yangicha yondashuvdir.

I bob. “PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT” FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Reja :

1. Pedagogik texnologiyalarning vujudga kelishi va shakllanishi.
2. Pedagogik texnologiyalarning maqsadi, mazmuni va vazifalari.
3. Bugungi kunda pedagogik texnologiyalarga berilayotgan ta'riflarning tahlili.
4. Pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanish tarixi.

1. Pedagogik texnologiyalarning vujudga kelishi va shakllanishi

Pedagogika fanining bir qismi hisoblanuvchi metodika o'qitish usullari o'quv jarayonini samaradorligini oshirish kabi masalalar bilan shug'ullanar ekan, u uch yo'nalishda ish olib boradi.

a) O'z faoliyati davomida qanday natijaga erishmoqchi, hozirgi davr talablari jamiyatning rivojlanish bosqichi va davlatning o'z oldiga qo'ygan vazifalaridan kelib chiqqan holda metodika fani ish olib boradi. Demak, birinchi vazifa maqsadni belgilashdir. Ta'lim maqsadlarini belgilashda yoshlarning intellektual va ma'naviy rivojlanish darajasi, moddiy-texnika baza, yani iqtisodiy ta'limot, o'qituvchi kadrlarning malakaviy tayyorgarlik darajasi, fan-texnikaning rivojlanganlik darajasi kabilar hisobga olinadi. Ana shu omillarni o'rganib mavjud holatga baho beriladi va ulardan kelib chiqqan holda ta'lim maqsadlari belgilanadi.

b) O'qitish zarur bo'lgan bilimlarning hajmini belgilash jarayonida birinchi galda belgilangan maqsadlarga asoslanadi. Biz qanday natijaga erishmoqchimiz va qanday bilimlar zarur va shart bo'lib hisoblanadi? Tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan bilimlarning qaysilarini o'rganish lozim? Yoshlarning sog'ligi, jismoniy va ruhiy rivojlanishlarini hisobga olish, miya reflekslarining ishlash imkoniyatlarini hisobga olish bilimlar hajmini belgilashda hisobga olinishi zarur bo'lgan omillar qatoriga kiradi:

1. Maqsad omili.
2. Fan - texnikaning rivojlanish darajasi.
3. Inson imkoniyatlarini hisobga olish.

Avval umumiy bilimlar hajmi, so'ngra esa o'rganish bosqichlari bo'yicha bilimlar hajmi belgilanadi.

v) Ta'limning maqsadi va o'rganish lozim bo'lgan bilimlar hajmi aniqlab olingach, ana shu bilimlarni qanday yo'llar va usullardan foydalangan holda egallash masalasi maydonga chiqadi. Belgilab olingan bilimlarni kam mehnat va kam vaqt sarflab osonlik bilan egallash usullarini ishlab chiqish muhim masala bo'lib hisoblanadi. Metodika fani mana shu vazifani bajarishga bel bog'laydi, ammo bugungi kunda metodika fani umumiy yo'nalishlarni ko'rsatishga, xususiyl xulosalar chiqarishga pedagoglarning ilg'or tajribalarini ommalashtirishga qaratilgan bo'lib, o'z vazifasini to'la qonli ravishda bajara olmayapti.

Yangi pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonining natijasini kafolatlash, yuqori samaradorlikka erishish, kam vaqt sarflab katta hajmdagi bilimlarni egallash

imkonini tug'diradi. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat kursi bo'lajak pedagoglarda o'rganish ta'limiy va tarbiyaviy texnologiyalarni to'g'ri o'z o'rnida va yuqori samara bilan qo'llash malakasini hosil qilishga qaratilgan bo'lib, u o'qituvchiga nutq malakasini, psixologik holatni boshqarish malakasini, o'quv jarayonini tashkil etish malakasini hosil qilish yo'l-yo'riqlarini ko'rsatadi.

Ta'lim tizimida ta'lim jarayonini tashkil etish tarixiga nazar tashlasak, ta'limning rivojlanish tendensiyasini ko'rish mumkin: Yani;

- xotira maktabi;
- reproduktiv ta'lim;
- dasturli ta'lim;
- muammoli ta'lim;
- ta'lim texnologiyalari.

Demak, ta'lim tizimi o'zgaruvchan tizim bo'lib doimiy rivojlanishda ekan, bugungi kunda biz an'anaviy ta'lim reproduktiv tizimdan pedagogik texnologiyalar tizimiga o'tishni maqsad qilib quydik.

Pedagogika fanida mavjud bo'lgan an'anaviy, xususiyl metod quyidagi xarakterli xususiylatlarni o'z ichiga oladi:

1. Ta'lim maqsadlari aniq belgilanmagan (talabalarning o'zlashtirish darajalari dasturlarda aniq belgilanmagan).

2. Ta'lim jarayoni ilg'or pedagoglarning tajribalarini umumlashtirishga asoslangan (yaxshiroq natijaga erishgan o'qituvchining tajribasi umumlashtirishga harakat qilinadi).

3. Tajriba va xatolarni o'rganish natijasida o'qituvchining xususiyl xulosa chiqarishiga asoslanadi.

4. Bu tizim kafolatlangan natijaga erishishga imkon bermaydi.

Pedagogik texnologiya 1930-yillarda an'anaviy xususiyl yo'nalishga qarshi, aniqrog'i bu yo'nalishdagi noaniqlik va yuzakilikka qarshi chiqqan yo'nalishdir. Bu yo'nalish o'z maqsadi qilib aniq samarali natijaga erishishning aniq yo'llarini ishlab chiqishni qo'yadi.

Bunday ta'lim texnologiyasiga erishish bir qarashda oson bo'lib ko'rinad-da, lekin katta pedagogik o'zgartirishlar va ilmiy tadqiqot ishlarini talab etadi. 1950-yillarda bu masalani dasturlashtirilgan ta'limga o'tish orqali hal qilishga harakat qilindi.

1960-yillarda muammoli ta'lim nazariyasi vujudga keldi. Muammolarni bosqichma-bosqich echib borish, soddadan murakkabga yo'nalish belgilangan kafolatlangan natijaga olib kelishi kerak edi.

1960-yillarning ikkinchi yarmida ta'lim texnologiyasi g'oyasi vujudga keldi va ushbu g'oyani amaliyotga olib kirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

Masalan: 1961-yil AQSHda "Pedagogik texnologiya" jurnali, 1971-yilda "Kommunikatsiya va texnologiya" assotsiatsiyasi tashkil etildi. 1971-yilda esa, "Audiovizuall kommunikatsiya bayoni" nomli jurnallar chop etila boshlandi.

Angliyada 1964-yilda "Pedagogik texnologiya va dasturli ta'lim" jurnali nashr qilindi. 1967-yilda esa, "Pedagogik texnologiya milliy kengashi" va 1970-yilda "Pedagogik texnologiya" nomli jurnal nashr qilindi.

Yaponiyada 1965-yilda “Umumyapon pedagogik texnologiya markazi kengashi” tashkil etildi. “Pedagogik texnologiya”, “Pedagogik texnologiya tadqiqotlari” bo‘yicha jurnallar chop etila boshlandi.

Vengriyada 1973-yilda “O‘qitish texnologiyasi” nomli davlat markazi tashkil qilindi.

2. Pedagogik texnologiyalarning maqsadi, mazmuni va vazifalari

Pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishda quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak:

1. O‘quvchi subyektiga alohida e‘tibor berish.
2. Texnologik xususiyatga ega bo‘lish.
3. Tizimlilik (pedagogik texnologiya) xususiyatiga ega bo‘lishi kerak, yani mantiqiy bog‘lanishlar va yaxlitlikning mavjud bo‘lishi.
4. Boshqaruvchilik xususiyati. Yani diagnostika, rejalashtirishga qarab natijalarni korreksiyalash, moslashtirish.
5. Samaralilik xususiyati. Natijalari samarali, optimal kuch va mablag‘ talab etuvchi hamda standart ta‘limga to‘g‘ri keluvchi bo‘lishi lozim.
6. Konseptuallik xususiyati. Har bir pedagogik texnologiya chuqur g‘oyaga ega bo‘lishi yani ilmiy asoslanishi lozim.

Pedagogik texnologiyalarga o‘tish uchun quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

- ✚ diagnostika;
- ✚ rejalashtirish;
- ✚ aniqlashtirilgan maqsadni belgilash. Belgilangan maqsadga erishishning aniq usul, metod va shakllarini qayta ishlab chiqish talab qilinadi.

Pedagogik texnologiyalar shaxsga individual yondashuv masalasini oldinga suradi va unga asoslanadi. Shaxsning individualligiga asoslanish bu shaxsning faolligini oshirish, uning yangi xususiyatlarini, qobiliyatlarini kashf etish va rivojlantirishdir. Har bir shaxsning tanlash imkoniyatini va erkin rivojlanish imkonini yaratish, yani «Rivojlantiruvchi ta‘limni» ishga tushishini ta‘minlashdir. O‘z davrida «xotira maktabidan», «fikrlash maktabiga» va undan keyin «rivojlanish maktabi»ga o‘tish maqsad qilib qo‘yiladi. Individual ta‘limni rivojlantirish natijasida o‘z-o‘zidan ta‘lim ko‘p profilli, ko‘p darajali yoki differentsiallashgan (tabaqalashgan ta‘lim) bo‘lib qoladi. Bunday holda uzluksiz monitoring ishga tushirilishi shart.

Oldinlari bitta tanlab olingan trayektoriyadan chetga chiqqan o‘quvchilarni trayektoriyaga solishga harakat qilingan bo‘lsa, endilikda har bir talaba uchun o‘z rivojlanish trayektoriyasi ishlab chiqilishi va uning rivojlanish jarayonlarini nazorat qilib borish lozim. Yani, har bir o‘quvchining rivojlanish darajasi har tomonlama o‘rganilganidan so‘ng keyingi rivojlanish rejalari tuziladi.

Pedagogik texnologiya bu ilmiy texnikaviy taraqqiyot mevasi bo‘lib «Pedagogika», «Texnologiya» tushunchalari asosida paydo bo‘ldi.

«Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonun asosida ta‘lim muassasalari oldiga yangidan yangi yuksak vazifalar qo‘yildi. Bunday yuksak vazifalarni bajarish uchun metodika pedagogik texnologiyalar bilan boyitilishi, har bir pedagogdan esa yuqori

samaradorlik talab qilinmoqda. Ammo ilm-fanning tez rivojlanishi, bilimlar hajmining oshib borishi, o‘qituvchidan yangicha yondashuvni talab etayapti. Zamonaviy pedagog eski metodlardan foydalanib yuqori samaradorlikka erishishi qiyin. SHuning uchun ham biz talabalarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirishimiz, ularni bu boradagi malakalar bilan qurollantirishimiz zarur. Bo‘lajak o‘qituvchilar nafaqat metodika bilan, balki pedagogik texnologiyalar bilan tanishishi va ularni amaliyotda qo‘llay olish darajasiga yetkazishlari talab etiladi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalarga juda katta talab qo‘yilmoqda. Zamonaviy globallashtirish sharoitida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash talab etilayotgan bir vaqtda kafolatlangan samarali natijani vujudga keltiruvchi yo‘nalish juda katta ahamiyat kasb etadi. Faqat kafolatlangan samarali natijaga asoslangan ta‘lim tizimigina malakali kadrlarni yetkazishi mumkin. Shuning uchun ham pedagogik texnologiyalarni yanada mukammallashtirish, ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash talab etilmoqda. Ayniqsa, tarbiya borasidagi pedagogik texnologiyalar kam ishlangan. Ayrim texnologiyalarda aniqlik yetishmaydi. Pedagogning mahoratiga ham bugungi kunda talablar oshib bormoqda. Pedagogdan nafaqat o‘z psixikasini va nutq madaniyatini boshqarish, balki tinglovchilarning psixik holatini boshqarish talab etilmoqda. Bu vazifani bajarish uchun esa, pedagog o‘quvchining psixikasini o‘ta nozik jihatlarini o‘rganishi va har bir o‘quvchining qalbiga yo‘l topa olishi, buning uchun esa, har bir pedagog o‘z ustida tinmay mehnat qilishi talab etiladi.

Har bir pedagogik davr o‘z o‘zgarishlari va yangiliklarini taqozo etadi. Bugungi kunda pedagogik texnologiyalarning maqsadi asosan, ta‘lim-tarbiya samarasini oshirishga qaratilgan. Ta‘lim-tarbiya jarayonining samarasini oshirish yangi sifat darajasiga o‘tish imkonini beradi.

Pedagogik texnologiyalar hozirgi davr uchun, yani insonning rivojlanish darajasi va texnika rivojlanish darajasiga mos tushishi hamda inson va texnika resurslaridan unumli va uyg‘un foydalanishni ta‘minlashi lozim. Yani, pedagogik texnologiyalarning mazmuni keng mashtabda qaratilgan bo‘lsa:

- ✚ gumanlashtirish va demokratlashtirish;
- ✚ individuallashtirish;
- ✚ rivojlantirish;
- ✚ faollikni oshirish (bajarib o‘rganish)

Tor ma‘noda pedagogik texnologiyalarning mazmunini ma‘lum vaziyatdan va muammodan kelib chiqqan holda asosiy tamoyillarga asoslangan holda ishlab chikiladi. Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan qonunlar yuksak umumiy madaniyatga va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to‘g‘ri yo‘l topa bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta‘lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda puxta o‘zlashtirgan, jamiyat, davlat va oila oldida o‘z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g‘oyani ilgari suradi.

Ushbu pedagogik g‘oya ta‘lim tizimi oldiga:

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan huquqiy-demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va uslublarini ishlab chiqish hamda joriy etishni hal etish vazifalarini ko'ndalang qilib qo'ydi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda.

Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqda.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Pedagogik texnologiya atamasining mohiyati nimada? «Texnologiya» yunoncha so'z bo'lib, «teche»-mahorat, san'at, «logos»-tushuncha, o'rganish demakdir.

Nega bugungi kunga kelib pedagogik texnologiyalarga qiziqish shunchalik darajada kuchaydi, degan mulohaza tug'ilishi tabiiy. Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilim va malakali kadrlarni etishtirib bergan milliy pedagogikaning o'ziga xos uslublari mavjud. Pedagogik jamoatchilikning aksariyati mana shu yo'ldan bormoqda, ammo mustaqillik va kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l uzoq xizmat qila olmaydi. Chunki buning zamirida ma'lum sabablar mavjud, yani;

1. Rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligi.

2. Fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlar hajmining tobora ko'payib borayotganligi.

3. Zamonaviy texnikalarni ta'limga tatbiq etish, ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish, o'quv-tarbiya jarayonida axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish zarurligi.

4. Talaba va pedagog faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'qituvchi ta'lim maqsadi va mazmunini puxta bilishi, ta'lim usullari va texnik vositalarni yaxshi egallagan bo'lishi, talabaning qiziqish va intiluvchanligining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi.

5. Pedagog ta'lim jarayonini yuqori darajada samarali tashkil etish uchun ta'limning maqsad va vazifalarini aniq belgilashi, ta'limning natijasini oldindan qayd etishi, o'quv predmetlarini to'liq o'zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta'lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlashga erishganligi.

6. O'quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnik bazaning yaratilganligi.

7. Ta'lim-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona va obyektiv baholash, talabalarining bilim va malakalarini egallash jarayonini nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirishga erishilganligi.

8. O'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan obyektiv borliqqa majmuiy yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidir.

Demak, zamonaviy pedagogik texnologiya yuqorida keltirilgan shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbir hisoblanadi.

Bugungi kunda ta'lim talablaridan biri - o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda ta'lim oluvchilarni o'qitishni jadallashtirish sanaladi. Respublikamizda ta'lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashga doir keng ko'lamda ish olib borilmoqda. Ushbu muammoning ilmiy-nazariy asoslari, har bir pedagogik texnologiyaning o'ziga xos jihatlari ishlab chiqilib, yetarli darajada tajribalar to'plandi. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni joriy etishda xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari yaqindan yordam ko'rsatmoqda.

«Pedagogik texnologiya» so'z birikmasi asosida «texnologiya», «texnologik jarayon» tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta'limga esa fan bo'yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Bugungi zamonaviy globallashtirish sharoitida pedagogik texnologiyani tushunish uchun asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak.

3. Bugungi kunda pedagogik texnologiyalarga berilayotgan ta'riflarning tahlili

Bugungi kunda pedagogik texnologiya atamasiga har bir didakt olim o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta'rif bergan. Hali bu tushunchaga to'liq va yagona ta'rif qabul qilinmagan. Ushbu ta'riflar ichida eng maqsadga muvofiq'i YUNESKO tomonidan berilgan ta'rif sanaladi.

Pedagogik texnologiya – ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

Shuningdek, texnologiya deganda, subyekt tomonidan obyektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida subyektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, obyektga yo'naltirilgan aniq maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Yuqorida keltirilgan tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarini intensiv tarzda shakllantiruvchi

ijtimoiy hodisa yoki, boshqacha qilib aytganda o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni deb ta'riflash mumkin. Professor N.Sayidahmedovning fikricha «Texnologiya – bu shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o'zida jo qiladigan va yakuniy natijani ta'minlaydigan pedagogik faoliyatdir». Texnologiya tushunchasi regulativ (tartibga solib turuvchi) ta'sir etish kuchiga ega bo'lib, erkin ijod qilishga undaydi:

- samarador o'quv-bilish faoliyatining asoslarini topish;
- uni ekstensiv (kuch, vaqt, resurs yo'qotishga olib keladigan samarasiz) asosdan ko'ra intensiv (jadal), mumkin qadar ilmiy asosda qurish;
- talab etilgan natijalarni kafolatlaydigan fan va tajriba yutuqlaridan foydalanish;
- o'qitish davomida tuzatishlar ehtimolini loyihalash metodiga tayangan holda yo'qotish;
- ta'lim jarayonini yuqori darajada axborotlashtirish va zaruriy harakatlarni algoritmlash;
- texnik vositalarni yaratish, ulardan foydalanish metodikasini o'zlashtirish va boshqalar.

Texnologiya murakkab jarayon sifatida qator o'qitish bosqichlaridan, o'z navbatida, bu bosqichlarning har biri o'ziga xos amallardan iborat bo'ladi. **Amal** – o'qituvchining guruhda mavzu bo'yicha o'quv elementlarini tushuntirish borasidagi bajargan ishlarining yig'indisi bo'lib, o'qitish jarayonining shu bosqichida tugallangan qismini tashkil etadi. Pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasi hisoblanadi.

Mamlakatimiz olimlari xorijiy mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalari bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy-ma'rifiy aloqalarni o'rnatish boshladilar. Natijada yurtimizga ilg'or va samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. SHular qatori jahondagi progressiv pedagogik texnologiya degan tushunchalar ham kirib, pedagogik jamoatchiligimiz fikrini cho'lg'ab oldi.

Oxirgi yillarda, o'zbekistonlik va hamdo'stlik mamlakatlari olimlari birgalikda ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash va uni o'rganish yo'lida ancha ishlarni amalga oshirishdi. Shu jumladan, mamlakatimiz olimlari bilan Yevropa, Osiyo davlatlari o'rtasida ham innovatsiyalar ishlab chiqish bo'yicha ancha ishlar qilindi.

Pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDHga kiruvchi mamlakatlar ichida birinchilar qatorida har tomonlama ilmiy asoslab bergan Rossiyalik olim V.P.Bespalkoning fikricha, «Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir».

Rossiyalik olim V.M.Monaxov: «Pedagogik texnologiya - avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir», - degan qisqacha ta'rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratadi. «Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta

tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining subyektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi» -deydi.

V.M. Klarinning fikricha, «Pedagogik texnologiya - o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlardan kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashtiradi» - deydi.

V.P. Bespalkoning o'zbekistonlik shogirdlaridan N.Saidahmedov va M. Ochilovlarning fikricha, Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir¹.

I.Y. Larnerning fikriga ko'ra, «Pedagogik texnologiya - o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan, aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi».

1-jadval.

Pedagog olimlar tomonidan pedagogik texnologiyaga berilgan ta'riflar

<i>Pedagog olimlar</i>	<i>PTga berilgan ta'riflar</i>
V.P.Bespalkoning fikricha	«Pedagogik texnologiya o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir»
V.M.Monaxovning fikricha	«Pedagogik texnologiya - avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir»
V.M.Klarinning fikricha	«Pedagogik texnologiya - o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlardan kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashtiradi».
N.Sayidahmedov va M.Ochilovlarning fikricha	«Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir»
I.Y.Larnerning fikriga ko'ra	«Pedagogik texnologiya - o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan, aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi»
B.L.Farbermanning fikricha	«Pedagogik texnologiya - ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ongi ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy xodisadir»
YUNESKO tomonidan berilgan ta'rif	«Pedagogik texnologiya – ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir»

O'zbekistonlik pedagog olim B.L. Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: «Pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga yangicha

¹ Saidahmedov N., Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. -T., 1999. 7-8 bet.

yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ongi ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasi tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir»².

Bu ta'riflarni uzoq xorijda berilgan ta'riflar bilan solishtirib ko'rish uchun yapon olimi T. Sakomoto bergan ta'rifni keltiramiz. «Pedagogik texnologiya - deydi Sakomoto, - bu majmuli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir majmuiga keltirishdir».

Polyak olimi Dj. Bruner «o'qitish texnologiyasi - bu o'qitishni maqbulligini ta'minlovchi ma'lum yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi» ekanligini e'tirof etdi. Tizimli yondashish ta'siri ostida asta-sekinlik bilan pedagogik texnologiya mohiyatiga aniqlik kiritila borildi va rus olimasi N.F.Talzina uning mohiyatini «belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat», deb tushuntirdi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, o'tgan yillarda pedagogik texnologiya o'quv jarayonini berilgan dastlabki ta'lim maqsadi va mazmunidan kelib chiqib loyihalash deya ifodalandi. Bu bir jihatdan to'g'ri, lekin teranroq fikr yuritilsa, uning bir yoqlamaligi yaqqol ko'zga tashlanadi, yoki bunday yondashishda o'quvchi shaxsi inkor etilayapti. Bu kamchilikni birinchi bo'lib akademik V.P. Bepalko payqadi va o'zining yirik asarida «Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonini ifodalash - loyihalashdir», deb ta'rifladi.

Qator yillar davomida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda o'rganib kelindi va u turli faoliyat doirasida edi. Bugungi kunda mutaxassislarining ilmiy salohiyatini birlashtirishga mamlakatimizda keng imkoniyatlar yaratildi. Nazariya va amaliyot birligining ta'minlanayotganligini zamonaviy pedagogik texnologiyaning asl mohiyatini aniqlashga yo'l ochmoqda.

Fikrimizcha, yangi pedagogik texnologiyaga pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida qarash yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim deb qarash mumkin emas. Pedagogik texnologiya bu sohada nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyat yo'nalishlarini aniqlaydi. Bu yerda izlanishning mohiyati - pedagogik tizimni tashkil etuvchi elementlarni o'rganish asosida modernizatsiya qilishdan iborat. Sababi, har qanday o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish u yoki bu pedagogik tizimni aks ettiradi. Demak, pedagogik texnologiya - amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir.

4. Pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanish tarixi

Insoniyat tarixida yashash uchun kurash, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot hayotning kelgusi qirralarini belgilab olishga urinishlar doimo bo'lib turgan. Bu hollar ijtimoiy-gumanitar bilimlar doirasiga yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etgan. Shu bois pedagogik texnologiyaning ham o'z o'tmishi va kelajagi bo'lishi tabiiy holdir.

Bir guruh olimlar pedagogik texnologiya qo'llashini obyektiv jarayon deb, yangicha sifatiy muammolarni yechish uchun ta'limni evolyusion bosqichga ko'tarish shartlaridan biri deb qaradilar (V.P.Bepalko, M.V.Klarin, N.F.Talzina).

«Pedagogik texnologiya» tushunchasining vujudga kelishi, ta'limning ilk tashkiliy va metodik shakllarining vujudga kelishi bilan bog'liq. Individual ta'lim o'quv-tarbiya jarayonining eng qadimiy tashkiliy shakli bo'lib, u avval antik Gresiyada paydo bo'lgan ekan. O'qituvchi bir o'quvchi bilan ishlab, ta'limni bevosita tashkil etgan, boshqargan, nazorat etgan, o'qituvchi matnlarni o'qib bergan yoki bolalarning o'zlariga o'qitib so'zlashga o'rgatgan. Qoida va ta'riflarni yodlash, jismoniy mashqlarni bajarish, musiqa asboblari u yoki bu kuyni ijro etish yo'llari bilan bolalar hayot, san'at, notiqlik, jismoniy madaniyatga doir bilimlarni o'zlashtirgan.

Keyinchalik individual ta'lim o'rni guruhlar asosida o'qitish egallagan. O'rta asrlarga kelib qoidalarni yodlash, bir xil tipdagi mashqlarni bajarish, og'zaki savol-javob, yuqori pog'onalarda esa ma'ruza, munozara ta'limning yetakchi usullariga aylana boshlagan. Bu holat asta-sekin sinf-dars tizimini keltirib chiqarib yangi texnologiyani kelib chiqishiga zamin hozirlagan.

XX asrning 30-yillarda fanga pedagogik texnika tushunchasi kirib keldi. Bu tushunchaning kirib kelishiga 1932-yil 25-avgustda qabul qilingan «Boshlang'ich va o'rta maktablarning o'quv dasturlari va ish tartibi haqida»gi o'sha davr hukumatining qarori sabab bo'ldi.

30-yillargacha maktablarda brigada-laboratoriya metodida darslar olib borilgan. Shu yillarda maktab dasturlarida nazariy bilimlarga e'tibor kuchaya boshladi. Shu bilan birga, ko'rgazmalik, amaliyotga suyanish, ilg'or tajribalar yoki usullar o'rganilib shular asosida ta'limni tashkil etishga e'tibor qaratildi. O'sha vaqtda o'qitish jonli mushohadadan-abstrakt tafakkurga, undan esa amaliyotga degan bilish nazariyasining g'oyasiga asoslangan edi. Shu asosda pedagogik texnologiya tushunchasi g'oyasi shakllana bordi.

Pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanish tarixi quyidagi mazmun kashf eta bordi. Sobiq SSSRda 1965-yili maktab jihozlari va o'qitishning texnika vositalari ilmiy tadqiqot instituti tashkil etildi.

1932-yil 25-avgustda maktablar to'g'risida fikr yuritilgan qaror asosida, texnika vositalarining yaratilishi va ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi boshlandi.

Asrimizning 40-50-yillarida o'quv jarayoniga texnik vositalarning (radio, kino, nazorat vositalari) joriy etilishi pedagogik texnologiyalarga tenglashtirildi. O'quv-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish ishning optimal variantlaridan foydalanishni taqozo etadi. Maktabda o'quv-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish uchun avvalo maktab faoliyatining butun jabhalarini qamrab oluvchi o'ylab tuzilgan maktabning yillik ish rejasi zarur.

Pedagogik va hozirgi ijtimoiy tizim buyurtmalarini amalga oshirish rejalashtirishdan boshlandi. Keyin shu reja asosida pedagogik jarayonning tuzilmalariga e'tibor berildi. Bu jarayonda eng muhim mazmun, uni amalga oshiruvchi ta'minot, vositalar, aniq tadbirlar, darslar belgilanishi va uning bajarilishini to'g'ri ta'minlash katta samaradorlikka olib keldi. Ishni ilmiy asosda

² Farberman V.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T., 1999. - 4 bet.

tashkil etish “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning maqsad va vazifalarini to’liq ro’yobga chiqarishga xizmat qilishi kerak.

G’arb davlatlarida pedagogik texnologiyalar ta’lim-tarbiya jarayoniga kirib kelishi natijasida juda katta fan va texnikaning rivojlanish holatlari sodir bo’ldi. Natijada pedagogik texnologiya ishi, uning mazmun, mohiyatini tashkil etish metodlari, reyting natijalari bilan shug’ullanadigan alohida markazlar tashkil etildi.

1960-yillardan keyin maktablarimizga o’quv jihozlari, o’qitishning texnik vositalari kirib kela boshladi. Bu davrga kelib PT (pedagogik texnologiya) ikki yo’nalishda rivojlandi:

birinchi yo’nalish - o’qitishning texnik vositalarini qo’llash orqali bo’lsa; ikkinchi yo’nalish - o’quv jarayoni texnologiyasi sifatida qaraldi. PT-amaliyotga joriy etish mumkin bo’lgan ma’lum pedagogik tizim loyihasidir.

So’nggi yillarda mamlakatning innovatsion salohiyatini yanada rivojlantirish uchun kulaq shart-sharoitlarni yaratishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga, ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirish va uni har tomonlama qo’llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Yosh olimlar va talabalarga dunyo amaliyotidagi ilg’or ilmiy-tadqiqot usullarini va zamonaviy texnologiyalarni o’zlashtirishlari uchun va zamonaviy innovatsion infratuzilma va qulay sharoitlarni yaratish maqsadida «Yuqori texnologiyalar o’quv-eksperimental markazi» davlat korxonasi (keyingi o’rinlarda - Yuqori texnologiyalar markazi) tashkil etildi.

O’tgan davr mobaynida Yuqori texnologiyalar markazining moddiy-texnik salohiyatini mustahkamlash va ilmiy tadqiqot faoliyatining samaradorligini oshirish bo’yicha amaliy chora-tadbirlar ko’rilmogda. Ayni vaqtda mamlakatda innovatsion faoliyat rivojlanishining hozirgi holati va asosiy yo’nalishlari samarali innovatsion texnologiyalarni qo’llash bilan bog’liq bo’lgan va jahon standartlari darajasida mahsulot ishlab chiqarishga imkon beruvchi ishlanmalarga ega, iqtisodiyotning ilmiy hajmdor tarmoqlaridagi yuqori texnologik korxonalarni har tomonlama qo’llab-quvvatlashni talab etadi¹.

Mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim xizmatlarining ochiqqligi va sifati masalalariga davlat tomonidan alohida e’tibor qaratilmogda. O’tgan yillarda ta’lim jarayonini modernizatsiyalash va mazmunini yangilashni ta’minlash maqsadida uning huquqiy bazasini mustahkamlash bo’yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi, iqtidorli yoshlarning xalqaro va respublika olimpiadalari hamda tanlovlarda salmoqli natijalarga erishishlarida ularni manzilli qo’llab-quvvatlash bo’yicha qator tizimli chora-tadbirlar ko’rildi.

2017/2018-o’quv yilidan boshlab 11 yillik majburiy umumiy o’rta ta’lim tizimiga o’tilishi jamoatchilik, ota-onalar va 9-sinflar bitiruvchilari tomonidan keng qo’llab-quvvatlandi.

Ilg’or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash uchun

¹ O’zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida “Ilg’or texnologiyalar markazini tashkil qilish to’g’risi”da PQ-3674-son, 2018- yil 19- aprel.

shart-sharoitlar yaratish, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari bandligini ta’minlash, shuningdek, 2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish maqsadida: 2018/2019 o’quv yilidan boshlab majburiy umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’lim umumta’lim maktablarida, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan maktablarda, ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktab-internatlarida, ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatlarida hamda akademik litseylarda uzluksiz va 11 yillik muddatda amalga oshirilishi belgilandi². So’nggi yillarda Respublikada ilmiy va innovatsion faoliyatni qo’llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash va isloh qilish bo’yicha tizimli ishlar olib borilmogda, iqtidorli yoshlarni nufuzli milliy va xalqaro musobaqalarda hamda tanlovlarda salmoqli natijalarga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e’tibor qaratilmogda.

Mamlakatimizda yosh iste’dod sohiblarining ilmiy-ijodiy faolligini qo’llab-quvvatlash borasida ko’rilayotgan maqsadli chora-tadbirlar natijasida umumta’lim maktablari, akademik litsey o’quvchilari va oliy ta’lim muassasalari talabalari har yili respublika va xalqaro fan olimpiadalari qatnashib keladilar. Bakalavriat va magistratura talabalari, tayanch doktoranturada tahsil olayotgan izlanuvchilar uchun O’zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari ta’sis etilgan. Bakalavriat bosqich talabalari orasida Beruniy, Navoiy, Ulug’bek, Ibn Sino, Imom al-Buxoriy va Islom Karimov nomidagi 6 ta davlat stipendiyalariga tanlovlar o’tkazib kelinadi. Maktab, litsey, oliy o’quv yurtlarida tahsil olayotgan 14 yoshdan 30 yoshdan oshmagan yorqin iste’dod sohibalari uchun Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga tanlovlar o’tkazib kelinmogda³.

Bugungi kunda pedagogika fani erkin shaxsni shakllantirish qonuniyatlari yoshlar shaxsini hayotga moslashtirishning shakl va metodlari, mazmun va prinsiplarini o’rganadi. Pedagogika mutloq texnologik fandır. U ta’lim doirasining barcha qatlamlarini qamrab oladi. Pedagogik texnologiya tizimi loyihalari quyidagicha yo’nalishda olib borilmogda:

- didaktik birliklarni yiriklashtirish;
- o’qitish natijalarini oldindan belgilash, rejalashtirish;
- ta’lim jarayonini psixologiyalashtirish;
- kompyuterlashtirish.

Bu yo’nalishlar ta’lim-tarbiya maqsadlarini yechishga qaratilgan holda yaxlitlashtirilsa yoki integral holda keltirilsa natijada yangi pedagogik texnologiya vujudga kelgan. Bu integral texnologiya-yunoncha bir butunlik uzluksizlik ma’nosini beradi.

Ilmiy yondashuvlar tahlili.

Pedagogik texnologiyalarni ishlatishda quyidagilarga e’tibor beriladi:

² O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o’rta, o’rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni. 26.01.2018.

³ Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ilmiy-ijodiy faoliyatini qo’llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida ID-2805, 14.03.2019.

1) dunyoda mavjud bo'lgan pedagogik texnologiyalar bankini tuzish, ularning ilmiy konsepsiyalari, o'quv-metodik bazalarini, algoritmlarini o'rganish;

2) maqsaddan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyani tanlash, mezonlarini ishlab chiqish;

3) pedagogik texnologiyani o'qitish-tarbiyalash jarayoniga tatbiq etish mexanizmini ishlab chiqish.

Pedagogik texnologiyani tanlashda quyidagilarga e'tibor beriladi:

1) aniq bosqich uchun mazkur usulning mos kelishi;

2) ta'lim mazmuniga mos kelishi;

3) o'qituvchilarning mazkur usulni qo'llab olishga tayyor ekanligi;

4) o'quvchilarning psixologik imkoniyatlariga mos kelishi;

5) aniq sinflarda tarkib topgan o'quvchilar guruhining o'ziga xos tomonlarini hisobga olish;

6) mamlakat, viloyat, tuman, shaharning maktabga bergan ijtimoiy buyurtmasini aks ettirgan davlat hujjatlariga mos kelishi;

7) o'qituvchilarning kasbiy mahorati, intuisiyasi, ijodkorligi;

8) aniq maktabning rivojlanish jarayonida faoliyatining tahliliga tayanishi;

9) texnologiyada tizim barqarorligi, bir butunligi;

10) texnologiyada diagnostik tahlil mavjudligi, texnologiyani boshqarish mumkinligi;

11) yangi texnologiyaning samaradorligini mavjud natijalar bilan solishtirish imkoniyati borligi;

12) takrorlanuvchanligi, boshqalar ham qo'llab birday natija olishi.

Pedagogik texnologiyani amaliyotga qo'llash mexanizmi quyidagilarga asoslanishi kerak:

1. Ta'lim berishning bir butun texnologiyasini loyihalash;

2. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun pedagogik jarayonni yaratish;

3. Pedagogik jarayon davrida diagnostik tahlilni o'tkazish va natijalarini o'z vaqtida korreksiya qilib borish;

4. Pedagogik jarayon davrida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etish tizimini ishlab chiqish;

5. Pedagogik texnologiya loyahasini amalga oshira oladigan pedagoglarni shakllantirish.

II bob. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILMIIY-METODIK ASOSLARI

Reja:

1. Pedagogik texnologiyalarning turlari.

2. O'qitishning mazmunli qismi, o'qitish maqsadlari.

3. Ta'lim texnologiyasining bosqichlari.

4. Ta'lim-tarbiyaga texnologik yondashuv.

5. O'quv jarayonining diagnostikasi.

1. Pedagogik texnologiyalarning turlari

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida ta'lim-tarbiya jarayonida ko'plab yondashuvlar mavjud, pedagogik texnologiyalarning xarakteri ana shu yondashuvlardan kelib chiqadi. Shunga qaramay ko'pgina pedagogik texnologiyalar mazmuni, maqsadi, metodlari va vositalariga ko'ra bir-biriga o'xshash, ularning ana shu o'xshash xususiyatlariga qarab ularni bir necha turga ajratish mumkin.

Qo'llanilishiga, qamrov hajmiga (mashtabiga) ko'ra ular uch guruhga ajratiladi:

1. Umumiy pedagogik texnologiyalar.

2. Xususiy pedagogik texnologiyalar.

3. Modulli kichik universal texnologiyalar.

Umumiy pedagogik texnologiyalar o'z ichiga yirik texnologiyalarni, ya'ni butun ta'lim tizimiga tegishli masalalarni qamrab oladi. Masalan, oliy ta'lim muassasalariga baholash tizimiga o'tish, test sinovlariga o'tish shular jumlasiga kiradi.

Xususiy pedagogik texnologiyalar esa ma'lum fan doirasida qo'llanilishi mumkin va qulay texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Masalan: pedagogika, iqtisodiyot fani uchun qulay bulgan texnologiyalarni ishlab chikish.

Modulli kichik universal texnologiyalar biror refleksi rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, turli fanlarni o'rganishda ishlatilishi mumkin bo'lgan texnologiyalardir. Masalan: didaktik o'yinlar, fikrlashga o'rgatuvchi texnologiyalar. Ular universal xarakterda bo'lib, ko'p vaqt talab etmaydi. Masalan: didaktik o'yinli texnologiyalar.

Falsafiy dunyoqarash o'z navbatida ta'lim-tarbiya tizimiga yondashuvda ham o'z aksini topadi. Diniy dunyoqarash o'ziga xos ravishda ta'lim-tarbiya jarayonini talqin etadi, idealistik dunyoqarash o'ziga xos ravishda ta'lim-tarbiyaning mazmun mohiyatini ochib beradi. Materialistik dunyoqarash ta'lim-tarbiya ishini tashkil etishda materialistik nuqtai nazardan yondashadi (U inson shaxsini moddiylik sifatida qabul qilsa, idealistik dunyoqarash insonni jon, tan, ruh kabi qismlarini tan olgan holda yondashadi). Ilmiy dunyoqarash esa ilmiy kashfiyotlarga asoslangan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tahlil etishga qaratiladi. Demak, har bir jamiyatning qabul qilgan dunyoqarashi ana shu jamiyatda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga bevosita ta'sir o'tkazadi.

Falsafiy jihatdan texnologiyalar quyidagi guruhlarga ajratiladi: materialistik, idealistik, ilmiy, diniy, erkin, gumanistik, majburiy.

Demak, pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishda ma'lum bir falsafiy dunyoqarash hukmronlik qiladi va ana shu qarash o'z aksini pedagogik texnologiyalarda topadi.

2. O'qitishning mazmunli qismi, o'qitish maqsadlari

Pedagogik texnologiya: ta'lim texnologiyasi, yangi pedagogik tajriba, yangi pedagogik texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiya, axborot texnologiyasi, yangi tajriba kabilar ta'lim-tarbiya metodlari tushunchalarini qamrab oladi. Demak, pedagogik texnologiya didaktik vazifalarni samarali amalga oshirish, shu sohada maqsadga erishish yo'li bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarining ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli darajada. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim deb qarash mumkin emas. Zamonaviy pedagogik texnologiya bu sohada nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi. Avvalo, zamonaviy pedagogik texnologiya nimani anglatadi?

1. Zamonaviy pedagogik texnologiya o'quv-tarbiya jarayoni uchun loyihalangani va belgilangan maqsadni yechishga qaratiladi. Har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab beradi va shunga mos holda ma'lum bir pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi. Maqsadi esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.

2. Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib boryapti va ilg'or pedagogik texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, audial vositalar ham mavjud bo'lib, ular ilg'or pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantirdi.

Ilg'or pedagogik texnologiya mohiyat-e'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalar qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Biroq zamonaviy pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati – tarbiya komponentlarini mujassamlashtir-ganidir.

Pedagogik texnologiya boshqa sohalaridagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirish tarixiy voqelik va jarayondir. Axborotlashtirish bu jarayondagi inqilobiy burilish va uning muhim bosqichidir. Oddiy til bilan aytganda, ta'lim

tizimida axborot texnologiyasi – bu «o'quvchi yoki talaba–kompyuter» o'rtasidagi muloqotdir.

Axborotli texnologiya pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim jarayonida texnik vositalarning mukammallashgan zamonaviy turi sifatida qo'llana boshlandi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lgan. Hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, «sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, xomashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ortiq bo'ldi, yani axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar va xususan, yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rin egallamoqda.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishida aqliy mehnat vositalarining o'zgarishi bilan bog'liq ikkita axborot inqilobi hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi. Birinchi inqilob kitob bosishning paydo bo'lishi bilan ro'y berdi va telefon, telegraf, radioning ixtiro qilinishi bilan chuqurlashdi. Ikkinchi inqilob EHMlarning paydo bo'lishi va tez tarqalishi, EHM lokal tarmoqlarining yaratilishi, axborot resurslarini boshqarish tizimlarining tashkil etilishi bilan bog'liqdir. Shu bois yaqin kelajakda respublikamizdagi mavjud barcha o'quv yurtlari dasturli mashinalar bilan yetarli darajada ta'minlash muammosi paydo bo'ldi. Shundagina axborotli texnologiya asosida talabalarining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug'iladi va u o'qituvchining yaqin ko'makdoshiga aylanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash avvalo pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalashni talab etadi. Chunki, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashuvini amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo'lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlik, ta'lim oluvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod bilan shug'ullanishi va o'zini o'zi rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratadi. Mazkur jarayonda talaba o'z o'quv faoliyatining subyekti sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda yagona ta'lim jarayonining subyekti - ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etadi.

3. Ta'lim texnologiyasining bosqichlari

Ta'lim taraqqiyotining yangi bosqichida pedagogik texnologiya tushunchasining kirib kelishi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov asarlarida pedagogik texnologiya zaruriyatiga doir masalalar bayoni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'limning yangi modeliga o'tish va uning o'ziga xos birliklari haqida ko'plab gapirilgan.

Pedagogik texnologiyaning tarixi, kelib chiqishi nazariyasi.

Texnologiya tushunchasining vujudga kelishi. Texnik tushuncha takomillashishi, xorijiy mamlakatlarda pedagogik texnologiyani tashqi jarayonida

(Rivojlangan mamlakatlar: Angliya, AQSH, Yaponiya, Koreya, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Xitoy) takomillashtirish masalalari.

Pedagogik texnologiyaning umumiy muammolari.

Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari. Pedagogik texnologiyaning doimiy, tarixiy va nazariy asoslarini vujudga kelishi ilmiy jarayon sifatida. Pedagogik texnologiya o'quv predmeti va fan sifatida «Pedagogik texnologiya», «Ta'lim texnologiyasi», «Texnika», «Mahorat», «Axborot texnologiyasi», «Ta'lim metodlari», «Tarbiya metodlari» tushunchalari va ularning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, bir-biri bilan aloqadorligi «Pedagogik texnika» va «Pedagogik texnologiya» tushunchalarining o'ziga xosligi. Umumpedagogik tushunchalar tizimida texnologiya muammosiga ilmiy yondashish. Pedagogik texnologiyaga va pedagogik faoliyat, o'qituvchi professiogrammasi nuqtai nazaridan qarash pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Pedagogik texnologiyani ta'lim jarayonida qo'llash.

Pedagogik texnologiyaning tarkibiy mazmuni, kasbiy holat sifatida paydo bo'lishi.

Pedagogik texnologiyaning umumiy tavsifi va uning tarkibiy mazmuni. Birlikning ko'plik bilan aloqasi. Tarkibiy mazmunning nazariy modeli va uning amaliy obrazi. «Funksiya» va «Operatsiya» kabi kategoriyalarning texnologik mazmuni. Asosiy (tayanch) texnologik elementlar, qo'shimcha texnik elementlar loyihasi.

Pedagogik texnologiyaning tamoyillari.

«Tamoyil» tushunchasi pedagogik texnologiyaga va pedagogik ta'sir etishga nisbatan pedagogik texnologiya tamoyillarining manbalari: pedagogik ta'sir etishning maqsadi, mohiyati ta'lim tamoyili va pedagogik texnologiya tamoyillari: izchillik, maqsadlilik, umumiylikning tugalligi, ko'rgazmaning teskari aloqasi kafolatlanganligi va hokazolar.

Pedagogik ta'sir etish vaqtida o'quvchiga orientatsion aloqada bo'lish, shaxsiy o'ziga moslikni tan olish. O'qituvchi shaxsi va tarbiyalanuvchi shaxsining bir-biri bilan bog'liqligini namoyon bo'lish tamoyillari.

Pedagogik texnologiya tamoyillari bir-biri bilan bog'liq jihatlari, ta'lim berish haqida pedagogik ta'sir etishda ularning bir-biridan ajratib bo'lmasligi.

Pedagogikaning kasbiy pozitsiyasi va uni amalga oshirish texnologiyasi. Pedagogik texnika pedagogik texnologiyani amalga oshirish usuli. Nutq texnikasi haqida tushuncha va uning pedagogik ishdagi ahamiyati. O'qituvchi nutqiga kasbiy talablar: ovoz kuchi, moslashishi, egiluvchanlik, harakatchanlik, diapozon ovoz hajmi, ifodalilik va hokazolar. Diksiya (Diksiya – aniq talaffuz etish) rivojlantirish mashqlari.

Nutq ritmikasi. Pauzaning psixologik va mantiqiy ahamiyati, O'qituvchining so'zlash tezligi.

O'qituvchi nutqiga talab: usul, to'g'rilik, tozalik, atamalarni aniq talaffuz etish. Nutq madaniyati va tinglash madaniyati, milliy harakat texnikasi. Pantomimika texnikasidan foydalanish. O'qituvchining tashqi ko'rinishi «Psixologik o'zini

boshqarish» yo'llari. Pedagogik kasbiy faoliyatida psixologik o'z-o'zini boshqarishning ahamiyati.

Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari:

1. Pedagogik texnologiyada o'qituvchining o'quvchi-talabalar bilan o'zaro muloqoti.

Muloqotning vazifalari:

Shaxsni tanish, axborot almashish. Kelgusi pedagogik muloqotni modellashtirish va tahlil etish. Muloqotdan olgan tasavvurlari, sherigiga baho berish, bo'lib o'tgan muloqot yuzasidan fikrlash. Pedagogik muloqotni tashkil etish texnikasi. Ijodiy yondashish.

2. Pedagogik talab texnologiyasi.

«Pedagogik talab» tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari, xulq-atvor va ijtimoiy madaniy qoidalarning namoyon bo'lishi. Talabaga, bola shaxsiga bo'lgan hurmat va talab. Pedagogik talabning psixologik tamoyillari va mezonlari.

3. Baholash texnologiyasi. Pedagogik baho va belgilash.

a) Xatti-harakatlardan qolgan taassurot: voqelikni, obyekt va subyektni qabul qilish.

b) Baho berish usullarini tanlash (o'qituvchi o'z imkoniyatlarini tahlil etishi, ta'sir samaradorligini oshirishi).

v) Pedagogik baholash texnologiyasi.

4. Axborotli ta'sir ko'rsatish texnologiyasi.

a) Nutqiy axborot berish «Demonstratsional axborot berish» tushunchalari. Demonstratsion va ko'rgazmali axborot olish vositalaridan biri sifatida.

b) Plostin obraz texnologiyasi - ta'sir etish vositasi sifatida. Plostin obraz texnologiyasi «Ochiq» toza, balans «Diagonal» va «Vertikal» optimal oraliq.

v) Nutqiy ta'sir etish: «Suhbat», «Hamkorlik», «Tezis» argument ko'rgazma obrazi.

g) Nutqiy ta'sir etish texnologiyasi: Improvizatsiya.

d) Demonstratsion va ko'rgazmali vosita: yetik, iqtisodiy, estetik, gigiyenik materiallar. Qabul qilishning fiziologik va psixologik xususiyatlari demonstratsiya qilish texnologiyasi.

5. Pedagogik materillarni yaratish va uni yechish texnologiyasi.

a) Pedagogik konflikt tushunchasi - konflikt pedagogik texnologiya elementi sifatida, konflikt subyektlari orasida qarama-qarshiliklar tavsifi sifatida, bo'sh va mazmunli konflikt.

b) Holat tahlili (voqeani aniqlash, she'riyatni qarab chiqish)

v) Konfliktni ochish (psixik ko'tarishini pasaytirish, ikki tomonlama qoniqishning vujudga kelishi)

g) Konfliktning xilma-xilligi (norozilik, qarshi chiqish)

d) Konfliktni yechish shakllari (yumor, hazil, toifa)

Pedagogik texnologiyaning qo'shimcha elementlari.

1. Psixologik muhit yaratish texnologiyasi.

a) «Vaziyat», «Psixika» tushunchalari. Ijtimoiy psixologik muhit guruhiga ijtimoiy psixologik aloqalar yig'indisi sifatida qarash.

- b) «Holat» tushunchasi. Guruhda muhit bilan atmosferaning mosligi.
- v) Guruhda muhitni aniqlovchi munosabatlar (shaxsga, ishga, guruhga, voqelikka)
- g) Xayrixohlik - muhitga pedagogik baho berish mezoni. Psixologik muhitning ta'sir etish vositalari: musiqa, dizayn, diqqat, belgilari, interer, tabiat.
- d) Baholashning texnik va texnologik qonunlari.
- e) Muhit va an'analar.
- yo) Guruh psixologik muhitning asosiy shakli.
- 2. Guruh faoliyatini tashkil etish texnologiyasi.**
- a) Faoliyat munosabatining namoyon bo'lishi. Predmetli tarbiyaviy natija.
- b) Guruhli faoliyatni tashkil etishda o'qituvchining vazifalari (fanni chuqur bilishi, o'quvchining fikrini rivojlantirish)
- v) Birgalikda va alohida olib boruvchi faoliyat va uni amalga oshirish mexanizmi.
- 3. Muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsiz holatlarni tashkil etish texnologiyasi.**
- a) Faoliyat va shaxs rivojida «Muvaffaqiyatli holat» tushunchasi. O'quvchining ta'lim olishdagi xususiyati va uning muvaffaqiyatli natija olishdagi ta'siri. Muvaffaqiyatli holatlarni vujudga keltirishda psixologik muhitning ahamiyati.
- b) Muvaffaqiyatli holatlar yaratish texnologiyasi: qo'rqishni yo'qotish yashirish instuisiya, motivlarni olib kirish, faollikni rivojlantirish.
- v) «Muvaffaqiyatsiz holat» tushunchasi, uning jamiyatda tutgan o'rnini, o'qitishi, faoliyatning cheklanganligi, yordam so'raganga qarshilik, pedagogik ishtirish, o'quvchilarning past bahosi va hokazolar.
- 4. O'quvchining xatti-harakatiga pedagogik reaksiya qilish texnologiyasi.**
- a) Xatti-harakatlarga pedagogik reaksiya qilishda pedagogik texnologiyaning qo'shimcha va asosiy elementlari, harakat ularning umumiy va farqli jihatlari.
- b) Pedagogik funksiyalar: hatti harakatlarini pedagogik interprita-siyalash, [atti-harakatlarini ijtimoiy me'yorlari asosida qiyoslash, taqqoslash negizi xatti-harakatlarni tahlil etish.
- 5. Xulq odobi yomon bolalar bilan ishlash texnologiyasi.**
- «Xulq odobi murakkab», «yomon bolalar», «xulq odobi» tushunchalarining ahamiyati. Murakkab xatti-harakat belgilari, unga reaksiya qilish texnologiyasi variantli xilma-xillik va pedagogik mahorat. Texnologik algoritmi ishlab chiqishga kasbiy pedagogik faoliyat munosabati.
- 6. Etik himoya texnologiyasi.**
- a) Shaxsning hurmatini himoya etish usullari xilma-xilligi, himoya etish, etik himoya etish spetsifikasi va vazifalari. Bolalar bilan ishlashda etik himoya qilishning ahamiyati.
- b) Etik himoya qilish funksiyalari: shaxsiy hurmatni joyiga qo'yish, sherigining huquqini yo'lga solish, ushbu funksiyani operatsion ta'minlash. Etik himoyani ta'minlovchi qo'shimcha operatsiyalar.
- v) Etik himoyalashning funksiyalari va operatsiyalarini amalga oshirish.
- 7. Muammoli vaziyatlar yaratish texnologiyasi.**

a) «Muammoli vaziyat» tarbiyaviy didaktik kategoriya sifatida. Muammoli vaziyatning turlari va ularni amalda qo'llash.

b) Muammoli vaziyatni yaratishda pedagogik vazifalar va ularni operatsion ta'minlash, muammoli vaziyatni yaratishda texnologik operatsiyalarni amalga oshirish.

v) Muammoli vaziyat o'qituvchining o'quvchi bilan ishlashda tarbiyaviy vosita sifatida, bunda o'quvchining real darajasini hisobga olish va kelajakni ko'zlash.

8. Pedagogik vosita texnologiyasi.

a) Tarbiya jarayonida pedagogika vosita texnologiyasi. Pedagogika vosita texnologiyasining xilma-xilligi, uning o'quvchi shaxsining shakllanishidagi va uning madaniyati rivojidadagi ahamiyati.

b) Predmetni tarbiya vositasiga aylantirish mexanizmi. Moddiy va ma'naviy vosita.

v) Vosita, g'oya shakllarni, integratsiyalash asosida o'quvchilar bilan ishlashda tarbiyaviy o'yinlarni yaratish texnologiyasi.

9. Pedagogik improvizatsiya texnologiyasi.

a) Pedagogik faoliyatda improvizatsiyaning mohiyati, «improvizatsiya» tushunchasi, «pedagogik improvizatsiya» tushunchasi. Pedagogik improvizatsiya va pedagogik ta'sir etishning ijodiy mazmuni. Aktyorlik va pedagogik improvizatsiya, ularning o'xshash va farqi jihatlari.

b) Pedagogik improvizatsiya jarayonida ekspress-tahlil. Pedagogik improvizatsiyada instruksiyaning roli.

v) Pedagogik improvizatsiyaning texnologik algoritmi. Pedagogik improvizatsiyaning natijalari. Pedagogik improvizatsiyaning operatsion ta'minlanganligi texnologik algoritimiga erishishga doir trening.

Umuman, pedagogik texnologiya kursini o'tishda ma'lum qiyinchiliklar vujudga keladi. Tinglovchilarda anglashilmovchilik kelib chiqmasligi uchun «Pedagogik texnika» va «Pedagogik texnologiya» tushunchalari mazmunini tushuntirish alohida e'tiborga loyiqdir.

Ushbu mavzuni o'qitishda talabalarga ta'lim tizimidagi yangiliklar haqida, pedagogik texnologiya: tahlil, ta'rif, mulohaza, ta'limda texnologik yondashish variantlari, pedagogik texnologiyalarning turkumlanishi, ta'lim texnologiyalarning boskichlari va uning metodikasini ishlab chiqish haqidagi masalalarga asosiy e'tiborlarini qaratish maqsadga muvofiq.

4. Ta'lim-tarbiyaga texnologik yondashuv

YUNESKO tomonidan tan olingan pedagogik texnologiya oqimi 30-yillarda AQSHda paydo bo'ldi va 1970-1980-yillarda barcha rivojlangan mamlakatlarni qamrab oldi.

Ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'quv jarayoniga texnologik yondashuvni joriy etish uchun 1950- yillarda birinchi urinishlar qilib ko'rilgan. Ular o'z ifodasini an'anaviy o'qitish uchun mo'ljallangan majmualar texnik vositalarning yaratilishida namoyon qiladi.

Hozirgi vaqtda “pedagogik texnologiya ta’lim berishning texnik vositalari yoki kompyuterdan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmay, balki bu ta’limiy samaradorlikni oshiruvchi omillarni tahlil qilish orqali, o’quv usullarini tuzish hamda qo’llash, shuningdek qo’llanilayotgan usullarni baholash orqali ta’lim jarayoni tamoyillarini aniqlash va eng maqbul yo’llarini ishlab chiqish maqsadidagi tadqiqotdir” degan fikr ilgari surilgan (Mejdunarodny egegodnik po texnologii obrazovaniya i obucheniya, 1978/79. London, Nyu-York, 1978).

O’tgan asrda pedagogik amaliyotda yangi usul va vositalarini jadal tatbiq etilayotganligini kuzatish mumkin. Biroq ba’zi ta’lim shakllari va faol usullari o’rniga ta’limiy texnologiyalar zarur. Lekin ta’limiy jarayonni texnologiyali loyihalashtirish va rejalashtirishni, faqat texnologik bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lgan o’qituvchi-pedagog bajara olishi mumkin.

Texnologik bilimlar tizimi quyidagi tashkil etuvchilardan iborat:

➤ *tushunchaga oid qism* - texnologiyalashtirishning murakkabroq bo’lgan toifa va qoidalarini o’rganishga yo’l;

➤ *ta’lim texnologiyasining tarkibiy qismi va harakatlanuvchi tuzilma* - ta’lim jarayonini bashoratlash va loyihalashtirish asosi to’g’risida tushuncha;

➤ *ta’limiy texnologiyalarning konseptual asoslari* - har qanday ta’lim texnologiyasi negiziga pedagogik va psixologik fanlar yutug’ida ifodalangan pedagogik g’oya asos bo’ladi;

➤ *maqsadni belgilash* - pedagogik vazifalar aniqlangan bo’lsa va o’quv faoliyatining yakuniy natijalari bir ma’noda ifodalangan bo’lsa, boshlanish shartlari ma’lum bo’lsa, ta’lim jarayonini loyihalashtirish mumkin;

➤ *ta’lim berish modeli* – maqbul yo’l (usul va shakl)lar va vositalar yig’indisi - mavjud sharoitlar va belgilangan vaqtda obyektning boshlang’ich holatini o’zgartirish bo’yicha ko’zlanayotgan natijalarga erishish kafolati;

➤ *boshqaruvning yo’l va vositalar yig’indisi* - bashoratlash, loyihalashtirish, rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat va baholash, shuningdek tezkor o’zgartirish to’g’risida boshqaruv xulosasini qabul qilish maqsadida ta’lim jarayonini uzluksiz va muntazam kuzatish - monitoring.

➤ *Har bir yo’l va vosita o’qituvchi-texnolog tomonidan, u intilayotgan, yakuniy natijaga erishishga sezilarli qo’shgan hissasi orqali baholanishi zarur.* Qoidaning maqbulligini talqin qila turib, e’tiborni nafaqat unga, uni qo’llashni nazarda tutuvchi vaziyat yoki sharoitlarga qaratish zarur. Gap shundaki, qoidalar odatda formula emas, boshqaruv xususiyatiga ega bo’ladi, modomiki ularni qo’llash mumkin bo’lgan ta’lim jarayoni sharoitida ayrim noaniqliklar bor. Bundan tashqari, avvalda shu narsani o’quv vaziyatida qo’llab, muvaffaqiyatga erishgan o’qituvchi-amaliyotchi yoki hammaga ma’lum bo’lgan ta’lim berish texnologiyasining muallifida, shuni qoidasiz umumlashtirishdagi xatoliklar tarqalgan. Mohiyat shundaki, barcha turli-tumanlikdan mavjud sharoitda va o’quv rejasida berilgan vaqtda ko’zlanayotgan natijaga erishishni kafolatli ta’minlaydigan, so’ngra esa undan shu sharoit uchun mos keladigan, ta’lim berish texnologiyasining - yagona majmuini loyihalashtirish mumkin bo’ladigan, axborot, muloqot va boshqaruvning shunday yo’l va vositalarini baholashi, farqlashi va tanlashni uddalashi muhim.

➤ Mashhur marketolog Dj.O. Shonessining “...*kitoblar hech qachon tajriba o’rnini bosa olmaydi* degan fikriga qo’shilish mumkin. Mahoratli oshpaz, oshpazlik to’g’risida kitob yozishi mumkin, uni tayyorlash yo’liga amal qilib, xuddi shunday chiqishini kutmaslik kerak, chunki uning mahorati bilan taqqoslab bo’lmaydi - berilgan qoidani ishlatib muhim ko’nikma va malakalarga ega bo’lish mumkin emas, ular faqat amaliyotda egallanadi va “qo’llaniladigan donishmandlik” deb ataluvchi amaliyotli donishmandlik bilan mustahkamlanadi, yani vaziyat bilan muvofiqlikdagi donishmandlik” (Dj.O. Shonessi, 2000).

➤ Ushbu qo’llanma bilan tanishganingizdan so’ng, shu zahoti umidsizlikka tushmang, siz shu zahoti ta’lim berish texnologiyasini loyihalashtira olmaysiz. SHuni esda saqlangki, qo’llaniladigan donishmandlik kitob bo’yicha formulalarni o’rganishda emas, balki haqiqiy ishni bajarganda hosil bo’ladi (Dj.O. Shonessi, 2000).

➤ “Ta’lim jarayonini ixtiyoriy qurish va amalga oshirishdan, uning har bir qism va bosqichlarini izchil asoslangan, yakuniy natijani haqqoniy tashxislashga yo’naltirilgan” ga o’tish uchun asos zarur (V.P.Bespalko, 1989).

➤ Agarda siz ta’lim jarayonini texnologiyalashtirishga o’tish muhimligini anglamas ekansiz, unda “biz yangi texnologiyalarning yutuqlarini bermaylik, paydo bo’lgan muntazamlik mexanizmini chiqarib tashlay olmaydi, yo bo’lmasa majbur qilingan texnologiyalar ziyonli natijalarni ko’paytirishi mumkin”.

➤ Nihoyat, shaxsiy ta’lim berish texnologiyasini loyihalashtirish va mavjud ta’lim berish texnologiyasini qo’llash “o’qituvchi, vaziyat madaniyati, shuningdek shaxsiy yoki talabalarning shaxsiy xususiyatlari bilan yuzma-yuz kelish yo’nalishi bilan ish tutmog’i kerak” (E.S.Polat, 2000).

Ta’limni texnologiyalashtirish g’oyasi yangilik emas, bundan 400 yil avval chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ta’limni texnologiyalashtirish g’oyasini ilgari surgan. U ta’limni “texnikaviy” qilishga undagan, yani hamma narsa nimaga o’qitilsa, muvaffaqiyatga ega bo’lsin. Natijaga olib keluvchi o’quv jarayonini, u “didaktik mashina” deb atagan.

Bunday didaktik mashina uchun aniq qo’yilgan maqsadlar; bu maqsadlarga erishish uchun, aniq moslashtirilgan vositalar; bu vositalar bilan qanday foydalanish uchun, aniq qoidalarni topish muhimligini yozgan.

Ta’lim nazariyasi va amaliyotida o’quv jarayoniga texnologik xususiyatni berish uchun 50-yillarda birinchi urinishlar qilib ko’rilgan. Ular o’z ifodasini an’anaviy o’qitish uchun majmualar texnik vositalarni yaratishda topgan.

Hozirgi vaqtda “pedagogik texnologiya o’qitishning texnik vositalari yoki kompyuterdan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmaydi, balki bu ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish hamda usul va materiallarni qo’llash, shuningdek qo’llanilayotgan usullarni baholash yo’li orqali ta’lim jarayonining asoslari va uni maqbullashtirish yo’llarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadidagi tadqiqotdir”.

2-jadval

Ta'limga texnologik yondashuv va "ta'lim texnologiyasi" tushunchasi ma'nosining uzluksiz o'zgarishi

Davr	Texnologik yondashuvning namoyon bo'lishi	"TT" tushunchasi ma'nosi
XVII asr	XVII asrda Yan Amos Komenskiy, shunday ta'lim mexanizmi, yani uni "didaktik mashina" deb nomlab, uning ustida izlanish olib borgan.	"Didaktik mashina"
30-yillar 50-yillarning o'rtasi	30-yilning o'rtasida AQSHning Indiana universitetida talabalarga eshitish va ko'rish (audiovizual) ta'limi bo'yicha ma'ruzalar o'qilgan, 1946-yil shu yerning o'zida eshitish va ko'rish ta'limi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash kursi: ishlab chiqarishni rejalashtirish, eshitish va ko'rish vositalarini ishlatish va ularning sifatini baholash, shu vositalarni qo'llab o'quv jarayonini boshqarish dasturlari kiritildi. 1954-yil - professor B.F.Skinner tomonidan ishlar taqsimoti (mavzu-qadam-xodimlar) bo'yicha o'rgatishning muntazamli texnologiyasini o'zida namoyon etuvchi, dasturlashgan ta'lim modeli (DT) asoslandi. Qaytar aloqani nazarda tutuvchi: har bir bajarilgan ishning to'g'riligini tezkor baholash va agar keyingi qadamga xatolik bo'lsa qaytarish deb ta'kidlagan	"Ta'limda texnologiyalar" - "... ma'lumotga ega bo'lish sohasida zamonamiz-ning bo'lagi bo'lgan kashfiyotlar, sanoat mahsulotlari va jarayon-larini qo'llash" (M. Klark). pedagogik maqsadlarda axborotni taqdim etishda eshitish va ko'rish (audiovizual) vositalarini qo'llash
50-60-yillar o'rtasi	1958-yil - N.Krauder bir qator berilgan javoblarni to'g'riligiga bog'liq ravishda qaytar aloqaga muvofiq javoblarni ko'p tanlash DTning kengaytirilgan chizmasini taklif etdi.	"O'rgatuvchi texnologiya" (D.Finn,1959) - pedagogik maqsadda maxsus yaratilgan eshitish vositalaridan foydalanish va ulardan foydalanish uslubiyoti.

80-yillar	<p>Ta'lim texnologiyasining ilmiy asosi axborot, telealoqa nazariyasi, pedagogik kvalimetriyasi, tizimli tahlil, bilish jarayonini boshqarish nazariyasi, ta'lim jarayonini qulaylashtirish, pedagogik mehnatni ilmiy tashkillashtirish va boshqalar. Eshitish vositalarining yangi turlari: videomagnitofon, aylanmali kadroproyektor, elektron va bloknotli yozuv taxtasi va boshqalar chiqara boshlandi.</p> <p><i>Ta'lim texnologiyasining</i> qo'llanish sohasi - (1) o'qitishning texnik vositalari, (2) ma'lumot olish muammo-lariga tizimli yondashishi. "Birinchii soha o'qitish vositalarida texnika yutuqlarini amalga oshirish bilan, ikkinchi soha esa, pedagogik nazariyani rivojlanishi bilan, ularni tashkillashtirishning umumiy nazariyasi birlashtirilishi lozim bo'lgan ilovaga bog'liq, yani ta'lim muammolariga tizimli yondashishdir".</p> <p>P.D.Mitchel (1970-y.) <i>Ta'lim texnologiyasi</i> bo'yicha manbalarni tahlil etish natijasida TT ma'nosi va pedagog-texnologlar vazifasi asosini shakllantiradi: "Kutilayotgan pedagogik natijalarni olish uchun inson, moddiy va oliyaviy manbalarni maqbul taqsimlash".</p> <p>"Faqat sodda odamlargina, texnologiyani - faqat moslamalar va o'quv materiallar majmui deb hisoblaydilar". Bu bundan ko'prog'ini anglatadi. Bu tashkillashtirish yo'li, bu materiallar, insonlar, tashkilot, modellar va tizim turidagi "inson-mashina" to'g'risidagi tasavvur. Bu muammoning iqtisodiy imkoniyatlarini tekshirish. Bundan tashqari, texnologiya fan, san'at va inson qadri o'zaro harakatiga muhim aloqaga ega.</p>	<p>"Ta'limiy texnologiya"</p> <p>TT - "ta'lim texnik vositalari yoki kompyuter sohasidagi" izlanishlar emas; bu ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish yo'li bilan, tuzilmaga keltirish hamda yo'l va materiallarni qo'llash yo'li bilan, shuningdek qo'llanilayotgan usullarni baholash orqali ta'lim jarayonini eng maqbul-lashtirish tamoyillarini aniqlash va yo'llarini ishlab chiqish maqsadidagi izlanishdir".</p> <p>(Mejdunarodny egedodnik po texnologii obrazovaniya i obucheniya - London - Nyu-York, 1978 g.</p> <p>"TTning dastlabki mohiyati pedagogik maqsadlarda muloqot qilishning eshitish va ko'rish vositalari, ko'rsatuv, kompyuter va boshqa turdagi "yumshoq" va "qattiq" vositalardan foydalanishni anglatgan. Yangi va kengroq ma'noda esa, ta'lim olish shakllarini maqbullashtirishni o'z vazifalari deb qo'yuvchi, butun ta'lim berish jarayonini hamda bilimlarni texnikaviy va insoniy manbalarni hisobga olgan holda o'zlashtirish va ularning o'zaro harakatini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usulidir".</p> <p>(YUNESKO, 1986-y.)</p>
-----------	--	---

	80-yillarda PT to'g'risida Rossiya olimlarining birinchi nashrlari paydo bo'ldi: "... xorijiy tajribalar hozir bizda yaxshi ma'lum bo'lmay turibdi. Lekin TT eshigimizni taqillatayapti" (Klarin, 1989)	"Pedagogik texnologiya" – atamasi pedagogika fanida vujudga keldi.
90-yillar	TT muammolarini: V.P.Bespalko, V.Guzeev, V.Klarin, V.Monaxov, G.Selevko, S.Saidaxmedov, J.Yo'ldoshev, S.Usmonov, M.Ochilov va boshqalar ishlab chiqdilar.	
XXI asrning 1- o'n yillari	<p>"Pedagogikaning predmeti inson tabiati (bog'liq bo'lgan) va o'quv-tarbiyaviy harakatlarning samarasi o'rtasidagi qonuniyatli munosabatlar hisoblanadi". Bir qancha uslubiyotlardan "tanlash huquqi" o'rniga, ilmiy, tabiatga oid pedagogika berilgan yoki inson to'g'risidagi aniq bilimlari asosida mavjud sharoitlar uchun harakatlanishning maqbul yo'llarini ongli loyihalashni taklif etadi. Ma'lumki, muammoning bunday berilishida pedagogika "tajribani umumlashtirish" va "omma ijodkorligi" botqog'idan ilmiy izlanish maydoniga va yuqori asosli psixologiya – pedagogika muhandisligiga o'zgaradi. Ushbu matn parchasida TT - berilgan sharoitda pedagogik vazifalarga maqbul erishish yo'llaridir. Berilgan sharoitda maqbullik – texnologiyani hammabop tizimli belgisi hisoblanadi.</p> <p>"Pedagogika uchun texnologiya ma'nosiga alohida, hech nimaga o'xshamaydiganlar, shuningdek unga texnik takrorlanish ma'nosini o'ylab topishga hech qanday sabab yo'q. Mohiyati bo'yicha mavjudlik va ishlab chiqarishlik, ijtimoiylik, insonshunoslik va texnologiya vazifalarini berilishidek qabul qilish kerak" (A.M.Kushnir, 2004-y.).</p>	

Barcha ta'lim va tarbiya ishlarini pedagogik texnologiya yo'liga o'tkazish, pedagogik jarayonni ixtiyoriy qurish va uni amalga oshirishdagi keskin burilishi quyidagilarni anglatadi:

➤ uning har bir qism va bosqichlarining izchil asoslanganligi (ta'lim jarayonini tartiblashtirish - batafsil aniqlangan va asoslangan, ishlarni ma'lum tartibidan tashkil topgan qismlar - muloqot, axborot va boshqaruvning yo'l va vositalarini bo'lish orqali mumkin qadar rasmiyatchilik nuqtai nazaridan rasmiylashtirilgan);

➤ yakuniy natijani haqqoniy tashxis qila olishga yo'naltirilganligi;

➤ ta'lim jarayoniga mavjud sharoit va belgilangan vaqt ichida qo'yilgan ta'limiy maqsad hamda ijobiy natijaga erishishni ta'minlaydigan ishlab chiqarish texnologik jarayonining mukammal, aniq yo'lga qo'yilgan, izchil, muvofiqlashgan xususiyatini berish;

➤ uning samaradorligi va inson imkoniyatlari (kuch, vaqt)ni maqbullashtirish maqsadi bilan butun ta'lim jarayonini boshqaruvchanligi.

Ta'limni texnologiyalashtirish sohasidagi asosiy toifa va tushunchalar:

"Ishlab chiqarish texnologiyasi", "ta'limni texnologiyalashtirish", "ta'limiy texnologiya", "ta'lim berish texnologiyasi", "pedagogik texnologiya" atamalarini.

"Texnologiya" atamasi pedagogika fani tomonidan ishlab chiqarish sohasidan o'zlashtirilganki, bunda "yuqori asosli psixologiya – pedagogik muhandisligi maydoniga o'zgaradi" (A.M. Kushnir, 2004-y.).

Texnologiya mohiyati va vazifasi bo'yicha insonshunoslik, ham ishlab chiqarish, ham ijtimoiy bor narsalarni mavjud bo'lishidek qabul qilish kerak" (A.M. Kushnir, 2004-y.).

"Texnologiya" yunoncha so'zdan kelib chiqqan bo'lib "techne" - mahorat, san'at, malaka va "logos" - so'z, ta'limot ma'nolarini anglatadi

Ishlab chiqarish texnologiyasi:

- xomashyo, material, yarim tayyor mahsulotlarni olish, ularni qayta tayyorlash yoki ularga ishlov berish yo'l va usullarining yig'indisi (texnologiyaning jarayonli-bayonli tomoni);

- yuqorida ko'rsatilgan yo'l va usullarni ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi ilmiy fan. Texnologiyaning ilm sifatidagi vazifasi, moddiy manba va vaqtlar kam sarflashni talab etuvchi samarali va tejamkor ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash va amaliyotda ulardan foydalanishni aniqlash maqsadidagi qonuniyatlarni topish hisoblanadi (ilmiy tomoni);

- jarayonning o'zi - topilmani qazib olish harakatlari, ishlov berish, qayta ishlash, transportda tashish, omborga joylash, saqlash, shuningdek ishlab chiqarishning texnik nazorati (jarayonli harakat tomoni)

Pedagogik ilm va amaliyotda "pedagogik texnologiya", "ta'limiy texnologiya" va "ta'lim berish texnologiyasi" kabi atamalar keng qo'llanilishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga ularni tushinishda alohida bo'lgan o'qish turlari mavjud. Avvalambor, aniq ifodani berish, ularni nima birlashtirishi, ularni nima ajratib turishini tushunish uchun "texnologiya" va uning kelib chiquvchilari: "texnologik jarayon", "texnologik harakat", "texnologik xarita", "texnologik tartib" tushunchalarini aniqlash lozim.

Ta'limni texnologiyalashtirish o'qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta'lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo'nalishdir

Ta'lim texnologiyasi:

- mavjud sharoit va o'rnatilgan vaqtda belgilangan ta'limiy maqsad va ko'zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishni vositali ta'minlovchi, muloqot, axborot va boshqaruvning eng qulay yo'l va o'qitish vositalarining tartibli yig'indisi (ta'lim berish texnologiyasining jarayon-bayonli jihati);

- mavjud yuzaga kelgan ta'limiy jarayon subyektlarining hamkoriy harakatlari, haqiqiy jarayon (ta'lim berish texnologiyasining amaliy-jarayon jihati) tartibi

“Pedagogik texnologiya” – pedagogik hodisa va ta’limni texnologiyalashtirish sohasidagi jarayonda qo’llaniladigan tushuncha.

“Ta’lim texnologiya” – “ta’lim olish shakllarini maqbullashtirishni o’z vazifalari deb qo’yuvchi, texnikaviy va insoniy manbalarni hisobga olgan holda butun ta’lim berish jarayoni va bilimlarni o’zlashtirish shu bilan birga ularning o’zaro harakatini yaratish, qo’llash va aniqlashning tizimli usuli” (YUNESKO).
Ta’lim texnologiyasi va uning konseptual asosnomasini (TT ilmiy tomoni) o’z ichiga oladi.

Pedagogik tizimi – shaxsning sifatlarini shakllantirish uchun tashkiliy, maqsadga yo’naltirilgan va pedagogik ta’sir ko’rsatishni ko’zlagan, o’zaro bog’liq vosita, usul, jarayonlarning yig’indisini ifoda qiluvchi aniq yaxlitlikdir (V.P. Bepalko bo’yicha).


Fanning o’qitish uslubiyoti – ta’lim tizimida ushbu o’quv fanining ahamiyati va o’rni belgilaydi, uning vazifalarini va o’qitish mazmunini aniqlaydi, ushbu fan bo’yicha qo’llanilayotgan usul, shakl va o’qitish vositalari bayonini o’z ichiga oladi.

Fanni o’qitish uslubiyotidan farqli texnologiya:


- “qanday o’qitish kerak?” degan savolga javob bermay, balki ahamiyatli qo’shimcha bo’lgan “natijaviy qanday o’qitish va o’quv jarayonini qanday qilib eng maqbul tashkil etish kerak?” degan savolga javob beradi;
- aniq sharoitlardan kelib chiqqan va ma’lum natijaga yo’nalgan, aniq pedagogik g’oyaga loyihalanaadi;
- ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchiga yo’naltirilgan darsning uslubiy ishlanmalaridan farqli o’laroq, ta’lim olishda ularning o’z faoliyatlari hisobiga yutuq ta’minlanishiga yo’naltiriladi.

Metodistdan farqli o’laroq pedagog-texnolog:

- tajriba o’tkazmaydi: u aniq belgilangan natija bilan ish olib boradi;
- ajratilgan vaqt va mavjud sharoitlarda belgilangan maqsadlarni amalga oshirishda gumon hosil qilmaydigan asoslangan o’qitish modeliga tayanadi;
- u harakat qiladi, ta’limiy maqsadlar qo’yilganda, aniq pedagogik vazifalar belgilanganda va ko’zlanayotgan natijalar shakllantirilganda, ta’lim berish jarayonining borish sharoitlari aniqlangandan so’ng harakat qilishni boshlaydi.



1-rasm. Pedagogika tizimi”, “ta’lim texnologiyasi”, “o’qitish texnologiyasi”, “fan uslubiyoti”ning tizimli tashkil etuvchilari va elementlari



2-rasm. Ta'lim texnologiyasining mohiyatli, belgi va xususiyatlari

Zamonaviy ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari


Konsepsiya - umumiy g'oya yoki biror-bir narsa to'g'risida tasavvur, tushuncha, fikrlar tizimi

Ta'lim texnologiyasi aniq pedagogik g'oya asosida ishlab chiqilib, uning negizini quyidagilar tashkil etadi:


- 1) muallifning aniqlangan metodologik, falsafiy yo'nalishi;
- 2) pedagogik, psixologik va ijtimoiy fanlar hamda pedagogik amaliyot-konseptual asoslari.

Ta'lim tizimi boshqa barcha xorijiy mamlakatlar singari falsafa, psixologiya va pedagogikada insonparvarlik yo'nalishidagi tamoyillar asosida tuziladi.


Pedagogikada bu yo'nalishning asosiy farq qiladigan jihati shundaki, ta'lim oluvchining o'zligi, uning shaxsi, mustaqil tanqidiy fikrlashini ongli rivojlanishiga aniq yo'naltirilgan, ularning xususiyat va imkoniyatlarini hisobga olgan har bir ta'lim oluvchining mustaqil bilish faoliyatiga bog'liq hisoblanadi.



3-rasm. Zamonaviy ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari



4-rasm. Psixologiyada insonparvarlik yo'nalishidagi tamoyillar



5-rasm. Pedagogikada insonparvarlik yo'nalishidagi tamoyillar

Mustaqil shaxsni shakllantirish jarayoni uzoq va murakkab bo'lib, bir tomondan, barcha davlat tuzilmalari hamda ijtimoiy tashkilotlarning va ayniqsa, ta'lim tizimi mazmunining takomillashtirilishini, ikkinchi tomondan esa, bevosita

ushbu masalani amalga oshirishni ta'minlovchi yagona tarbiya tizimini barpo etish lozimligini taqozo etadi. Bu jarayonda kadrlar tayyorlashning yaqin kunlardagi va istiqboldagi vazifalari quyidagilardan iborat:

*Birinchi*dan, erkin tafakkur qila oladigan shaxsni, mustaqillik va demokratiya g'oyalari sodiq bo'lgan ongli fuqaroni, o'z Vatanning jonkuyari sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotga ongli ishtirok etishga, ijtimoiy jarayonga faol ta'sir ko'rsatishga, mamlakat taqdiri uchun zimmasiga mas'uliyatni olishga qodir shaxsni kamol toptirish uchun shart-sharoitlarni yaratish;

*Ikkinchi*dan, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga, tub ma'nodagi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish ishiga demokratiya asoslarini joriy etish jarayonlarini jadallashtirish, tafakkur va bahslashish madaniyatini rivojlantirish, shaxsning ichki dunyosini boyitish, binobarin, yangicha ijtimoiy qadriyatlar va munosabatlarni shakllantirish. Boshqacha aytganda, yosh avlodda yangicha ong shakllanishi uchun barcha shart-sharoit yaratilmog'i kerak;

*Uchinchi*dan, yosh avlod milliy istiqloq g'oyasini anglab olishi, bu g'oyaning har bir fuqaro uchun, Vatanning obod va farovon bo'lishi uchun hayotiy zarurat ekanligiga ishonch hosil qilish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimini ro'yobga chiqarish lozim.

Tabiiyki, bu uzoq davom etadigan, barcha davlat tuzilmalari va jamoat tashkilotlarining, eng avvalo, uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarining faoliyati va ayniqsa, mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etadigan murakkab jarayondir.

Yoshlarni barkamol qilib yetishtirish jarayonida shaxsning tarbiyasi va har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga e'tiborni kuchaytirish va ta'lim sohasida shaxsning tarbiyasi va har tomonlama rivojlanishiga ustunlik berishni ta'minlashdan iborat.

Ta'lim-tarbiya jarayonining uch tarkibiy birligi – tarbiya, ta'lim, shaxsni rivojlantirish to'liq darajada amalga oshirilishiga erishish lozim. Ta'lim-tarbiya ishida rasmiyatchilik va beparvolik kabi illatlardan voz kechish kerak. Bu maqsadda mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan yangi uslub va vositalar ishlab chiqilishi va joriy etilishi zarur.

Bugungi kunda pedagogikada o'quvchi-talabalarining ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir nechta o'qitish uslublari ishlab chiqilgan: muammoli o'qitish, ish faoliyatini ifodalovchi o'yinlar, rolli o'yinlar, mavzuiy o'qitish va hokazo. Ammo ularni oliy ta'lim muassasalarida keng qo'llaniladi deb bo'lmaydi. Bizningcha, buning sababi har bir mashg'ulotga tayyorgarlik pedagogik izlanishni ko'zda tutishi, yuksak kasbiy bilim va mahoratni, ishda ijodiy yondashuv va ko'p vaqtni sarflashni talab qilishida bo'lsa kerak. Chunki har bir o'tiladigan mashg'ulot ishlanmasi o'ziga xos xususiyatga ega va takrorlanmasdir.

An'anaviy o'qitish usuli respublikamizda keng tarqalgan. Biroq ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda an'anaviy ta'limning imkoniyatlari cheklanayotganligini, muhim ta'limiy muammolar o'z yechimini topmayotganligi, qator ilg'or pedagogik tajribalar ommalashmayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Yangi munosabatlarning o'ziga xos jihati, an'anaviy ta'limdagidan farq qilib, o'quvchi-talabalarining mustaqilligi va o'quv faoliyatini ta'qiqlamasdan, balki belgilangan maqsadga yo'naltirish, o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish, ularni faoliyatga ongli ravishda yo'llash, biror bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirmasdan balki samarali tashkil etish orqali o'quvchi-talabalarda fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi va imkoniyatlarini chegaralamasdan erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

Pedagogik texnologiya texnologik yondashuvga asoslanadi. Texnologik yondashuv deganda tayyor mahsulot (ishlab chiqarish texnologiyasiga o'xshash) olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar to'plami tushunilib, qo'yilgan maqsadlarga erishishda kutilgan natijalarni kafolatlaydigan usul metodlari majmuasi anglashiladi.

Agar metod bilish yo'li, tadqiqot yo'li yoki biror faoliyatdagi ma'lum amaliyot va nazariy bilimlar sohasini egallashni harakatlar, operatsiyalar, usullar majmuasi deb tushunsak, pedagogik texnologiya – ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmuasini anglatadi.

Pedagogik texnologiyani an'anaviy o'qitish metodikasidan farqlovchi belgilari ko'p. Pedagogik texnologiya an'anaviy metodikadan, avvalo maqsadlarning qo'yilishi va unga erishishi bilan farqlanadi.

Pedagogik texnologiya usuli tarkibiy qismiga ta'limning umumiy maqsadlari (o'qituvchi va talabaning maqsadlari)ni ishlab chiqish, ta'lim maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga o'tkazishi, maqsadga erishish usullari kiradi.

Loyihalashtirish faoliyati o'quvchi-talabalar bilan ishlashni tashkillashtirishning eng ommabop shakllaridandir. Loyihalash metodi – o'qitishning tashkillashtirilishi bo'lib, o'quvchi-talabalar rejalashtirish jarayoni va amaliy vazifalarni bajarishlari orqali loyiha ko'rinishida bilim o'zlashtiriladi. Loyihalashtirish metodini qo'llash natijasida loyiha (proekt) ko'rinishidagi bilim o'zlashtiriladi.

O'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi hamkorlik pedagogikasiga tayanib, talabalarining birgalikda ta'lim olishlari amalga oshiriladi. Talabalarining hamkorlikda ta'lim olishlari, ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish, talabalar bilan ishlashni loyihalashtirish kabilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy metodlari hisoblanadi. O'quv-tarbiya jarayonida vujudga kelgan yangi pedagogik munosabatlar mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni taqozo qiladi.

Pedagogika fani va amaliyotida turli xil yondashuvlar qo'llaniladi. Og'zaki-ko'rgazmali, tadqiqiy, izlanuvchan, tizimli, funksional, kompleks, texnologik, faoliyatli yondashuvlar.

Og'zaki-ko'rgazmali yondashuv. U an'anaviy bo'lib, asosan o'qituvchining axborot berishi, o'quvchi-talabalarining bilimni qabul qilishi, to'plashi va xotirasida saqlashi bilan belgilanadi. «Bilim» tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma'nosida tushuniladi. Bunday bilimlar, ularni qo'llay olish ko'nikmalari (imtihonda shu axborotga doir berilgan savolga bergan javobiga qarab) orqali tekshirib ko'riladi. Bu tizimdagi bilimlar – asosan esda saqlab qolish natijasi, ko'pincha rasmiy ma'lumotdir, u ko'pincha yuzaki bo'lishi ham mumkin. Ular xotira tubida saqlangan

bo'ladi yoki boshqacha so'z bilan aytganda, faqat unga qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri savol qo'yilganda esga olinadi. Qayta esga olish darajasidagi bilim uzoq vaqt xotirada saqlanmaydi. Talaba savol berilganda eslashi, ba'zan esa umuman eslay olmasligi ham mumkin.

Og'zaki-ko'rgazmali yondashuv respublikamiz ta'lim muassasalarida keng tarqalgan. Ma'lumot berish tizimida tayyor bilimlarni «o'qituvchi-talabalarga», ularning ehtiyoji va faollik darajasi bilan bog'liq bo'lmagan holda, bevosita berish mumkin bo'lgan imkoniyatidan kelib chiqadi. Demak, shunga ko'ra o'qituvchining asosiy vazifasi – zaruriy axborotni ma'lum qilishi va uni xotirada mustahkamlash ustida ishlashdir.

V.Guzeevning ta'kidlashicha, an'anaviy metodikaga xos bo'lgan xususiyat dastur talablarida ifodalanuvchi ta'lim maqsadlarini «o'zlashtirish» tushunchasi qobig'iga o'ralgan qandaydir noaniq tasavvur bilan tavsiflanadi. Bunda ta'lim jarayonida ko'proq muvaffaqiyatga erishgan o'qituvchilarning ish tajribalarini umumlashtirish asosida ta'lim jarayonlari tashkil etiladi. Har bir aniq vaziyat uchun ilg'or o'qituvchi (pedagog)larning pedagogik faoliyati namunasi qidiriladi, ammo ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan bir qator olimlar va amaliyotchilar alohida metodikalarning davri o'tib ketganligi va har qanday ilg'or pedagoglar tajribalarini umumlashtirish tizimli va maqsadga yo'naltirilgan, samarali ta'limni qurish imkonini bermasligini jiddiy ta'kidlashmoqda.

Respublikada amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi bir qator ijobiy ishlar, fan-texnikaning jadal sur'atlar bilan o'sishi, bugungi kunda raqobatbardosh yuqori malakali kadrlar tayyorlash, shaxsni rivojlantirish, uning ma'lumot olish darajasini yuqori tarzda ta'minlashga nisbatan jamiyat ehtiyojlari bilan o'qitish uslublari o'rtasida ziddiyatlar tug'ilishiga olib keladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida boshqa yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqiy-ijodiy yondashuv. Ta'limning maqsadi talabada biror muammoni yechish qobiliyatini o'stirish, yangi bilim va tajribani mustaqil ravishda o'zlashtirish, harakatning yangi zamonaviy usullarini topish va tashabbus ko'rsatishni nazarda tutadi.

Tadqiqiy-ijodiy yondashuvda pedagog talabaning o'quv faoliyatiga rag'batlantiruvchi usulda rahbarlik qiladi, shaxsiy tashabbusini qo'llab-quvvatlab, u bilan hamkorlik qiladi hamda uning fikr va qiziqishlarini doimo nazarda tutadi. Pedagogning talaba shaxsiga bo'lgan munosabati, ularga muhabbati va jon koyitishi, yuksak ishonchi, o'zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishi, tahsil olish jarayonida talabalarni to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish va aksincha ijobiy rag'batlantirishning ustunligi tufayli ko'zlangan maqsadga erishish, talabalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo'lish, ularni bartaraf etishning eng samarali yo'larini qo'llashda namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv bo'yicha pedagogik texnologiya variantlari ishlab chiqilgan. Tadqiqiy-ijodiy yondashuvning ta'lim tizimida o'z o'rnini bor va u o'z joyida qo'llanishi lozim.

Izlanuvchan yondashuv. Bu yondashuvdagi maqsad talabalarda muammoni hal etish, yangi, oxirigacha tugallanmagan tajribani mustaqil o'zlashtirish, ta'sir

etishning yangi yo'llarini yaratish qobiliyatlarini, shaxsiy idrokni rivojlantirishdan iboratdir.

Izlanuvchan ta'lim andozasining ta'lim mazmuni, tabiat va jamiyat bilan o'zaro ta'siri shaxsni tadqiqotchilik yo'lga boshlash, uning jadal ijodiy faoliyati xarakteri bilan bog'liq.

Shu bilan birga pedagog ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini boshqarishda demokratik, rag'batlantiruvchi yo'l tutadi, ularning shaxsiy tugallanmagan tajribani mustaqil o'zlashtirish, xatti-harakati, harakatning yangi yo'llarini yaratish qobiliyatlarini, shaxsiy ma'no kasb etishini rivojlantirish yo'lini tutadi. Izlanuvchan ta'lim andozasining ta'lim mazmuni, tabiat va jamiyat bilan o'zaro ta'siri shaxsni tadqiqotchilik yo'lga boshlashi uning jadal ijodiy faoliyati xarakteri bilan bog'liq.

Pedagog ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini boshqarishda ijodiy yo'l tutadi, talabalarning o'quv faoliyatini operativ-texnik jihatlarini o'zlashtirishga qadar uning ahamiyati va rag'batlarini birinchi o'ringa olib chiqadi. Bugungi kunga qadar o'qitishda izlanuvchan yondashuvni o'z ichiga oluvchi pedagogik texnologiya ko'rinishlari ishlab chiqilgan.

Tizimli yondashuv – ilmiy bilish metodologiyasi va pedagogik amaliyotning bir yo'nalishi sifatida universal tavsifga ega, pedagogikada keng qo'llanadi. «Tizimli yondashuv» tushunchasi ko'pincha «tizimli metod», «tizimli tahlil usuli» tushunchalari bilan uzviy bog'liq holda anglanadi. Chunki tizimli tahlil usullari ham obyektning yaxlit tizim sifatida o'rganishni nazarda tutadi. Tizimli yondashuv tuzilish vazifasiga ko'ra bajariladigan tahlilga juda yaqin. Tizimli tahlilning obyektini yaxlit narsa yoki hodisa hisoblanadi, u obyektning turli qismlarini, qismlarning o'zaro uzviyligini, tizimning chegaralarini va tizimning atrof-muhit bilan bog'liqligi, aloqadorligini nazarda tutadi. Bu tizimda bir qancha qoida va prinsiplar majmuidan foydalaniladiki, ular tadqiqotchilik va amaliy faoliyatda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Texnologik yondashuv. Texnologiya tushunchasi – tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llanadigan usul va metodlar majmui; shunday usul va metodlarni ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi fan sifatida ta'riflanadi. Texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmalik tuzilmada o'z ifodasini topadi.

Ta'limga texnologik yondashuv o'quv jarayonini o'zaro uzviy bog'liq etaplar va amallarga ajratishni va bo'lishni; ta'limdan ko'zlangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, bosqichma-bosqich amalga oshirishni; loyihalashtirilgan ish va amallarning barchasini bir xil tarzda bajarishni nazarda tutadi.

Qayta takrorlanish xususiyati tufayli ushbu tizim modul shakliga ega bo'lib, mazmunlar bilan to'ldirilgan va umumiy tarixga bog'langan birliklar, yani ta'limning umumiy maqsadi va mazmuni, o'quv maqsadi, o'qitish va baholash jamlamalaridan tashkil topadi. Amalda bu pedagogning qayta-qayta takrorlanuvchan

harakatining algorimi hisoblanadi. Ushbu algoritmnning yangi va yangi bo'limlarda qo'llanishi o'quv jarayoni ko'lamini qamrab oladi.

Ta'lim jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil etishning rejalashtirish bosqichida, yetakchi pedagoglar pedagogik texnologiyaning qonun-qoida va tamoyillari asosida uslubiy ashyolarni ishlab chiqish paytlarida yuqoriroq malaka talab etiladi. Loyiha tayyor bo'lgach, pedagog asosan tashkilotchi va maslahatchi vazifalarini bajaradi.

Bu yondashuv, asosan, reproduktiv ta'limga xosdir. Reproaktiv ta'lim tipik vaziyatlarda biror ish-harakatni oldin bilib olingan qoidalar asosida bajarishdir. Reproaktiv darajasi uchun pedagogik texnologiya usulida ta'lim – takror ishlab chiqiladigan konveyerli jarayon sifatida tashkil etiladi, undan kutiladigan natija ham mufassal tasvirlanib, aniq qayd etiladi. O'quv materiali aniq ifodalangan o'quv maqsadiga mos qayta tuzilib, ishlab chiqiladi, ba'zi bo'laklari qismlarga ajratilib, har bir bo'lakni o'rganish mustaqil nazorat qilinib, xato va kamchiliklari to'g'rilanib boriladi.

O'quv jarayonining barcha bosqichlarida butun tizimning asosiy texnologik jihati – o'quv jarayonining so'nggi natijalari bo'lgan o'quv maqsadiga erishishga yo'naltirilganligini ham kuzatish mumkin. Texnologik yondashuvni qo'llash qo'yilgan o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydi.

Keng ko'lamda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari ta'lim jarayonining ilg'or texnologiyalarini o'rganish va o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etishni taqozo qiladi. Bu esa, o'z navbatida, pedagoglardan ta'lim sohasiga texnologik yondashuvni, pedagogik texnologiya usulini egalashni va hududimizning milliy, ma'naviy-madaniy xususiyatlarini va an'analarni hisobga olgan holda pedagogik amaliyotda qo'llash va rivojlantirishni talab etadi.

Texnologik yondashuv doirasida yaratilgan didaktik loyihalash usullariga bo'lgan munosabat o'quv jarayonini samarali va ijodiy rejalashtirish, yangi fikrlar bilan boyitish, ularning natijalarini baholashga yordam beradi.

Ta'limni boshqarishga tizimli yondashuv boshqaruvchi, ya'ni o'qituvchining mavjud imkoniyatlari asosida tahsil oluvchilarga kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni qo'yilgan maqsadga mos holda shakllantirish jarayonidir. Ta'limda boshqarish jarayoni turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi paytda ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishga turli texnologiyalar joriy etilmoqda. Ta'limning harakatchan modelini tuzish orqali boshqarish o'zining samaradorligini ko'rsatmoqda. Mo'ljallangan texnologiya tizimli yondashuvga asoslangan bo'lib, quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: o'rganilayotgan fan bo'yicha ma'lumotlarni tayyorlash; tayyorlangan ma'lumotlarni o'qitish uslubi va maqsadini e'tiborga olgan holda ma'lum ketma-ketlikka keltirish; o'rganilayotgan mazmuni qo'llamoqchi bo'lgan pedagogik usullar nuqtai nazaridan tahlil qilish; pedagogik texnologiyalarni yaratilishining dastlabki bosqichiga oid maqsadni aniqlash; pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayoni ketma-ketligini ishlab chiqish; texnologiyalardan foydalanishga oid uslubiy tavsiyalar tayyorlash; texnologiyalarni qo'llash va erishilgan natijalarni bilim, ko'nikma va malaka tizimlariga ajratish; olingan natijalar bo'yicha sifat ko'rsatkichlarini aniqlash; ko'zlangan maqsadga

erishilganlik darajasini aniqlab, baholash; ta'limni boshqarish jarayoni to'g'risida tegishli xulosalar chiqarish va boshqalar.

Pedagogik faoliyat inson shaxsini, uning dunyoqarashi, ishonchi, ongi, xulqini shakllantirishga bo'ysundirilgan cheksiz masalalarni yechish jarayonidir. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda pedagogik faoliyat turlari (ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi, safarbarlik, tadqiqotchilik, tashkilotchilik va boshqalar) qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Shu bilan birga pedagogik faoliyat muntazam o'zgaruvchan, yangilanuvchan, rivojlanuvchanligi bilan ajralib turadi, unga ijtimoiy buyurtma uzluksiz ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash vazifasi pedagogdan bevosita ijodiy faoliyatni hamda ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan soha bilimlarini talab etadi. Demak, texnologiya mavjud ekan, uni ta'lim-tarbiya jarayoniga singdirish shart ekan, bu jarayon qayerda kechishi mumkin, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu esa, shak-shubhasiz, pedagogik korxonada, yani pedagogik ishlab chiqarish jarayonida ro'y beradi.

Tarbiyalash texnologiyasi – nisbatan yangi atama bo'lishiga qaramay rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Tarbiyalash texnologiyasi pedagogikada yangi yo'nalish hisoblangan «ijtimoiy pedagogika» bilan birgalikda fuqarolik g'ururi, vatanparvarlik, ijtimoiy faollik, mas'uliyat hissi va boshqa shaxsiy sifatlarni shakllantirishda jiddiy ta'sir qilmoqda.

Ta'kidlash joizki, tarbiyalash texnologiyasi yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarning g'oyasi, mazmuni va tarkibini emas, balki bu sohadagi respublikamiz hukumati tomonidan ishlab chiqilgan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Tarbiyalash texnologiyasi mo'ljallangan tarbiyaviy maqsadga samarali erishuvni ta'minlovchi vositalar majmuasini ko'rib chiqadi.

O'qituvchi (pedagog)larning o'zida muloqot, bahs olib borish madaniyatini shakllantirish maqsadida pedagogik ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar, ayniqsa muhimdir. O'zaro hamkorlik pedagogikasi – o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba orasiga hamfikirlik, ishonch, o'zaro yordam, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, yoshlar tomonidan haqiqiy insoniy qadriyatlarini anglash va e'tirof etilishini kafolatlaydi.

Milliy o'zlikni anglashni butun olam insonparvarlik g'oya va madaniyati, umuminsoniy qadriyatlar, ko'p millatli xalqimiz an'analaridan ayrim holda tiklab bo'lmaydi. Yoshlarning iqtidori va bilimga chanqoqligi – aynan shulardan ma'naviyatga erishish va uni rivojlantirish boshlanadi.

Milliy mafkura, psixologik va pedagogik fanlardan foydalanib, maqsadlar ketma-ketligini to'g'ri «texnologik» tanlay bilish o'ta muhim. Nazariya nuqtai nazaridan tarbiya uslubiyotini ta'riflash yetarli, lekin texnologik jihatdan barcha tarbiya maqsadlarining qismlarini aniqlash va ularni ro'yog'ga chiqarish yo'llarini belgilash zarur bo'ladi.

«Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida bo'lg'usi mutaxassislarining umumiy va kasbiy madaniyatini shakllantirish bo'yicha jamlama tarbiyaviy ishlari rejasi» tarbiyaviy ishlarni dasturlashga misol bo'la oladi. Ushbu dastur oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari guruhining mehnati mahsulidir.

Dasturda asosiy tarbiyaviy yo'nalishlar va maqsadlar keltirilgan. Jumladan, fuqaro tarbiyasi, kasb egallashga, shaxsiy mas'uliyatni, yuqori malakali bo'lishga va kasbiy mahoratga intilishni tarbiyalash, oilaviy hayotga tayyorlash, talabani shaxs sifatida rivojlantirish kabilarga alohida e'tibor berilgan. Mazkur dastur talaba va pedagogning faoliyatlarini ayrim-ayrim holda ta'riflaydi, bu esa quyida keltirilgan tarbiya texnologiyasi va D.Kratvolning ruhiyatli qadriyat sohasidagi o'quv maqsadlari tasniflagichiga mos keladi. U dunyoda tan olingan va tarbiyaviy maqsadlarni va kutiladigan natijalarni rejalashtirishda keng qo'llaniladi. Uning asosida esa tarbiyaviy texnologiya yotadi. Ta'lim texnologiyasi kabi, tarbiya vazifalarni shakllantirishda ta'lim oluvchilar xatti-harakatini aks ettiruvchi fe'llardan foydalaniladi.

O'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish pedagogdan ijobiy ishlashni talab etadi. Pedagog o'zida unga yordam beruvchi tashqi imkoniyatlar, ya'ni nazariy-amaliy, o'quv qurollari va vositalari mavjudligi haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishi hamda pedagog o'zidagi mavjud ma'lumotlar va imkoniyatlar asosida qaralayotgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha ma'lumotlar va ilg'or o'qitish uslublarini ko'zlagan maqsadga yo'naltirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Pedagogda shakllangan bilim, ko'nikma, malaka va o'qitish vositalari, ilg'or pedagogik texnologiyalar imkoniyatlarini maqsadga muvofiq yo'naltira olish qobiliyatlarini mavjud bo'lib, u Davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim oluvchiga aniq maqsadini belgilab olishi imkoniyatini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, pedagogik texnologiyalarni qo'llash rejasini ishlab chiqishga, yani vazifalarini belgilab olishga olib keladi. Belgilangan maqsad va vazifalarni e'tiborga olgan holda ta'limning harakatchan modeli yaratiladi. Modelni ishlab chiqish asosan tizimli yondashuv uslubini, maqsadlar tizimini yaratish va unga erishish ketma-ketligiga asoslangan holda olib boriladi. Ta'lim modelini yaratish zamonaviy ta'lim texnologiyasining asosiy talablaridan biridir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» pedagogga raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yuzasidan zamonaviy talablar majmuini belgilab beradi. Bir-biriga bog'liq bo'lgan talablarning majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi. Umumlashgan modelga muvofiq asosiy talablar quyidagilardan iborat; yani:

- pedagogning ta'lim berish mahorati;
- pedagogning tarbiyalay olish mahorati;
- ta'lim-tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiy fazilati;
- ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholash va nazorat qila olish mahorati.

Bugungi kunda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topmoqda. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotda sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limdagi yondashuvlar tarkibi o'zgarimoqda va boshqacha munosabatlar, pedagogik mentalitetlar o'rnatilmoqda. Ta'lim tizimi yangi axborotlar bilan ishlash qobiliyati ijodiy yechimining ta'lim dasturini individualashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda.

Ta'lim – pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchi-talaba bilan o'qituvchi (pedagog)ning shaxsga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlari

hisoblanadi. Ijtimoiy bilimga teng bo'lgan pedagogik texnologiyalarning tashkil topishida fanning roli ortib bormoqda.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarning psixologik-pedagogik nuqtai nazardan takomillashuvining asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan ifodalanaadi:

- o'quvchi-talabning yodlashdan eslab qolish funksiyasiga o'tishi, yani o'zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o'tishi;

- bilimning assosiativ statistik modelidan aqliy harakatning dinamik tarkibiy tizimlariga o'tish;

- o'rtacha o'quvchi-talabaga yo'naltirilganlikdan o'qitishning tabaqalashgan va individuallashtirilgan dasturlariga o'tish;

- o'quvchi-talabning tashqi motivatsiyasidan ichki ma'naviy irodali tartibga solinishga o'tish.

Ta'limda zamonaviy didaktika va ta'limning samaradorligini oshirish, yangi g'oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishiga o'tilmoqda. Bunda pedagogik tizim bilan o'qitish texnologiyalari o'rtasida bog'liqlik, amaliyotda davlat ta'lim tizimining yangi shakllarining aprobasiyasi, hozirgi zamon sharoitida o'qitishning pedagogik tizimlarini qo'llash muhim hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya paydo bo'lgunga qadar boshqa masalalar qatorida murakkab qurilma va jarayonlar o'rganiladigan ta'lim tizimi doirasida aynan ta'lim jarayonini yetarlicha samarali loyihalash qoidasi ishlab chiqilmadi. Bu bo'shliqni pedagogik texnologiya pedagogning loyihalashtirilgan o'quv jarayoniga ijodiy yondashuvi uchun keng o'rin qoldirgan holda to'ldiradi.

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos tomoni shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga so'zsiz erishish o'quv jarayonida loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, yuzakilikda emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik, jarayon natijalarini tashxisli tekshiruv, ta'limni alohida o'rgatuvchi epizodlarda bo'lish, o'quv jarayonining barcha bunday qirralarini bugungi kunda ta'limni qayta ishlab chiqish sikli g'oyasiga mujassamlashtirish imkonini tug'diradi.

U, asosan, o'z ichiga quyidagilarni oladi:

✚ ta'limda umumiy maqsadning qo'yilishi;

✚ tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish;

✚ o'quvchi-talabalarning bilim darajalarini dastlabki (tashxisli) baholash;

✚ bajariladigan o'quv ishlari majmuasi (bu bosqichda teskari bog'lanish asosida zudlik bilan ta'lim jarayoniga tuzatish kiritilgan bo'lishi lozim);

✚ natijani baholash.

O'quv maqsadlarining to'liq standartlashtirilishining me'yori quyidagicha bo'lishi mumkin:

a) yuqori, ammo mutlaq emas;

b) mutlaq.

Birinchi holatda maqsadning murakkabligi tufayli uni to'liq kuzatuvchan xatti-harakatlar tipiga aylantirish imkonini bermaydi, sikl to'laligicha qayta ishlab chiqilmaydi.

Ikkinchi holatda konveyerli jarayon bo'lgan ta'limning reproduktiv tipi bilan ish yuritiladi.

O'quv jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil etishning rejalashtirish bosqichida, yetakchi pedagog olimlar, metodist o'qituvchilar pedagogik texnologiyaning qonun-qoida va prinsiplari asosida uslubiy materiallarni ishlab chiqish paytlarida yuksak malaka talab etiladi. Materiallar tayyor bo'lgach, pedagog asosan, tashkiliy va maslahatli (ijodiy qo'shimchalar kiritish imkonini saqlagan holda) vazifalarni bajaradi.

O'quv jarayonining barcha bosqichlarida butun tizimning asosiy texnologik jihati – o'quv jarayonining so'nggi natijalariga yo'naltirilganligini kuzatish mumkin.

Umumiy ko'rinishda pedagogik texnologiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

✚ identifikatsiyalangan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish;

✚ o'quv maqsadlari taksonomiyasi;

✚ o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga aylantirish;

✚ maqsadga erishish usullari;

✚ erishilgan o'quv maqsadlarini baholash.

Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab oladi. O'qituvchi (pedagog) o'z oldiga o'quvchi-talabalar o'quv materialining mazmunini tushunib, o'zlashtirib olsin, ma'lum bilimlarni egallab, amaliyotga qo'llashga o'rgansin degan maqsadni qo'yadi. Biroq, o'zlashtirish, tushunish, qo'llash nimani anglatadi? O'qituvchi (pedagog) o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishganligini qanday biladi?

Pedagogik maqsadga erishganlik yoki erishmaganlikni bilishning aniq vositalari bo'lgandagina, o'qituvchi (pedagog) o'zining mehnati samarali ekanligiga va tanlagan metodlari maqsadga muvofiqligiga yoki aksincha samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin.

M.V.Klarin fikri bo'yicha o'qituvchi (pedagog)lar tomonidan maqsadlarni belgilashning tipik usullari quyidagicha:

1. O'quv materialining rejasidan kelib chiqib, maqsadni belgilash.

2. Maqsadni o'qituvchi (pedagog) faoliyati orqali aniqlash.

3. O'quvchi-talabning intellektual, emotsional, shaxsiy rivojlanish ichki jarayonlari va qonuniyatlari orqali o'quv maqsadini qo'yish.

O'qitishning maqsadi ta'lim mazmuni, o'qituvchi (pedagog)ning yoki o'quvchi-talabning faoliyati orqali belgilash ta'limda kutilayotgan natijalar haqida aniq taassurotga ega bo'lishga imkon bermaydi. Bu natijalar haqida o'quvchi-talabalar faoliyatining faqat tashqi tomondan namoyon bo'lishini kuzatish mumkin. Bu maqsadga erishishning juda sodda va samarasiz yo'lidir.

Rivojlangan davlatlarda o'quvchi-talaba va o'qituvchi (pedagog)lar uchun maqsadlarni alohida-alohida belgilash odatga kirgan. Bu mantiqan to'g'ri, chunki

o'qitish jarayoni pedagog va o'quvchi-talabning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati hisoblanadi.

Bunda maqsadlar o'qituvchi (pedagog)ning faoliyatidan kelib chiqqan holda qo'yiladi (o'rgatish, tushuntirish, ko'rsatish, aytib berish va hokazo), o'quvchi-talabning xarakterlarida ifodalanadigan natijalar esa ta'limning vazifalari deyiladi. Bunday ma'noda ta'lim vazifalari o'quvchi-talaba mashg'ulotning oxirida bilishi yoki bajara olishi mumkin bo'lgan narsani anglatadi.

Umuman, ta'lim jarayonida vazifalarni o'lchash, aniqlash, o'qitishni qayta takrorlash imkoniga ega bo'lish uchun har bir maqsadga erishish mezonini bilish, yani ta'lim maqsadi shunday qo'yilishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo'lsin.

5. O'quv jarayonining diagnostikasi

Diagnostika, ya'ni tashxis qo'yish, pedagogik jarayonning eng birinchi qadami hisoblanadi. Talabning bilim darajasi, ma'naviy rivojlanganlik darajasi o'rganilganidan keyingina, keyingi rivojlanish dasturini tuzish haqida fikr yuritiladi. Bu maqsadda psixologik, pedagogik metodlardan foydalaniladi. Psixologik testlar talabning shaxsiy xususiyatlari va ma'lum qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bilim darajasi fanlar bo'yicha testlar yordamida aniqlanadi va pedagogik kuzatish ham xulosa chiqarishga yordam beradi. Pedagogik diagnostika ta'lim samaradorligi, ish mazmuni, olib borilgan pedagogik faoliyatni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega. Pedagogik diagnostikaning tarixi pedagogik faoliyat tarixi bilan teng. Talaba bilimiga baho qo'yish, uni ish natijalarini belgilab olish boshlangan erda pedagogik diagnostika ham mavjud. Pedagogik tashxis o'quv materialni bilish jarayonining asosini tashkil etib, maqbul pedagogik xulosaga kelishga zamin yaratadi. Shu boisdan pedagogik tashxis:

- talabalarga individual ta'lim berishni jadallashtiradi;
- davlat va jamiyatning ta'limga qo'ygan talabalaridan kelib chiqqan holda talaba bilimini to'g'ri, adolatli baholashni ta'minlaydi;
- ishlab chiqilgan ta'limiy mezonlar orqali talabning bilimini, mutaxassislikka qo'yiladigan minimal talablarga javob berishini ta'minlaydi.

Pedagogik tashxis yordamida ta'lim-tarbiya jarayoni to'g'ri tahlil etiladi va uning samaradorligi to'g'ri baholanadi. Demak, pedagogik tashxis orqali ta'lim obyektini, ta'limiy tushunchalar qay darajada o'zlashtirilganligi tahlil etiladi. Butun o'quv kursini, o'quv dasturini o'zlashtirish darajasi baholanadi.

Pedagogik tashxis muhim ahamiyatga ega, u o'quv-tarbiya jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi, ta'limiy faoliyat natijasida erishilgan samaralarni xolislik bilan belgilab beradi, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga yo'l ochadi, pirovard natijada ta'limning takomillashib borishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Pedagogik tashxis tarixiga nazar tashlasak, o'tgan asrlarda u faqat o'quvchi bilimini baholash orqali amalga oshirilganini kuzatamiz. Unga 1864-yilda AQSH olimlari D.Fisher va R.Ress asos solgan. 1908-yildan boshlab esa, olim T.Stoun arifmetikadan test orqali talaba bilimini sinash tizimini tatbiq etgan.

Pedagogik tashxis quyidagi jihatlarga ega:

- taqqoslash;
- pedagogik tahlil;
- avvaldan aytib berish;
- interpretatsiya;
- pedagogik diagnostika natijalarini o'quvchilarga yetkazish;
- amalga oshirilgan turli tashxis usullarini o'quvchilarga yetkazish;
- pedagogik tashxis usullarini tugri belgilash.

Pedagogik tashxisning eng muhim mezonlari:

- haqqoniylik;
- ishonchlilik;
- puxtalikdir.

Tashxis tahlillari qachon haqqoniy bo'ladi?

Agar: sinov natijalari turli tekshiruvlarda bir xil natijalar ko'rsatib, ko'rsatkichlar o'zaro bir-biriga yaqin bo'lsa;

Agar: sinov mezonlari, o'lchovlar birligi hamda uning natijalari sinovini amalga oshiruvchi aniqlovchining shaxsiy xislati va munosabatlariga bog'liq bo'lmasa;

Agar: sinov bir xil talab, bir xil munosabat va ruhiy kayfiyatda amalga oshirilsa, mavjud ahvolni aniqlashda haqqoniy natijalar olinishi mumkin.

Diagnostik natijaga qarab differentsiatsiya ishlari tashkil etiladi. O'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish samaradorligini oshirish yo'li bilan ta'limni tashkil etishga qaratilgan texnologiyalardan biri - bu differentsiatsiyalashgan yoki tabaqalashgan ta'limdir. Differentsiatsiya lotin so'zidan olingan bo'lib, qismlarga bo'lish yoki ajratish degan ma'noni bildiradi. Talabning ma'lum xususiyatlarini hisobga olgan holda guruhlariga ajratilgan gomogen guruhlar bilan o'quv jarayonini tashkil etish differensial texnologiyani tashkil etadi.

Differentsiatsiyaning mazmun jihatdan quyidagi turlarini ajratish mumkin:

1. Yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tabaqalash (sinflar, turli xil yoshdagi guruhlar, aralash).
2. Turli sohalarga bo'lgan qiziqishlariga karab (gumanitar, fizika- matematik, biologik-ximik).
3. Aqliy rivojlanishi bo'yicha (bilimlar darajasi).
4. Shaxsiy-psixologik xususiyatlari bo'yicha (fikrlash tipi, xarakter, temperament).
5. Jismoniy sifatleri (fizkultura guruhleri, ko'zi ojiz bolalar, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar).

Differentsiatsiya umuman ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida maydonga chiqadi, ammo o'quv jarayoni davomida, o'zlashtirish jarayonida ushbu usuldan foydalanish differensial texnologiyani vujudga keltiradi. An'anaviy ta'limda talabalar o'quv jarayoniga moslashishi talab etiladi. Differentsiatsiyaning asosiy mazmuni individual yondashuv va o'quvchi shaxsiga o'quv jarayonini moslashtirish, har bir shaxsni uning qobiliyati va imkoniyatlari darajasida o'qitishdir.

Tashkil etilishi buyicha differentsiatsiya bir necha xil bo'lishi mumkin:

➤ Mintaqaviy – maktab shakllari bo'yicha (maxsus maktablar, gimnaziya, litsey).

➤ Maktablararo (kasbiy yo'nalish, chuqurlashtirilgan sinflar, potoklar).

➤ Sinflararo (fakultativlar, bir necha sinflarning yig'indisi, turli yoshdagilardan tashkil topgan guruhlar.

➤ Guruh ichidagi differensiasiya (ichki differensiasiya ham deb ataladi, bir sinfni guruhlash).

Differensiasiya talabaniing vaqtini o'g'irlamaslikka va o'ziga mos tezlikda o'quv jarayonini tashkil etishga yordam beradi. Bir talaba yangi mavzuni 20 daqiqa ichida o'zlashtirib olsa, ikkinchi talaba shu mavzuni 30 daqiqa o'zlashtiradi, uchinchi o'quvchi esa 40 daqiqa ichida o'zlashtiradi deb faraz qilaylik. Birinchi talaba o'quv jarayonida 20 daqiqa vaqtini boshqalar o'zlashtirishini kutib o'tkazadi, ikkinchisi esa 10 daqiqa. Bu vaqt ichida o'zlashtirib bo'lgan talabalar zerikib qoladilar. Ba'zi talabalar ma'lum o'quv kursi materialini o'zlashtirishi uchun 10 soat yetarli bo'lsa, boshqalari bu kursni 15 soatda o'zlashtirish imkoniyatiga ega, uchinchilari esa, ana shu kursni 20 soatlik hajmdagina o'zlashtira oladilar. Demak, o'zlashtirish tezligi ham turlicha bo'lganligidan differensial ta'limni qo'llash har bir talabaniing berilgan standart bilimlarni o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. O'rta me'yoriy yondashuv esa faol talabalarni ishini susaytiradi, sust o'zlashtiruvchi talabalarni esa standart bilimlarni to'liq egallashga to'sqinlik qiladi. Differensial ta'lim har bir ta'lim oluvchi shaxsning imkoniyat va qobiliyatlarini to'laroq ochishga xizmat qiladi, individul yondashuvni vujudga keltiradi.

III bob. ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI O'QITISHNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

REJA:

1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali o'qitishni tashkil etish mazmuni va shakllari.

2. Ta'limni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar.

3. Trening texnologiyasi.

1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali o'qitishni tashkil etish mazmuni va shakllari

Hozirgi kunda pedagogik adabiyot, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy hujjatlarda «Yangi pedagogik texnologiya», «Ilg'or pedagogik texnologiya», «Zamonaviy pedagogik texnologiya» tushunchalari keng qo'llanilmoqda. Ammo, hozirgi vaqtda «Pedagogik texnologiya» tushunchasi hali ham bir tizimga tushirilmagan, uning mazmunini yagona talqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun mazkur iboraning bir-biridan farqlanadigan ko'pgina ta'riflari mavjud. Berilayotgan ta'riflardan, hozirgi vaqtda ko'pgina xorijiy davlatlarda talqin qilinayotgani YUNESKO ta'rifidir. U quyidagichadir:

«Pedagogik texnologiya butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini o'z oldidagi ta'lim shakllarini samaradorlashtirish vazifasini qo'llovchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir» (YUNESKO).


Bu ta'rifdagi asosiy tushuncha «tizimli metod» ekanligi aniq, qolgan barcha so'zlar pedagogik texnologiyaniing tizimli sifatidagi tarkibiy qismlarini ifodalaydi. Ta'lim maqsadlari, uning mazmuni, o'qitish va ta'lim berish metodlari, nazorat va natijalarni baholashni o'zaro aloqada va bir-biri bilan bog'liqlikda loyihalash ko'pgina an'anaviy o'quv jarayonida yetishmaydigan narsadir.

Umuman, pedagogik texnologiya o'qitishga o'ziga xos bo'lgan yangicha (innovatsiya) yondashuvidir. U pedagogikaning ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongining pedagogika sohasiga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi.

Bugungi kunda olimlar orasida pedagogik texnologiyaga qiziqish kuchayganligi kuzatilmoqda. Ammo hozirgi vaqtda respublika miqyosida yangi pedagogik texnologiyalarni aniqlashning yagona talab mezonlari belgilanmagan. Aniqlangan pedagogik texnologiyalarning samaradorligini baholashning mezonlari ham keltirilmagan va h.k. Biz hozirgi kunda respublikamizda ilk bor tatbiq qilinayotgan yangi pedagogik texnologiya yo'nalishlari, tushunchalarini umumiy ko'rinishda berishga harakat qildik. Bizning vazifamiz ta'lim muassasalari o'qituvchilariga texnologik yondashuv to'g'risida minimal zarur axborotlarni berishdan iborat.

Ta'lim-tarbiya jarayonining samarali bo'lishini ta'minlash, yanada yuqori bosqichga ko'tarish, bugungi kunda o'qituvchidan ta'lim jarayonining borishini qayta-qayta atroflicha chuqur tahlil qilishni talab etadi.

Ta'lim jarayonida sun'iy ravishda tashkil qilinib, qator pedagogik omillarning natijasida qo'yilgan maqsad amalga oshiriladi, ya'ni (rasmga qarang)




6-rasm. Ta'lim jarayoni

Mazkur tizim an'anaviy ta'lim texnologiyasining tabiiy modeli bo'lib, u yillar davomida takrorlanib, o'qituvchi, talaba harakatining instinktiga aylanib qolgan. Shuning uchun ham dars tuzilishidagi o'quv-biluv jarayoni yuqoridagi rasmga bo'ysindirilgan. O'qituvchi faoliyat davomida didaktik prinsiplarga amal qiladi, metodlar tanlaydi va har bir dars yagona tugallangan o'quv birligiga aylanib qoladi. Darsni tashkil qilish uning davomiyligini ta'minlash, uning bosqichlariga amal qilish talabalarining bilimlarini o'zlashtirishning yakkayu-yagona vositasi hisoblanadi.

An'anaviy ta'lim texnologiyasi so'rash, tushuntirish, mustahkamlash, baholashdangina iborat va ushbu tartibotni amalga oshirishda o'qituvchining pedagogik mahorati yordamga keladi va oqibatda uslubiy xizmatning barcha vositalari o'qituvchining kasb mahoratini oshirishga qaratilishi zaruratga aylandi. O'qituvchi metodi ta'lim texnologiyasiga mos tushmaydi, ya'ni ta'lim olish texnologiyasi jarayonida o'quvchi asosiy obyekt bo'lsa, metodik xizmat sohasida esa o'qituvchi asosiy obyekt hisoblanadi. Darsda o'qituvchi - bosh figura. U axborot berish, sifatli o'qitish bilan ovora, lekin o'quvchilarning yangiliklarni qabul qilish darajalari har xil, xohish-istaklari turlicha, ular passiv eshituvchi, quloq soluvchi, bu ularning o'quv jarayonidagi mas'uliyatini, javobgarlik hissini susaytiradi. Demak, ular mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish, xulosa chiqarishdan yiroq. Dars jarayonida, ta'lim-tarbiyada o'quvchi asosiy harakatlantiruvchi kuch, ta'lim jarayoni subyekti bo'lishi kerak, ya'ni o'qish, o'rganish, mutolaa qilish o'quvchi zimmasiga o'tishi kerak. O'qituvchi esa o'qitishdan o'qishni o'rgatishga, bilim berishdan o'quvchilarning bilimlarni mustaqil egallashlariga ko'maklashishi zarur. U o'quvchini ehtiyoj tug'dirishdan muhit yaratishga va undan mas'uliyatni sezishga yo'llashi kerak.


Har bir dars uchun ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi, ya'ni bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan uch yoqlama maqsadlar qo'yiladi. Darsni tashkil qilish shakli uning qatnashchilarining o'zaro aloqalariga bog'liq bo'lib, u maqsadlarga, o'quv materialini xususiyatlari, ta'lim metodlari va o'quv imkoniyatlariga bog'liq. Bunga erishish uchun o'qituvchi rahbarligida pedagog bilan o'quvchilar birgalikda harakat qiladilar. Xuddi mana shu jarayon didaktikada o'quv jarayoni deyiladi. O'quv jarayoni uch komponentdan iborat (rasmga qarang).



7-rasm. O'quv jarayoni

O'quv jarayoniga bunday yangicha qarashning tub mohiyati shundan iboratki, o'qitishda ichki motivatsiyadan (diqqatni tortish, ichki tuyg'u, istak, zaruratni shakllantirish) kelib chiqishi kerak.

O'quv jarayonida asosiy harakatlantiruvchi kuch o'quvchi uchun ham, o'qituvchi uchun ham ichki motivatsiya bo'lishi zarur. Guruhlarda ishlashni tashkil etishda quyidagilarga e'tibor berish zarur:



8-rasm. Guruhlarda ishlashni tashkil etish

O'quv materialini tanlashga;

- Turli qo'llanmalardan foydalanish;
- Guruhlarga yozma yo'riqnomalarni tayyorlash.

O'qituvchi va talabalarni guruhda ishlashga tayyorligi quyidagilardan iborat:

Guruhlarda ishlashga o'qituvchini shaxsiy tayyorgarligi bunda,

birinchidan:

- guruhlarni shakllantirish prinsiplari bilan tanishish;
- guruhlarda ishlashni tashkil etish texnikasi bilan tanishish;

ikkinchidan,

- o'z imkoniyatlarini aniqlash.

- talabalar faoliyatni bunday shaklga sekin-asta tayyorlash, ularni guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishtirish.
- o'quv guruhida xushmuomalalik muhitini yaratish.

2. Ta'limni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar

Jamiyat hayotining jadal tarzda rivojlanishi, taraqqiyot ehtiyojlari va imkoniyatlarining kengayishi, turli-tuman axborotlar oqimining tezlashishini hisobga olib, zamonaviy pedagogik texnologiya fani pedagogik prognostikaning yangi shakl, vosita va usullaridan foydalanish mexanizmini yaratishni o'z zammisiga olmag'i talab etiladi. Bugungi kunda turli tipdagi ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ta'limning o'rni va darajasini aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqotlarda pedagogik prognostikaning imkoniyatlaridan keng foydalanish talab qilinadi. Shundagina ta'lim jarayonining natijalari fan, ishlab chiqarish, madaniyat, iqtisod hamda jamiyat hayotining barcha sohaslarini rivojlantirishga xizmat qila oladi. Pedagogik prognostikaga tayangan holda yaratilgan nazariyalargina uzluksiz ta'lim jarayonini uning bosqichlari va komponentlarining mazmuni, shakli va vositalarini, ta'lim natijalarining jamiyat hayotiga ko'rsatadigan ta'sir darajasini oldindan loyihalashtirishga asos bo'la oladi. Demak, o'quv-tarbiya jarayonini yangi tamoyillar va yangi mafkuraviy negizda qayta qurish, ta'lim sohasida islohotlarni amalga oshirish mumkin.

Shuningdek, pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini tashxis qilish va yaratilgan nazariyalar, o'quv-metodik majmualar tajriba-sinov asosida amaliyotga joriy qilishning metodologik asoslari, aniq mexanizmlari, usul va vositalarini ishlab chiqishi kerak. Ta'lim jarayonining tashxis qilish mexanizmi shu jarayonning yutuq va kamchiliklari, ta'lim natijasining sifat ko'rsatkichlari, ta'lim jarayoniga tatbiq qilinadigan pedagogik nazariyalar, zamonaviy texnologiyalarning ta'lim amaliyotini rivojlantira olish yoki ta'limning taraqqiyotiga to'sqinlik qilish darajasini aniqlashga yo'naltirilishi kerak. Pedagogik tajriba-sinov esa amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining samaradorlik darajasini aniqlashda alohida ahamiyatga ega. O'tkazilayotgan tajriba-sinovning xarakteri bilan bog'liq tarzda o'quv dasturlari, darslik va dars ishlanmalari, metodik qo'llanmalar, didaktik ishlanmalar yaratilishi va tajriba-sinov jarayoniga taqdim etilishi zarur. Agar o'quv dasturi tajribadan o'tkazilayotgan bo'lsa, kuzatilayotgan ta'lim jarayonini, yani darslik yoki dars ishlanmalari, texnik vositalar, ko'rgazmali qurollar, o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlashga erishish talab etiladi. Bunda asosiy e'tibor o'qituvchining qaysi metod yoki pedagogik texnologiyani qo'llaganligiga emas, balki o'quv dasturi doirasida taqdim etilayotgan o'quv materiallarining samaradorligini aniqlashga qaratiladi. Chunonchi, tajriba-sinov jarayoniga jalb etilgan nazariyalar hamda tajriba sinflaridan olingan natijalar statistik jihatdan ishlanishi va amalga oshiriladigan tajriba-sinov ishlari jarayoni va ularning natijasi ekspertizasiga nufuzli ilmiy-pedagogik jamoalar hamda yetakchi mutaxassislar jalb etilishi talab qilinadi. Keng ko'lamli tajriba-sinovning amalga oshirilish jarayoni va natijalarining ekspertisasi ilmiy-pedagogik

jamoalar tomonidan oldindan tasdiqlangan Nizom talablari asosida amalga oshirilishi zarur.

Bugungi kunda jamiyatimiz rivojlanishida pedagogik prognostika o'zining aniq belgilab olingan maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiq etayotgan muammolarning mantiqiy asoslari, rivojlanish qonuniyatlari, o'zining tayanch metodologiyasiga ega bo'lgan pedagogika fanining muhim tarmog'i sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik prognostika ilmning ustuvor sohasi sifatida davlat va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan uzluksiz ta'lim tizimini yangidan-yangi pedagogik nazariyalar negizida vujudga kelgan ta'lim modellari va texnologiyalari bilan qurollantirish asosida kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga yo'naltirilgandir.

Pedagogik prognostika o'quvchi shaxsining yosh xususiyatlari va rivojlanish dinamikasini hisobga olgan holda ta'lim texnologiyalarini tanlaydi. Tanlab olingan muayyan ta'lim texnologiyalari doirasida o'quvchi-talabalarga turli darajadagi tushunchalarni hamda mujassamlashgan bilimlarni taqdim etish yo'llarini, shakl va vositalarini taklif qiladi. Muayyan bir pedagogik texnologiyani nazariy jihatdan asoslaganda pedagogik prognostika o'quvchi hamda o'qituvchining jonli faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga, uning erkin fikrlash, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutmog'i lozim.

Ta'lim jarayoniga tatbiq qilinadigan har qanday pedagogik texnologiya, uning komponentlari xoh ta'lim mazmuni, xoh o'quv dasturi yoki darslik, xoh o'qituvchi faoliyati orqali o'tishidan qat'i nazar, o'quvchining jonli tarzda erkin va ijodiy faoliyatini jadal rivojlantirishga xizmat qilishiga erishish talab qilinadi. Bunda pedagogik texnologiyalar, birinchi navbatda, har bir o'quvchi-talabaning boshqa o'quvchi-talabalar, dars materiallari hamda o'qituvchi (pedagog) bilan erkin tarzda muloqot qilishini, fikr almashishini ta'minlaydi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar pedagogik amaliyotning o'quvchi yoki talaba shaxsiga qonunlar majmuini, tabiat va jamiyat hodisalarini, kishilik madaniyati va axloq-odobini, muayyan fan asoslarini tanituvchi shakli sifatida namoyon bo'lishi lozim. Bu sohada nazariy jihatdan qat'iy asoslangan, har tomonlama sinovdan o'tgan hamda aniq amal qiluvchi qonuniyatlarga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati har bir shaxsda mavjud bo'lgan uning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatlari asosida ularda ijobiy xislat va fazilatlarini shakllantirish, rivojlantirish sanaladi.

Bu o'rinda ta'lim mazmuni shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uchun muhit sanaladi. Shuning uchun ta'lim mazmuni insonparvarlikka yo'naltirilgan gumanistik g'oya va me'yorlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya yakka hokimlik texnologiyasiga tubdan qarshi bo'lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlik, o'quvchi-talabalar shaxsini hurmat qilish, e'zozlash orqali shaxsni rivojlantirish va ijod qilishga qulay muhit yaratadi. An'anaviy ta'limda o'qituvchi (pedagog) ta'lim mazmunining subyekti, o'quvchi-talabalar pedagogik jarayonning obykti deb qaralsa, hamkorlik pedagogikasida o'quvchi-talaba o'z o'quv faoliyatining subyekti sanaladi. Shu

sababali hamkorlik pedagogikasida yagona ta'lim jarayonining ikkita subyekti hamkorlikda o'quv-tarbiya vazifalarini hal etadi.

Ushbu pedagogik texnologiyada ta'lim tizimi markazida barkamol inson shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan insonparvarlik g'oyasi muhim o'rin tutadi. Bu g'oya qay darajada amalga oshirilganligi ta'lim jarayonining asosiy natijasi pedagogik jamoa mehnatining sifatiga berilgan baho asosida aniqlanadi. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirishda o'quv-tarbiyaviy jarayonning asosiy natijasini aniqlovchi muhim omil shaxsga bo'lgan munosabat hisoblanadi.

Insonning boshqa mavjudotlardan farqi – o'z oldiga ma'lum bir maqsad qo'yib, so'ng unga tomon harakat qilishidir. Kishining maqsadi sari qiladigan harakati, ya'ni faoliyati jarayonida muayyan tabiiy va sun'iy to'siqlarni yengib o'tadi. Bu to'siqlarni bartaraf etish uchun u bir qator tadbir va choralardan foydalanadi. Maqsadga yetishda muayyan to'siqni yengib o'tish uchun qo'llanadigan tadbir va choralarni majmui usul deb ataladi.

Inson maqsadga yetishda bir necha, ba'zan esa o'nlab-yuzlab to'siqlarni yengishga to'g'ri keladi. Bu to'siqlarni yengish uchun tegishli usullar ma'lum bir tizimda qo'llanadi. Maqsadga yetishda qo'llanadigan usullar tizimi uslub deb ataladi. Usullarni ma'lum bir uslubda qo'llash jarayonida har bir harakat maqomi muayyan maqsad ko'rsatkichlariga bo'ysundiriladi. Undan tashqari, inson maqsadga yetish jarayonida bir qator qonuniyatlarga ham tamoyil sifatida amal qiladi.

Ta'lim uslubi – pedagog bilan talabalar orasida bilim berish va uni olish maqsadida amalga oshiriladigan o'zaro aloqalarni tizimga soluvchi pedagogik tadbir. O'qitish usublari o'quv jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Tegishli uslublar pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi.

Uslublar bilimlarni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliyga bo'linadi. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarning ta'lim faoliyatiga munosib ravishda quyidagi uslublar: tushuntirish – illyustrativ, reproduktiv, muammoli bayon, xususiy qidirish yoki evristik hamda yarim tadqiqot usublari qo'llaniladi.

Ta'limning og'zaki usuliga: hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar kiradi. Bu usublarni qo'llashda o'qituvchi (pedagog) so'z vositasida o'quv materialini bayon qiladi, tushuntiradi, o'quvchi-talabalar esa tinglash, eslab qolish orqali uni faol qabul qiladi.

Hikoya uslubida o'quvchi-talabalarga beriladigan ta'lim mazmunini og'zaki bayon qilish ko'zda tutiladi. Bu uslubni qo'llashda muayyan pedagogik usullardan foydalaniladi. Masalan, diqqatni faollashtirish, bayon qilish, taqqoslash, asosiylarini ajratish, yakunlash kabi mantiqiy tadbirlar shular jumlasidandir. Hikoya samaradorligining shartlari: rejani qunt bilan o'ylab tuzish, mavzuning izchil yoritilishini ta'minlash, ko'rgazmalarni muvaffaqiyatli tanlash, bayonda kerakli emotsionallikka erishish.

Ma'ruza – bilimni so'z bilan ifodalash usulidan biri sifatida beriladigan bilimlarni og'zaki bayon qilishni ko'zda tutib, o'z hajmining kattaligi, mantiqiy qurilishi, obrazli isbotlash va umumlashtirishning murakkabligi bilan hikoyadan

ajralib turadi. Ma'ruza davomida beriladigan bilimni og'zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida o'quvchi-talabalarning diqqatini tutib turish hamda ularning fikrlarini faollashtirish, isbotlash, ta'rif berish, bir tizimga keltirish, umumlashtirish kabi pedagogik usullardan foydalaniladi.

Suhbat uslubi atroflicha o'ylangan savollar yordamida o'qituvchi (pedagog) bilan o'quvchi-talabalar orasidagi suhbatni ko'zda tutib, u o'quvchi-talabalarning fikrlash tizimini, yangi tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi.

Suhbat uslubini qo'llashda savollarni qo'yish (asosiy, qo'shimcha, yo'lovchi va boshqalar), o'quvchi-talabalarning javob va mulohazalarini muhokama qilish, suhbatdan xulosalarni shakllantirish, javoblarni tuzatish usullaridan foydalaniladi.

Ta'limning ko'rgazmali uslubini shartli ravishda ikki katta guruhga bo'lish mumkin: ko'rgazmali va namoyish qilish usublari.

Ko'rgazmali uslub o'quvchi-talabalarga namoyish etiladigan qo'llanmalar, jumladan, xarita, plakat, doskadagi chizma va rasmlar, suratlar va boshqalarni ko'rsatishni ko'zda tutadi. Namoyish qilish uslubi, odatda, qurilma, asboblarni, tajribalarni, turli tipdagi preparatlarni namoyish qilish bilan bog'liq.

Ta'limning ko'rgazmali usulining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular so'z bilan ifodalash uslubi bilan u yoki bu darajada uyg'unlashib ketadi. So'z va ko'rgazmalilikning chambarchas bog'liqligi shundaki, obyektiv borliqdagi qonuniyatlarni amaliyotda birgalikda qo'llanishni taqozo etadi. Demak, so'z va ko'rgazmalilik aloqasining xilma-xil shakllari mavjud. Ta'lim vazifasining o'ziga xos xususiyati, mavzuning mazmuni, mavjud ko'rgazmali vositalarning xarakteri, o'quvchi-talabalar tayyorgarligi darajasidan kelib chiqib, aniq bir holatda ular oqilona uyg'unlashtiriladi.

Amaliy uslublar tarbiya faoliyatining xilma-xil turlari keng doirasini qamrab oladi. Amalda quyidagi usullar qo'llaniladi: vazifa (maqsad)ni qo'yish, uni bajarish uslubini rejalashtirish, bajarish jarayonini boshqarish, tahlil qilish, kamchiliklar sababini aniqlash, maqsadga to'liq erishish uchun ta'lim jarayoniga tuzatish kiritish kabilarni.

Amaliy mashqlarning aniq turlaridan biri mashqni sharhlash hisoblanadi. Uni bajarishda o'quvchi-talaba bo'lajak xatti-harakatini faol mushohada qiladi, o'ziga o'zi eshittirib gapiradi hamda bo'lajak voqeani sharhlaydi. Harakatni sharhlash o'quvchi-talabaga o'zining tipik xatosini anglashga va harakatiga tuzatishlar kiritishga ko'maklashadi.

Amaliy tarbiya usulining ikkinchi guruhini laboratoriya tajribalari tashkil qiladi. Keyingi yillarda maktab, kasb-hunar ta'limi muassasalari va oliy o'quv yurtlarida frontal laboratoriya ishlari mustahkam o'rin oldi.

Amaliy uslublar tarbiyani so'z orqali ifodalash va uni ko'rgazmali uslublar bilan mustahkamlash jarayoni bilan chambarchas bog'liqlikda qo'llaniladi, mashq, tarbiya, mehnat operatsiyasini bajarishdan oldin o'qituvchi (pedagog) tushuntirish beradi, ko'rsatadi. Og'zaki tushuntirish va ko'rgazmali namoyish, odatda, mashqni bajarish jarayonining o'zi bilan bir vaqtda olib boriladi.

Muammoli-qidiruv usublari muammoli ta'lim jarayonida qo'llaniladi. Bu usullardan foydalanishda o'qituvchi (pedagog) avvalo muammoli vaziyat yaratadi,

savollar qo'yadi, masala va topshiriqlarni taklif qiladi, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi, xulosalarining to'g'riligini tasdiqlaydi. O'quvchi-talabalar oldingi bilim va tajribalariga asoslanib muammoli vaziyatni hal qilish yo'llari to'g'risidagi takliflarini aytadi va oldin olgan bilimlarini umumlashtiradi, muammoli vaziyatni yechishning eng oqilona variantini tanlaydi. Bu uslub o'quvchi-talabalarning bilimga qiziqishlarini oshiribgina qolmay, ularda fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

O'quv materialini muammoli uslub yordamida o'tish muammoli tuzilgan ma'ruza uslub orqali bilim bayoni davomida mulohaza yuritish, isbotlash, umumlashtirish, faktlarni tahlil qilish, o'quvchi-talaba fikrini o'z ortidan ergashtirish, uni faolroq qilish kabi usullardan foydalanishni ko'zda tutadi.

Muammoli-qidiruv uslublari ko'proq ijodiy bilim faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida qo'llanadi. Ular o'quvchi-talabalarning bilimni chuqur anglashiga, mustaqil egallashiga yordam beradi. Bu uslublar ta'lim jarayonida tushuncha, qonun va nazariya kabilarni shakllantirish ko'zda tutilganda, faktik axborotni ma'lum qilish, mehnat faoliyatining laboratoriya tajriba o'quv ko'nikmalarini hosil qilishda, o'quv materialining mazmuni prinsipial jihatdan yangi bo'lmasdan, ilgari o'rganilganining mantiqiy davomi bo'lsa, uning asosida o'quvchi-talabalar yangi bilimni qidirish uchun mustaqil qadam tashlasa, mazmun hodisadagi sabab-oqibat va boshqalarga olib kelsa, samarali qo'llanadi. Muammoli-qidiruv uslublari ko'proq o'qituvchi (pedagog)lar o'quvchi-talabalarni muammoli vaziyatni yechish faoliyatiga tayyorlagan hollarda qo'llanadi. Shuning uchun bu uslub o'zini ilmiy-tadqiqot ishlariga bag'ishlagan talaba yoshlarga asqotadi.

Pedagog odatda o'z oldiga talabalar materialning mazmunini tushunib, o'zlashtirib olishsin, ma'lum bilimlarni egallab amaliyotda qo'llashga o'rgansin degan maqsadni qo'yadi. Lekin o'zlashtirish, tushunish, qo'llash nimani anglatadi? Pedagog o'z oldiga qo'yan maqsadga erishganligini qanday biladi?

Pedagogik maqsadlarga erishganlik yoki erishmaganlikni bilishning aniq vositalari bo'lgandagina, pedagog o'zining mehnati samarali ekanligiga va tanlagan metodlari maqsadga muvofiqligiga yoki, aksincha, samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin. O'qitish uslubini tadqiq qilishda pedagogik texnologiya tarafdorlari aynan shu narsani nazarda tutishgan edi.

Pedagog jamiyatdan buyurtmani umumiy ko'rinishda oladi. Hattoki, o'quv dasturlarida belgilangan maqsadlar ham bir nechta tushuntirishlar bilan cheklangan. Bu yerda maqsadlarni aniqlashtirishning o'ziga xos pillapoyasini tuzish mumkin: jamiyatning umumiy talablaridan – ta'lim tizimi vazifalariga, ulardan ma'lum ta'lim muassasasi, o'quv predmeti, uning mavzuli bo'limlari va alohida o'quv maqsadlariga o'tish mumkin.

M.V.Klarin ta'limoti bo'yicha pedagoglar tomonidan maqsadlarni belgilashning an'anaviy usullari quyidagilar:

1. O'quv materialining rejasidan kelib chiqib, maqsadni belgilash.
2. Maqsadni pedagog faoliyati orqali ifodalash.
3. Talabaning intellektual, emotsional, shaxsiy rivojlanishi ichki jarayonlari va qonununiyatlarini orqali o'quv maqsadini qo'yish.

4. O'quv maqsadlarini talabalar faoliyati orqali qo'yish.

Shu munosabat bilan o'qitishning maqsadlarini ta'lim mazmuni, pedagog yoki talabaning faoliyati orqali belgilash ta'limda kutilayotgan natijalar haqida aniq tasavvurga ega bo'lishga imkon bermaydi. Bu natijalar haqida talabalar faoliyatining faqat tashqi namoyon bo'lishidan xulosa chiqarish mumkin. Pedagog o'qitish natijasini aniqlashtira borib, uning kuzatish mumkin bo'lgan tashqi belgilarini, yani so'zlashish, harakatlanish jarayonini to'la tasvirlashga intiladi. Ba'zida, tasvirlash jarayoni tashqi belgilarini sanab chiqishga olib keladi va ushbu jarayon orqali natijani sezilarli darajada soddalashtirish mumkin.

Zamonaviy pedagogik texnologiyada nazarda tutiladigan maqsadlarni qo'yish uslub o'zining ashyoviy xususiyatiga ega. Bu shundan iboratki, o'qitish maqsadlari talabalar harakatida ifodalanadigan, aniq ko'rinadigan va o'lchanadigan natijalar orqali belgilanadi. Demak, an'anaviy o'quv jarayonida asosiy omil bu pedagogning faoliyati hisoblansa, pedagogik texnologiyada birinchi o'ringa ta'lim jarayonidagi talabalarning faoliyati qo'yiladi. Shunday qilib, ilg'or ijodkor pedagoglar, an'anaviy ta'lim texnologiyasidagi kamchiliklarga javob topish, talabaning aqliy mehnatini yaratadilarki, buning oqibatida yangicha pedagogik fikrlash tarzi vujudga keldi. Mana shu izlanishlar zamirida zamonaviy pedagogik texnologiyaga asos solgan pedagogik texnologiyalar yaratila boshlandi. Qo'llanadigan pedagogik texnologiyalarni bir tizimga solish, unga maqsadli yo'nalish berish ta'limni amalga oshirishdagi shakl va mazmun yaxlitligi ta'minlagan holdagina kutilgan zarur natijani olish mumkin. Ta'limga testlar, diagnost va diagnostik tahlilning olib kiritilishi, bilimlarni ko'p balli baholash tizimida aniqlashga o'tish, bo'lim mazmunini yaxlit holda o'zlashtirishni modellashtirish, tizimga solingan nazorat turlarida, talabalarning ishlashi va an'anaviy dars shakllarining vujudga kelishi, biz shu paytgacha o'rganib qolgan an'anaviy ta'lim o'rniga vujudga kelgan pedagogik texnologiyalar bo'lib, ular yangicha fikrlash tizimidagi ta'limga o'tishni taqozo qiladi.

3. Trening texnologiyasi

Ta'limni amalga oshirish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kiritish quyidagilarga asoslanadi:

- ✿ ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi talaba shaxsi ustuvorligini ta'minlash;
- ✿ ta'lim maqsadining natijaga erishuvini amalga oshirish;
- ✿ ta'lim jarayoni boshqariluvchi jarayon ekanligidan kelib chiqqan holda uning maqsadli boshqariluviga erishish;
- ✿ ta'lim mazmunini ta'minlovchi vosita, usul shakllari texnologiyasini yagona bir tizimga keltirish.

Hozirgi vaqtda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

- muntazam tahlil qilib borish;
- loyihalashtiruvchi vositalarning eng zarurini tanlash;
- metod va usullarning maqsadga muvofiqligini aniqlay bilish;

- olinishi zarur bo'lgan natijasini oldindan taxmin qilish, yani maqsadlarning amalga oshishiga erishish;

- ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlash.

Zamonaviy pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga bir qator yangi elementlarni olib kirishni taqozo qiladi. Bular quyidagilar:

- Diagnostika.
- O'quv birliklarini (mezonlarini) belgilash.
- Diagnostik tahlil.
- Tuzatish kiritish (korreksiya).
- Qayta to'latish (ketma-ketlikni yo'qotish).
- Kutilishi lozim bo'lgan natijani olish.
- Rejting.

Yuqorida keltirilgan tamoyillar va elementlarga asoslangan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy qilish, xorijiy hamda hamdo'stlik davlatlaridagi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, o'zimizning zamonaviy pedagogik texnologiya tizimini vujudga keltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni umumlashtirish va amalda qo'llash uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

☞ Ta'lim jarayonining ishtirokchilari pedagog va talaba o'rtasida o'quv mehnati rejasini ishlab chiqish, yani pedagog bo'lim yoki bobni o'rganish rejasini tuzar ekan, ushbu rejada talabani faoliyati o'z aksini topmog'i lozim.

☞ Fanning ichki bog'lanishi yoki fanlararo bog'lanish imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish. Ma'lumki, har bir o'rganiladigan kichik yoki yirik o'quv birliklari oldin o'rganilganlariga tayanadi. Demak, talabani yangi bo'lim, bobni o'rganishga olib kirishda undagi mavjud bilimlarga tayanish, agar mavjud bilimlar yangi bobni, bo'limni o'rganishga yetarli bo'lmasa, oraliq tayyorgarlik olib borish va shundan keyingina talabani bilimlarni o'rganishning navbatdagi bosqichiga olib kirish lozim. Bunday ishlash zamonaviy pedagogik texnologiyaning asosiy elementlaridan biri **diagnostika** (tashxis) hisoblanib, talabalarning yangi yangi bilimlarni o'zlashtirishga qanchalik darajada tayyor ekanliklarini aniqlashdan iborat.

☞ O'quv birliklari mezonlarini belgilash. O'quv birliklari talaba tomonidan o'rganilishi lozim bo'lgan tushuncha, ta'rif, qoida, qonunlar, hodisa va voqealardan iborat bo'lib, ular orasidagi mantiqiy bog'lanishning ta'minlanishini shu bob yoki bo'limning o'zlashtirilishiga olib keladi. Pedagog bob, bo'lim uchun ajratilgan soatlarda talabalar o'rganishi kerak bo'lgan o'quv birliklarini aniqlaydi, u uchun ajratilgan vaqtni ham belgilaydi. O'quv birliklari o'zlashtirilishi zarur bo'lgan mezonlar hisoblanib, talabalar bilimni baholashning chegaraviy qiymati bilan o'lchanadi, yani talaba ushbu ko'rsatilgan mezonlarni bilsagina baholanadi. Pedagog shu paytda guruhga nisbatan o'rtacha baho bilan ishlamaydi, balki aniq o'lchovlarga asoslangan holda ish olib boradi. Shuning uchun zarur topshiriqqa aylantiradi. O'quv rejasini tuzishda pedagog talabalar bilishi lozim bo'lgan o'quv birliklarini bo'lim, bob va semestrlar bo'yicha aniqlaydi hamda talabalarga topshiriq sifatida bo'limni

o'rganishdan oldin vazifa qilib beradi. Berilgan topshiriqlar o'zlashtirish reytingini aniqlashda nazorat topshirig'iga o'tkaziladi.

☞ Diagnostik tahlil. Bilim, ko'nikma va malakadagi kamchilikni aniqlash, ularni to'ldirish va navbatdagi o'zlashtirish bosqichiga ko'tarilish maqsadida quyidagi diagnostik tadbirlar amalga oshiriladi:

- o'quvchi-talabalarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini diagnostikalashtirish;

- bo'limlardagi etishmovchiliklarning oldini olish;

- aniqlangan etishmovchiliklarni to'ldirish maqsadida maxsus topshiriqlar ishlab chiqish;

- maxsus topshiriqlar bilan ishlash soatlarini belgilash;

- yakuniy diagnostik tahlil qilish.

Diagnostika ta'lim texnologiyasining navbatdagi bosqichi bo'lib, uning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. O'zlashtirishdagi kamchiliklar sababini aniqlash, har bir talabani bilim darajasini aniqlash, rejaning borishida tuzatishlar kiritish yo'li bilan ta'lim jarayonining kafolatlanganligi ta'minlanadi. Diagnostik tahlil nazorat turlaridan test so'rovi amalga oshiriladi.

☞ Qayta to'ldirish (nuqsonlarni yo'qotish). Qayta tuzatish kiritishdan maqsad, olingan bilimlardagi kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat. Kamchiliklarni bartaraf etish to'ldirish asosida, qayta to'ldirish asosan amaliy-tatbiqiy mashg'ulotlarda amalga oshiriladi. Shu maqsadda pedagog talabalarning o'zlashtirish darajasidagi kamchiliklarini bartaraf etishga doir amaliy tadbirlarni amalga oshirishi va bunda pedagog tanlayotgan o'quv vazifasining darajasini talabalarda mavjud bo'lgan real bilimlarga moslashtirishi zarur.

☞ Kutilishi lozim bo'lgan natijalarni hisobga olish. Bu element pedagogik texnologiyaning markaziy g'oyasi hisoblanadi. Pedagogik texnologiya ta'lim jarayoni natijasida kafolatli bo'lishini talab qilgan ekan, pedagog oldiga jarayonning borishini amalga oshirish va aniq natijani mo'ljallab rejalashtirishni maqsad qilib qo'yadi. Jarayon borishi davomida shu jarayon tahlil qilib boriladi, tuzatishlar kiritiladi, qayta to'ldirishlar amalga oshiriladi va oldindan kutilishi rejalashtirilgan natija olinishiga erishiladi. Demak, zamonaviy pedagogik texnologiya deb ilgari surgan g'oyaning maqsadi ana shundadir. Jahon pedagogika fani ilmiy-texnika taraqqiyoti ta'sirini boshidan kechirib, psixologiya, kibernetika, tizimlar nazariyasi, boshqaruv nazariyasi va boshqa fanlar yutuqlarini birlashtirib, bugungi kunda faol yangilanish jarayonlari bosqichiga o'tdi va inson imkoniyatlarini samarali rivojlantirish amaliyotiga boy mahsul bermoqda. Pedagogik texnologiya uslublari dastlab ta'lim berishning harakatni namunaviy vaziyatdagi o'zlashtirish talab etiladigan mahsuldor, yani reproduktiv darajasi uchun ishlab chiqilgandi. Reproaktiv ta'lim har qanday ta'limning zarur tarkibiy qismi hisoblanadi, u insoniyat jamg'argan tajribani aniq o'quv fani doirasida o'zlashtirish bilan bog'liq. Ta'lim oluvchilarda bilim va ko'nikmalarning ma'lum «poydevori» hosil qilingandan keyingina, ta'limning natijali, yani produktiv va ijodiy yondashish uslublariga o'tish mumkin.

Treningni ta'lim sohasidagi xususiyati bu:

1. **Maqsadli yo'nalganligi.** Treningni asosiy maqsadi - qisqa vaqt ichida 3 kishidan 25 gacha kishigacha bo'lgan guruhni kasbiy amaliy faoliyatida samarali qo'llanadigan aniq ko'nikma va malakalarga o'rgatishdan iborat.

2. **Trening vaqtini chegaralanganligi.** Trening 72 soat o'tkazilishi lozim, agar bundan oshsa oddiy o'qitish hisoblanadi.

3. **Ishtirokchilar sonining chegaralanganligi.** Trening uchun 25 kishidan iborat bo'lganlar guruh hisoblanadi.

Ta'lim sohasida treningni muvaffaqiyatini quyidagi shart-sharoitlar aniqlab beradi:

1. Hal etiladigan vazifalarni aniq tasavvur etish, jumladan:

- innovatsion jarayonlarda ishtirokchilarning kasbiy mahoratini tezkor oshirish.

Yangi bilim, ko'nikma va malakalarni jadal o'zlashtirish jarayonini aniqlab beruvchi **yo'nalishni rivojlantirish;**

- avvalgi ishida qo'llanilayotgan, shaxsiy tajribasiga yangi munosabatni hosil qilish.

- axborotni, muloqotni va boshqaruvning yangi innovatsion yo'l va vositalarini qabul qilishga tayyorligini shakllantirish.

Kasbiy motivatsiyani o'zgartirish, mustahkamlash va oshirish.

➤ O'qitish, ta'lim jarayonini tashkillashtirish va boshqarish amaliyotida o'zgartirishlar kiritish.

➤ Treningni muvaffaqiyati – ishtirokchilarni qisqa vaqt ichida o'rgatishdan iborat.

➤ Treningda interfaol o'qitishni amalga oshirish.

“Trener” tushunchasi nimani anglatadi?

Trener – bu trening mavzusi doirasidagi nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishi emas, balki shaxsiy tajribasi va pedagogik mahorati, ishtirokchilarga yangi ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga yordam berish qobiliyati va tayyorgarligiga ega bo'lgan inson.

Umuman, trenerning asosiy vazifasi - qisqa vaqt ichida ishtirokchilarda aniq malakalarni shakllantirishdan iborat.

IV bob. MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Reja:

1. O'qitish metodlarining ta'lim berish jarayonidagi o'rni va vazifasi.
2. O'qitish metodlarining tasniflanishi.
3. Faol o'qitish metodlari va ularning xususiyatlari.

1. O'qitish metodlarining ta'lim berish jarayonidagi o'rni va vazifasi

Ta'limning asosiy maqsadi - zamonaviy ilmiy bilimlarni egallagan, mustaqil fikrlash va muammolarni yechish imkoniyatiga ega bo'lgan ma'naviy jihatdan boy shaxslarni shakllantirishdir. Jamiyat rivojlanar ekan, hayotiy talablarning darajasi ham ortib boradi. Demak, ilmiy bilimlarning hajmi kengayib, ilmiylik darajasi chuqurlashib borar ekan, mantiqiy fikrlash va muammolarni tezda hal etishga bo'lgan talab ham kuchayib boradi. Bu fikrdan kelib chiqqan holda ta'lim tizimi nafaqat bugungi kun talabini balki kelajak talablarini aniqlagan va hisobga olgan holda ish olib borishi kerak degan xulosaga kelamiz. Chunki, bugungi kun talablari kelajakda jamiyatning asosiy o'zagiga aylanadi. Demak, ta'lim tizimi talabalarni bugungi kundagi hayotga emas, balki kelajakdagi hayotga tayyorlashi lozim. Bu ham ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Ta'lim – maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir. Ta'lim jarayoni o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tamonlama harakterga ega. O'qituvchining faoliyati tufayli ta'lim puxta o'ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, kutilgan natijani beradi. Ta'lim jarayonining mazmunini bilim, ko'nikma va malaka tashqil qiladi.

Ta'lim metodlari deganda - o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning birgalikda bajaradigan faoliyat usullari tushuniladi va bu usullar ta'lim oluvchilarning texnik-texnologik bilimlarni, ko'nikma va malakalarni egallashlariga, mustaqil ravishda bilim olish va bu bilimlardan amalda foydalanish qobiliyatini oshirishga qaratilgan bo'ladi.

Xalq ta'limi vazirligi, pedagogika ilmiy tadqiqot instituti, metodist pedagoglarning, xususan pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri - ta'lim-tarbiyadagi muammolarni, mahalliy va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqish, barcha o'quv fanlari bo'yicha yangi milliy dasturlar yaratish, ta'limni pog'onalash, dars jarayonini toifalashdan iboratdir.

Shu munosabat bilan yaqin o'tmishdagi o'zbek o'quv muassasalari o'qitish tarixiga bir nazar tashlash ayni paytda ta'lim metodlarini o'rganishni osonlashtiradi. Shubhasiz, mazkur ta'lim metodikasi tarixiga oid manba muayyan darajada ta'limning metodik bo'shliqlarini ma'naviy jihatdan to'ldiradi, pedagog tarbiyachilarning pedagogik meros va halq pedagogikasiga bo'lgan katta ehtiyoj va qiziqishlarini qondiradi.

Ta'lim berishda o'qitish metodlari asosiy o'rinni egallaydi. **Metod**-yunoncha atama bo'lib, usul, yo'l degan ma'noni anglatadi, yani maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Metodlar (usullar) har qanday axborotni (maqsadni) uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab quyidagi sinflarga ajratiladi:

- so'z orqali ifodalanadigan metod;
- ko'rgazmali metod;
- amaliy metod.

Ta'lim jarayonida talabalarni o'zlashtirish, fikrlash jarayonini tashkil etish bo'yicha esa quyidagi metodlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- o'qitishning ma'ruza (suhbat) metodi;
- o'qitishning amaliy ishlar metodi;
- laboratoriya ishlari metodi;
- mustaqil ishlar metodi;
- reproduktiv-evristik metod;
- ilmiy-tadqiqot metodi;
- o'qitishning muammoli-izlanish metodi;
- o'qitishning induktiv va diduktiv metodi.

Axborotni so'z orqali yetkazish va qabul qilishga qaratilgan birinchi guruh metodlariga: hikoya, suhbat, ma'ruza kabilarni kiritish mumkin.

Nutq madaniyatini o'stirishda hikoyaning o'qitish va fikrlarni bayon qilish metodi sifatidagi imkoniyatlari boshqa metodlarga nisbatan yuqoridir.

Hikoya qilish - pedagog tomonidan yangi o'tilayotgan mavzuga oid fakt, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon etiladi. Bu metod materiallarni bayon qilishda, obrazlarga harakteristika berishda, tabiat hodisalari va ijtimoiy hayotdagi voqealarni tasvirlashda qo'l keladi.

Hikoya qilish davomida talabalar passiv tinglovchi bo'lib qolishlariga yo'l qo'ymaslik kerak. Talabalarning diqqatini tasvirlanayotgan obyektga qaratibgina qolmay balki xuddi shu obyekt haqida ular ongli va faol fikr yuritishlarini ham ta'minlamoq lozim.

O'quv materialini tushuntirish - pedagog tomonidan o'rganilayotgan mavzuning narsa, hodisa va voqealarning mazmunini xarakterlaydigan tushuncha, qonun va qoidalarni uqtirishdir. Bu metod ko'proq matematika, fizika, kimyo, ona tili, rus tili va shunga o'xshash fanlarni o'qitishda qo'l keladi. Pedagogning ma'lum bir fanning u yoki bu mavzuga oid qonun, qoidalarni qanchalik asosli ekanligini faktlar, misol va dalillar keltirish, shuningdek, masalalar, misollar ishlash yo'li bilan isbotlab beradi. Bu jarayonga talabalarning faol ishtirok etishlarini ta'minlamay turib, kutilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. Ayniqsa bayon qilinayotgan materiallarni umumlashtirish va xulosalar chiqarishda talabalarning o'z mulohazalari bilan ishtirok etishlarini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'ruza metodi. Bu metod o'quv materialini hajmining kattaligini, mantiqiy tuzilishi, obrazlari isbot va umumlashtirishning anchagina murakkabligi bilan farqlanadi. Agar hikoya darsning bir qisminigina egallasa, ma'ruza odatda ularni to'la qamrab oladi. Ma'ruza davomida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, mavzuga

oid ko'rgazmali materiallarni namoyish etish, ma'ruza oxirida umumiy xulosalar chiqarish kabilarni samaradorlikni oshiradi. Ma'ruza metodi keng qamrovli axborotni talabalarga yetkazishda g'oyatda qo'l keladi.

Suhbat. Bu metod asosan savol-javob yo'sinida olib boriladi. Suhbatlarning ma'lum maqsadga qaratilganligi ularning xarakterini belgilaydi. Suhbat evristik, etik, instruktiv metodik xarakterda bo'lishi mumkin.

Suhbat metodi talabalarning faol ishtiroki orqali o'tkazilganligi uchun ular ham mustaqil fikrlash, xulosalash kabi xislatlarni shakllantiradi. Mashg'ulotlarni tashkil qilish va uni olib borish jarayonida pedagog suhbat metodidan foydalanganda quyidagi shartlarga amal qilishi kerak.

O'qitishning ko'rgazmali metodlari.

O'qitish jarayonida ko'rgazmalilik metodidan foydalanishning muhimligi o'rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga talabani undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilish va nihoyat, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgata bilishdadir.

O'qitishning amaliy ishlar metodi.

Amaliy ishlar metodlariga masalalar yechish, chizmalar tayyorlash, yozma mashqlarni bajarish kabilarni kiritish mumkin. Nazariy jihatdan egallangan bilimlar amalda qo'llab ko'riladi. Grafik, jadval, kartalar chizish ham tegishli ko'nikma va malakalarni hosil qilishga va ularni mustahkamlashga yordam beradi.

Laboratoriya ishlari metodi.

Laboratoriya mashqlari frontal tajribalar, laboratoriya ishlari, praktikumlar o'qitishning texnik vositalari va o'quv qurollari tipidagi boshqa asbob-uskunalar bilan mashg'ulotlar tarzida o'tkaziladi. Laboratoriya metodining boshqa o'qitish metodlaridan farqi, shundaki, bu metod bilan ish qo'rilganda har qaysi talaba nimanidir mustaqil, shaxsan tajriba qilib ko'radi. Dars pedagog rahbarligida talabalarning mustaqil tajriba o'tkazishlariga qaratilgan bo'ladi. Laboratoriya mashg'ulotlarida mustaqillik, faollik, tashabbuskorlik oshadi.

Mustaqil ishlar metodi.

Keyingi davrda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Chnki, bu metod talabada ijodkorlikni, mustaqillikni rivojlantiradi. O'quv dasturlarida mustaqil ta'lim uchun soatlar ajratilmoqda. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda ma'lum fanning xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ishning mazmuni, shakli va vazifalari tanlab olinadi. Topshirilgan mustaqil ishni bajarish uchun pedagog kerakli adabiyotlar va yo'l-yo'riqlarni ko'rsatishi, qisqacha tushuntirish berishi lozim. Talaba bajarishi kerak bo'lgan mustaqil ish ko'p vaqt egallamasligi va shu bilan bir qatorda talabaga rivojlantiruvchi sifatida ta'sir ko'rsatishi kerak.

Reproduktiv, evristik metod.

Reproduktiv metodlar birinchi navbatda, talabalarning o'quv materialini tezroq va mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash va bilimlardagi tipik kamchiliklarni tez aniqlash uchun qulay. Reprodukativ metodlar, ayniqsa, o'quv materialining mazmuni asosan axborot harakterida bo'lsa, murakkab va butunlay yangi bilimlar o'rganilishi lozim bo'lgan holatda samarali natijani beradi. Tafakkurning

reproduktivlik xarakteri pedagog yoki boshqa manba orqali xabar qilinadigan o'quv axborotlarini faolroq qilishini va eslab qolishini nazarda tutadi. Hikoya, ma'ruza, ko'rgazmalilik va amaliy ishlar ham reproduktiv asosga qurilishi mumkin. Reproductiv xarakterdagi amaliy ishlar shunisi bilan farq qiladiki, bu ishlar davomida talabalar namunaga ko'ra ilgari yoki yaqindagina o'zlashtirgan faolligini oshirish maqsadida ular ko'pincha evristik yani, qisman izlanuvchan metod bilan qo'shib olib borilishi mumkin. Yangi mavzuni bayoni davomida o'rganilayotgan materialning ba'zi elementlari ustida talabalarga fikr yuritish imkoniyati beriladi. Pedagog tomonidan engil qisqa savollar tuzilib, talabalarning ishtirokida ularga javob topishga harakat qilinadi. Evristik metod talabalarning bilish darajasini aniqlashga ham yordam beradi. Demak, evristik metod yangi mavzuni idrok qilishda talabalarning ham qisman ishtirok etishini ta'minlaydi.

Ilmiy tadqiqot metodi.

Bu metod ta'lim tizimida unchalik keng tarqalmagan metod bo'lib, ma'lum tayyorgarlikni talab etadi. Pedagog rahbarligida talabalar yoki bir talaba ma'lum ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishi va ma'lum fan uchun yangi xulosalarni yasashi mana shu metodni qo'llash jarayonida vujudga keladi. Bu metod asosan oliy ta'lim muassasalarida qo'llaniladi. Ilmiy tadqiqot metodi davomida ilmiy bilish jarayoni sodir bo'ladi, yani hali noma'lum bo'lgan bilimlar kashf etiladi va egallanadi. Buning uchun ilmiy tadqiqot rejasi tuziladi. Maqsad belgilanadi va tadqiqot usullari tanlab olinadi. Tadqiqot natijalari asosida xulosalar yasaladi.

O'qitishning muammoli-izlanish metodi.

Yangi mavzuni o'rganish jarayoni o'rganilayotgan materialni tayyor holda talabalarga bayon etmasdan, balki muammo sifatida taqdim etish muammo-izlanish metodini keltirib chiqaradi. Yani, dars davomida yakun yasash kerak bo'lgan xulosalar pedagog tomonidan emas, balki talaba tomonidan yasalishiga harakat qilinadi. Har bir talaba qo'yilgan muammoga o'ziga xos yondashib uni hal etishga harakat qiladi va o'z fikrlarini bayon etadi. O'rtaga tashlangan fikrlar muhokama qilinadi va pedagog tomonidan yo'naltiriladi. Pedagog va talabalar birgalikda xulosalar yasashadi. Muammoli-izlanish metodi talabalarni bilish faoliyatini faollashtiradi, mustaqillikka, ijod qilishga o'rgatadi, o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, shaxsiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Bu metodda o'rganilayotgan masala chuqur tahlil etilishi va bilimlarning puxta bo'lishiga yordam beradi. Bu metod o'rganilayotgan masalani chuqur tahlil etishga va bilimlarning tafakkur darajasi hisobga olinishi kerak. Tanlangan mavzuni tahlil etish uchun talabalarda ma'lum bilimlar bazasi mavjud bo'lishi lozim. Shu tufayli ham bu metodni qo'llash uchun talabalar alohida axborotlar bilan qurollantiriladi. Keyingi davrlarda muammoli-izlanish metodidan foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda.

O'qitishning induktiv va deduktiv metodi.

O'qitishning mantiqiy metodlari ikki turda: induktiv va deduktiv metodlar bilan olib borilishi mumkin.

Darslarga tayyorlanish jarayonida o'qitishning induktiv, deduktiv kabi metodlarini tanlash zarurati ham tug'iladi. Keyingi davrlarda deduktiv o'qitishga talab va e'tibor kuchaydi. Ammo tafakkurning induktiv usullarini shakllantirmay

turib faqat tabiiy-ilmiy emas, balki umummehnat xarakteridagi tajribalar amaliy faoliyatida ham muvaffaqiyatga erishishga umid qilib bo'lmaydi. Induktiv yoki deduktiv metodlarni qo'llash o'rganilayotgan mavzu mazmunini ochishning ma'lum mantiqiy-xususiydan umumiyga yoki umumiydan xususiyga o'tishini tanlashni anglatadi.

Induktiv metodlar texnik qurilmalarni o'rganishda va amaliy topshiriqlarni bajarishda keng qo'llaniladi. Matematika va fizikaga doir ko'pgina masalalar, ayniqsa pedagog talabalarni ayrim umumiyroq formulalarni mustaqil egallashlariga olib kelishi zarur deb hisoblangan hollarda, induktiv metod vositasida echiladi.

Deduktiv metoddan foydalanganda pedagog va talabaning faoliyatida avval umumiy holat, formula va qonuni beriladi, so'ngra asta-sekin ayrim holatlarni chiqarib aniqroq vazifalarni hal etish nazarda tutiladi. Deduktiv metod o'quv materialini tezroq o'tishga yordam beradi, abstrakt tafakkurni faolroq rivojlantiradi. Nazariy materialni o'rganishda, anchagina umumiyroq holatlarning ayrim oqibatlarini aniqlashni talab qiluvchi masalalarni yechishda deduktiv metodni qo'llash ayniqsa foydalidir.

2. O'qitish metodlarining tasniflanishi

Pedagogik amaliyotda quyidagi metodlar – og'zaki metod (og'zaki bayon, tushuntirish, suhbat), kitob bilan ishlash (instruktiv materiallar), ko'rgazmali metod (ko'rgazmalar, kino, videofilm, kuzatuv), amaliy metod (mashqlar, laboratoriya, amaliy ishlar)lardan keng foydalaniladi.

Didaktik vazifalarga bog'liq holda quyidagi metodlar qo'llaniladi – bilimlarni hosil qilish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarni qo'llash, mustahkamlash, bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish.

Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatiga mos ravishda ikki metod ajratiladi va ular 2-guruhga birlashtiriladi: reproduktiv va muammoli izlanish metodlari.

O'qitishning *reproduktiv va muammoli-izlanish metodlari* eng avvalo, o'quvchi-talabalarning yangi tushuncha, hodisa va qonunlarni bilishdagi ijodiy faolliklari darajasini baholash asosida qismlarga ajratiladi.

Reproduktiv metodlar birinchi navbatda, o'quvchi-talabalarning o'quv materiallarini mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash, bilishga doir faoliyatni bevosita boshqarish, kamchiliklarni tez aniqlash uchun amaliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladi.

Hikoya qilish usuli reproduktiv tuzilganda o'qituvchi qoidalarni, dalillarni, tushunchalarning ta'rifini tayyor holda beradi, u asosiy e'tiborini mustahkam o'zlashtirib olinishi zarur bo'lgan asosiy tomonlarga qaratadi.

Ma'ruza ham xuddi shunday tarzda tuziladi: o'qituvchi muayyan ilmiy ma'lumotlarni bayon qiladi, doskaga tegishli yozuvlarni bitadi, tinglovchilar esa ularni qisqacha yozib oladilar.

Muammoli ta'lim deyilganda, o'quv materialini o'quvchi-talabalar ongida ilmiy izlanishga o'xshash bilish vazifalari va muammolari paydo bo'ladigan qilib o'rganish tushuniladi. O'quvchi-talabaning fikrlash faoliyatida mantiqiy to'g'ri, ilmiy

xulosalarni izlash va o'zlashtirishga rag'batlantiradigan muammoli vaziyatlar yuzaga keladi. Paydo bo'layotgan muammoni hal qilish uchun, u o'rganilayotgan qoidalarni to'g'ri tushunib olishga intiladi.

Ta'lim metodi 3 ta asosiy guruhga bo'linadi:

1. O'quv bilish va o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodi.

2. O'quv faoliyatiga qiziqtirish va rag'batlantirish metodi.

3. Ta'lim oluvchilar o'quv faoliyati samaradorligini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish metodi.

Metodlarning har bir turi guruhlarga bo'linadi va o'z navbatida ularning ham alohida metodlari bor, bular esa ta'lim jarayonining quroli hisoblanadi. O'quv bilish va o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodiga quyidagilar – suhbat, ko'rgazmali va amaliy metod, o'qituvchi boshchiligidagi induktiv yoki deduktiv, reproduktiv yoki produktiv yo'nalishlardagi metodlar kiradi. O'quv faoliyatiga qiziqtirish va rag'batlantirish metodiga – o'quv bilish va o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish hamda o'qish faoliyatiga qiziqtirish metodlari kiritilgan. Har bir metod boshqa bir metod yordamida qo'llaniladi. Masalan, reproduktiv va muammoli izlanish metodi suhbat, ko'rgazmalar, amaliy faoliyat yordamida qo'llaniladi. O'z navbatida suhbat, ko'rgazmali va amaliy faoliyat metodlari ham reproduktiv yoki izlanish metodlari orqali qo'llanilishi mumkin. Hayotiy o'quv jarayonida esa eng muhimi bu metodlarni turlarga bo'lish emas, balki o'qituvchining chuqur bilimga ega bo'lishi, metodlardan unumli foydalana olishi, ta'lim oluvchilarga o'quv ishlab chiqarish, o'quv faoliyatida metodlarni to'g'ri qo'llay olishga o'rgatishdir.

O'quv muassasalarida boshlang'ich kasbiy ta'limni o'qitishning nazariy qismi quyidagi fanlarni 3 ta siklini tashkil qiladi: umumiy ta'lim, umumiy texnik ta'lim va kasbiy ta'lim.

Umumiy ta'lim fanlari bo'yicha ta'lim metodining umum didaktik, xususiy didaktik va xususiy metodik aspektlari pedagogik adabiyotlarda chuqur bayon qilib berilgan.

Umumtexnika va kasbiy fanlarni o'qitish metodlari ko'pincha o'ziga xos mazmunga ko'ra aniqlanadi:

- ko'p komponentli tuzilma, obyektlarni turli xil yo'nalishlarda o'rganish;

- ta'lim oluvchilarning ishlab chiqarish ta'limi bilan o'zaro bog'liqligi;

- materialning keng qamrovliligi, tajribaviy izlanish soni va sifati jihatidan, xizmat ko'rsatish usullarini amaliy o'rganish;

- o'quv materiali mazmuniga yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, mahalliy shart-sharoitlarni aks ettirish.

Ta'lim metodlarida bularni inobatga olish zarur.

1. *Ta'lim oluvchilarni o'quv bilish faoliyatini tashkil qilish metodi.*

Suhbat metodi. Og'zaki bayon. Umumtexnika va kasbiy fanlarni o'rganish jarayoni o'quv materialini og'zaki bayonini gapirib berish va tushuntirish orqali amalga oshiriladi, bunda mavzu to'liq taqqoslanadi, isbotlanib, misollar bilan tushuntiriladi.

Bayon qilinayotgan material ta'lim oluvchilarning tushunishi uchun qiyin bo'lgan, yangi ma'lumotlar xabar qilingan, mehnat usullarini bajarish yo'llarini tushuntirib berish talab qilingan hollarda og'zaki bayon qilish metodidan foydalaniladi.

Umumiy talablardan quyidagilarni ajratib olamiz:

- ilmiy-texnik aniq mazmun;

- mantiqiy tuzilishi va ketma-ketligi;

- ta'lim oluvchilarga tushunarli va oson etib boradigan;

- har bir bosqichda fikrning aniq va ravshanligi;

- ta'lim oluvchilarning e'tiborligi, faolligini oshirish.

Suhbat – bu ta'limning shunday usulidirki, unda o'qituvchi to'g'ri qo'yilgan savollar yordamida ta'lim oluvchilarda ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni hosil qilib esga tushiradi va shu asosda mustaqil ravishda yangi bilimlar hosil qilishga undaydi.

Ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va boshqarish savol-javob metodi orqali amalga oshiriladi. Bunday suhbat *evristik suhbat* deyiladi. Umumiy o'tkazilgan suhbatlar ta'lim oluvchilarning qiziqishini, diqqatini oshirishga, bilimlarini yaxshi egallashga olib keladi. Lekin suhbat metodi og'zaki bayon metodidan ko'ra murakkabroqdir, yani o'qituvchidan darsga puxta tayyorlanishni talab qiladi.

Kasbiy fanlarni o'rganishda evristik suhbatning quyidagi shartlarini ko'rsatish mumkin:

- o'quv materialining mazmuni mantiqiy to'g'ri tuzilgan bo'lishi shart;

- yangi o'quv materialini o'rganishda ko'proq texnik va texnologik hujjatlarni muhokama qilishga qaratish kerak;

- suhbatni boshqa metodlar va o'quv ishlari turlari bilan birga o'tkazish kerak (tushuntirish, kitob bilan ishlash, kuzatuv).

Evristik suhbatda savollar keng qamrovli tuzilgan bo'lishi lozim.

Ushbu o'rinda quyidagi savollarni ko'rsatish mumkin:

1. Fanlarni qarama-qarshi qo'yish (uning ko'rinishini, jarayonni, dalillarni va boshqalarni);

2. Har xil holatga tushib qolganda ham bilimlaridan foydalana olishini aniqlash;

3. Sababini tashxisli tushuntirish;

4. Isbotlash «ha» yoki «qarshi»ga dalil keltirish;

5. Fanlararo bog'liqlikni o'rnatish.

Suhbat o'tkazishda uning mantiqiy rejasiga qat'iy rioya qilish kerak, savol-javoblarning ketma-ketligi shunday tuzilgan bo'lishi kerakki, unda mavzu murakkablashib, rivojlanib borishini ta'lim oluvchi sezishi va yakunida o'qituvchi suhbatni xulosa qilib tugatishi kerak.

Kitob bilan ishlash: tez o'qitish, konspekt olish, reja tuzish, misollar muhokamasi, nazorat savollariga javob berish va hokazolar.

2. *Ko'rgazmali metodi.*

Insanning tashqi olamni sezishining eng muhim organi – ko'zdir. Olimlarning fikricha, 80 % informatsiya ko'z orqali tushadi, 80 % ish operatsiyalari ko'z orqali

qilinadi. Mana shulardan ko'rishimiz mumkinki, ta'lim jarayonida ko'rgazmali metod katta ahamiyatga ega.

Umumtexnik va kasb ta'limi fanlari bo'yicha ko'rgazmali metodlar, tabiiy (asbob, dastgoh, detall, jihoz, material namunalari) va tasviriy (plakatlar, model, maket, sxema, kino-videofilm, kino proyeksiya, kompyuter, multimedia). O'qituvchi mavzuni tushuntirishda ko'rgazma sifatida yoki ayrim bir xil holatlarda o'rganilayotgan fan bo'yicha aniq ko'rgazma sifatida, yangi axborotlarni berishda ko'rgazmali metodlar juda qulaydir.

3. Amaliy metod.

Mashq amaliy metodning asosi hisoblanadi. Mashq o'tkazishning asosiy maqsadi o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilar texnika va kasbiy fanlar bo'yicha egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishni o'rgatishdir. Ta'lim oluvchilarning bilimlarini mustahkamlashda ham mashqlarning o'rni kattadir. Hamma mashqlarni 3 ta asosiy tipga keltirish mumkin: reproduktiv, badiiy, izlanuvchanlik.

Reproduktiv mashq - bu tipdagi mashqlarni bajarishda ta'lim oluvchilar qurilmaning tuzilishi, materiali, asbob-uskunalar, yozma vazifalarni o'rganishadi. Reprodukativ mashqda chizmalar, sxemalar, grafiklar, diagrammalar muhokama qilinadi va ta'lim oluvchilar ularni bajarishadi. Kasbiy fanlar bo'yicha esa texnik hujjatlar, stanok pasportlarining texnologik kartalari o'rganilishi mumkin.

Badiiy mashq - bu turdagi mashqlarni bajarishda ta'lim oluvchilar egallagan bilim va malakalaridan turli xil kombinasiyalarda foydalanishadi, yani oldiga qo'yilgan vazifalarning mustaqil original javoblarini topishadi. Badiiy mashq turlaridan biri reproduktiv masalalarni hal qilish: tanlash (asbob, ishlov berish turi, sozlovchi mexanizm), taqqoslash va baholash (ishni bajarish yo'li, asboblarning qo'llanilishi) aniqlashga bog'liq bo'lgan (texnik talab, aloqadorlik), turli xil texnik jarayonlarni tushuntirishdan iborat. Bu turdagi mashqlar orqali o'rganilayotgan mashina, mexanizm, qurilmalarning sxemalari tuziladi.

Izlanish mashqi - bu ham egallangan bilimlarni mashqlarda badiiy qo'llash bo'lib, ta'lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirishga yordam beradi.

3. Faol o'qitish metodlari va ularning xususiyatlari

Hozirgi kunda ilmiy va amaliy pedagogikada ta'lim metodlari katta ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim oluvchilarning ichki va tashqi faolligini oshirish uchun turli xil o'yinlardan foydalaniladi. Bularning eng ko'p qo'llaniladigani - didaktik o'yinlardir.

Kasb ta'limidagi didaktik o'yinlar: «texnik diktant», «kichik konkurslar», «kim epchil-u, kim chaqqon», «texnik kurashlar», «savollar», «texnik loto», «texnik domino» va hokazolar.

Ta'limning faollik metodiga seminar darslari ham kiradi. U uch bosqichdan iborat: seminar bo'yicha o'qituvchining ma'ruzasi, ta'lim oluvchilar seminar bo'yicha mustaqil uy vazifalarini tayyorlab kelishi va seminarlarni o'tkazishi. Bunda ta'lim oluvchi tomonidan tayyorlab kelingan mustaqil ishlari, referat va ko'rgazmali qurollari, asboblari va jihozlardan foydalangan holda tushuntirib beradi. Ta'lim muassasalarida amaliy ishlarda interfaol darslar ham keng qo'llanilmoqda. Bu

darslarda ikki yoki bir necha fanlarning mavzulari o'rtasidagi aloqadorlik o'rganiladi. Masalan, matematika va informatika, fizika va kimyo, kasbiy texnologiya, ishlab chiqarish ta'limi va boshqalar.

Ta'lim oluvchilarning o'quv bilish faoliyati faolligi darsdan tashqari ishlarda texnik kashfiyotchiligini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Darsdan tashqari ishlar - kasbiy ta'lim ustasi tanlovlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, rasionalizatorlar va kashfiyotchilar bilan uchrashuv, ilm-fan namoyandalari, texnik olimlar bilan uchrashuvlar, namunali ishlar ko'rgazmasi, texnik to'garaklar orqali amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish ta'limining asosiy maqsadi - ta'lim oluvchilarda aniq bir kasb, soha bo'yicha ustachilikni shakllantirishdir. Ishlab chiqarish ta'limida bu asosiy maqsadga bosqichma-bosqich erishiladi. Quyida «kasb ustasi» tushunchasini ochib beruvchi mezon ko'rsatkichlari keltirilgan:

➤ Bajarilayotgan ishning sifati - texnik talablarni bajarish, me'yor va ko'rsatkichlarga mos kelishi, ijobiy natijalar olish;

➤ Mehnatni tashkil qilish - belgilangan vaqtda bajarish, vaqtdan unumli foydalanish, ish vaqtida tejamkorlik;

➤ Kasbiy mustaqillik - mustaqil ish turini tanlashni bilish, ishlab chiqarishning yuqori sifatini ta'minlash, to'g'ri xulosalar chiqarish, o'z-o'zini boshqarish, mehnat madaniyatiga amal qilish, ishni rejalashtirish, yangi texnika va texnologiya bilan ishlay olish, yuqori texnologik intizom, kasbiy bilimlarni amalda qo'llay bilish, mehnat faoliyatini va ish joyini to'g'ri tashkil qilish, mehnat xavfsizligi qoidalari to'g'ri rioya qilish.

O'quv ishlab chiqarish ishlarida faollik, yani aqliy bilim katta rol o'ynaydi. Faollik ta'lim oluvchilar mustaqilligida, maqsadli faoliyat tanlashlarida va ularni ijobiy natijalarga olib kelish, mehnatni rejalashtirish, analiz va xatoliklarga yo'l qo'ymasligida namoyon bo'ladi. Ta'lim oluvchilarning o'quv ishlab chiqarish ta'limidagi faolligi - mashinalarni, agregatlarni ishlatishdagi qobiliyati, ichki jarayonni bilishi va qilingan tahlillar asosida maqsadli yechimlarga kelishlarida ko'rinadi.

Ishlab chiqarish ta'limidagi «faollik» metodiga - ishlab chiqarishdagi texnik masalalarni yechish kiradi: ishlov berish, tuzatish, boshqarish me'yorini hisoblash, avtomatlashtirilgan jihozlardan uchun boshqaruv dasturini ishlab chiqish, jadval, diagrammalardan kerakli ma'lumotlarni topish kabilar.

Ishlab chiqarish ta'limining «faollik» metodiga mashqlar ham kiradi. Mashqlar ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan masalalarni yechish uchun qo'llaniladi. Bunday mashqlar ishlab chiqarish hayotida sodir bo'ladigan jarayonlarga ta'lim oluvchilarni tayyorlaydi. Mashqlarni o'tkazish uchun jarayon hosil qilish kerak bo'ladi. Misol uchun, agregatlarni sozlash, texnologik me'yorlarni buzilganligi, ish joyida buzilish holatlarining sodir bo'lishi kabilar.

V bob. O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MUAMMOLI O'QITISH TEXNOLOGIYASINING DOLZARBLIGI

Reja:

1. Muammoli ta'limning vujudga kelish tarixi.
2. O'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda muammoli ta'limni qo'llash texnologiyasi.
3. Ta'lim samaradorligini oshirishda muammoli ta'limni qo'llash mahorati.

1. Muammoli ta'limning vujudga kelish tarixi

Muammoli ta'lim yangilik emas, unga 1894-yilda amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Dj. Dyuri (1895-1925) tomonidan asos solingan. U Chikagoda eksperimental maktab tashkil yetar ekan, talabalarning qobiliyatlarini o'rganib, ularni to'rt guruhga ajratadi: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy, tadqiqotchilik.

Tadqiqotchilik xususiyatiga ega bo'lgan bolalarga tadqiqot olib borish, muammolarning yechimini topish, amaliy tajribalar o'tkazish asosida ta'lim uyushtiriladi. Talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollariga o'zlarini mustaqil javob topishga harakat qiladilar. Bunday yondashuv juda yaxshi natijalarni ko'rsatdi.

1923-yili sobiq SSSRda ham shunday yo'nalish «kompleks-proekt» nomi ostida rivojlantirila boshlandi. Dyuri g'oyalari asosida sinf-dars tizimi eskirib qolgan degan fikr vujudga keldi. Ammo 1932-yili bu yo'nalish samarasiz deb topildi va uning rivojlanishiga yo'l bekildi.

Bugungi kunda muammoli ta'lim tushunchasi ostida o'quv jarayonida o'qituvchi tomonidan vujudga keltiriluvchi muammoli masalalarga yechimni topish va o'quvchini faol ijodiy mehnati tushuniladi. Muammoli vaziyatlarni yechimini topish talabalarda mustaqil fikr yuritish, ish jarayonida vujudga keluvchi turli muammolarni yechimini tez topish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham fan-texnika tez rivojlanayotgan va bilimlarimiz tez o'zgarayotgan bir davrda muammoli ta'lim masalasi dolzarb bo'lib bormoqda.

Bugungi kunda olimlarimiz miyaning ishlash mexanizmlarini o'rganar ekanlar quyidagi xulosalarga kelmoqdalar:

Miya hujayralari son jihatdan doimo bir xil bo'ladi, ammo ularni mashq qilish orqali, aqliy mehnatni bajarish orqali miya hujayralarining sifatini o'zgartirish mumkin. Yoshlikda miya hujayralari mashqqa beriluvchan bo'ladi. Agar besh yoshgacha bola ikki tilni o'rgansa, yani miya faol ishlasa, kelajakda u iqtidorli bolalar qatoriga qo'shilish imkoni bir necha barobar ortadi. Agar 15 yoshgacha uch tilni o'rgansa, unda bu bolaning miyasini ishlash samarasi yanada ortadi. Biz bilamizki, bugungi kunda inson miyasining o'rtacha 0,5% imkoniyatidan foydalaniladi. Aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi ba'zi olimlar miyaning 10 % imkoniyatidan foydalanadi. Olamshumul kashfiyotlar qilgan buyuk insonlar miyasining 15-20 % imkoniyatidan foydalanagan.

Miyaning faol ishlashi nafaqat aqlni o'tkirlashtiradi, balki shaxsning salomatligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Miya faol ishlaganda o'zidan kuchli quvvat ishlab chiqaradi va bu quvvat organizmni energetik holatiga ta'sir ko'rsatadi va

biologik jarayonlarni borishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Aqliy faoliyat organizmda biologik qarish jarayonini sekinlashishiga yordam beradi. Chunki miya faol ishlagach ruhiyatda yangilanish sodir bo'ladi, bu esa jismoniy tanada o'z aksini topadi. Demak, muammoli ta'limni joriy etish tarbiyalanuvchilarni nafaqat aqlini, balki butun jismini tarbiyalaydi.

Bugungi kunda kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarni aynan muammolarni hal etishga, masalaning yechimini mustaqil topishga o'rgatish dolzarb masala ekanini bilamiz. Chunki bugungi kunda fan-texnika taraqqiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanib borar ekan mavjud bilimlarimiz tez-tez yangilanib boradi. Bu holat bizdan faqat fundamental bilimlarni tushunib o'rganishni emas, balki fikrlash refleksini rivojlantirishni ham talab etadi. Muammoli ta'lim tizimi aynan ana shu fikrlash refleksini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, aqliy faoliyatni faollashtiradi. Ma'lumki aqlning uch turi ajratiladi:

1. Konseptual aql – hodisalarning mantiqiy, matematik, lingvistik masalalarini yaxshi hal qilish imkonini tug'diradi.

2. Estetik aql – hodisalarning shaklini bilishga intilish, lekin har doim ham ularning sabablari bilan qiziqmaslik.

3. Ijtimoiy aql (sosal) – asosiy diqqat shaxslararo munosabatlarda jamlangan bo'ladi, shuningdek inson taqdiri, maqsadlar va qadriyatlar bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda alohida o'rin egallaydi.

Muammoli ta'lim ham ana shu aqlning qay birini rivojlantirishga qaratilganligi bilan bir – biridan farq qilishi mumkin. Lekin, ta'lim jarayonida biz ko'pincha konseptual aqlni rivojlantirishga intilamiz. Bu borada ko'plab pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilgan, ammo ijtimoiy aqlni rivojlantirishga juda kam e'tibor qaratiladi. Agar ijtimoiy aql jamiyatni rivojida juda katta ahamiyat kasb etishini eslasak bu kechirib bo'lmas kamchilik ekanini anglab etamiz.

2. O'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda muammoli ta'limni qo'llash texnologiyasi

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning muhim sharti mazkur jarayonga tizimli yondashuv sanaladi va o'qituvchilarga quyidagi dars turlari tavsiya etiladi:

1. Ma'ruza (kirish ma'ruzasi, mavzuli ma'ruza, umumlashtiruvchi ma'ruza) mashg'ulotlari.

2. Seminar (bilimlarni mustahkamlovchi, yangi bilimlarni mustaqil egallashga mo'ljallangan) darslari.

3. Modulli dars.

4. Muammoli (aqliy hujum) darslar.

5. Munozarali (ilmiy munozara va erkin fikrlash) darslar.

6. Didaktik-o'yinli (syujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferensiyalar, o'yin mashqlar) darslar.

7. Sinov (didaktik kartochkalar, test topshiriqlari, o'zaro nazorat varag'i yordamida EHM nazorat dasturlari vositasida o'tkaziladigan) darslari.

Mazkur darslarning o'ziga xos jihati dars davomida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarga asoslanadi.

Muammoli ta'lim deyilganda, o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. SHuningdek, muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

1. O'quv materialini muammolashtirish;
2. Ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish;
3. Ta'lim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish;
4. O'qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnida samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;
5. Muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o'quvchilarga bayon etish.

Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o'quvchi-talabalarining muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida obyekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko'nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi hamda o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. O'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikr yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas, balki u bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'lmasligi, yani yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda o'quvchi-talaba mashaqqat talab qilgan tushuncha yoki faktning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab etadi.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- o'quvchi-talabaga notanish bo'lgan faktning mavjud bo'lishi;
- vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli vaziyatlarni hal etishda o'qituvchi pedagog o'quvchi-talabalar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi.

Muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda foydalanish mumkin. Muammoli vaziyatlar tizimi muvaffaqiyatli yaratilgan hollarda mazkur mavzuni muammoli dars shaklida o'tish tavsiya etiladi. O'qitish jarayoniga muammoli darslarni qo'llash uchun o'qituvchi quyidagi masalalarni hal qilishi kerak bo'ladi:

- o'quv dasturi bo'yicha qaysi mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini;

- mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, sistemalilik, mantiqiylik, ketma-ketlik, izchillik prinsiplariga amal qilishi;

- o'quvchi-talabalarining bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va usullarni aniqlashi, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarini belgilashi zarur.

O'qituvchi o'rganilayotgan bob va mavzularning didaktik maqsadi, ta'lim mazmunidan kelib chiqqan holda yuqori samara beradigan mashg'ulot turini belgilaydi, o'quv yili boshidan taqvim mavzularni rejalashtiradi. Muammoli ta'lim murakkabligiga ko'ra turli darajada bo'lishi, yani tashkil etilishi mumkin. Bu talabalarining tayyorgarlik darajasiga, bilim darajasiga va fikrlash kobiliyatining rivojlanganlik darajasiga bog'liq holda tanlanadi.

Muammoli ta'limning *birinchi darajasi* – o'z holicha vujudga kelib qolgan muammolar bo'lib, turli dars tiplarida va turli vaziyatlarda surunkali holda vujudga keladi va o'z yechimini kutadi.

Muammoli ta'limning *ikkinchi darajasida* – o'qituvchi tomonidan muammo vujudga keltiriladi va talabalar tomonidan echiladi. Bu holda talabalar muammoni yechish usulini kuzatadilar va passiv holatda bo'ladilar. Ular muammoni yechish malakasi bilan tanishadilar.

Muammoli ta'limning *uchinchi darajasida* – talaba tomonidan muammoli vaziyat tashkil etiladi va muammo o'rtaga tashlanadi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda yechim topiladi. Bunda talabalar faol ishtirok etadilar va ularda mustaqil va ijodiy fikrlash refleksi rivojlanadi.

Muammoli ta'limning *to'rtinchi darajasida* - muammoli vaziyatni ham muammoning yechimini ham talabalar o'zlari tashkil qiladilar. Ular mavzudagi mavjud muammoni ko'ra olishga va uni yechimini mustaqil ravishda topa olishga o'rganadilar. Bu muammoli ta'limning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Chunki talabalar ijodiy fikrlashga o'rganadilar. Bu holda o'quvchilar o'ta faol holatda bo'ladilar. O'qituvchi esa kuzatuvchi va ba'zan yo'naltiruvchi sifatida maydonga chiqadilar.

Muammoli ta'limni tashkil etishga ko'pgina omillar ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun o'qituvchi xohlagan vaqtda uni tashkil etish imkoniga ega bo'lmaydi. Muammoli ta'limni tashkil etish uchun, ayniqsa uchinchi va to'rtinchi darajasini alohida sharoit talab etiladi. Muammoli ta'limni tashkil etish uchun shart – sharoitlar quyidagilardan iborat:

1. Talabalar ma'lum bilimlar bilan qurollangan bo'lishi va ana shu bilimlardan foydalana bilishi lozim.

2. Talabalar muammoni yechish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.
3. Tanlangan mavzu muammoli xarakterga ega bo'lishi talab etiladi.
4. O'qituvchidan mavzuni to'la o'rganish va muammoli vaziyatlarni ishlab chiqish talab etiladi.
5. Talabalar soni chegaralangan bo'lishi lozim.

3. Ta'lim samaradorligini oshirishda muammoli ta'limni qo'llash mahorati

Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'lim texnologiyasi – bu muammoli o'qitish, tadqiq etib, muammoni hal etishdir. Ta'lim texnologiyasi esa, rivojlanayotgan ta'lim jarayonini, muammoli o'qitish vazifasini faol o'rganish jarayonini rag'batlantirish, tadqiqot ishlarini olib borish va tafakkur etish usulini tarbiyalashdan iboratdir. Muammoli o'qitish jarayoni shaxsning ijodiy faoliyatini tarbiyalash maqsadlariga mos oliy ta'lim muassasalari ish amaliyotida muammoli o'qitish bilan birgalikda illyustratsiyali tushuntirish texnologiyasi, axborot-malumot texnologiyasi va dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasi kabilardan keng foydalaniladi.

Muammoli o'qitish jarayonida o'quvchining mustaqillik roli reproduktiv o'quv usullariga solishtirib qaraganda ancha samarali bo'ladi. Muammoli o'qitishning maqsadi o'quvchi-talabalar bilan ishlash jarayonida ta'lim-tarbiya masalalari, muammo va savollariga javob qidirish, ularni hal etish yo'llari bilan yangi bilimlarni o'zlashtirishni, o'quvchilar o'quv faoliyatida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va hal etish bo'yicha o'qituvchilar ularda qiziqish uyg'ota olishdan iborat. Professor N. Azizxo'jayeva muammoli vaziyatning ma'nosini quyidagicha ta'riflagan, yani muammoli vaziyat o'quvchi-talabalarga ma'lumotlar, bilimlar bilan yangi dalillar, hodisalar, vaziyatlar orasidagi dialektik qarshiliklar bo'lib, ularni tushunib olish uchun ilgari olgan bilimlarining etishmasligidir. Bu qarama-qarshiliklar (tushunmovchiliklar) ijodiy bilimlarni o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyat xususiyati quyidagilardan iborat:

- o'quvchi-talabalar uchun noma'lum yangilik mavjudligi;
- muammolarni o'zlari hal etishlari;
- shaxsiy qiziqish va ehtiyojlari yuzaga kelgan tushunmovchiliklarni o'zlari o'rganishga harakat qilishlari;
- nima noma'lum ekanligini bilib, ma'nosini tushunib, uni hal etishga intilish kabilari.

Yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilib fikr yuritish, o'quvchi-talabalarining mustaqil aqliy faoliyatini rivojlantirishning muhim talablaridandir. Bunday fikr yuritish o'quvchi-talabani shu narsani anglay olmaganligini tushunib etib, bu gapning ma'nosiga jiddiy ravishda e'tibor berishga qaratadi.

Muammoli ta'lim va uni amalga oshirish shartlari

Asosiy nazariy mazmuni	Amalga oshirish sharti
<p>Bu ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol o'zaro harakatini tashkillashtirish yo'li bo'lib, bunda taqdim etilgan muammoli ta'lim mazmunini yechishda ular munozara yuritadilar, fikr yuritishni o'rganadilar, bilimlarni ijodiy o'zlashtiradilar.</p> <p>Alohida fikrlashni, bilimlarni mustahkamlash va amaliy faoliyatda ijodiy qo'llashni ta'minlaydi.</p> <p>Ta'lim oluvchilarning shaxsiy intilishlari, bilish qiziqishlarini shakllantiradi, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, ta'lim oluvchilarning dialektik fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishiga yordam beradi.</p>	<p>Ta'lim oluvchilar oldiga tartibli va maqsadga yo'naltirilgan muammolarni ilgari surish, ularni ta'lim beruvchi rahbarligi ostida hal etib, yangi bilimlarni faol o'zlashtiradilar.</p> <p>Yo'nalish bo'yicha mustaqil ijodiy bilish faoliyatini ta'minlash: muammoli vaziyat → muammoni shakllantirish → uni hal etish yo'li → muammoni yechish → yechimni tekshirish.</p>

Muammoli ta'limni tashkil etish va olib borishda o'qituvchi (pedagog) o'zining ta'lim-tarbiya berishdagi faoliyatini aniq tushunib, etishi ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi (pedagog) o'quvchi-talabalarga tayyor fikr bermay, balki ularning izlanishiga to'g'ri yo'nalish berishi lozim. O'quvchi-talabalar mashg'ulotlarda va kundalik hayotda uchraydigan voqea, xabar, hodisa va turli dalillarni o'zlari tahlil qilib, mustaqil fikrga ega bo'lishni maqsad qilib qo'yishlari kerak. Shuningdek, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi muammoli ta'lim o'quvchi-talabalarining izlanish faoliyati, bilim va malakalarni chuqur egallab olishini, tevarak-atrofdagi o'zgarishlarga bo'ladigan qarashiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatini ham yaratib beradi.

O'qituvchi (pedagog) muammoli ta'lim tizimida o'quvchi-talabalar o'quv-izlanish faoliyatini shunday tashkil etadiki, ularning diqqati yuzaga kelgan qiyinchilik va kamchiliklarni hal etishga, turli axborotlarni mustaqil tahlil qilishga, yechimini topish, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga, olgan bilim va malakalarini keyingi duch keladigan vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan bo'lishi lozim. Demak, buning natijasida o'quvchi-talabalarda mustaqil fikr yuritish, bilim olish, yangidan-yangi maqsadlarni qo'yish, yangicha fikrlash yo'llariga o'rganish hamda tafakkurining rivojlanish qobiliyatining shakllanishiga imkon beradi. O'quvchi-talabalar muammoli ta'lim jarayonida o'quv materiallarini muammoli vaziyat sharoitida o'rganishlari, tegishli ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilishlari, berilgan o'quv masalalarini farazlarini oldinga surib, ularni isbot qilish yo'llari bilan yechishlari, ta'lim jarayonini o'zlashtirishga aql bilan harakat qilishlari ularning intellektual faoliyatlarini oshiradi.

Muammoli darslarda o'qituvchining faoliyati, avvalo mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlar tizimini yaratish, o'quvchi-talabalar oldiga o'quv muammolarini yuqori ilmiy va metodik saviyada qo'yish, darsda mazkur o'quv muammolaridan samarali foydalanishga erishish, o'quvchi-talabalar faoliyatini muammolarni hal etishga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

O'quvchi-talabalarning faoliyati muammoli vaziyatlarni idrok etish, hal qilish usullarini izlash, muammoni tahlil qilib, taxminlarni ilgari surish, taxminlarni ilmiy, mantiqiy nuqtai nazardan asoslash, taxminlarni tekshirish va xulosa chiqarishdan iborat bo'ladi.

Hozirgi zamon muammoli darslarning didaktik maqsadi quyidagilardan iborat:

1. O'quv muammolarini hal etishda o'quvchi-talabalar tomonidan avval o'zlashtirgan bilimlarini ijodiy qo'llab, yangi bilimlarni egallash ko'nikmalarini;
2. Bilimlarni ijodiy o'zlashtirish va amalda qo'llash malakalarini;
3. Izlanuvchanligi, qiziqishi, motivlari, mantiqiy tafakkuri, ijodiy faoliyati, aqliy kamoloti, zakovatini rivojlantirishdan iborat.

Muammoli mashg'ulotda muammoli vaziyat bo'lishi nazarda tutiladi va an'anaviy darsning hamma bosqichlarini o'z ichiga oladi: uy vazifasini tekshirish, maxsus og'zaki mashqlar, o'quvchi-talabalar oldiga dars maqsadini qo'yish, yangi o'quv materialini tayyorlash va uni o'rganish, yangi va ilgari o'rganilgan materialni bog'lab mustahkamlash, mashg'ulotni yakunlab, uyga vazifa berish kabilar. Muammoli mashg'ulotlarda yangi o'rganilayotgan qonun-qoidaga oid dalillar to'plash, ularni bir-biri bilan taqqoslash va tahlil qilish, bilimlarni o'rganish va mustahkamlash jarayoni parallel ravishda olib boriladi.

Ta'limda muammoli o'qitishning uch sharti mavjud:

1. Muammoli ta'limni tashkil etishda o'quv materiallarini tizimli, tartib bilan rivojlantirish.
2. Vazifa berilganda uni yechish usullarini tanlash imkoniyatini berish.
3. O'quvchi-talaba bilim olishni maqsad qilib qo'yishi va maqsadiga erishishi uchun o'z bilimini to'g'ri baholay olishi.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatni yuzaga keltirishda bir qator didaktik maqsadlar ham ko'zda tutiladi, yani;

- o'quvchi-talabalar diqqati o'quv materialiga tortiladi;
- o'quvchi-talabalarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otish;
- ularni o'zlashtirish faoliyatini jonlantirish;
- ularning oldiga aqliy faoliyatni rivojlantiruvchi masalalar qo'yish;
- o'quvchi-talabalar o'rganishi mumkin bo'lgan bilimlar yetarli darajada emasligini dalillarga asoslangan holda ko'rsatish;
- o'quv materiallarini tahlil etishga o'rgatish;
- o'qitishdagi muammolarni hal etishning yo'llarini topishda ularga ko'mak berish.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar bir necha turga bo'linadi:

1. O'quvchi-talabalar o'z oldilarida turgan masalaning yechimini topa olmaydi, muammoli savol yuzaga kelganda unga o'z vaqtida javob bera olmaydi, yangi mavzuni tushinishda ancha qiyinchiliklarga duch keladi.

2. O'quvchi-talabalar oldin egallagan bilimlarini yangi sharoit va vaziyat yuzaga kelganda qo'llay olmaydi.

3. Ularning muammoni nazariy yo'l bilan hal etish va bu tanlangan usulni amalga oshirishi o'rtasida qarama-qarshiliklar vujudga keladi.

4. O'quvchi-talabalar amalda bajargan topshiriq natijalari bilan o'zlarining nazariy jihatdan tushunib etishlari o'rtasida bilimlarining etishmasligi ham muammoli vaziyatlar yuzaga kelishiga olib keladi.

Ta'lim jarayonida muammoli o'qitish samarali, maqsadga muvofiq bo'lishi uchun uni o'quv jarayoni, o'quv-tarbiya ishlari asosining bir qismiga aylantirish zarur. Muammoli ta'lim yordamida talabalarda o'quv muammolari va mutaxassislik masalalarini yechishga tadqiqiy yondashish, mustaqil tarzda o'rganish mahoratini shakllantirishni tarbiyalaydi.

Shunday qilib, muammoli ta'lim o'quvchi-talabalar bilim tizimlari va aqliy hamda amaliy faoliyatlarida samarali o'zlashtirishga yordam beradi, o'zlashtirgan yangi bilimlaridan kelajakdagi vaziyatlarda unumli foydalana olishni, ta'lim muammolarini echa bilish, mustaqil izlanishga o'rgatish, ijodiy tajribaga ega bo'lish va uni rivojlantirish, ta'lim jarayonining vazifalarini tahlil qilish, muammoli ta'limni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi.

VI bob. O'QUV FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH VA JADALLASHTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Reja:

1. Didaktik o'yinli texnologiyalar haqida tushuncha.
2. Ishbilarmon o'yinlarni tuzish va tashkillashtirish tamoyillari.
3. Ishbilarmon o'yinlarni tashkillashtirish bosqichlari.

1. Didaktik o'yinli texnologiyalar haqida tushuncha

Pedagogika fanida didaktik o'yinli texnologiyalar konsepsiyasi hali to'liq ishlab chiqilmagan, shuning uchun ham unga turli xil ta'riflar beriladi. Bu hol didaktik o'yinlarni ishlab chiqish va ommalashtirish ishini qiyinlashtiradi. Lekin shunga qaramasdan hozirda o'quv jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish ommalashib bormoqda. Chunki bu metod o'zining ko'pgina ijobiy tomonlariga ega. Bu metod orqali bir vaqtning o'zida bir necha ish bajariladi:

- egallangan bilimlarni tekshirish;
- yangi bilimlarni egallash va amaliyotda tekshirib ko'rish;
- kasbiy tayyorgarlik (malaka, ko'nikma hosil qilish).

Didaktik o'yinlar hayotiy voqelikka eng yaqin keluvchi metod bo'lib hisoblanadi va u ko'proq amaliy ahamiyatga egadir. Didaktik o'yinlarni ta'lim muassasalarida tashkil etish va qo'llashda quyidagi psixologik va pedagogik prinsiplarga amal qilgan holda yo'lga qo'yish lozim:

1. Ishlab chiqarishdagi real vaziyatni modelini ko'chirish va ishlab chiqarish dinamikasini hisobga olish. Ishlab chiqarish jarayoni rivojlanish, doimiy o'zgarish xarakteriga ega ekanligini yaxshi bilamiz. Ana shu o'zgaruvchanlik va dinamik rivojlanish ishbilarmon o'yinlarni tashkil etish jarayonida albatta hisobga olinishi talab etiladi.

2. Kasbiy faoliyatning mazmuni va shaklini hisobga olish. Oliy ta'limning eng asosiy vazifalaridan biri yuqori malakali kadrlarni yetkazishdir.

Biz ana shu vazifani bajarish uchun har bir ixtisoslik bo'yicha o'ziga xos bo'lgan ishbilarmon o'yinlarni ishlab chiqishimiz zarur.

3. Jamoa bo'lib ish bajarishiga o'rgatish. Bugungi talaba ertaga jamoaga qo'shilar ekan, u jamoaning bir qismi sifatida ma'lum bir funksiyani bajaradi. Shu jamoaning boshqa a'zolari bilan birgalikda umumiy ishni olib boradi. Shuning uchun jamoa bo'lib ish bajarishni o'rganish ham juda muhim.

4. Ikki planlilik xususiyatini hisobga olish. Ishbilarmon o'yinlar tashkil etilar ekan, ular o'zida ham o'quv jarayonini, ham ishlab chiqarish jarayonini aks ettiradi. Bu holda ikki jarayon ustma-ust tushadi va bir-birini to'ldiradi. Shuning uchun ham ishbilarmon o'yinlar ikki planlilik xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Bu o'quv va ishlab chiqarish jarayoni:

- o'quv jarayoni - ta'lim-tarbiya;
- ishlab chiqarishdagi real vaziyat.

5. Immitasion modelning muammoli xarakterini ta'minlash. Biz ishlab chiqarish vaziyatlarini ma'lum epizodlarini o'quv jarayoniga ko'chirib olib tahlil yetar ekanmiz, ana shu vaziyatning ma'lum muammosiga bag'ishlangan bo'lishini ta'minlashimiz kerak bo'ladi. Chunki, aynan muammoli immitasion modellar talabalarni ishlab chiqarish faoliyatiga puxta tayyorlaydi. Demak, tanlab olingan immitasion model (ishbilarmon uyini) muammoli xarakterda bo'lishini ta'minlash o'ta zarur tamoyillardan biri bo'lib hisoblanar ekan.

Ushbu prinsiplar asosida didaktik o'yinlarni tashkil etish nazariy bilimlar bilan amaliyotni bog'liqligini oshirishga yordam beradi. Talabalarda nafaqat nazariy bilimlar va malaka hosil qiladi, balki kasbiy mahoratni rivojlantirish va shakllantirishga imkon beradi.


Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli talabalarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar *didaktik o'yinli darslar* deb ataladi.

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi yani, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashga yordam beradi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratadi;
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni engishga va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarini tarkib topishga yordam beradi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;
- o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni talabalarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli, ijodiy o'yin, ishbilarmon o'yinlar hamda konferensiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin. O'qituvchi-pedagog avval talabalarni individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki talabalar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari



9-rasm. Didaktik o'yin texnologiyasi

Didaktik o'yinli mashg'ulotlar	Mavzu mazmuni qanday bo'lganda mazkur mashg'ulotdan foydalaniladi.	Mashg'ulotlarning didaktik funksiyalari	Talabaning faoliyati
Syujetli-rolli	Fanning turli sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish, tabiatdagi va kundalik hayotdagi muammolarni hal etish imkoniyati bo'lganda	Kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabat-larni, tabiat obyektlari va tabiiy hodisalar o'rtasidagi aloqalar va bog'lanishlarni adabiy-badiiy tarzda yoritish	Muayyan rollarni bajarish orqali bilim, ko'nikmalarni egallash
Ijodiy o'yin	Avval o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyati bo'lganda	Muammoli vaziyatlarni avval o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash orqali hal etish.	Ijodiy izlanish orqali yangi mavzuni o'zlashtiradi
Ishbilarmonlar o'yini Aukcion	Turli obyektlarga tavsif berish, ularni taqqoslash imkoniyati bo'lganda	Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy mu-nosabatlar asosida talabalarining dunyo-qarashini kengaytirish, kasbga yo'llash	Auksionda ishtirok etish orqali yangi mavzuni o'zlashtiradi
Konferensiya	Fanning turli sohalariga oid bilimlar mujassamlashgan va qo'lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog'lanish-larni amalga oshirish imkoniyati bo'lganda	Qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirish, ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, kasbga yo'llash	«Olimlar» maqomini olib muayyan mavzularda izlanishlar olib boradi
Matbuot konferensiyasi	Fanning turli sohalarini qamrab olgan, talabalarining avval o'zlashtirgan bilim-laridan foydalanish lozim bo'lganda	Qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirish, darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash	«Olimlar» va «Muxbirlar» maqomini olib mavzuni o'zlashtiradi

O'qituvchi-pedagog didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazishga qizg'in tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

1. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar dasturda qayd etilgan mavzularning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo'lishi;

2. Jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag'ishlanib, ular o'yin davomida hal qilinishi;

3. Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-axloq normalariga mos kelishi;

4. O'yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi;

5. Mashg'ulotlar davomida didaktik prinsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak.

Quyida biz «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat» fanini o'qitishda didaktik o'yinli mashg'ulotlardan ayrimlarini ko'rsatib o'tamiz.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlar orasida *konferensiya mashg'ulotlari* ham muhim o'rin tutadi.

Konferensiya mashg'ulotlari talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishda, ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda, qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirishda, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini orttirish, mustaqil hayotga ongli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Konferensiya mashg'ulotini o'tishdan avval mashg'ulot mavzusini, maqsad va vazifalarini belgilab, shu mavzuga oid qo'shimcha ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar ko'zdan kechiriladi. Mashg'ulotni o'tkazishdan 1 hafta oldin mashg'ulot mavzusi e'lon qilinib, unga tayyorgarlik ko'rish uchun adabiyotlar tavsiya etiladi. Ushbu mashg'ulotda «Olimlar» rolini tanlash, mavzuni har tomonlama yoritish, ma'ruza tayyorlash talabalarning ixtiyorida bo'ladi.

Ilmiy konferensiya mashg'ulotini quyidagicha o'tkazish tavsiya etiladi:

I. O'qituvchining kirish so'zi. Bunda o'qituvchi mashg'ulotning mavzusi, maqsadi va vazifalari, tegishli rollarni bajaruvchi «Olimlar» bilan talabalarni tanishtiradi.

II. Ilmiy ma'ruzalarni tinglash. «Olimlar» mavzu yuzasidan tayyorlagan ma'ruzalarini ko'rgazmali qurollar asosida bayon qiladilar.

III. Ma'ruzalar muhokamasi. Bunda «Olimlar» va guruhdagi boshqa talabalar o'rtasida mavzu yuzasidan bahs-munozara o'tkaziladi.

IV. Ilmiy konferensiyaning yakuni. O'qituvchi mavzu yuzasidan eng muhim tushuncha va g'oyalarni ta'kidlab, darsni yakunlaydi.

V. Talabalarni baholash. Mashg'ulotda faol ishtirok etgan talabalar rag'batlantiriladi va reyting tizimiga muvofiq baholanadi.

VI. Uyg'a vazifa berish.

VII. Mashg'ulotni umumiy yakunlash.

Quyida «Kasb ta'limi metodlari» mavzusida o'tkaziladigan ilmiy konferensiya mashg'ulotining loyihasini ko'rsatamiz.

Mavzu: **Kasb ta'limi metodlari.**

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. Talabalarni mashg'ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

Bu mashg'ulotni o'tishdan bir hafta oldin talabalarni 4 ta guruhga ajratamiz va ularga pedagogika fani sohasida faoliyat ko'rsatayotgan «Olimlar» maqomini beramiz.

III. Yangi mavzuni o'rganish: Talabalar guruhi o'z mutaxassisliklariga tegishli bo'lgan quyidagi mavzulardan biri bo'yicha ma'ruza tayyorlaydi.

1. Kasb ta'limi metodlari va ularning tavsifnomasi.

2. Reproduktiv va muammoli izlanish metodlari.

3. Ishlab chiqarish jarayonida interfaol metodlar.

Har bir yo'nalish bo'yicha «Olimlar» maqomini olgan talabalar o'zlariga tegishli mavzu bo'yicha ko'rgazmali qurollar asosida qo'shimcha materiallardan foydalangan holatda ma'ruza qiladilar. Ma'ruzalar tugagach, talabalar o'rtasida bahs va munozara o'tkaziladi. Quyida didaktik o'yin texnologiyasining konferensiya metodidan foydalanilgan mashg'ulotning texnologik xaritasi keltirilgan.

5-jadval.

Mashg'ulotning texnologik xaritasi

Texnologik bosqichlar	O'qituvchining faoliyati	Talabaning faoliyati
I bosqich Tashkiliy qism 5-daqiqa	Talabalarni mashg'ulotning mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtiradi.	Mashg'ulotning mavzusi, maqsadi, borishi va bajarilishi kerak bo'lgan topshiriqlarni anglaydi.
II bosqich Talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish. 5-daqiqa	Bajariladigan o'quv topshiriqlari va ularning didaktik maqsadi bilan talabalarni tanishtiradi. Talabalardan «Olimlar» guruhlarini va ularning mustaqil ishlash jarayonini tashkil etadi.	Bajariladigan o'quv topshiriqlari yuzasidan ko'rgazmalar va didaktik maqsadni anglaydi. O'quv faoliyatini tashkil etadilar. «Olimlar» guruhiga berilgan topshiriqlarni bajaradilar.
III bosqich Yangi mavzuni o'rganish. 60-daqiqa	O'quv materialini topshiriqlar yordamida mustaqil o'zlashtirishini ta'minlaydi. Har bir guruhning o'quv materiali yuzasidan tayyorlagan ma'ruzalarini tinglaydi. Ma'ruza yakunida talabalar bilan savol-javob, o'quv bahsi o'tkazadi.	1-guruh 2-guruh 3-guruh 4-guruh Har bir guruh o'quv materiali yuzasidan ma'ruzalar tayyorlaydi.
IV bosqich Natijani tahlil qilish va yakunlash. 10-daqiqa	Talabalar faoliyatini tahlil qiladi, ularga mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarni beradi.	Talabalar bilan o'tkaziladigan savol-javob, bahs-munozarada faol ishtirok etadi.
		O'quv faoliyati va erishilgan natijani tahlil qiladi va baholaydi. Mustaqil va ijodiy topshiriqlarni oladi.

IV. Mashg'ulotni umumiy yakunlash.

V. Uyg'a vazifa berish.

Talabalarning ijodiy izlanishi, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda ijodiy o'yinlar muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim jarayonida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni talabalar o'zaro hamkorlikda avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini ijodiy qo'llanish va izlanish orqali hal etishga zamin tayyorlaydigan didaktik o'yinlar **Ijodiy o'yinlar** deb ataladi.

Ijodiy o'yinli mashg'ulotlardan «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat» fanini o'qitishda «Kasb ta'limi muassasasini boshqarish» mavzusini o'rganishda foydalanish mumkin. Bunda talabalar teng sonli guruhlariga ajratilib, ularga shartli ravishda «Kasb-hunar ta'limi markazi boshlig'i», «Ta'lim muassasasi rahbari», «Bank boshqaruvi raisi» deb nom beriladi. Bu erda mutaxassislar guruhi ijodiy izlanib, kelgusidagi ishlarini rejalashtirishni o'rganadilar. O'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan topshiriqlarni bajarib, dalil va isbotlar asosida o'z javoblarini bildiradilar.

Ijodiy o'yin mashg'ulotlarida guruhdagi barcha talabalar hamkorlikda ishlaydilar, avvalgi mashg'ulotlarda o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llaydilar. Bu esa, ularda o'z bilim va iqtidoriga nisbatan ishonch hissini uyg'otadi.

Mavzu: «**Kasb-hunar ta'limi muassasini boshqarish**».

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. Talabalarni mashg'ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

III. Yangi mavzuni o'rganish.

Yangi mavzuni o'rganishdan oldin guruhdagi talabalarni teng sonli 3ta guruhga ajratamiz.

Birinchi guruh talabalari «Kasb-hunar ta'limi markazi boshlig'i» maqomini olib, kelgusida «Kasb-hunar ta'limi muassasasi» faoliyatini rejalashtirishni o'rganadilar. Shu bo'yicha ma'ruza, taqdimot materallari tayyorlaydilar va quyidagi jadvalni to'ldiradilar.

№	Toshkent shahrining geografik va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislariga bo'lgan mahalliy ehtiyojlarini hisobga olgan holda KHT muassasalarini tashkil etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	Ta'lim muassasasini boshqarish bo'yicha ko'rsatmalar	Izoh
1.			
2.			

Ikkinchi guruh talabalari «Ta'lim muassasasi rahbari» maqomiga ega bo'lib, kollej faoliyatini kelgusida rivojlantirish maqsadida rejaga kirgizgan ishlarini umumlashtirib, taqdimot materallari tayyorlaydilar va quyidagi jadvalni to'ldiradilar.

№	Iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha kasb-hunar kollejining istiqbol ish rejasini ishlab chiqish	Ta'lim muassasasini boshqarish bo'yicha ko'rsatmalar	Izoh
1.			
2.			

Uchinchi guruh talabalari «Bank boshqaruvi raisi» maqomiga ega bo'lib, davlat va xususiy banklar faoliyatini kelgusida rejalashtirishni o'rganadilar hamda ma'ruza tayyorlaydilar va quyidagi jadvalni to'ldiradilar.

№	Bank boshqaruvi raisining istiqbol ish rejasini ishlab chiqish	Bankni kelgusida rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalar	Izoh
1.			
2.			

«Rahbarlar» kelgusida bajarishi mumkin bo'lgan ishlarni rejalashtirganlaridan so'ng, ko'rgazmalar asosida ma'ruzalarini bayon qiladilar. Guruhlar o'rtasida savol-javob, bahs va munozara o'tkaziladi.

IV. Talabalarning o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va reyting tizimi asosida baholash.

V. Mashg'ulotni yakunlash.

VI. Uyg'a vazifa berish.

Didaktik o'yinlar xarakteriga ko'ra bir qancha guruhlariga bo'linadi.

1. *Psixotexnik o'yinlar*. Bu guruh voqelikni imitatsiya qilishga emas, balki birinchi galdan talabaning xotirasi, diqqati, tasavvuri va fikrlash refleksini, malaka hamda ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o'yinlardir. Bu o'yinlar talabalarning qobiliyatlarini ochish va rivojlantirishga qaratilgan. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) kartochkalar bilan ishlash - ajratish yoki har bir kartochkani o'z joyiga joylashtirishni olish mumkin. Bu metod ko'pincha sxemalarni va guruhlanishlarni xotirada saqlanib qolishi uchun va bilimlarni tekshirish uchun ishlatiladi.

b) press ekspress metodi – bunda 10-15 ta qisqa javob berish mumkin bo'lgan savollar tuzib, ma'lum vaqt oralig'ida javob berish talab etiladi. Masalan:

1. Beruniy kachon tug'ilgan?
2. U qanday asar yozgan?
3. Beruniy dinni inkor etganmi?
4. Qaysi didaktik prinsipga asos soldi?

Ushbu metoddan foydalangan holda talabalarning bilimlarini qisqa vaqt ichida tekshirish va baholash zaruriyati mavjud bo'ladi. Bu metoddan mavzuning muhim qismlarini, yillar, sonlar va faktlarni xotirada qanchalik saqlanib qolganligini aniqlash jarayonida foydalanish mumkin.

v) intervyu metodi - bunda talabalardan qisqa vaqt ichida biror mavzuga bag'ishlangan savollar tuzish talab etiladi. Birinchi guruh savollariga ikkinchi guruh talabalari javob beradilar. Berilgan savolga javob topilmasa, savol bergan guruhning o'zi ana shu savolga javob berishi talab etiladi. Uchtadan savol va javob faoliyati olib borilgach, oldindan tayyorlangan hay'at a'zolari yoki o'qituvchi natijalarni e'lon qiladi va ularni tahlil etib komanda a'zolarini baholaydi. Bunda talabalar komanda bo'lib ishlashga o'rganadilar va yutqazib qo'yimaslik uchun o'z bilimlarini oshirib borishga harakat qiladilar. Bunday metoddan o'tgan mavzularni takrorlash jarayonida ham foydalanish juda qulay. Buning uchun talabalar oldindan ogohlantirilib qo'yilishi va berilgan mavzularni takrorlab kelishi talab etiladi.

2. Fikrlashga o'rgatuvchi psixotexnik o'yinlar:

a) (PMI) ijobiy, salbiy, qiziqarli.

Bunda talabalardan fikrlashning ma'lum turi talab etilib, ular diqqatiga biror muammoning yechimi taklif etiladi. Ana shu qarorning qay darajada to'g'riligini ular ijobiy, salbiy va qiziqarli tomonlarini alohida ajratgan holda tahlil etishlari talab qilinadi. Talabalar uchta ustunni to'ldiradilar va o'zlarini fikrlarini bildiradilar. Uchta ustunni to'ldirib bo'lgach, xulosa qiladilar. Bunday fikrlash usuli talabalarda sinchkovlikni, har bir voqea va hodisaning ijobiy va salbiy tomonlarini to'laroq ko'ra olishga o'rgatadi. Bundan tashqari talabalar boshqa talabalarning ham masalaga yondashuvlari bilan tanishadilar. Chunki har bir talaba o'zining fikrlarini bildirar ekan masalaga yangicha bir qarash yuzaga keladi. Edvard de Bono "Nestandardnoe mshlenie" kitobida shunday misol keltiradi: talabalarga taklif bilan murojaat qilindi – ma'muriyat har bir talabaga har hafta kelgani uchun 5 dollardan pul berishga qaror qilsa siz bunga qanday qaraysiz? Bunday fikr talabalarning barchasiga yoqadi. So'ngra ularga shu qarorni "PMI" texnologiyasiga qo'yib o'ylab ko'rish taklif etiladi. O'quvchilar qarorning ijobiy, salbiy va qiziqarli bo'lgan tomonlarini alohida ustunlarga birin-ketin joylashtirishlari lozim.

Ijobiy	Salbiy	Qiziqarli
1. Taklif etilayotgan 5 dollar ortiqchalik qilmaydi. 2. Talabalarning iqtisodiy imkoniyatlari oshadi.	1. Zo'ravonlar zo'rlik qilib pulimizni olib qo'yishadi. 2. Ota-onalar cho'ntak puli bermay qo'yadilar. 3. Byudjetda pul kamayib ketadi. 4. Oshxonada narxlar oshib ketishi mumkin.	1. Turli xil yoshdagi bolalarga qancha pul to'lanishi lozim ekanligini kim hal etadi? 2. Bu to'lanadigan pullar qaysi manbadan olinadi?

Agar 30 nafar talabaning barchasi bu qarorni yoqlagan bo'lsa, "PMI" texnologiyasi asosida bu masala tahlil qilingandan so'ng 30 nafar talabadan 29 tasi bu qarorni inkor etishini bildirgan.

b) (AVV) alternativlar, variantlar, imkoniyatlar.

Bunday didaktik vazifa talabalarni yanada chuqurroq fikrlashga, mavjud holatni yaxshiroq o'rganishga undaydi. Talabadan biror muammoni hal etish jarayonida alternativlarni topish, ana shu alternativlarning bir necha variantlarini

izlash va ana shu variantlardan qaysi biri bugungi kun shart-sharoitlari va talablariga ko'proq mos tushishini aniqlash talab etiladi. Bunday vazifa talabalardan chuqur bilim, mantiqiy fikrlashni va mavjud sharoit bilan yaxshi tanish bo'lishni talab etadi.

Alternativlar	Variantlar	Imkoniyatlar
1. Muldni davlat tasarrufida qoldirish. 2. Davlat mulkini xususiy lashtirish.	1. Davlat mulkchiligi. 2. Chek vositasi orqali xususiy lashtirish. 3. Davlat mol-mulkini sotish	1. Mulkkilik shakllari paydo bo'lishiga olib kelmaydi. - mulkka egalik hissi bo'lmaydi; - raqobatchilik muhiti bo'lmaydi. - bozor munosabatlarini rivojlantirib bo'lmaydi. 2. Har bir kishining ishlab chiqarish salohiyatini aniq hisoblash qiyin. - mol-mulkni teng taqsimlash ijtimoiy tenglashtirishga olib keladi. - aholining ko'p qismi qimmatli qog'ozlar bilan muomala qilishga ko'nikmagan. 3. Sotib olingan mulkning qadri bo'ladi. - davlat xarajatlari qoplanadi

Barcha alternativa variantlar va imkoniyatlar taroziga qo'yilib yagona xulosa chikariladi.

v) (ROS) ikki tomonning fikrini o'ylab ko'r.

Ko'p hollarda iqtisodiy sharoit ikki tomonning hamkorligini talab etadi. Masalan, ishlab chiqaruvchi va iste'molchi yoki sotuvchi va xaridor. Iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash jarayonida ana shu ikki tomonning xohishlari, imkoniyatlari va ehtiyojlari hisobga olinishi lozim. Ana shunday fikrlashga bizni ROS deb ataluvchi didaktik vazifa o'rgatadi. Bunda talabadan ikki tomonning tutgan o'rniqa qarab istaklari, imkoniyatlari va ehtiyojlarini aniqlash talab etiladi. Bu vazifani bajarish vaqtida talaba ikki tomonni ham qoniqtiruvchi yechimni topishga harakat qilishi lozim.

g) (SRN) rozilik, norozilik, noaniqlik.

Ishlab chiqarishda va umuman hayotda ba'zan nizo vaziyati vujudga keladi. Nizo vaziyati tomonlarning dunyoqarashini turlicha bo'lganligidan kelib chiqadi. Ana shu nizo vaziyatining yechimini topish jarayonida ikki tomonning fikrlarini solishtirish va rozilik mavjud fikrlarni, qarama - qarshi fikrlarni, hamda hali noaniq bo'lgan fikrlarni aniqlash lozim. So'ngra qarama-qarshi fikrlarni optimal variantini topish zaruriyati paydo bo'ladi. Shu yo'l bilan nizo vaziyati bartaraf etilishi mumkin. Bunday didaktik vazifa talabalarda fikrlarni taqqoslash, ularning o'xshashlari va qarama-qarshilarini ajratish hamda tomonlarni kelishtirish malakasini tarbiyalaydi.

Slaboe zveno (zukkolar) – bunda guruhlar ajratilib, savollar oldindan tuziladi va eng ko'p javob topgan guruh g'olib deb topiladi.

Aqliy hujum – bunda bir necha talabadan iborat guruh oldiga muammo qo'yiladi va yechish vaqti belgilanadi. Har bir ishtirokchi o'z g'oyasini taklif etadi va

hech bir fikr tanqid etilmay qabul qilinadi. Yechimlar soni qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi, so'ngra ularning ichidan eng to'g'risi tanlab olinadi va yechim sifatida taklif etiladi. Bunda talabalardan qisqa vaqt ichida tez fikrlashi, yani miyaning faol ishlashi talab etiladi. Shuning uchun ham bu didaktik vazifa aqliy hujum deb ataladi.

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalardan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. «Aqliy hujum» metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarini aniqlash, ayni vaqtda ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.


Mashg'ulotlar jarayonida «Aqliy hujum» metodidan foydalanishda bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi. Ushbu qoidalar quyidagilardir;

1. Mashg'ulot ishtirokchilarini muammo doirasi, keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish.

2. Har bir talaba tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g'oyalar miqdori rag'batlantirilib boriladi. Bu esa, bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi - yangi fikr yoki g'oyalarning tug'ilishiga olib keladi.

3. Har bir talaba o'zining shaxsiy fikr yoki g'oyalari asoslanishi hamda ularni o'zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr (g'oya)larni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikr (g'oya)larning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

4. Mashg'ulot jarayonida o'quvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo'l qo'yilmaydi. Agarda ularning fikr (g'oya)lari baholanib boriladigan bo'lsa, o'quvchi-talabalar o'z diqqatlarini, shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar. Mazkur metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag'batlantirish ekanligini e'tibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:



10-rasm. Amal qilish lozim bo'lgan qoidalar

2. Ishbilarmon o'yinlarni tuzish va tashkillashtirish tamoyillari

Hozirgi kunga kelib qator rivojlangan mamlakatlarda o'quv va ijodiy faollikni oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi ta'lim texnologiyalarini qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Interfaol metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli strategiyalardan foydalaniladi. Bunda talabalarga kitoblar, daftar, boshqa metodlardan foydalanish ta'qiqlanmaydi, aksincha bunday metodlarni qo'llash rag'batlantiriladi.

Erkin fikrlovchi shaxsni shakllantirish muammosi ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy ishlarni pedagogik va psixologik texnologiya asosiga qurish kerakligini talab etmoqda. Bu jarayon, albatta engil oson kechmaydi, chunki bugun ixtiyoriy qurilayotgan va joriy etilayotgan o'qitish tizimini to'la ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish lozim. Haqiqatdan ham ijtimoiy tajriba elementining tarkibiy qismi-bilim, ijodiy faoliyat, obyektiv borliqqa munosabat – bu psixologik jarayon negizida, zamonaviy pedagogik tizim doirasida shakllantiriladi. Pedagogik-psixologik texnologiya esa amaliyotga joriy etilayotgan pedagogik tizim loyihasi hisoblanib, uni tarkib toptirish uzoq va mashaqqatli kechishi tabiiy holatdir.

Bugungi kunda ta'limni tashkil etishda ishbilarmon-rolli o'yinlardan samarali foydalanishga ham katta e'tibor berilmoqda. O'yin ijtimoiy tajribani o'zlashtirish va uzatishdan iborat bo'lib, u amaliy jihatdan turli xil vaziyatlardagi xulq-atvor

normalari va qoidalari orqali etikaviy faoliyat vazifalarini amalga oshirish vositalarini o'zlashtirishni ta'minlaydi. O'yin metodlarining asosiy maqsadi tinglovchilarni faqat tinglashi emas, balki bilimlarni o'zlashtirishda bevosita ishtirokini ta'minlash orqali ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan. O'yin har xil muammolarni hal etishdagi shaxsiy ichki faoliyatlarni tuzish uchun eng qulay sharoit hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida rolli o'yinlardan foydalanish talabalarni o'yin muallifi, rol ijrochisi faoliyatiga ko'ra talabalarning faol pozitsiyaga ega bo'lishi o'yinda predemeti faoliyatni o'zlashtirishni tezlashtiradi. Rolli o'yinlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish emas, balki ijtimoiy va madaniy tizimni ham modellashtirish mumkin. Rolli o'yinlarda doimo real hayotga yaqin bo'lgan inson hayotining har xil shart-sharoit modellari ishtirok etadi.

Rolli o'yinda ishtirokchilar faoliyati o'yin majmuasidan rag'bat oladi. Ishtirokchilar o'yin davomida vaziyatni tahlil qilishadi. Buning uchun ularga hech kim yordam bermaydi. O'zlarini boshqarish va uyushtirishlari orqali natijalarga erishadilar. O'yinchilar boshqa ishtirokchilar yordamida o'yin reaksiyasini olishadi, murakkab vaziyatlar bilan bog'liq o'yin maqsadlariga shaxsiy harakatlari orqali erishadilar va xulosalarni o'zlari qabul qilishadi. Rolli o'yinlar talabalarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

Rolli o'yin qoidaga ko'ra rahbar o'yin majmuasining bevosita ishtirokchisi bo'la olmaydi. U kadr ortidagi shaxs bo'lib qoladi. Uning vazifasi o'yin metodlari orqali obyektiv voqelikni belgilovchi shart-sharoitlarini yaratishi va qo'llab quvvatlashi mumkin (teatr personaji, gazeta maqolasi, xat, konferensiya). Rolli o'yin boshqa o'yinlardan farqli maqsadi jamoaviy yoki individual qaror qabul qilishga asoslanadi.

Ishbilarmon o'yinlar mashhur psixologlar L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, P.YA.Galperin va boshqalarning ishlarida nazariy asoslangan. Ishbilarmonlik o'yinlari o'z xarakteriga ko'ra insonning shaxsiy xislatlarini shakllantirishning amaldagi vositasi bo'lib hisoblanadi.

Ishbilarmonlik o'yinlari bilish va o'qitishning vositasi sifatida XX asrning 20-yillarida gurrakib rivojlandi. Ishbilarmonlik o'yinlariga taqlidiy (imitasion) o'yinlar bilishning vositasi sifatida asos bo'ldi. Taqlidiy o'yinlarga o'z navbatida harbiy va harbiy-siyosiy o'yinlar asos bo'lgan. A.A.Verbiskiy ishbilarmonlik o'yinlariga o'qitishning ishoraviy-kontekst shakllari sifatida qaraydi.

Uning fikricha, ishbilarmon o'yinlarda mashq qilish faoliyati va bo'lajak kasbiy faoliyat model yoki uning prototipi, qaysidir sun'iy va tabiiy tizim sifatida o'zaro nisbatlanadi. Shu tufayli ishbilarmonlik o'yinlari kasbiy faoliyatning ishoraviy modellari sifatida belgilanadi, uning konteksti (mazmuni) ishora vositalari, yani tabiiy tilni ham hisobga olgan modellashtirish, taqlid (imitasiya) va aloqa yordamida beriladi.

A.A.Verbiskiy oliy o'quv yurtining vazifasini bunday o'qitishda, yani talabani bir yetakchi faoliyat tipi (o'quv)dan boshqa (kasbiy) tipga faoliyatning predmeti, motivi, maqsadi, vositasi, usul va natijalarini maqsadga muvofiq yo'naltirilgan (o'zlashtirilgan) holda o'tkazishni ta'minlash deb biladi.

Ishbilarmonlik o'yinlari yangi texnologiya sifatida mohiyatan quyidagilarni bildiradi:

-ishlab chiqarish imitasion modeli sifatida taqdim etilgan o'quv materialni mazmunining izchilligi;

-o'yinli o'quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyati tarkibiy qismlarini yaratish;

-o'quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni tug'dirish va ularni amalda qo'llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish;

-o'yinning ta'limiy va tarbiyaviy samaradorligi yig'indisi;

-o'yinni olib boruvchi o'qituvchining talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqarishdan talabalarning o'z xatti-harakatlarini tashkil etish va boshqarishga o'tishini ta'minlashi.

A.Tyukov fikricha, har qanday o'yin qay tarzda loyihalashtirilishidan qat'iy nazar ularning har biri quyidagi talablarni bajarishi lozim:

- kasbiy doira imitasiyasi yaxlitligi, o'yin imitasiyasiga taalluqli bo'lgan tuzilma va jarayonlar asosiy voqelikni aks ettiruvchi umumiy syujet yoki asosiy mavzuga ega bo'lishi, mustaqil tashkil etishga yo'nalganligi, o'qitishning muammoliligi, metodologik, psixologik va texnik jihatdan ta'minlanganligiga ega bo'lishi lozim.

Tashkiliy o'yin aslida tobora takomillashib boruvchi o'qitishni ta'minlashi kerak. Shu maqsadda unda faoliyat rivojlanishining to'liq davriyligi imitasiyasi amalga oshiriladi, yani qandaydir vaziyat yechimiga bo'lgan yondashuvdan topilgan yechimning umumlashtirilgan bahosi o'tiladi.

A.A.Tyukov o'yin davriyligining quyidagi bosqichlarni qayd qiladi:

- vaziyatni va muammolashtirishni tahlil qilish asnosida o'yinning asosiy syujet mavzusi bo'yicha o'yin ishtirokchisining sermahsul mustaqil ijodiy ishi;

- amaliy guruhlarining ish natijalarini umumiy tanqidiy muhokama qilish;

- o'yin jarayoni va ishtirokchilar xatti-harakatlarini refleksiv tahlil qilish;

- yechimni tashkil etish bosqichi.

Ishbilarmonlik o'yinini tayyorlashning ijtimoiy-psixologik muammolariga quyidagilar kiradi:

- ishtirokchilarni tanlash;

- rollarni taqsimlash;

- o'yin rahbarini ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash;


- ijtimoiy psixologiya bo'yicha umumnazariy bilimlarni egallash;

- nazariy bilimlarini amalda qo'llay olish;

- shaxsiy tayyorgarlik.

I.Olloyorov ishbilarmonlik o'yinlariga o'quv ishlarini tashkil etishning bir shakli sifatida qaraydi. U o'yinlar o'quv jarayonida o'z o'rniga ega va o'quv jarayonining asosiy vazifalari, mohiyati va tuzilmasi hamda o'rganilayotgan fanning didaktik tabiatiga bog'liq bo'lgan, aniq belgilangan didaktik funksiyalarni bajarishini ta'kidlaydi.

Ishbilarmonlik o'yinlarning didaktik funksiyalariga quyidagilar kiradi:



11-rasm. Ishbilarmonlik o'yinlarning didaktik funksiyalari

Ishbilarmonlik o'yini ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida quyidagi tayyorgarlik bosqichlariga ega:

1. O'quv-bilish vazifalarini muammoli vaziyat topshirig'i shaklida qo'yish:
 - ishbilarmonlik o'yinining maqsadini aniqlab olish;

- muammoli vaziyatni anglab etish;
- talabalarga navbatdagi ishbilarmonlik o'yini haqida dastlabki ma'lumotlarni berish.

2. Navbatdagi vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan avval egallangan bilimlardan foydalanish:

- talabalarining o'qituvchidan yoki adabiyotlarni tahlil qilish orqali yangi bilimlarni qabul qilib olishi;

- bajarilishi lozim bo'lgan ish to'g'risida talabalarga yo'l-yo'riqlarni ko'rsatish;
- olingan bilim, o'zlashtirilgan ilmiy tushunchalar va ishlash metodlarini umumlashtirish;

- o'z-o'zini nazorat qilish.

3. Ishbilarmonlik o'yinlarining shartlarini tushuntirish va vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan yangi amaliy bilimlarning axborotini berish;

4. Navbatdagi ishni rejalashtirish: ularga avval ma'lum bo'lganlar asosida uning ayrim bosqichlarini bajarish usullarini tanlash.

5. Avval egallangan bilimlar asosida tushuntirish ishlarini olib borish va o'z ijodi uchun zarur bo'lgan yangi metodlarni qidirish;

- rejalashtirishni mustaqil nazorat qilish.

6. Vazifaning shartlari, ularning bajarilishini tushuntiruvchi qoidalar (materiallar)ni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha mustaqil ishlar va ishbilarmonlik o'yinlaridagi o'z mavqeini aniqlash.

7. O'zlaridagi bor bilim, malaka va ko'nikmalar asosida reja bo'yicha ishlarni bajarish:

- yangi bilim va malakalarni hosil qilish;
- o'z xatti-harakatlari va ularning natijalarini muntazam nazorat qilish;
- qayd qilingan kamchiliklar va ularning sabablarini bartaraf qilish;
- belgilangan rejalarni (reja oldi ishlari va rejadan tashqari) takomillashtirish;
- yakuniy natijalarni tekshirib ko'rish va tahlil qilish.

8. Talabalarining faoliyatini, ularning bilimi, malakasi, ko'nikmalarini nazorat qilish va joriy yo'l-yo'riqlarni berish.

9. Talabalarining ishbilarmonlik o'yinlariga tayyorligini aniqlash maqsadida ularning mustaqil ishlari natijalarini tekshirib ko'rish.

10. Talabalarga ishbilarmonlik o'yinlarini o'tkazish va unda qatnashish bo'yicha yo'l-yo'riqlarni berish, ularni rol o'ynash bo'yicha taqsim qilish, zarurat tug'ilganda har biriga qo'shimcha yo'l-yo'riqlar berish.

11. Oldindan ishlab chiqilgan ssenariy bo'yicha talabalarining ishbilarmonlik o'yinlari.

12. O'yin ishtirokchilariga joriy yo'l-yo'riqlarni berish.

13. O'yin ishtirokchilarining o'yin davomida o'zi o'ynagan rollariga baho berishi, o'z-o'zini nazorat qilishi.

14. Ishbilarmonlik o'yini natijalarini muhokama qilish va talabaning o'quv-o'yin faoliyatiga baho berish.

Shunday qilib, yangi bilimlarni egallash, o`tilganlarni mustahkamlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, umumiy malakani shakllantirish kabi bir qator vazifalarni yechishda foydalaniladi.

3. Ishbilarmon o`yinlarni tashkillashtirish bosqichlari

“Jamoada jamoat ishini tashkil etish” ish o`yininin maqsadi: Jamoani o`rganish usullari bilan tanishish va sohada tajriba almashish; jamodagi shaxslararo munosabatlarni, undagi guruhlarini, guruh sardorlarini aniqlash; o`yin qatnashchilarida notiqlik, o`z fikrini o`zgalarga o`tkaza bilish qobiliyatini va munozara yuritish madaniyatini shakllantirish.

Kutilayotgan natija:

1. Insonning psixologik imkoniyatlarini o`rganish usullari bo`yicha bilimni egallash va bilimlardan foydalana bilish.

2. Notiqlik san`atiga ega bo`lish.

3. Odamlarni psixologik tahlil qila bilish ko`nikmasini o`zlashtirish.

4. Munozara yuritish madaniyatini egallash.

Noaniqlik sharoitida o`z faoliyatini tanlash vaziyatida shaxs xulqi modeli bo`yicha imitasion ishchanlik o`yini.

1.O`yinning maqsadi:

1. Jamoada psixologik muhitni hamda sardorlarni aniqlash.

2. Jamoada psixologik sharoitni, sardorlarni(oq va qora) aniqlash,rahbar uchun jamoani samarali boshqarishga yordam.

Sardorni aniqlash uchun ushbu o`yin xohlagan jamoada ishlatilishi mumkin.

O`yinning vaqti- 2 soat.

1 vaziyat:

“Taqsimot bo`yicha bir oy mobaynida ishlayotgan jamoangizda Sizga jamoatchilik ishini tashkil qilish, hamda boshqarish vazifasi qo`yilgan”.

Jamoangiz unchalik katta emas, taxminan 50 nafar odam. Sizga

tashkil qilish uchun bir hafta muhlat berilgan. Xo`sh, jamoangizda jamoa hamda tashkiliy ishlarga qiziqqan odamlarni aniqlash uchun qanday tashkiliy tadbirlar o`tkazish mumkin? (ishtirokchining blankiga qarang).

2.O`yin qoidasi:

➤ Jamoa ishlariga faol nomzodlarni aniqlash, qisqa muddatda jamoa sardorini topish uchun Sizga berilgan harakat turlaridan bittadan-uchtagacha tanlashingiz mumkin. Tanlangan ishtirok blankida “-” belgisini qo`yib harakatingizni belgilang.

➤ Har bir ishtirokchi individual ishida boshqa ishtirokchilar maslahatisiz, shaxsan o`zi yechimini topishi kerak. Tushunmagan savollarga rahbar javob beradi. Individual ishining tugutganligini ishtiroksi qo`lini ko`tarib bildiradi.

➤ Barcha ishtirokchilar 4 kishidan iborat bo`lib komandalarga bo`linadilar hamda erkin fikrlash jarayonida komandalari o`zining yakuniy qaroriga keladilar. Ushbu bosqichda har bir ishtirokchining vazifasi komandaga o`z fikrining to`g`riligini o`tkaza olishidir.

➤ Ish jarayonida komandaning vakili umumiy qarorini izohlab, himoya qilib tushuntirib beradi. Boshqa komandadagi ishtirokchilar savollar berib, qarama-qarshi fikrlar bildiradilar. Shunda komanda o`z fikrini himoya qiladi - bu erda munozara (tortishuv) ketadi.

➤ O`yinning rahbari komandalar qaror chiqarayotganida aralashmasdan, faqat o`yinni nazorat qilib turadi.

➤ Har bir ishtirokchi o`zining ishbilarmonlik xususiyatini, sifatlarini, shuningdek o`z-o`zini baholash uchun berilgan tartibdagi ro`yxatdan 6 tasini ishlamo`g`i kerak.

➤ O`z-o`zining ishbilarmonligini o`zi baholashi, boshqa ishtirokchilarning maslahatlari individual tartibda olib boriladi.

➤ Xarakter turini baholash: agar Siz tanlagan xislatlarning aksariyati birinchi yarmida bo`lsa - ijodiy xarakter; ikkinchisiga tushsa - bajaruvchi; uchinchisiga tushsa - tashkilotchi.

➤ Agarda ishtirokchi o`z fikrini komandaga o`tkaza bilsa hamda ijodiy va tashkilotchilik xarakteriga ega bo`lsa, ushbu ishtirokchi lider (sardor) deb hisoblanadi.

3. Ishbilarmon o`yinning tuzilishi.

RAHBAR ISHTIROKCHI

➤ Vazifaning qo`yilishi.

➤ Individual echilishi.

➤ Komandaning yechimi.

➤ Yechimni muhokama qilish.

➤ Yakunlash, natijani tahlil qilish.

1.O`yinning rahbari vazifa qo`yadi, sharoitni hamda o`yinning qoidalari, ishtirokchilarning vazifalarini tanishtiradi.

2. O`yinning har bir ishtirokchisi individual ravishda hech kimdan maslahat so`ramasdan o`zining fikrini asos qilib, mustaqil yechimini topadi.

3. Komandaning ishtirokchilari o`zaro muloqotdan keyin umumiy yechimini berishi kerak.

4. O`z navbati bilan har bir komanda topgan yechimini o`qib beradi, boshqa komandalar opponent (baholovchi) rolini o`ynaydi va o`zaro muloqot o`tkaziladi.

5. Rahbar o`yinning natijasini taxlil qilib, baholarni hisoblab chiqadi, uning g`oliblarini ma`lum qiladi.

4. O`yinning modeli.

1. Rahbar o`yinning maqsadini tushuntirib beradi, ishtirokchilarni komandalarga bo`ladi, blankalar tarqatadi, uning qoidalarini hamda yakuniy vaziyatni aytib beradi.

2. Berilgan blankalarda ishtirokchilar individual qabul qilgan yechimini “-” belgisi bilan belgilaydilar.

3. Komanda qabul qilgan yechimni blankaning o`z jadvalida “-” belgisi bilan belgilanadi.

4. Rahbar o'zining blankasida ishtirokchilarning individual va komandaning yechimini belgilab, doskada axborot uchun ishning natijasini qayd qiladi.

5. Berilgan natijalar bo'yicha guruh muloqoti.

6. Guruh muloqotidan keyin hamma o'zining yechimini tuzatish uchun bir daqiqa beriladi. Ishtirokchilar qabul qilgan fikrlarni darhol rahbariga ma'lum qiladilar. Natijalar rahbarning blankasiga va doskaga tushishi kerak. Qaysi bir komandaning yechimi tuzatish paytida qabul qilingan bo'lsa, o'sha komandaga qo'shimcha bir ball beriladi.

7. Ishbilarmonlik xarakter xususiyatini o'zi baholash ishtirokchilarning blankida o'ziga xos bo'lgan 6 ta fazilatni to'g'ri keladigan grafada "-" belgisi bilan bildirilishi kerak.

8. Ishtirokchi rahbar yordami bilan o'zining xarakteri qaysi turga qarashligini aniqlab oladi (ijodiy, boshqaruvchan va tashkilotchilik).

Natijalar rahbarning blankiga va doskaga yoziladi.

9. O'yin bo'yicha olingan umumiy natijaning tahlili jadval bo'yicha doskada hamma ishtirokchilar uchun o'tkaziladi, uni yakunida lider (sardor)ni aniqlash mumkin.

Ba'zan o'yinning maqsadi bo'yicha shunday tahlil natijalarini aytmasdan turib rahbarning blankiga yozib qo'yiladi. Shunda o'yin komandaning olgan o'rni bilan qancha tashkilotchi borligini aniqlash orqali va ba'zan baxsli tarzda tugallanadi.

5.O'yinning reglamenti.

O'yin bir davrda o'tkaziladi. O'yinning har bir bosqichi bo'yicha taxminan ketadigan vaqt:

- rahbarning kirish so'zi - 20 daqiqa.
- ishtirokchilarning individual ishi - 10 daqiqa.
- komandaning bir qarorga kelishi – 10 daqiqa.
- guruh bahsi - 20 min.
- shaxsning o'z-o'zini baholashi – 15 daqiqa.
- natijaning tahlili va yakunlanish - 20 daqiqa.

Hammasi bo'lib o'yinga 1 soat, 30 daqiqa vaqt (2*45)ketadi.

Guruh qatnashchisining varaqasi ilova qilinadi.

Guruh №.....

Qatnashchi

6-jadval.

“Jamoada jamoat ishini tashkil etish” ish o'yini qatnashchisining varaqasi

№	Harakatlar nomi	Xarakteringizning xususiyatlari
1.	Jamoa har bir a'zosi bilan shaxsan tanishish	
2.	Jamoadagi qiziqtirgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni kadrlar bo'limida tahlil qilish	<ul style="list-style-type: none"> ✳️ Mustaqillik ✳️ Ishga ijodiy yondashish
3.	Shaxsiy anketa savollarini tuzish va jamoaning xar bir a'zosi tomonidan to'ldirishini tashkil etish	<ul style="list-style-type: none"> ✳️ Tashabbuskorlik ✳️ Aqliy qobiliyatlilik

4.	Jamoat ishlariga tavsiya etilgan nomzodlarni muhokama qilish uchun yig'ilish o'tkazish	<ul style="list-style-type: none"> ✳️ Tajribalilik ✳️ Bilimlilik
5.	Jamoaning har bir a'zosi fe'l-atvorini yaqqol namoyon qiladigan vaziyatni vujudga keltirish	<ul style="list-style-type: none"> ✳️ Tirishqoqlik ✳️ Saranjomlik
6.	Jamoat ishlariga tavsiya qilingan nomzodlarni jamoaning xar bir a'zosi muhokama qilish	<ul style="list-style-type: none"> ✳️ Diqqat-e'tiborlilik ✳️ Ijro etuvchanlik
7.	Jamoat ishiga bo'lgan munosabatni aniqlash uchun topshiriq berishni tashkil qilish	<ul style="list-style-type: none"> ✳️ Intizomlilik ✳️ Vijdoniylilik
8.	Jamoaning har bir a'zosisidagi tashkilotchilik qobiliyatini aniqlash uchun ish o'yinini o'tkazish	<ul style="list-style-type: none"> ✳️ Qat'iyatlilik ✳️ Mexnatsevarlilik
9.	Jamoat ishlarini qanday olib borishni shaxsan o'zi namuna tarzida ko'rsatib berish	<ul style="list-style-type: none"> ✳️ Epchillik ✳️ Sabr-toqatlilik
10.	Jamoat ishlarida qatnashishga ishonch hosil qildiradigan suhbat uyushtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✳️ Ishchanlilik ✳️ Mas'uliyatlilik ✳️ Tashkilotchilik

“Materialni auditoriyada mustaqil o'rganish” ish o'yini

O'yinning maqsadi:

1) ta'limning faol usullari haqidagi bilimlarni boyitish, tajriba almashishni tashkil qilish;

2) mustaqil, tez, chuqur fikrlash qobiliyatini, materialni mustaqil o'zlashtirish ko'nikmasini rivojlantirish;

3) notiqlik, so'zamollik, o'z nuqtai nazarini asoslab bera olish ukuvini, munozara yuritish uslubini shakllantirish.

O'yinning borishi: O'yin qatnashchilari uchta guruhga bo'linishadi va guruh a'zolari stol atrofida davra qurib o'tiradilar, o'yin qatnashchilariga matn va baholar varaqasi tarqatiladi.

1-bosqich. O'yin ishtirokchilari qo'llaridagi matn mazmuni bilan tanishadilar va uni tushunib oladilar.

2-bosqich. Har bir guruh o'z guruhi uchun 2 varaqqoq'oz oladi. Matn bo'yicha uchta savol tuzib, so'ng varaqqa yozishadi. Savollar qisqa, mazmunli va mantiqiy bo'lib, matn asosida bo'lishi shart.

3-bosqich. Guruhlar tomonidan tuzilgan savollar qo'shni guruhlarga uzatib yuboriladi. Bunda 1-chi guruh 2-chi guruhga, 2-chi guruh 3-chi guruhga, 3-chi guruh 1-chi guruhga savollarini uzatishadi. Har bir guruh qo'shni guruh savollarini 4 balli baho (2,3,4,5) tizimida baholab, so'ng ularni baholar varaqasiga qo'yadilar. Guruhlar savollarni baholab bo'lgach, ularga javob yozadilar.

4-bosqich. Guruhlar qo'llaridagi savol va javobni yuqoridagi tartibda qo'shni guruhlarga uzatib yuboradilar. Har bir guruh qo'lidagi javoblarni baholab, so'ng izohlash uchun taqriz ko'rinishida javobning tagiga yozadilar.

5-bosqich. Guruhlar qo'llaridagi savollarni javobini va taqrizini qo'shni guruhlarga yana o'sha tartibda uzatadilar. Har bir guruhning o'zi tuzgan savoli o'ziga qaytib keladi. Guruh a'zolari javob va taqriz bilan tanishib, so'ng taqrizchini baholaydilar va uni baholar varaqasiga ho'yadilar.

6-bosqich. Guruhlararo munozara tashkil qilingan bo'lsa, og'zaki savol-javob ham shunday tashkil qilinadi. Og'zaki savol-javob vaqtida o'yin boshlovchisi, baholarni korreksiya qilib boradi. Savol-javob tugagach, yig'ilgan ochkolar miqdoriga qarab o'yin g'olibi belgilanadi. O'yin sinov tariqasida o'tkazilsa, har bir ishtirokchiga qo'yiladigan baho quyidagicha aniqlanadi.

Birinchi o'rinni egallagan guruh: 4x. 1,1 q

bunda x guruh a'zolarining soni 4 balli baho 1,1; 0,9; 0,8 koeffisiet.

Ikkinchi o'rinni egallagan guruh: 4x.0,9 q

Uchinchi o'rinni egallagan guruh: 4x.0,8 q.

VII bob. IQTISODIY TA'LIM TIZIMIDA KEYS TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. LOYIHA METODI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

1. Keys-stadi metodini kelib chiqish tarixi. Keys texnologiyasining tuzilishi, turlari. Keys texnologiyasining mazmuni, maqsadi.
2. Keys-stadi texnologiyasining konseptual asoslari.
3. Keys-stadi texnologiyasini samarali amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari.
4. Keys manbalari, keyslarni yaratish tamoyillari va bosqichlari.
5. Loyiha metodi, uning mazmuni va maqsadi. Loyihaning turlari. O'quv jarayonida loyiha metodini qo'llash mahorati.

1. Keys-stadi metodini kelib chiqish tarixi. Keys texnologiyasining tuzilishi, turlari. Keys texnologiyasining mazmuni, maqsadi.

Keys-stadi amaliy vaziyatlarni tahlil etish va hal qilish asosida o'qitish usuli sifatida xorijiy ta'limda avval boshda huquq sohasida qo'llanila boshladi: u ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870-yilda qo'llanilgan edi. 1920-yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o'qituvchilari yuristlarning o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi. Ana shu vaqtdan boshlab HBS keyslarning boy to'plamini yig'di va mazkur uslubni ta'limning mustaqil konsepsiyasi darajasigacha olib chiqdi. Ayni shu sababga ko'ra keys-stadi uslubini ko'pincha *garvard uslubi* deb atashadi. O'z mohiyatiga ko'ra, garvard uslubi ta'lim oluvchilarning amaliy vaziyatlarni videomateriallar, kompyuter va dasturiy ta'minotdan foydalanib hal qilish bo'yicha intensiv treningidan iboratdir.

Keys-stadining ikki klassik maktabi - Garvard (Amerikada) va Manchester (Yevropada) maktablari mavjud. Garvard maktabi doirasida mazkur uslub yagona to'g'ri yechimni izlashni o'rgatish usuli hisoblanib, ikkinchi maktab keysda bayon qilingan muammoli vaziyat yechimining ko'p variantlilikini taklif qiladi. Amerika keyslari o'nlab sahifali matn va ko'plab chizmalarni o'z ichiga oladi. Yevropa keyslari hajmi birmuncha kamroq.

Chet ellardagi biznes maktablarda odatiy vaziyatlarni o'rganishga o'quv vaqtining o'rtacha 25 %dan 90 %gacha bo'lgan qismi ajratiladi. Masalan, Chikago universiteti biznes-maktabida o'quv vaqtining 25% keyslar ulushiga, Kolumbiya universitetida – 30 %, Uortonda esa 40 % to'g'ri keladi. Mashg'ulotlarni ushbu uslub bo'yicha o'tkazishga ajratiladigan soatlar soni bo'yicha uning "ilk ixtirochisi" – Garvard yetakchilik qiladi. Oddiy talaba HBSda o'qish vaqtida 700 tagacha keyslarni ko'rib chiqadi va buning uchun o'quv vaqtining 90 %gacha qismini sarflaydi.

Bunda shunday aniqlik kiritish kerak: moliyaviy fanlarga ixtisoslashgan maktablarda keyslar salmog'i asosiy fanlar - menejment, marketing, axborot texnologiyalari, xodimlarni boshqarish va shu kabilardan iborat maktablardagiga nisbatan ancha kamdir.

Mamlakatimizdagi ta'lim sohasida keys-stadi, asosan, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida, ayniqsa boshqaruv sohasida qo'llaniladi. Keyingi yillarda oliy ta'lim muassasalarida ham o'qituvchilarning keyslarni ishlab chiqish va amalga oshirishga qiziqishi oshayotganligi kuzatilmogda.

Keys-stadini iqtisodiyot oliy o'quv yurtining ta'lim amaliyotiga keng tatbiq etishning dolzarbligi va zarurligi quyidagi omillar bilan bog'liq:

*Birinchi*dan, mamlakatdagi iqtisodiy ta'limning umumiy yo'nalishi, uning nafaqat ta'lim oluvchilarda aniq bilimlarni shakllantirishga, shu bilan birga talabalarda fikrlash faoliyati, nazariy bilimlarini amalda qo'llashga tayyorlik va bunga qobillikni rivojlantirish, bo'lg'usi mutaxassislarda mustaqillik va tashabbuskorlik, boshqaruv va iqtisodiyotdagi tadqiqotlarning turli jihatlarini bilan bog'liq keng doiradagi masalalarni idrok etish qobiliyatini ravnaq toptirishga yo'naltirilganligi bilan.

Auditoriya sharoitlaridayoq boshqaruvchilik yechimlarini qabul qilishga doir malaka va ko'nikmalar egallanmasa keyinchalik yaxshi boshqaruvchi bo'lib chiqish mumkin emas. Kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun o'zining boshqarish siyosatini ishlab chiqish uchun talabalar korxonada va umuman iqtisodiyotda vujudga keladigan turli xil vaziyatlarni tahlil etish malakalari va ko'nikmalarini egallashi, tahlil qila bilish qobiliyatini o'stirishi, boshqaruvchiga xos xususiyatlarni orttirishi zarur.

«Maslahat berish mumkin, lekin bunday maslahatdan foydalanishga o'rgatish mumkin emasligi» haqiqatdir. O'rganib olgach omadli iqtisodchi, moliyachi yoki menejerga aylanib olishga imkon beradigan qandaydir yagona, universal uslub yoki usul mavjud emas. Shuning uchun iqtisodchilarni tayyorlashning hozirgi tizimi turli xil dinamik rivojlanayotgan amaliy vaziyatlar modellaridan keng foydalanishga asoslanadi. Talabalarining keyslarni ishlab chiqish texnologiyalarini o'zlashtirishi, keysda taqdim qilinadigan amaliy muammoli vaziyatlarni tahlil etish, yakka tartibda va jamoa bo'lib ularni optimal hal qilish yo'llarini izlash malakalarini egallashi, bo'lg'usi mutaxassisda funksional vakolatlilikni shakllantirish - iqtisodiy faoliyatda o'zini boshqarish va tashkil qilish texnologiyalarini loyihalashtirish, iqtisodiy jarayon mantig'ini qurish usullari, shuningdek iqtisodiy vazifalarni mustaqil va mobil tarzda hal etish usullarini hosil qilishga yordam beradi.

*Ikkinchi*dan, bozor iqtisodiyotining nostandart vaziyatlarda bir tizimli asosda va samarali harakat qilish, oqilona yechimlarni qabul qilish qobiliyatini egallagan mutaxassislarga muhtojligi bilan. Keysda har xil hayotiy vaziyatlar bayoni beriladi va ularning oqibatlarini xususida mushohada yuritish yoki qatnashchilar harakatlarining samaradorligini baholash yoxud muammoni hal etish usullarini taklif qilish talab etiladi. Lekin har qanday holatda ham amaliy harakat modeli ustida ishlash ta'lim oluvchilar - bo'lg'usi mutaxassislarda mehnat bozori talab qiladigan kasbiy jihatdan muhim xususiyatlarni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

*Uchinchi*dan, jahon tajribasi ko'rsatib turganidek, keys-stadi talabalarda ijtimoiy etuklikni rivojlantirish, o'qishga qiziqish va motivlarni hosil qilish, ularni haqiqiy professional sifatida etishtirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Keys-stadining bo'lg'usi iqtisodiy yo'nalishdagi mutaxassis shaxsining kasbiy va ijtimoiy jihatdan

muhim fazilatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan usullari va vositalari, nazarimizda 7-jadvalda ishonarli tarzda aks ettirilgan.

7-jadval

Keys-stadining muhim fazilatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan usullari va vositalari

Mutaxassisning fazilatlarini	Keys-stadining shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan usul va vositalari
Mavhum sharoitlarda vaziyatni his etish va adekvat baholash, oqilona yechimlarni topish qobiliyati	Vaziyat subyektining fazilatlarini va kamchiliklarini taqqoslash va baholash, vaziyatning rivojlanish mantig'ini ajratib olish, muammoning oqilona yechimini izlash
Bir tizimli fikrlash, mulohazakorlik, bozor vaziyatidagi parametrlar va o'zaro aloqalarni tushunish	Vaziyat xususida har tomonlama fikr yuritish, uni maqsadli tahlil etish, subyektlarni ularning tuzilmaviy-funksional ifodasida yaxlitligicha idrok etish
Mustaqillik va tashabbuskorlik	Mavhumlik sharoitida vaziyatlar tahlili, oqilona yechimning ishlab chiqilishida o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladigan va qo'llab-quvvatlanadigan mustaqillik va faollik
O'zgarishlarga tayyorlik, qayishqoqlik	Muntazam o'zgarib turadigan vaziyatlarda optimal fe'l-atvorning ishlab chiqilishi
Amaliy yo'nalishlilik	Muammoli vaziyatning hal etilishida nisbatan amaliy natijaga erishish uchun doimiy izlanish
Axborotlar bilan ishlash mahorati	Doimiy ravishda asosiy axborotni izlash va tanlash, uni tuzilmalarga ajratish, yana qayta tuzilmalash, uni tahlil etish, tasniflash, bir taqdimot shaklidan boshqacha shaklga o'tkazish, o'zaro axborot almashinish
Kommunikativlik, empatiya	Muammoli vaziyat yechimi va uning maqsadga muvofiq tarzda hal etilishini tanlash yuzasidan o'z pozitsiyasini har doim aniq bildirish, dalillash va o'zining nuqtai nazarini himoya qilish; keys bilan guruh bo'lib ishlash, munozaralar va o'z fikrini o'tkazish paytida jamoaning oshkora muloqot va axborot almashinish, adolatli, konstruktiv va taktikali tanqidga hamda uni qabul qilishga, birgalikdagi faoliyatda ishonchga va hamfikrlikka asoslangan bahamjihat harakati
Muammoli, mantiqiy fikrlash	Muammoning izlanilishi va ifodalanishi hamda uning asosiy tavsifnomalari belgilanishi, uni hal etish usullari va vositalarining asoslanishi
Konstruktivlik	Muammoni hal etish modelining ishlab chiqilishi, konstruktiv yechimlarning izlanishi va ifodalanishi

Nazokatlilik	Jamoaning o'z fikrini o'tkazish, munozaralar, guruh bo'lib ishlashga asoslangan doimiy bahamjihat harakati
--------------	--

Va, nihoyat, keys-stadi interaktiv uslub bo'lgani sababli talabalar tomonidan unga nisbatan ijobiy munosabat bo'lishiga erishadi, ular ushbu uslubni o'quv axborotini o'zlashtirish va undan foydalanish yuzasidan amaliy ko'nikmalarni ta'minlaydigan amaliy qo'llanma (praktikum) sifatida qabul qiladilar.

Keys-stadi uslubining umumiy tavsifnomasi

Asosiy kategoriyalar va tushunchalar

✎ **Keys** – bu real hayotning «bir parchasidir» (inglizcha - TRUE LIFE atamasiga ko'ra). Keys vaziyatning oddiy haqiqiy bayonigina emas, balki vaziyatni tushunish va baholashga imkon beradigan yagona axborot kompleksidir.

✎ **Keys-stadi** (inglizcha sase - to'plam, aniq vaziyat, stadi -ta'lim) keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzidagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan *ta'lim uslubidir*.

✎ **Keys-stadi** - ta'lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli etishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan *ta'lim texnologiyasidir*.

✎ **Vaziyat** (situasiya) (keyingi lotinchadagi situation - ahvol) – muayyan vaziyat, ahvolni hosil qiladigan shart-sharoitlar va holatlar uyushmasi bo'lib hisoblanadi.

Keysda bayon qilingan vaziyat institusional tizimda (shu o'rinda va keyinchalik - korxonada) diskret (ayni shu) vaqtda tashkiliy hayotdagi tipik muammolarni qayta yaratadigan real yoki sun'iy qurilgan hodisalarning ideal tarzidagi in'ikosidan iboratdir.

✎ **Muammoli vaziyat.** Mazkur holda vaziyat subyektining hozirgi vaqtda yoki kelgusidagi maqsadlarga erishishiga xavf soladigan vaziyat tushuniladi.

Keys-stadining mohiyatli belgilari va didaktik o'ziga xos xususiyatlari

✎ **Keys-stadining mohiyati** shundan iboratki, mohiyatiga ko'ra ko'rib chiqilayotgan muammoli vaziyat bo'yicha maslahatchilar rolini bajarishi kerak bo'lgan talabalarga quyidagilar taklif qilinadi:

• keysda bayon qilinganida ayni bir paytda tashkiliy hayotdagi tipik amaliy muammoni aks ettiradigan va amaliyotda ushbu muammoning hal etilishida o'zlashtirilishi va qo'llanilishi lozim bo'ladigan muayyan bilimlar majmuini dolzarblashtiradigan vaziyatni idrok etish va tahlildan o'tkazish;

• muammoli vaziyatni maqsadga muvofiq tarzda hal etadigan usullar va vositalarni izlash;

• taklif etilgan muqobil jihat (alternativa)larni baholash va ular orasidan qo'yilgan muammoga nisbatan eng qulay variantini tanlash;

• tanlangan muqobil usul (alternativa)ni amalga oshirish bo'yicha aniq yechimni butun tafsilotlari bilan ishlab chiqish.

Keys-stadining mohiyatli belgilarini ifodalaymiz:

1. Holati asosiy parametrlari bo'yicha muayyan diskret vaqtda ishlarning real ahvolini yana qayta tiklaydigan vaziyat shaklida taqdim etilgan institusional tizim modelining mavjudligi.

2. Berilgan vaziyatning muammoliligi.

3. Vaziyatning to'liq chizma emasligi va, buning oqibati sifatida, unda mustaqil, shablon bo'lmagan yechimlarni talab qiladigan mavhumlikning mavjudligi.

4. Yechimlarning ko'plab muqobil jihat (alternativa)larga egaligi: har bir qatnashchi o'zining bilimi, tajribasi va sezgi(intuisiya)sidan kelib chiqib o'z variantini taklif qiladi.

5. Muammoli vaziyat optimal yechimining yakka tartibda, so'ngra jamoa bo'lib ishlab chiqilishi va ommaviy taqdim etilishi (Shuningdek, keys bilan mutlaqo yakka tartibda ishlashga va natijalarni yakka tartibda taqdim etishga ham yo'l qo'yiladi).

6. Muammoli vaziyat tahlili va uning yechimini ishlab chiqishdagi yagona maqsad.

7. Faoliyat natijalarini guruh bo'lib baholash tizimi.

8. Ta'lim oluvchilarda boshqariladigan hissiy (emotsional) keskinlikning mavjud bo'lishi.

9. O'qituvchi va talaba ta'lim jarayonida ayni bir paytda ham mas'ul, ham erkin bo'ladi:

• O'qituvchi keysning tayyorlanishi va uning o'quv-uslubiy ta'minoti, shuningdek undan samarali foydalanish uchun mas'uldir.

• Talaba mashg'ulotga tayyorlanishi va keys bo'yicha o'quv topshiriqlarini samarali bajarish uchun mas'ul, ayni bir paytda u muammoli vaziyatni tahlil etish natijasida yechimlar va xulosalarni ishlab chiqish borasida erkin ish tutadi.

• Talaba o'quv sharoitida muammoli vaziyatni tahlil etish va hal qilishda xatoga yo'l qo'yishi mumkin, lekin u real hayotda qabul qilinadigan noto'g'ri yechim uchun mas'uliyat hissini sezishi kerak.

10. Ta'lim natijalarini rejalashtirish va ularga erishishda ta'limdagi oshkoralik bilan qat'iyatlikning qo'shib olib borilishi.

Keys-stadi ta'lim uslubi sifatida quyidagi didaktik o'ziga xos xususiyatlarga ega:

• Keysda taqdim etilgan aniq vaziyat ta'limning voqelik bilan o'zaro aloqasini ta'minlaydi, chunki u kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun tipik muammolarni aks ettiradi. Bunda o'rganish jarayoni, o'z mohiyatiga ko'ra, real hayotda yechimni qabul qilish mexanizmini ifodalaydi.

• Keys undan foydalanuvchiga muammolarni tahlil etish, bir xillashtirish va hal qilish yo'llarini izlashda erkinlik beradi.

• Keysni ko'rib chiqishda talabalar ta'lim jarayonining tashkilotchilariga aylanadilar va bir-biri bilan o'zaro bahamjihat harakat qilish orqali real kommunikasion holatlarni ifodalashadi (masalan, bank - korxonada).

• Ta'lim oluvchilar aniq vaziyatni ko'rib chiqish jarayonida muayyan umumlashgan, konseptual tusga ega bilimni shakllantirishga muvaffaq bo'ladilar va ayni bir paytda oddiy umumlashtirish malakalarini orttiradilar.

• Amaliy vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlar nazariy tayyorgarlik davrida olingan bilimlar, shuningdek talabalarning o'z malaka va mahoratlaridan foydalanish va amalda qo'llanishga yo'naltiriladi.

• Keys bilan ishlash natijalarining ommaviy taqdim etilishi taqdimotlar o'tkazish va matbuot anjumanlarida qatnashish: axborotni lo'nda, mantiqan va ko'rgazmali tarzda taqdim etish, savolni ifodalay bilish va javobni dalillash malakalarini hosil qilishga ko'maklashadi.

• Keys-stadi ta'limning boshqa uslublaridan farqli ravishda nafaqat ta'lim berish va trening, shu bilan birga diagnostik/nazoratchilik funksiyalarini ham bajaradi.

Talaba imtihon oldidan keysni olishi: uni hal qilishi va amaliy vaziyat tahlilini hamda uni hal qilishga doir takliflarini yozma ish shaklida tadim etishi mumkin.

Keys talabalarga bevosita imtihon paytida taklif qilinishi ham mumkin. Lekin bunday holda u ancha qisqa bo'lishi, maqsadlari esa ularni talaba belgilangan vaqt davomida hal qilishga ulguradigan holatda bo'lishi kerak.

Talabalarining o'quv fani bo'yicha auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ishi keyslar turkumining yechimini o'z ichiga olishi mumkin. Natijalarning grafikka binoan yozma taqdim etilishi (muddatlar o'quv rejasi va ta'lim dasturiga muvofiq belgilanadi) o'quv axborotlarining o'zlashtirilishi, ushbu kurs bo'yicha DTSga ko'ra nazarda tutilgan malaka va ko'nikmalarni operativ nazorat qilish va baholashga imkon beradi.

Keysning ko'p maqsadli tusga egaligi keys-stadining muhim afzalligidir: u vaziyat parametrlarini o'zgartirish bilan uning o'quv maqsadlarini ham o'zgartirishi mumkin.

Keys-stadi ta'limda quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

• *ta'lim beruvchilik*: o'rganilgan mavzu/kurs bo'yicha bilimlarning mustahkamlanishi (nazariy ta'limdan keyin); ilmiy tadqiqot, amaliy vaziyatlarni tahlil etish usullari va vositalarini o'rgatish; muammolarni yakka tartibda va guruh bo'lib tahlil etish, strategiyalarni ishlab chiqish va yechimlarni qabul qilish qobiliyatlari va malakalarini orttirish;

• *rivojlantiruvchilik*: bilish va ijodiy qobiliyatlarni, mantiqiy, bir tizimli tusda fikrlash, o'zini o'zi tartibga solib turish, refleksiyaning, muhitdagi o'zgarib turadigan shart-sharoitlarga ko'nikish qobiliyatini rivojlantirish;

• *motivasion*: o'quv fanini o'rganishga shaylik, yechimlarni mustaqil tarzda qabul qilishni rag'batlantirish;

• *tarbiyachilik*: mas'uliyat, mustaqillik, kommunikativlik, empatiya va refleksiyaning shakllantirish;

• *nazoratchilik (diagnostik)*: o'rganilayotgan mavzu yoki kurs bo'yicha o'quv axborotini o'zlashtirish, malakalar va ko'nikmalar sifatini tekshirish;

• *treningli*: o'rganilayotgan mavzu yoki kurs bo'yicha malakalar va ko'nikmalarni mustahkamlash.

2. Keys-stadi texnologiyasining konseptual asoslari

Mamlakat iqtisodiy ta'lim tizimidagi o'qitish texnologiyalari gumanizm tamoyillariga asoslanadi. Ularning asosiy farqlanib turuvchi xususiyati talaba – iqtisodiyot sohasidagi bo'lg'usi mutaxassisning individualligi, uning shaxsiga alohida e'tibor qaratish, individual o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda mustaqil faol bilish faoliyatiga aniq yo'nalish berishdan iborat.

Biz ana shunga asoslanib, iqtisodiy ta'limda keys-stadi texnologiyasini loyihalashtirish va amalga oshirishga nisbatan konseptual yondashuvlarni ajratib ko'rsatamiz:

• *Ta'limga nisbatan shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi yondashuv*. U o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayoni barcha qatnashchilarining individual, guruh va jamoa bo'lib rivojlanishi, ta'lim subyekting turli-tuman shaxsiy fazilatlarini shakllantirish rusumlari asosida to'laqonli rivojlantirilishini nazarda tutadi. Bu nafaqat ta'lim jarayonining individuallashtirilishi va tabaqalanishini - Davlat ta'lim standartlari talabalariga rioya qilgan holda talaba shaxsining intellektual rivojlantirilishi darajasiga yo'naltirish, shu bilan birga o'qituvchi o'zining ham psixologik-professional va shaxsiy xususiyatlari hamda qobiliyatlarini hisobga olishni anglatadi.

• *Ta'limning tashkil etilishiga nisbatan bir tizimli yondashuv*. Ta'lim texnologiyasi tizimga xos hamma belgilar: jarayon mantig'i, uning barcha qismlarining o'zaro bog'liqligi, yaxlitligiga ega bo'lishi kerak.

• *Ta'limga nisbatan faoliyatli yondashuv*. Keys-stadining shaxsning prosessual xususiyatlarini hosil qilish, talaba faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning jamiki qobiliyatlari va imkoniyatlari, tirishqoqligi va tashabbuskorligini rivojlantirishga yo'naltirilishini taqozo etadi.

• *Ta'limga nisbatan mulqotli yondashuv*. Keys bilan ishlash jarayonida ta'lim prosessi subyektlari-qatnashchilarining psixologik yakkidilligi va bahamjihat harakat qilishi muhiti yaratilishi zarurligini belgilaydiki, buning natijasida shaxsning o'zini o'zi dolzarblashtirishi va o'zini o'zi taqdim etishga urinishiga undaydigan ijodiy jarayon kuchayadi.

• *Pedagogik faoliyatning «muvaffaqiyat qozonish»ga yo'naltirilishi*. O'qituvchining talabalar erishgan yutuqlarni muntazam ta'kidlab turishi va "ma'qullashi" orqali ularni g'alaba qozonish sari faollashtirish va rag'batlantirishdan iborat. Talabalarining aynan shu o'zi erishgan yutuqlarni his etishi - keys-stadining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri, ta'lim oluvchilarda o'qishga nisbatan barqaror ijodiy (pozitiv) motivlarni shakllantirish, bilishga oid faollikni kuchaytirish omilidir.

• *Hamkorlik muhitida ta'lim olish*. U o'qituvchi bilan talabaning subyektiv munosabatlarida demokratizm, tenglik, sheriklik, muammoli vaziyatni hal qilish va

erishilgan natijalarni baholash borasida guruh va jamoa faoliyatining amalga oshirilishini nazarda tutadi.

- *Muammoli ta'lim*. Bu o'qituvchining talabalar bilan ta'lim mazmunini muammoli tarzda tasavvur etish asosidagi faol bahamjihat harakat qilish usullaridan biri bo'lib, ana shunday ta'lim jarayonida obyektiv ziddiyatlarni aniqlash, muammolarni ajratish va shakllantirish, ularni hal etish usullari va vositalarini izlash bo'yicha mustaqil ijodiy-biluvchilik faoliyati, shuningdek dialektik tafakkurni hosil qilish va rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda ijodiy qo'llanishi ta'minlanadi.

- *Sinergetik yondashuv*. Uning mohiyati guruhga vaziyat muhitini singdirish, bilimlarni orttirish, insaytli onglilik, kashfiyotlar bilan almashinish samaralarini shakllantirish va boshqa ko'plab rusulmlarni tayyorlashdan iborat.

- *Loyihali ta'lim*. Ta'lim beruvchi loyihali texnologiyadan farqli ravishda keys-stadida muammoni va uni hal etish yo'larining shakllantirilishi keys asosida yuz beradiki, bunda keys ayni bir paytda muammoli vaziyatni hal etishga doir samarali harakatlar variantlarini idrok qilish va anglash, ularni amalga oshirish dasturini ishlab chiqish bo'yicha texnik topshiriq va axborot manbai shaklida namoyon bo'ladi.

- *Keys-stadi axborot makonini shakllantirish*, uni faollashtirish, axborot kommunikatsiyalarini tashkil etish, fikrlarni to'qnashtirish, makonni axborot bilan to'ldirish va unda to'planadigan axborotdan foydalanishdan iborat *bosqichma-bosqich jarayondir*.

Talabalar va o'qituvchi ifoda etadigan fikriy shakllardan tashkil topadigan intellektual makon nafaqat shaxsni o'qitish, shu bilan birga uning shaxsini tarbiyalash, uni kamol toptirish uchun ham xizmat qiladigan muhit bo'ladi. Rivojlangan axborot makonida bo'lish, uning tashkil etilishidan to muammo hal etilishigacha uning ichida "yashash" shaxs uchun foydali bo'lib, u jami axborotlar, turli-tuman his-tuyg'ularni o'ziga singdirib oladi, tafakkur faoliyati usullarini yorqin his etadi.

- *Keys-stadida tadqiqotchilik tahliliy texnologiya – tadqiqotchilik jarayoni operatsiyalari, tahliliy rusumlar* jamlashgan bo'ladi.

Ana shu konseptual qoidalardan kelib chiqib, keys-stadining mohiyatli belgilari va didaktik o'ziga xos xususiyatlari asosida ilmiy tadqiqot va tahlil, ta'lim, kommunikatsiya va axborotning optimal usullari va vositalari tanlab olinganki, ular jamuljam holida keys-stadi texnologiyasini amalga oshirish sharoitida ta'lim maqsadiga erishishni kafolatlaydi.

Keys-stadi texnologiyasi tuzilmasi

Tizim sifatidagi keys-stadi texnologiyasi

Keys-stadi texnologiyasi quyidagi usullar va vositalarni o'zida jamlagan murakkab tizimdan iborat:

- ilmiy tadqiqot,
- ilmiy tahlil,
- o'qitish,
- axborotlar,

- kommunikatsiyalar,
- boshqaruv.

Tizimdagi har bir tarkibiy qism keys-stadi texnologiyasida o'zining muayyan funksiyalarini bajaradigan elementlarni o'z ichiga oladi.

Ilmiy tadqiqot usullari va vositalari Keys-stadi texnologiyasining ushbu tarkibiy qismi quyidagi elementlar – ilmiy tadqiqot uslublari: modellashtirish, fikriy eksperiment, bayon, tasniflashni o'z

ichiga oladi (8-jadval).

8-jadval

Ilmiy tadqiqot usullari va vositalari

Ilmiy tadqiqot usullari va vositalari	Ularning keys-stadidagi funksiyalari
Modellashtirish	Vaziyat modelini qurish
Fikriy eksperiment	Vaziyatni fikran o'zgartirish orqali u haqdagi bilimni olish
Ta'riflash	Vaziyatni tavsiflaydigan faktlarning muayyan tizimini shakllantirish
Tasniflash	Vaziyatni tashkil etadigan xususiyatlar, jihatlarning tartibga solingan ro'yxatini yaratish

Modellashtirish murakkab obyektlarni muayyan tarzda soddalashtirish orqali ularni bilishning o'ziga xos usulidir. "Model" uning bazaviy tushunchasidir.

Fanda model mohiyatining bir xildagi tushunchasi yo'qligiga va uning o'ttizga yaqin turdagi talqini mavjudligiga qaramay, mualliflarning ko'pchiligi **model tushunchasini** modellashtiriladigan obyekt (asl nusxa)ning har qanday fikriy yoki ramziy obrazi, obyektning quyidagicha uchta xususiyatga ega bo'lgan qandaydir vakili sifatida tushunish xususida hamfikrdirlar:

1. Asl nusxani aks ettiradi, lekin bunda uning hamma belgi va alomatlarini emas, balki faqat tadqiqot maqsadlari va vazifalari nuqtai nazaridan eng muhimlarini ifodalaydi.

2. Almashlash xususiyatiga ega, yani model obyektini aks ettirish jarayonida uning o'rnini bosib turadi. Almashlash qobiliyati obyekt va asl nusxaning umumiylikiga tayanadi.

3. Modelni tadqiq etish orqali olingan bilimlarni asl nusxaga ko'chirish mumkin bo'ladi.

Modellashtirish uslubi keys-stadida bir necha *funksiyalarni* bajaradi.

Birinchiidan, u keysni jamiyatning muayyan sohasi uchun xos bo'lgan qandaydir real vaziyat modeli sifatida taqdim qilish vositasi rolini bajaradi. Ushbu model real vaziyatga qanchalik yaqin bo'lsa, keys shunchalik qimmatli bo'ladi. Voqelikning keysda aks etish darajasi va tasi model mazkur funksiyasining muhim muammosidir. Bunda keys voqelikni uning eng muhim tavsifnomalari nuqtai nazaridan aks ettirishi va boshqa barcha tavsifnomalaridan xoli bo'lishi kerak. Shuning uchun keys vaziyat modeli sifatida vaziyatning o'ziga nisbatan soddaroq

bo'ladiki, bu uni prinsipial tarzda bilib olinadigan qiladi. Keys ana shu ma'noda prakseologik model, yani voqelik modeli bo'ladi.

Ikkinchidan, keys shuningdek model funksiyasini ham bajaradiki, lekin bu endi o'qitilayotgan o'quv fani, uning muayyan bo'limi yoki mavzusining talaba uchun boshqacha ahamiyat kasb etadigan bilimdan foydalanish va uni ochishga imkon beradigan model bo'ladi. Shu ma'noda keys bilish yoki gnoseologik model bo'ladi. Unda, bir tomondan, normativ bilim, boshqa tomondan esa - boshqacha ahamiyat kasb etadigan, ehtimolli, vaziyat qonuniyatidan emas, balki u amalga oshiriladigan variantdan kelib chiqadigan stoxastik bilim taqdim etiladi. Aynan birinchisi - normativ bilim keysning amaliy sohasini tashkil etib, unga prakseologik model sifatida cheklanishlarni yuklaydi. Bilimning ikkinchi turi talabalarda bilish ijodkorligi jarayonlarini modellashtiradi.

Va, nihoyat, modellashtirish uslubi nafaqat keysni qurish, shu bilan birga uni o'rganish funksiyasini ham bajaradi. Talaba vaziyatni tahlil yetar ekan keysni hal etish bo'yicha o'z variantlarini ishlab chiqadi, bunday variantlar stoxastik modellashtirish, variantlarni ishlab chiqish va ko'rib chiqish, eng maqbul variantlarni yanada chuqurlashtirish orqali asta-sekin haqiqatga yaqinlashish jarayonini tashkil etadi. O'z mohiyatiga ko'ra, bu o'rinda yechimlar shajarasi tamoyiliga binoan modellashtirish yuz beradiki, bunda pirovard javob bir xil ahamiyatli yechim bo'lmasdan, o'z mohiyatiga ko'ra bir-biriga yaqin variantlarning muayyan "makoni" tarzida namoyon bo'ladi.

Ta'lim oluvchilar uchun bilim quyidagilar bilan qiyoslash vositasida hosil qilinganida modellar bilish vositalari sifatidagi vazifani bajaradi:

- real vaziyat bilan;
- keys modeli mazmuni bilan;
- munozaraning boshqa qatnashchilari taklif etadigan modellar bilan.

Keysning modeli metodologiya nuqtai nazaridan muhokamasi, masalan, talabani modelida taqdim etilgan noaniq, gipotetik bilim muhokamani boshqa qatnashchilari tomonidan aniqlashtiriladigan modeli, fikriy eksperimentlar deb ataladigan tajribalarning murakkab majmuidan iborat bo'ladi.

Fikriy eksperiment - bu eksperimentning bir turi bo'lib, unda eksperiment o'tkazuvchi real obyektlar bilan emas, balki ularning muayyan fikriy konstruktleri bilan ish yuritadi. Fikriy eksperimentning ustunligi shundaki, u real amaliy obyektga zarar etkazmaydi, uning nuqsoni esa - amaliyotdan yiroqligi bo'lib, bu uning mezon funksiyasini susaytiradi.

Fikriy eksperiment o'tkazish keys-stadining g'oyat muhim metodologik belgisidir, chunki bu vaziyatni belgilaydigan omillar, muammoning eng muhim yoki ikkinchi darajali jihatleri, taklif etiladigan yechimlar samaradorligi va shu kabilarni haqidagi farazlarni tekshirishga imkon beradi.

Fikriy eksperimentning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u sabab-oqibatli aloqalar, kelgusining rivojlanish yo'llari, mavhum dinamikani va shu kabilarni ko'rishni o'rgatadi. Fikriy eksperimentdan foydalanishda «Siz shuni tasavvur qilingchi, ...» degan iborat ayni o'z o'rnida ishlatilgan bo'ladi.

Ta'riflash vaziyatni tavsiflaydigan dalillarning muayyan tizimi shakllantirilishini nazarda tutadi.

Vaziyatning keysda bayon qilinishi shu tarzda kechadiki, unda eng muhim narsalar nisbatan muhim bo'lmagan narsalar ortida yashiringan bo'ladi. SHu sababli talaba o'ziga xos topishmoqni yechishi, muhim narsalarni unchalik muhim bo'lmagan narsalar orasidan ajratib olishi kerak bo'ladi. Bunda u keysni o'qib chiqqanidan keyin uning bir tizimli bayonini hikoya qilishi, unda keltirilgan faktlar, baholar, taxminlar, aytilmagan narsalar va boshqalarni o'zicha talqin qilishi lozim.

Tasniflash ilmiy bilishning eng muhim uslublari qatoriga kiradi. Tasniflash u yoki boshqa obyektlarni ularning belgilari, xususiyatlariga qarab taqsimlash, bir tartibga keltirishni nazarda tutadi.

Keys-stadida turli xildagi tasniflashlar, shu jumladan muammolar va ularni hal etish usullarining tasniflashlari, tahlil etilayotgan vaziyatni belgilovchi omillar va shu kabilarni tasnifi qo'llaniladi.

Ilmiy tahlil usullari va vositalari

Tahlilning keys-stadi amaliyotida keng tarqalgan va keys yechimi samaradorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan asosiy turlari tavsifnomasiga to'xtalamiz (9-jadval).

9-jadval

Ilmiy tahlil usullari va vositalari

Tahliliy usublar	Ularning keys-stadidagi funksiyalari
Muammoli	Vaziyatdagi muammolar majmuining ajratilishi, ular mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari va hal etish yo'llarini anglab olishni nazarda tutadigan tuzilmalashga asoslanadi
Bir tizimli	Vaziyat subyekti bir tizimli yaxlitligining tavsifnomalari va tuzilmasi, tizim tarkibiy qismlarining funksiyalari, subyektning atrofidagi va ichki muhiti bilan bahamjihat harakat qilishini belgilashga qaratilgan
Sabab-oqibatli	Vaziyatda bayon qilingan hodisalar va jarayonlarning sabab-oqibatli aloqalarini belgilash va izohlashga asoslanadi
Pragmatik	Vaziyat subyekti (jarayon, hodisa)ning idrok etilishi va tashxisini, uning modellashtirilishi va amaliy hayotda yanada samaraliroq foydalanish nuqtai nazaridan optimallashtirilishini nazarda tutadi
Vaziyatli	Vaziyatni, uning tuzilmasi, omillari, rivojlanish tendensiyalari va shu kabilarni belgilaydigan usullar va usublar majmuiga asoslanadi
Prognostik	Tahlil etilayotgan vaziyat subyektning ehtimol tutilgan, potensial va kerakli kelgusidagi subyektni muvofiqi darajasini aniqlash (oldindan aytib berish)dan iborat
Tavsiyali	Vaziyatda harakat qiluvchi shaxslar fe'l-atvorining variantlari yuzasidan tavsiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan
Dasturiy-maqsadli	Mazkur vaziyatda muayyan maqsadga erishishning batafsil modeli (dasturi)ni ishlab chiqishga qaratiladi

🔗 **Muammoli tahlil** «muammo» tushunchasiga asoslanadi. Ijtimoiy muammo deganda muayyan ijtimoiy harakatlarning etilgan zarurati bilan ularni amalga oshirish shart-sharoitlari o'rtasida ziddiyatning mavjud bo'lishi va ifodalanishi tushuniladi.

Muammoli tahlil u yoki boshqa muammoning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlarini va uni hal qilish yo'llarini idrok etishni nazarda tutadi.

Bunda keysda muammo ko'pincha noaniq, niqoblangan shaklda, syujetning ko'p xilliligi ichida yashirin holda mavjud bo'ladi.

Muammoli tahlil texnologiyasi talabalar unumli faoliyati bosqichlarining quyidagicha izchilligini nazarda tutadi:

- qondirilmagan ijtimoiy ehtiyoj sifatidagi muammoning shakllantirilishi;
- muammoning makon-zamonda qayd qilinishi – uning makon va zamondagi chegaralarining belgilanishi;
- muammo turi, tusi, uning tizim (tuzilma, funksiyalar va shu kabilarga) o'ldirish tavsifnomalarining aniqlanishi;
- muammoning rivojlanish qonuniyatlari va oqibatlarining aniqlanishi;
- muammoning prinsipial hal qilinuvchanligi tashxisi;
- muammoni hal etish uchun zarur resurslarning belgilanishi;
- muammoni hal etishning tashkiliy-boshqaruvchilik texnologiyalarining ishlab chiqilishi;
- muammo yechimi.

🔗 **Bir tizimli tahlilni** tahlilning eng ommaviy turlariga kiritish lozim. U obyektning bir tizimli yaxlitligi qonuniyatlariga, tuzilma tarkibiy qismlari va ular funksiyalarining o'zaro bir-biriga bog'liqligiga asoslanadi.

Tahlil vektori – tuzilmadan funksiyaga tomon yoki aksincha yo'nalishga qarab tegishli bir tizimli tahlilning ikki turini: deskriptiv va konstruktiv turlarini ajratib ko'rsatadi.

Deskriptiv tahlilning asosiy maqsadi – tuzilma berilgan tizimning qanday ish yuritishini aniqlashdan iborat.

Konstruktiv tahlil berilgan maqsadlar uchun tizim tuzilmasi funksiyalarining tanlab olinishini nazarda tutadi.

Tahlilning har ikkala turi ko'pincha bir-birini to'ldirib turadi.

🔗 **Sabab-oqibatli tahlil** sabablikka asoslanadi. «Sabab» va «oqibat» uning asosiy tushunchalari bo'lib, ular hodisalar o'rtasidagi aloqani ifodalaydi. Gap shundaki, ikkita hodisaning o'zaro bahamjihat harakati jarayonida muayyan shart-sharoitlar mavjud bo'lganida bir hodisa (sabab) boshqa hodisa, voqea, jarayon (oqibat)ni hosil qiladi, yaratadi.

Sabab-oqibatli tahlil bir necha qadamlarni o'z ichiga oladi:

- obyekt va tadqiqot predmetining ifodasi;
- ayrim asosiy hodisalarning obyekt va tadqiqot predmetini izohlovchi ehtimol tutilgan sabab va ehtimol tutilgan oqibat sifatida belgilanishi;
- sabab-oqibatli aloqa mavjudligining belgilanishi, sabab va oqibatning aniqlanishi;

- sabab-oqibatli aloqa tipining belgilanishi, uning tusi aniqlanishi;
- sabab-oqibatli zanjir tuzilmasida ushbu sabab-oqibatli aloqa o'rining aniqlanishi;

- o'rganilayotgan hodisalar va jarayonlarning sabablik bilan izohlanishi.

🔗 **Pragmatik tahlil** u yoki boshqa obyekt, jarayon, hodisa xususida undan amaliy hayotda yanada samaraliroq foydalanish nuqtai nazaridan mushohada yuritishni nazarda tutadi.

Samaradorlik, natijaviylik va baholash pragmatik tahlilning asosiy tushunchalaridir.

🔗 **Samaradorlik** - minimal resurslar bilan yuksak natijaga erishishdir.

Natijaviylik – qo'yilgan maqsadga erishish qobiliyati.

Baholash – biror-bir hodisani samaradorlik va natijaviylik nuqtai nazaridan tavsiflaydigan kattalik.

Pragmatik tahlil quyidagi harakatlarning izchil majmuidan iborat:

- obyekt yoki jarayon haqida uning funksiyalari nuqtai nazaridan mushohada yuritish;
- tizimning natijaviylikni belgilash;
- tizimga nisbatan talablarni qondirmayotgan funksiyalarni aniqlash; uning faoliyat yuritishi samaradorligini tahlil etish;
- tizimning tuzilmaviy tahlili, uning tuzilmaviy muammolari va samarasizlik sabablarini aniqlash;
- tizim imkoniyatlari, uning salohiyati, foydalanilmagan zaxiralarni o'rganish;
- tizim samaradorligini oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.

🔗 **Vaziyatli tahlil** - vaziyat, uning tuzilmasi, omillari, rivojlanish tendensiyalari va shu kabilarni belgilaydigan usullar va uslublar majmuiga asoslanadi.

Tahlilning ushbu turi birmuncha ko'p mohiyatli kategoriya - «vaziyat»ga asoslanadi.

Hodisali yondashuvda vaziyat muammo yaxlitligi bilan bog'liq bo'lgan qandaydir majmua sifatida ko'rib chiqiladi. Tashqi shakliga ko'ra bu qandaydir hodisalar zanjiri yoki hodisalar doirasi, hodisalar bog'lami va shu kabilarni bo'lishi mumkin. Hodisalar nazariyasi vaziyatning ushbu tushunchasini idrok etish uchun nazariy asos bo'ladi.

Agar vaziyat faoliyat shart-sharoitlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladigan bo'lsa, unda bu muammoning amal qilishini belgilovchi shart-sharoitlar majmui hisoblanadi.

Omili yondashuv nuqtai nazaridan olganda vaziyat muammo ziddiyatini hal qilishga yordam beradigan yoki unga to'sqinlik qiladigan turli xildagi omillarning murakkab o'zaro bahamjihat harakatidan iborat bo'ladi. Bu erda omillar va omilli tahlil nazariyasi metodologik negiz hisoblanadi.

“Vaziyat” kategoriyasi turlicha tushunilishiga qaramay vaziyatlar turlarini tasnifiy belgilariga ko'ra ajratishga asos bo'ladigan umumiy holatni ajratib ko'rsatish mumkin.

Vaziyatli tahlil uchun 10-jadvalda keltirilgan vaziyatlar tasnifidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

10-jadval

Tasniflash asosi	Vaziyatlar turlari
Real hayotga muvofiqligi	1. Real 2. Shartli
Normaga muvofiqligi	1. Normal 2. Deviantli 3. Ekstremal
Ijtimoiy zamonga muvofiqligi	1. O'tmishdagi 2. Hozirgi (dolzarb) 3. Kelgusidagi
Murakkabligi	1. Oddiy 2. Murakkab 3. Arximurakkab
Vaziyatning rivojlanishi tusi	1. Determinatsiyalashgan 2. Ehtimolli-stoxastik
Yangilik darajasi	1. Ma'lum 2. O'xshash 3. Noma'lum
Nazorat qilish mumkinligi	1. Nazorat qilinadigan 2. Nazorat qilinmaydigan
Amal qilishi mumkinligi	1. Qulay 2. Majburiy 3. Tanqidiy 4. Nochor yoki noiloj

Tasniflash asoslari - vaziyatlarni turlarga ajratishga asos bo'lgan xarakterologik parametrlarni ko'rib chiqamiz.

Bu o'rinda *real hayotga muvofiqlik darajasi* katta ahamiyat kasb etadi. Ana shu ko'rsatkichga ko'ra barcha vaziyatlar quyidagilarga bo'linadi:

- real;
- shartli.

Real vaziyatlar real jarayonlarni aks ettiradi va o'ziga xos hisoblanadi. Shartli vaziyatlar sun'iy bo'lib, voqelikda haddan tashqari kam uchraydi, lekin ular tadqiq etilayotgan hodisalar va munosabatlarni nisbatan yorqin aks ettiradi.

Vaziyatning normaga muvofiqligini aniqlaydigan ikkinchi belgiga ko'ra barcha vaziyatlar quyidagilarga bo'linadi:

- normal;
- deviantli;
- ekstremal.

Normal vaziyat vaziyatning norma doirasida rivojlanishini tavsiflaydi, deviantli vaziyat turli xil og'ishishlarni qayd etadi, ekstremal vaziyat esa tizimni hayot

qirrasiga olib chiqadigan, uning oldingi sifatda amal qilishini shubha ostiga qo'yadigan hodisalar va jarayonlarni aks ettiradi.

Vaqtli parametr vaziyatlarni quyidagilarga ajratishga imkon beradi:

- o'tmishdagi;
- hozirgi;
- kelgusidagi.

O'tmishdagi vaziyatlar ilgari ham jamiyatning amaliy hayotida uchrab turganligi bilan tavsiflanadi. Ularning ajratib ko'rsatilishi o'tmishdagi tajribani o'rganishga xizmat qiladi. Hozirgi vaziyatlar shu kundagi voqelik uchun xosdir, kelgusidagi vaziyatlar nazarda tutiladigan prognostik tusda bo'ladi.

Murakkablik parametriga ko'ra vaziyatlar quyidagilarga bo'linadi:

- oddiy;
- murakkab;
- arximurakkab.

Oddiy vaziyatlar bir necha omillarning o'zaro harakatlari natijasidan iborat bo'lib, ular bir xilda yuz beradi. Murakkab vaziyatlar amal qiladigan omillarning turiligi, rivojlanishini bashoratlash mumkinligi bilan farqlanadi. Arximurakkab vaziyatlarning rivojlanishini mutlaqo oldindan aytib bo'lmaydi.

Vaziyatlar yangiligi darajasi bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

- ma'lum;
- o'xshash;
- noma'lum.

Vaziyatlarning bunday bo'linishi ularning ta'limdagi funksiyalariga muvofiq keladi. Ma'lum vaziyatlar trening uchun, o'xshash vaziyatlar – o'xshash vaziyatlarda amallarni ishlab chiqishda bilimlarni qo'llanish qobiliyatini o'rttirish uchun qo'llaniladi. Noma'lum vaziyatlar talabalarda tadqiqotchilik xususiyatlarini hosil qilish, voqelikka nisbatan ijodiy yondashuvni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Nazoratni amalga oshirish imkoniyatiga ko'ra vaziyatlar quyidagicha bo'linadi:

- nazorat qilinadigan;
- nazorat qilinmaydigan.

Nazorat qilinadigan vaziyatlar faoliyat subyektining vaziyatni nazorat qilish uchun zarur vakolatlar va resurslarga egaligi bilan farqlanadi. Boshqaruvchining: «Vaziyat nazorat ostida!» - degan so'zi aynan shunday mazmun kasb etadi.

Fazoviy va er shari miqyosidagi falokatlar haqida gap ketganida nazorat qilinmaydigan vaziyat mutlaqo nazorat qilinmaydigan tusda bo'lishi mumkin. Lekin ko'pincha uning nazorat qilinmasligi nisbiy tusda bo'ladi, yani uni mazkur subyekt nazorat qila olmasligi, lekin boshqa subyekt to'la nazorat qilishi ham mumkin.

Vaziyatlarni tasniflashning muhim parametri, bunday vaziyatdan chiqa oladigan faoliyatning mavjudligi hisoblanadi. Vaziyatlar ushbu belgisi bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

- qulay;
- majburiy;
- tanqidiy, noiloj.

Qulay vaziyatlar shunisi bilan farqlanadiki, ular subyektning qanchalik mehnat qilishidan qat'iy nazar omad, muvaffaqiyat va shu kabilarga bog'liq bo'ladi.

Majburiy vaziyat, bir tomondan, ish yurituvchi subyekt uchun majburiylik va ancha zarar keltirishi mumkinligi bilan farqlanadi, boshqa tomondan esa – maqsadga erishish yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan va jiddiy harakatlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Harakat qilinmaganida vaziyat tanqidiy va hatto noiloj tus kasb etishi ham mumkin.

Prognostik tahlilni prognostik faoliyat - prognozlarini ishlab chiqish faoliyatidan farqlash kerak.

«Prognoz» tushunchasi kelajak haqidagi bilimlar, axborot, ma'lumotlarni anglatishi sababli prognostik tahlil kelajak modellarining ishlab chiqilishini emas, balki ularning va kelajakka erishish yo'llarining qo'llanilishini nazarda tutadi.

Prognostik tahlil o'z mohiyatiga ko'ra prognostik diagnostika, tahlil etilayotgan hodisa yoki jarayonning kelgusidagi hodisa yoki jarayonga muvofiq bo'lishi darajasini aniqlashdan iborat bo'ladi. Uning maqsadi vaziyatning kelgusidagi rivoji yuzasidan bashoratlarni shakllantirishdir.

Prognostik tahlilning ikki turini o'z ichiga oladi:

- normativ;
- izlanadigan.

Normativ prognostik tahlil tizimning kelgusidagi holati beriladigan va unga erishish usullari belgilanadigan holda, *izlanadigan tahlil* esa – kelgusidagi vaziyatni trendli modellarni qurish orqali aniqlashda o'tkaziladi.

Tavsiya qilinadigan tahlil harakat qiluvchi shaxslarning muayyan vaziyatdagi fe'l-atvoriga nisbatan tavsiyalar ishlab chiqilishiga qaratiladi.

Tavsiya qilinadigan tahlil pragmatik tahlildan shunisi bilan farqlanadiki, u muayyan vaziyatdagi fe'l-atvorning variantlari ishlab chiqilishini nazarda tutadi.

Dasturiy-maqsadli tahlil muayyan maqsadga erishishga doir dasturning ishlab chiqilishi yuzasidan tavsiya qilinadigan tahlilning yanada rivojlantirilishini anglatadi.

Ushbu tahlil kelajakka erishishning batafsil modeli ishlab chiqilishiga qaratiladi.

Keysning o'quv topshiriqlari bilan ularning yechimini ta'minlaydigan tahliliy uslublar o'rtasidagi korrelyatsiya 11-jadvalda taqdim etilgan.

11-jadval

Tahliliy uslublar o'rtasidagi korrelyatsiya

O'quv topshiriqlari	Ular yechimini ta'minlaydigan tahliliy uslublar
1.Vaziyat muammosining ajratib ko'rsatilishi, uning turlarga ajratilishi, uning rivojlanish qonuniyatlari va oqibatlari, hal qilish yo'llarining aniqlanishini nazarda tutadigan muammolarning tuzilmalanishi	Muammoli tahlil

2.Vaziyat tavsifnomalari, tuzilmasi, uning funksiyalari, atrofdagi va ichki muhit bilan o'zaro harakatini belgilash	Bir tizimli tahlil
3.Ushbu vaziyat vujudga kelishiga va uning avj olishi oqibatlariga olib kelgan sabablarni belgilash	Sabab-oqibatli tahlil
4. Vaziyat subyektini faoliyati mazmunini tashxislash, uni modellashtirish va optimallashtirish	Pragmatik tahlil
5. Vaziyat subyektining ehtimol tutilgan, doimiy va kerakli kelajagi yuzasidan bashoratlarni tayyorlash	Prognostik tahlil
6. Vaziyatda harakat qiluvchi shaxslarning fe'l-atvori yuzasidan tavsiyalarni ishlab chiqish	Tavsiya qilinadigan tahlil
7. Ushbu vaziyatdagi faoliyat dasturlarini ishlab chiqish	Dasturiy-maqsadli tahlil



Ta'lim uslublari

Keys-stadi texnologiyasining ushbu tarkibiy qismi quyidagi elementlar – ta'lim usullarini o'z ichiga oladi: muammoli uslub, fikriy hujum, munozara, o'rgatuvchi o'yin (12-jadval).

12-jadval



Ta'lim uslublari

Ta'lim uslublari	Ularning keys-stadidagi funksiyalari
Muammoli uslub	Vaziyat negizida yotgan muammoni izlash, ifodalash, kompozitsiyasini o'zgartirish va tashxislash usuli
Fikriy hujum	Muammoli vaziyatga doir g'oyalarni jamlash
Munozara	Muammo va uning yechimi yuzasidan fikr almashish
O'rgatuvchi o'yin	Vaziyat qatnashchilari fe'l-atvorining variantlarini taqdim etish

Muammoli uslub shunisi bilan farq qiladiki, u voqelikka nisbatan muammoli yondashuvni shakllantiradi, bunday yondashuvsiz muammolarni hal qilish qobiliyatini nazarda tutadigan konstruktivizm qaror topishi mumkin emas.

Muammoli uslub keys-stadida g'oyat muhim o'rin tutadi. Talaba harakatlarining quyidagi tarzda tartibga solingan izchilligi uning farqlovchi xususiyatidir:

- muammoning ajratilishi;
- muammoning ifodalanishi;
- muammoning tarkibiy qismlarga (kichik muammolarga) ajratilishi;
- muammoning tashxis qilinishi;
- uning yechimi variantlarining ifodalanishi.

Aqliy hujum – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal qilish yuzasidan jamoa g'oyalarining jamlanishi usulidir.

Keys-uslubda aqliy hujum nafaqat amaliy muammoli vaziyatni hal etish uchun g'oyalarni yo'naltirish usuli, shu bilan birga talabalarning o'quv-bilishdagi faolligini, ularning muammoni mustaqil tushunish va hal etishga qiziqishlarini oshirish, fikrlash

inersiyasidan ozod qilish, kommunikativ malakalarini rivojlantirish vositasi sifatida ham qo'llaniladi.

➤ **Munozara** – muammoni jamoa bo'lib har tomonlama muhokama qilish, uni hal etish usullari va vositalari yuzasidan fikr almashish, g'oyalar, fikrlar va takliflarni taqqoslashdan iborat bo'ladi.

Keys-uslubda markaziy o'rin tutadi. Munozara paytida talaba so'zga chiqqanida o'z fikrlarini aniq ifodalash, o'zining nuqtai nazarini faol himoya qilish, kursdoshining xato nuqtai nazariga qarshi dalillar asosida e'tiroz bildirish, uni inkor etishga o'rganadi. Bunday ishda talaba o'z faoliyatini qurish imkoniyatiga ega bo'ladiki, bu uning intellektual va shaxsiy faolligining yuqori darajaga o'sishi, bilish jarayoniga singib ketishini ta'minlaydi.

Ushbu usulni talabalar quyidagilarga ega bo'lgan hollarda qo'llash maqsadga muvofiq:

- munozara mavzusi bo'yicha bilimlarga ega bo'lganida;
- mustaqil fikrlash ko'nikmalari, o'zining nuqtai nazarini dalillash, isbotlash va asoslash, raqiblarini ishonтира bilish qobiliyatlariga ega bo'lganida;
- munozara qoidalarini bilan tanish bo'lganida.

Talabalarning munozaraga tayyor bo'lmasligi uning chizmaiy tusda o'tishiga olib kelib, axborotlarni mustaqil orttirish emas, balki uni o'qituvchi og'zidan eshitib olishga aylantirib qo'yadi.

➤ **O'rgatuvchi o'yin** – real vaziyatga maksimal yaqinlashtirilgan sharoitlarda talabalarning muammoning optimal yechimi variantlarini faol mustaqil izlashiga asoslangan ta'lim uslubi hisoblanadi.

Ushbu uslub talabalarni nafaqat bilim olish, shu bilan birga bilimlarni bevosita (shu ering o'zida va hozir) qo'llash jarayoniga faol jalb etish hisobiga ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradi. O'yin davomida qatnashchilarga faol pozitsiya – o'yinchi roldan tortib, o'yinning hammuallifigacha bo'lgan rollarni berish hisobiga predmetli faoliyat jadal o'zlashtiriladi.

Agar vaziyatni oldindan o'ynab ko'rish qo'shimcha axborotni olishga imkon bersa, unda o'rgatuvchi o'yinni keys-stadi texnologiyasiga qo'shish mumkin.

Ta'lim jarayonida o'yin bilan keys-uslubning birlashtirilishi, shubhasiz, o'quv jarayoni mazmuniga yaxshi ta'sir etadi, unga yangicha qiziqish va ijodkorlik tusi baxsh etadi. Biroq, shunisi ham shubhasizki, bunday tarzda qo'shib olib borishlik o'qituvchidan pedagogik mahorat talab etadi va talabalarga qo'shimcha intellektual bosim yuklaydi.

Ta'kidlash kerakki, o'rgatuvchi o'yin va keys-stadi o'zining quyidagicha o'ziga xos xususiyatlari sababli turli ta'limiy vazifalarni hal etishga imkon beradi:

- Agar keys-stadi uslubi tahliliy faoliyat yuritish, vaziyatda yo'nalish olish, uning mazmuniga teranroq kirib borish mahoratini shakllantiradigan bo'lsa, unda o'rgatuvchi o'yin o'zgarib turadigan vaziyatlarda ish yuritish malakasini orttiradi, o'z roliga doir fe'l-atvor dinamikasini ishlab chiqadi.
- O'rgatuvchi o'yin amaliyotning in'ikosidan iborat bo'lsa, keys-stadi uslubi – hayotiy amaliyot avj oladigan vaziyat in'ikosi bo'ladi.

• O'rgatuvchi o'yin aniq qobiliyat va malakalarni hosil qilish, ularni mashq qilishga yo'naltirilgan bo'lsa, keys-stadi uslubi – vaziyatda mavjud bo'lgan muammoni izlash va uni fikran hal etishga qaratiladi.

• Keys-stadi uslubi fe'l-atvor strategiyasi malakalarini o'rgatsa, o'rgatuvchi o'yin fe'l-atvor taktikasi ko'nikmalarini hosil qiladi.

☝ **O'quv faoliyati shakllari**

Keys-stadida o'qituvchi va talabalarning o'zaro bog'liq birgalikdagi faoliyatining umumiy, jamoali, guruhli va yakka tartibdagi shakli kabi shakllari integratsiyalashgan bo'ladi (13-jadval).

13-jadval

O'quv faoliyati shakllari

Ta'lim shakllari	Ularning keys-stadidagi funksiyalari
Umumiy	O'qituvchining keys mavzusi bo'yicha bilimlarni dolzarblashtiruvchi savollariga javoblar
Individual	Keys bilan yakka tartibda ishlash
Guruhli	Kichik guruhlardagi birgalikdagi ish: muammo yechimiga doir muqobil g'oyalar muhokamasi, eng samarali g'oyaning baholanishi, tanlanishi va asoslanishi
Jamoali	Fikriy hujum, munozara, g'oyalarning baholanishi, ulardan eng samaralisining tanlanishi

☝ **Ta'lim vositalari**

Mashg'ulotda keysni taqdim etishda va u bilan ishlash jarayonida quyidagi ta'lim vositalaridan foydalaniladi: slaydlar, plakatlar, «ashyoviy dalillar»: korxonalar – keys obyekti yoki uning raqiblari mahsulotlari, bukletlar va boshqalar, shuningdek klassik maktab taxtasi.

Taxtada yozilgan munozaraning asosiy bandlelari ko'pgina maqsadlarga xizmat qiladi.

Birinchiidan, bu o'quv guruhining o'ziga xos jamoalik xotirasi bo'lib, u har xil muhokama mavzularini o'zaro bir-biri bilan bog'laydi, munozara qatnashchilarida birdamlik va olg'a borish hislarini uyg'otadi.

Ikkinchiidan, bu o'qituvchi uchun nazorat mexanizmidir – chunki u tartib, tuzilmani yaratadi, muhokama qilinayotgan mavzularning ahamiyatini oldindan belgilab beradi. O'z mohiyatiga ko'ra, bu texnik vosita yordamchi ta'lim vositasi va axborot manbai rollarni bajaradigan holatdir.

Keys – bu ham ta'lim vositasi, axborot manbai bo'lib, u bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, u yoki boshqa o'quv mavzui-kursi bo'yicha malaka va qobiliyatlarni hosil qilishga imkon beradi.

Axborot va kommunikatsiya usullari va vositalari 14-jadvalda talabalar o'rtasida o'quv axborotlarini almashinishning keys-stadida jamlashgan asosiy shakllari taqdim etilgan.

14-jadval

Axborotlar almash

Axborot almashinish shakllari	Ularning keys-stadidagi funksiyalari
Monolog	O'zining vaziyatni tushunishini ifodalash usuli muayyan maqomli pozitsiyani egallashiga imkon beradiki, bu original g'oyalarni ilgari surishga undaydi
Dialog, polilog	Raqobatlashayotgan nuqtai nazarlarning o'zaro bahamjihat harakati vaziyatni tushunishda ilgari boradigan rivojlanishga olib keladi

Keys-stadi texnologiyasida muloqot, kuzatuv va baholash *teskari aloqa* usullari va vositalari sifatida qo'llaniladi.

Keys-stadi texnologiyasida quyidagi *kommunikatsiya usullari va vositalari* amalga oshiriladi:

- O'qituvchining talabalar bilan tezkor teskari aloqa asosidagi bevosita o'zaro bahamjihat harakati - keys bilan auditoriyada ishlash;
- O'qituvchining talabalar bilan vaqt bo'yicha ajratilgan teskari aloqa asosidagi bevosita o'zaro bahamjihat harakati - keys bilan auditoriyadan tashqarida ishlash.

Boshqaruv usullari va vositalari Boshqaruvchilik jarayonining mohiyati harakatlarni maqsad – natija mos kelish chizig'i bo'yicha muvofiqlashtirish, pedagogik tizim ishtirokchilari fe'l-atvorining yuqori dinamikligi va oldindan aytib bo'lmasligi sababli muqarrar kelishmovchiliklarni imkoni boricha kamaytirishdan iborat. Keys-stadi texnologiyasida birlashtirilgan boshqaruv usullari va vositalarini o'qituvchining keys-stadining har bir texnologik bosqichidagi boshqaruvchilik funksiyalari asosida ko'rib chiqamiz:

✎ **Maqsadning nazarda tutilishi** – ta'lim maqsadini shakllantirish, o'quv natijalari va pedagogik vazifalarni belgilash. Bu pedagogik faoliyatning asosiy omili bo'lib, u ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning umumiy natija tomon birgalikdagi faoliyatini oldindan belgilaydi va yo'naltiradi.

✎ **Tashxis qo'yish** - ta'lim oluvchilarning keys bilan ishlash qobiliyatini va tayyorligini, shuningdek ta'lim jarayonida mavjud moddiy – texnik imkoniyatlarni o'rganish. Maqsadni o'zgartirib turish zarurati bilan bog'liq bo'ladi, unga erishish usullari va vositalarini belgilaydi.

✎ **Bashorat qilish** - pedagogik va o'quv faoliyatining mavjud sharoitdagi va belgilangan vaqt ichidagi natijasini oldindan ko'ra bilish. Faoliyat strategiyasi, berilgan miqdor va sifatidagi pedagogik mahsulotni olish imkoniyatini baholashni belgilaydi.

✎ **Loyihalashtirish** - oldindagi faoliyat modelini qurish, mavjud sharoitda va belgilangan vaqt ichida qo'yilgan maqsadga erishishga imkon beradigan ta'lim

usullari va vositalarini tanlash; maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun xususiy vazifalarni shakllantirish; kommunikatsiya, axborot va boshqaruv usullari va vositalarini belgilash. Tashxis, bashoratlash va loyiha rejasini ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

✎ **Rejalashtirish** – navbatdagi o'zaro bog'liq pedagogik va o'quv faoliyati rejasini ishlab chiqish. O'quv mashg'uloti rejasini o'quv mashg'ulotining texnologik kartasi shaklida chizmaiyashtiriladi.

✎ **Tashkil qilish** – o'qituvchining ta'lim oluvchilarni belgilangan ishga jalb etishi, mo'ljallangan maqsadga erishishda ular bilan hamkorlik qilishi.

✎ **Axborot ta'minoti** – o'quv axborotini yetkazish va teskari aloqa usullari va vositalarining amalga oshirilishi. Bunda to'plangan axborot jarayonning kechishini tezkorlik bilan o'zgartirish, ta'sirchan stimullar, samarali vositalarni joriy etishga imkon beradi.

✎ **Nazorat qilish** – talabalar bilimlari, malakalari va ko'nikmalarini aniqlash, o'lchash va baholashni anglatadi. O'qituvchining talabalar bilan tezkor teskari aloqasi: o'quv materialini o'zlashtirish va prognoz qilingan o'quv natijalariga erishish darajasi haqidagi obyektiv axborot olinishini ta'minlaydi. Kamchiliklar va bo'sh qolgan o'rinlarni o'z vaqtida aniqlashga imkon beradi.

3.Keys-stadi texnologiyasini samarali amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari

O'qituvchi va talabalarning amaliy muammoli vaziyatni tahlil etish va hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga erishish bo'yicha birgalikdagi faoliyati natijalari samaradorligini quyidagi pedagogik shart-sharoitlar majmui belgilaydi:

• O'qituvchining ta'limni texnologiyalashtirish qoidalari, keyslarni ishlab chiqish, keys-stadi texnologiyasini loyihalashtirish, rejalashtirish va amalga oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini egallaganligi.

• Talabalarning keys mavzusi bo'yicha nazariy bilimlar va o'quv malakalari, o'zini o'zi boshqarish, axborot bilan ishlash, ilmiy tadqiqot uslublari va tahliliy uslublarni, aqliy hujum qoidalari va munozara qatnashchilari fikrlaridan foydalanish ko'nikmalari, guruhlarda ishlash va taqdimotlarni o'tkazish qoidalari va shu kabilarni egallashi.

• O'qituvchi talabalarni ta'lim jarayonidagi sheriklar deb e'tirof etishi, guruhli munozara, hamkorlik, o'zaro yordam, birgalikdagi faoliyat kabi o'zaro bahamjihat harakat usullaridan albatta foydalanish.

• O'qituvchining bilimlar translyatori rolidan menejer, ekspert va maslahatchi rolini bajarishga o'tishi. Keys-stadi texnologiyasi sharoitida talabalarni axborotlarni mustaqil tarzda olish, ularni muammoli vaziyatlarni tahlil etish, ajratish, taqqoslash uchun qo'llashga o'rgatish muhimdir. O'qituvchi talabaning axborot olamidagi maslahatchisiga aylanadi.

• Keys va undan foydalaniladigan mashg'ulotning individual takrorlanmaydigan ijodiy mahsulotga aylantirilishi. Bunda keys-stadining qo'llanilishi ijodiy maydonni ancha kengaytiradi va noyob intellektual mahsulot

sifatidagi keysni yaratish, muallifning samarali ta'lim texnologiyasini loyihalashtirish bo'yicha ijodiy faoliyatni qamrab oladi.

- Har bir talabaga nisbatan individual yondashuv, uning qobiliyatlari, bilim, malaka va ko'nikmalari hisobga olinishi; ta'limda maksimal erkinlik berish (keysning o'quv topshiriqlarini bajarish usullari va vositalarini tanlash imkoniyati).

- Talabalarga keysni hal qilish uchun quyidagilarning taqdim etilishi:

- hajmiga ko'ra unchalik katta bo'lmagan, faqat asosiy qoidalarga qaratilgan tuzilmalangan nazariy material;

- keysda qo'yilgan vazifalar bo'yicha axborot (ko'rgazmali) materiallarning yetarli miqdori (maqolalar va bukletlar; video-, audiokassetalar va CD-disklar; faoliyati tahlil etilayotgan korxonalar mahsuloti va shu kabilar).

- Talabaning o'qituvchi bilan erkin muloqot qilishi, yani har qanday vaqtda yordam so'rab murojaat qilishi mumkinligi.

- O'qituvchining keys-stadini ta'lim va tarbiyaning o'quv jarayonining keng demokratlashtirilishi va texnologiyalashtirilishi, fikr yuritishning ilg'or usulini egallash va pedagogik etikaga rioya etish, o'quv jarayoni tashkilotchisi rolini bajarishga asoslangan alohida paradigmasi sifatida his qilishi.

4. Keys manbalari, keyslarni yaratish tamoyillari va bosqichlari

Keyslar uchun ular turining juda ko'pligi xosdir. Keyslarning turlari bo'yicha tasniflanishi 15-jadvalda taqdim etilgan.

15-jadval

Keyslarning turlari bo'yicha tasniflanishi

Tipologik belgilari	Keys turi
Asosiy manbalari	1. Daladagi 2. Kabinetdagi 3. Ilmiy-tadqiqotchilik
Syujet mavjudligi	1. Syujetli 2. Syujetsiz
Vaziyat bayonining vaqtidagi izchilligi	1. O'tmishdan hozirga kelish rejimidagi keys 2. Vaqt orqaga qaytariladigan keys-xotira 3. Prognostik keys
Keys obyekt	1. Shaxsiy 2. Tashkiliy-institusional 3. Ko'p subyektli
Materialni taqdim etish usuli	1. Hikoya 2. Esse 3. Tahliliy yozishma 4. Jurnalist tergov 5. Hisobot 6. Ocherk 7. Faktlar majmui 8. Statistik materiallar majmui

	9. Hujjatlar va ishlab chiqarish namunalari majmui
Hajmi	1. Qisqa (lo'nda) 2. O'rtacha miqdordagi 3. Katta (uzun)
Tuzilmaviy o'ziga xos xususiyatlari	1. Tuzilmalangan 2. Tuzilmalanganmagan
O'quv topshirig'ini taqdim etish usuli	1. Savolli 2. Keys-topshiriq
Didaktik maqsadlari	1. Muammo, yechim yoki konsepsiyani izohlash 2. Treningli, o'quv mavzuni/predmeti bo'yicha malaka va ko'nikmalar orttirishga mo'ljallangan 3. Tahlil va baholashga o'rgatuvchi 4. Muammoni ajratish va yechish, boshqaruvchilik qarorlari qabul qilishga o'rgatuvchi 5. Vaziyat subyekt rivojining yangi strategiyalari va yo'llari, yangicha baholash uslublari va shu kabilarni ishlab chiqishga rag'batlantiruvchi
Chizmaiyashtirish usuli	1. Bosma 2. Elektron 3. Video-keys 4. Audio-keys 5. Multimedia-keys

Keysologning (shu o'rinda va keyinchalik - keysni ishlab chiquvchi) vazifasi keys turining qo'yilgan didaktik maqsadlarni optimal amalga oshirishiga imkon beradigan o'ziga xos xususiyatlarini tanlash va qo'llashdan iborat.

Keyslarning turli manbalari Keys intellektual mahsulot sifatida o'z manbalariga egadir. Ularni chizmalı tarzda quyidagicha aks ettirish mumkin:

Sotsium keyslarning manbaidir, degan fikr hech kimda shubha tug'dirmasligi aniq. Faqat uning keysning mazmuni va shaklini qay darajada oldindan belgilab berishi mumkinligi haqida turlicha fikr bo'lishi mumkin. Ijtimoiy hayot butun turli-tumanligi bilan keys syujeti, muammolari va faktologik bazasining manbai bo'ladi. Ta'lim va tarbiyaning keysda jamlangan maqsadlari va vazifalari, shuningdek ta'lim texnologiyasini belgilaydigan ta'lim yana bir manbaidir.

Fan keysning uchinchi manbaidir. U tahliliy faoliyat va bir tizimli yondashuv bilan belgilanadigan ikkita asosiy metodologiyani, shuningdek keysni hal etish jarayonida qo'llaniladigan boshqa ilmiy uslublarni beradi.

Ushbu yondashuv keyslarni asosiy manbalari bo'yicha tasniflashga asos bo'lishi mumkin. Bu erda quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1) hayotiy keyslari - mutlaqo real hayotiy vaziyatlarni aks ettiradi;

2) kabinetdagi keyslar - keysolog modellashtirgan amaliy vaziyatni o'z ichiga oladi;

3) ilmiy-tadqiqotchilik keyslari – tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Hayotiy keysning asosiy vazifasi hayotiy vaziyatni batafsil va to'liq aks ettirishdan iborat. O'z mohiyatiga ko'ra, bunday keys vaziyatning amaliy, yani «harakatdagi» modelini yaratadi. Bunda bunday keysning o'quv maqsadi ta'lim oluvchilar treningi, ushbu vaziyatdagi bilimlar, qobiliyatlar va fe'l-atvor (qarorlar qabul qilish) ko'nikmalarini mustahkamlashdan iborat bo'ladi. Bunday keyslar maksimal ko'rgazmali va batafsil bo'lishi kerak. Ularning asosiy mazmuni hayotni bilish va optimal faoliyatga doir qobiliyatlarni hosil qilishdir.

Garchi har bir keys ta'lim beruvchi funksiyani bajarsa-da, lekin ularning barcha qirralarining turli keyslarda aks etishi darajasi turlichadir. Ko'proq ta'lim beruvchi funksiyani bajaradigan, hayotni biroz boshqacharoq aks ettiradigan keys kabinetdagi keys deyiladi.

Birinchidan, u hayotda ko'proq uchraydigan va mutaxassis o'zining kasbiy faoliyatida duch keladigan tipovoy vaziyatlarni aks ettiradi. Ikkinchidan, ta'lim beruvchi keylarda o'quv topshiriqlari birinchi o'rinda turadiki, bu unda aks etadigan hayotning ancha shartlilik elementiga ega bo'lishini oldindan belgilaydi. Bu erdagi vaziyat, muammo va syujet hayotda bo'ladigani kabi tus kasb etadi. Ular sun'iyliги bilan tavsiflanadi va eng muhim va haqiqiy hayotiy detallar konglomeratidan iborat bo'ladi. Bunday keys vaziyatlardagi tipiklikni ko'rishga imkon beradi va vaziyatni amliyotdagi shunga o'xshagan variantni qo'llash orqali tahlil qilish qobiliyatini oldindan belgilab beradi.

Ilmiy-tadqiqotchilik keysi uchun ham shunday xususiyatlar xosdir. Uning asosiy mazmuni shundaki, u vaziyat va undagi fe'l-atvor haqidagi yangi bilimni olish uchun model bo'lib xizmat qiladi. Uning ta'lim beruvchi funksiyasi modellashtirish uslubini qo'llash orqali ilmiy tadqiqotchilik malakalarini shakllantirishdan iborat. Ushbu keys tadqiqotchilik modelini yaratish tamoyillari bo'yicha quriladi. Shuning uchun uni ko'proq magistraturada, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimidagi ta'limda qo'llanish ma'quldir.

Bunday keylarda tadqiqotchilik funksiyasining ustunlik qilishi uni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatida ancha samarali qo'llashga imkon beradi.

Keysning yuqorida ajratib ko'rsatilgan manbalarini asosiy, bazaviy yoki birlamchi manbalar deb atash lozim, chunki ular keyslarga ta'sir ko'rsatishning eng mohiyatli omillarini belgilaydi.

Keyslarni shakllantirishning ikkilamchi manbalarini ham ajratib ko'rsatadiki, ular bazaviy manbalardan hosil bo'ladigan tusga egadir. Quyida ularga to'xtalamiz.

1. Xorijiy tajriba ko'rinib turganidek, mahsulotlari talabalar uchun muayyan shaxsiy ahamiyat kasb etadigan korxonalar faoliyati ko'rib chiqilganida yoki axborot «mahalliy» materialga asoslanganida keyslar muhokamasi ancha mazmunli va qiziqarli kechadi. Lekin bu keyslarda faqat mamlakatdagi korxonalar tajribasi yoritilishi kerakligini bildirmaydi. Bunda u yoki boshqa sifati bilan milliy bozorda mavjud bo'ladigan korxonalar va tovarlar yoki xizmatlar nazarda tutilaypti.

Agar talabalar keyslarda bayon qilingan hodisalar bilan bog'liq bo'lgan muhit va sohani yaxshi bilsalar, ular o'zlarini ancha ishonchliroq his etadi. Ularning, masalan, amerikalik yoki boshqa xorijiy iste'molchilar fe'l-atvori va motivlarini muhokama qilishi ancha qiyin kechadi. O'qituvchi ham o'zi subyektini yaxshi biladigan keys muhokamasiga mohirona rahbarlik qiladi. Har qanday holda ham bunday keyslar muhokamasida korxonalar – keys obyekti vakilini talif qilishdek noyob imkoniyat mavjud bo'ladi.

2. Statistik materiallar, bozor ahvoli haqidagi ma'lumotlar, korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy tavsifnomalari va shu kabilar keysga ilmiylik va oddiylik baxsh etadi. Bunda mazkur materiallar vaziyatni tashxis qilish vositasi rolini bajarishi, vaziyatni tushunish uchun juda muhim bo'lgan ko'rsatkichlar hisob-kitobi uchun axborot vazifasini uddalashi mumkin.

Statistik materiallardan foydalanishda talaba bu materiallarni idrok etishi, quyidagi kabi bir necha savollarga javob berishi kerak: «Ushbu materiallar vaziyatni tavsiflashda qanday rol o'ynaydi?», «Materiallarning o'zidagi qaysi narsalar vaziyatni bevosita tavsiflaydi?», «Bunday tavsifnomalar qanday hisoblab chiqiladi yoki ajratib ko'rsatiladi?» va hokazo.


Statistik materiallar keys matnida yoki ilovada joylashtiriladi.

3. Ilmiy manbalar, publisistika va badiiy adabiyot asarlari – bular ham keysni yozish uchun yana bir manbadir. U yoki boshqa muammoga bag'ishlangan ilmiy maqolalar, monografiyalar va ilmiy hisobotlarni tahlil etish orqali ham keys uchun yaxshi materiallarni olish mumkin. Yaxshi ilmiy maqola odatda qandaydir masalani teran tushuntirishi bilan tavsiflansa, ilmiy monografiya tadqiqot predmetining bir tizimli, har tomonlama tavsifnomasini beradi. Ilmiy hisobotning o'ziga xos xususiyati esa materialning dolzarbligi va yangiligidir. Bunday fan mahsulotlari har doim ham vaziyatni bayon qilavermaydi va izohlab bermaydi. Shuning uchun ularni keysolog vaziyat nuqtai nazaridan maxsus mushohadadan o'tkazishi kerak bo'ladi.

Eng qiziqarli ilmiy maqolalar keys-uslubda ikkita funksiyani bajarishi mumkin. Birinchisi shundan iboratki, ilmiy maqolalar va ularning qismlari ularni matnga kiritish orqali keyslarning tarkibiy qismiga aylanishi mumkin, ikkinchisi shundaki, ular keysni tushunish uchun zarur adabiyotlar ro'yxatiga qo'shilishi mumkin.

Agar ilmiy manbalar keysga qat'iylik va oddiylik bersa, unda publisistika va badiiy adabiyot asarlari emotsional to'liqlik va predmetli izohlilikni yaratadi.

4. Internet va uning resurslari – keyslar uchun tuganmas material manbaidir. Ushbu manba keng miqyoslilik, qayishqoqligi va operativligi bilan ajralib turadi.

 **Syujet mavjudligiga qarab keyslar turlari**

Syujet mavjudligiga qarab keyslar:

- syujetli;
- syujetsiz bo'ladi.

Syujetli keys odatda bo'lib o'tgan voqealar haqidagi hikoyani, shaxslar va korxonalar harakatlarini o'z ichiga oladi.

Syujetsiz keys, odatda, yaqqol ifodalangan syujetga ega bo'lmaydi, chunki syujetning aniq ifodasi ko'p jihatdan yechimni ochib beradi. Sirtidan qaraganda

vaziyat tashxisiga, syujetni yana qayta tiklashga yordam berishi kerak bo'lgan statistik materiallar, hisob-kitoblar, ishlanmalar majmuidan iborat bo'ladi.

Vaziyatni bayon qilishning vaqtidagi izchilligi bo'yicha keyslar turlari

Keysda bayon qilinadigan vaziyat syujetining vaqtidagi izchilligi ham keysning tasnifiy o'ziga xos xususiyatlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ushbu belgiga ko'ra keyslarning uch turini farqlashadi:

- O'tmishdan hozirga kelish rejimidagi keys;
- Vaqt orqaga qaytariladigan keys-xotira;
- Prognostik keys.

O'tmishdan hozirga kelish rejimidagi keys bayon qilinadigan hodisalarning vaqtidagi tabiiy izchilligi bilan tavsiflanadi, sabab-oqibatli aloqalarni yaxshi aniqlashga imkon beradi.

Vaqt orqaga qaytariladigan keys-xotirada vaqt orqaga qaytariladi: unda harakat qiluvchi shaxslar nimalaridir eslashadi, xotiraning o'zi uzuq-yuluq, ko'pincha bir tizimsiz va fragmentar bo'ladiki, bu vaqt zanjirini qayta tiklashni qiyinlashtiradi. O'z mohiyatiga ko'ra, keys tahlili vaziyat rekonstruksiyasi, uning biror bir bilish paradigmasi jihatidan idrok qilinishidan iborat bo'ladi.

Prognostik keys yaqin o'tmishdagi va hozirgi voqealarning ancha batafsil bayonini beradi, undagi obyektning kelgusidagi holatining eng yaxshi variantini ishlab chiqish vazifasini qo'yadi.

Obyektiga qarab keyslar turlari

Vaziyat obyektiga qarab keyslar shartli ravishda uch guruhga bo'linadi:

- Shaxslarga oid keys, unda aniq subyektlar:

menejerlar, siyosatchilar, rahbarlar amal qiladilar.

- Tashkiliy-institutsional keys - uning obyektini institutsional tizimlar: tashkilotlar, firmalar, kompaniyalar, korxonalar va ular bo'linmalari bo'lishi bilan farqlanadi.

- Ko'p obyektli keys – odatda bir necha harakat qiluvchi obyektlarni o'z ichiga oladi.

Didaktik maqsadlarga ko'ra keyslar

Ushbu tasniflash asosiga ko'ra keyslarning besh turi farqlanadi:

1. Muammo, yechim yoki konsepsiyani oydinlashtiruvchi keys. Taniqli va muvaffaqiyat bilan ishlaydigan korxonalar (kompaniyalar)ning uzoq muddat davomidagi ish faoliyatini bayon qiladi (maqsadlari, strategiyalari, mahsulot modifikatsiyalari, turli bozorlardagi ishi va boshqalar).

Bunday keysning ta'limiy maqsadi – misol orqali o'qitish. Rejalashtiriladigan o'quv natijalari – to'g'ri qabul qilingan qarorlarni eslab qolish, taniqli va muvaffaqiyat bilan ishlaydigan korxonalar va tarmoqlarning amaliyoti bilan tanishish.

2. Treningli, o'quv mavzui-predmeti bo'yicha malaka va ko'nikmalar orttirishga mo'ljallangan. Uning ta'limiy maqsadi - talabalarga biror bir harakatlarni bajarish algoritmini o'rgatish.

Talaba quyidagilarni o'rganishi kerak: muayyan model/ formula/hisob-kitob algoritmini qo'llash, berilgan odatiy vaziyatda yagona to'g'ri qarorni qabul qilish.

3. Tahlil va baholashga o'rgatuvchi. Keysda aniq vaqt davridagi vaziyat bayon qilingan, vaziyat subyekti oldida turgan muammolar aniqlangan va aniq ifodalangan.

Talaba vaziyatni tushunishi, tahlil qilishi va baholashi, qo'yilgan muammo yuzasidan qaror qabul qilishi lozim.

4. Muammoni ajratish va yechish, boshqaruvchilik qarorlari qabul qilishga o'rgatuvchi. Murakkab bayon qilingan vaziyatga ega. Muammo vaziyatga kiritiladi-yu, lekin aniq namoyon bo'lmaydi. U statistik ma'lumotlar, korxonalar hisobotlari, bo'linmalar rahbarlari nutqlari va shu kabilarda taqdim etilgan.

Talabalar muammoni aniqlashi va ifodalashi, uni hal etish usullari va vositalarini ko'rsatishi kerak.

5. Vaziyat subyekti rivojining yangi strategiyalari va yo'llari, yangicha baholash uslublari va shu kabilarni ishlab chiqishga rag'batlantiruvchi. Bunday keysning o'ziga xos xususiyati shundaki, boshqaruvchilik muammosi korxonalar faoliyatining muayyan turiga, muayyan asosiy shart-sharoitlarga bog'lab bayon qilinadi.

Talabalar vaziyat subyekti rivojlantirishning yangi strategiyasi va yo'llarini topish talab qilinadi. Bunday keysdagi vaziyatda axborotning bir qismi bo'lmashligi mumkin. Axborotga ehtiyojni aniqlash va uni topish – talabaning yana bir vazifasidir.

Axborot yig'ish usullari va vositalarining tanlanishi

Keys uchun axborot yig'ish usullari sifatida quyidagilar tanlanishi mumkin: intervyu, suhbat, o'rganish (arxiv hujjatlari, hisobotlari), kuzatuv va hokazo.

Quyidagilar axborot yig'ish vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin: so'rovnoma varag'i, intervyu olish varag'i, anketa, har xil jadvallar va boshqalar.

Keysga asos bo'ladigan axborotlarni izlash va yig'ish uni yozishdagi muhim muammodir. Quyidagilar axborot manbalari bo'lishi mumkin:

- statistik materiallar, hisobotlar;
- vaziyat obyektini faoliyati haqidagi ma'lumotnomalar, axborotlar, propektlar va boshqa ma'lumotlar;
- Internet;
- ommaviy axborot vositalari;
- korxonalar raqiblari, uning ta'minotchilari va iste'molchilari, tarmoqdagi ekspertlar yoki turli investitsion fondlar tahlilchilari bilan muloqot;
- talabalarning o'quv va diplom loyihalari, magistrlik dissertatsiyalari;
- ilmiy maqolalar, monografiyalar.

Darvoqe, xorijiy tajribaning ko'rsatishicha, korxonalar rahbarlari bilan intervyu keysning eng samarali manbalaridan biri hisoblanadi.

👉 Vaziyat modelining qurilishi

Keysologning keysni ishlab chiqishga doir faoliyatining ushbu bosqichdagi mazmunini uning quyidagi qarorlari belgilaydi:

- Keys qanday bo'ladi: syujetli yoki syujetsiz?
- Keysdagi voqealar axborotni bayon qilishning vaqtidagi izchilligi bo'yicha o'tmishdan hozirga keladigan yoki keys-xotira yoxud prognostik bo'ladimi?
- Vaziyatga oid mashq qanday janrda bayon qilinadi: hikoya yoki esse yoxud tahliliy yozishma yoki boshqacha shaklda?

Keysolog qabul qilingan yechim asosida vaziyat modelini quradi.

🔗 **Keysdagi vaziyat modeli** vaziyat subyekti faoliyatining ideal in'ikosidan iborat bo'ladi va ifodalangan muammo tashuvchisi rolini bajaradi. Tashqi ko'rinishiga ko'ra bu hodisalarning muayyan zanjiri yoki hodisalar doirasi, hodisalar bog'lami va shu kabilar bo'lishi mumkin.

Model vaziyatning turga oid belgilarini tanlash asosida shakllantiriladi.

Vaziyat modelini qurish muvaffaqiyati uning o'rganilayotgan mavzu yoki o'quv predmetiga muvofiq bo'lishi darajasiga qarab, shuningdek unda nostandart, muayyan intriga borligiga ko'ra belgilanadiki, bu unga noordinarlik baxsh etib, tadqiqotchilik motivatsiyasini hosil qiladi.

👉 Keys matnining yozilishi

Keysolog keysni yozishga kirishishdan oldin quyidagicha yechimlarni qabul qiladi:

- Keys o'z hajmiga ko'ra qisqa yoki o'rta miqdorda yoxud katta bo'ladimi?
- Bu savolli keysmi yoki keys-topshiriqmi?
- Keysda muammo qanday usulda beriladi?
 - 1-usul – muammoni keysolog ifodalaydi.
 - 2-usul – vaziyatdagi muammo yaqqol ifodalanadi, lekin bunda vaziyatning zarur elementlaridan biri (masalan, sheriklar haqidagi) axborot bo'lmaydi.
 - 3-usul – matnda vaziyat subyektlari o'rtasidagi ziddiyat mavhum ifodalanadi.
- Keys tuzilmasi bo'yicha qanday bo'ladi?

Gap shundaki, keys bu shunchaki mohirona bir hikoya yoki muayyan voqealarning optimal sonli sahifalardagi oddiy bayoni emas. Yuqorida qayd qilinganidek, bu, avvalo, muayyan o'quv maqsadlariga erishish uchun qo'llaniladigan pedagogik vositadir.

Shu sababli keys tuzilmasi uch asosiy tarkibiy qism bilan belgilanadi:

- 1) motivatsion, keysning dolzarbligi, uning maqsadi va talaba keysni hal qilishda erishadigan o'quv natijalarini belgilaydi;
- 2) syujetli, u keysdagi amaliy vaziyat mazmunini ochib beradigan harakatlar, voqealar majmuidan iborat bo'ladi;
- 3) informasion, u vaziyat tahlili uchun zarur axborotni o'z ichiga oladi;

Syujetli va informasion qismlar nisbatan mustaqil tarzda va chambarchas bog'liq holda ham amal qilishi mumkin.

👉 Talabanning hal qilishi uchun taqdim etiladigan har qanday keysda uning maqsadi va topshirig'i/savollari aniq ifodalangan bo'lishi lozim; u topshiriqni hal etish uchun zarur va yetarli axborot hajmini o'z ichiga olishi kerak.

5. Loyiha metodi, uning mazmuni va maqsadi. Loyihaning turlari. O'quv jarayonida loyiha metodini qo'llash mahorati.

Loyihaviy ta'lim pedagogika amaliyotida 300 yildan ortiq qo'llanilib kelmoqda.

Nemis pedagogi M.Knollning tadqiqotiga ko'ra, «loyiha» tushunchasining paydo bo'lishi XVI asrga taalluqli bo'lib, italiyalik me'morlarning me'morlikni fan deb e'lon qilib, uni o'quv fanlari darajasiga chiqargan holda o'z faoliyatlarini kasbga aylantirishga urinishlari bilan bog'liq.

👉 XVIII asr oxirida muhandislik kasblari paydo bo'lishi natijasida o'quv loyihasi dastlab Fransiya, so'ngra Germaniya, Avstriya, Shveysariyadagi, XIX asr o'rtalarida esa AQSHdagi texnika va sanoat oliy maktablarida tarqaldi.

👉 *Loyihalar usuli* «o'qitish usuli» didaktik toifa sifatida XIX asr boshlarida shakllandi. Bu davrda pragmatik pedagogika doirasida «erkin tarbiya» g'oyalari yuzaga keldi.

👉 Amerikalik pedagoglar V.Kilpatrik, E.Kollings va E.Parxerstning ishlarida rivojlantirildi, ular tahsil oluvchilarning nafaqat faol o'rganish faoliyati, balki birgalikdagi mehnat, hamkorlik asosidagi faoliyatini tashkil eta boshladilar.

👉 1911- yilda AQSH Tarbiya byurosi «loyiha» atamasini qonunlashtirdi va u amerika pedagogikasida yanada mustahkamlana boshladi.

Loyiha» atamasi ijtimoiy fanlar sohasiga texnika sohasidan o'tgan bo'lib, «**Loyiha** (lotincha-projectus, dan tarjimada oldinga tashlangan) – aniq qoidalarga muvofiq u yoki bu soha holatini qayta qurishning asosiy g'oyasini anglatadi.

Ta'lim ma'nosidagi loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan talabanning muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkillashtirishdan to ommaviy baholashgacha bo'lgan mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

Loyihaviy ta'limning muhim belgilari:

- Muammoga yo'naltirilgan o'quv izlanishini tizimli tashkillashtirish o'quv muhitini yaratadi;
- Talabalarga ularni qiziqtirgan muammoni tadqiq qilish va uni hal etishda yo'naltirish va yordam berishda o'qituvchi o'rmini belgilovchi o'quv muhitini yaratadi;
- Fan bilimlarini mustahkamlashga va ularni rivojlantirishga yordam beruvchi o'quv muhitini yaratadi;
- Talabalarga mustaqil harakat qilish, (amaliyotga yo'naltirilgan) aniq yakuniy natija olishni ta'minlovchi o'quv muhitini yaratadi;
- Haqiqiy hayot bilan ta'limning mustahkam aloqasini o'rnatadi.

1.Loyihaviy ta'lim turlari.

Izlanuvchilik faoliyati xususiyatidagi o'quv loyihalarning turlari

1. **Tadqiqotchilik loyihalari** – bu ilmiy izlanish xususiyatiga ega bo`lib, quyidagi ishlarni bajarish va aniqlash nazarda tutiladi:

- muammoni dolzarbligi va ishlab chiqilganligini;
- Tadqiqot maqsadi;
- Faraz, vazifalar;
- Muammoni o`rganish usullari;
- Axborotni yig`ish va tahlil qilish;
- Tajriba o`tkazish;
- Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

2. Ijodiy loyihalar

Hamkoriy faoliyatda ishlab chiqilgan yangi mahsulotni ijodiy shakldagi (ijodiy hisobot, ko`rgazma, ishlab chiqarish xonalarini dizayni, videofilm, nashriy mahsulotlar – kitoblar, almanax, kompyuter sahifalaridagi jurnal, kompyuter dasturlari va b.) taqdimoti.

Ijodiy ish guruhi - bu (laboratoriyalar, ustaxonalar, konstruktorlik birlashmalari, redaksiyalar va boshqalar)

3. **Axborotli loyihalar** – o`quv jarayoni yoki boshqa buyurtmachilar uchun muhim bo`lgan axborotlarni yig`ishga yo`naltirilgan.

Loyihani ishlab chiqish turli manbalardan: monografiya, jurnal maqolalari, gazeta nashrlari, sosiologik so`rovnomal, elektron ma`lumotlarni izlash bilan bog`liq.

Qo`llash sohasiga bog`liq ravishda o`quv loyihalarni turlari

➤ Ishlab chiqarishga oid (texnikaviy) va ijtimoiy loyihalar. Bunda ishlab chiqarishning ijtimoiy tomonlarini (boshqaruv, uy-joy sharoitini yaxshilash va boshqa muammolarni) takomillashtirish uchun muhim bo`lgan muammolarni hal etish nazarda tutiladi.

Muammoni ishlab chiqish xususiyati bilan muvofiqlikdagi loyihalar

➤ Nazariy va amaliyga yo`naltirilgan loyihalar. Bunda kasb ta`limi yo`nalishidagi talabalar pedagogika tarixi fanida tarbiyaga bo`lgan yondashuvlarni o`rganish asosida ijodiy guruhlarda o`zlarining shaxsiy tarbiyaning konsepsiyalarini ishlab chiqadilar.

➤ Amaliy xususiyatdagi loyihada aniq amaliy, yani maktab yoki aniq o`qituvchining buyurtmasi bo`yicha muammoni hal etishga yo`naltiriladi (uslubiy loyiha). Bu loyihalar bitta loyihada o`z aksini topishi ham mumkin.

Masalan: “Menejment” fani bo`yicha mashg`ulotda bajarilgan nazariy loyiha va ishlab chiqarishning tashkiliy madaniyatini tadqiq va tahlil qilishga yo`naltirilgan loyiha “Magazinni xususiyashtirish va savdo korxonasi tashkiliy madaniyati” videofilmini tayyorlash bilan olib boriladi va bu o`quv materiali sifatida qo`llaniladi.

O`quv fanlariga bog`liqlikda ishlab chiqiladigan loyiha turlari

- Bir fanli loyiha – bunda loyiha bir fan doirasida amalga oshiriladi.
- Fanlararo loyiha – bunda boshqa fanlar materiali asosida aniq fan o`rganiladi.
- Fan tashqarisidagi loyiha – aniq fan doirasidan tashqarida amalga oshiriladigan ishlar nazarda tutiladi.

Fanlararo va fan tashqarisidagi loyihalar talabalarda faol, mahsuldor faoliyatni ta`minlaydi.

Davomiyligi, bajarish vaqti bo`yicha loyihalar:

➤ Qisqa muddatli loyiha- bu bir necha mashg`ulotlarda yoki talabalarning mustaqil ish jarayonida ishlab chiqiladi.

➤ O`rta muddatli loyiha – bu bir haftadan bir oygacha ishlab chiqiladi.

➤ Uzoq muddatli loyiha – bir va bir necha oygacha ishlab chiqiladi.

Aniq fanni o`rganishda qisqa muddatli loyiha qo`llaniladi.

Uzoq muddatli loyihalarga diplom va kurs ishlari taaluqli bo`ladi.

O`quv loyihaviy faoliyatning bosqichlari

✳️ Tayyorgarlik bosqichi: loyihaga kirishish, loyiha faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish – auditoriya ishi.

✳️ Loyihani bajarish bosqichi – auditoriyadan tashqari ish.

✳️ Yakunlovchi bosqich: loyiha taqdimoti, talabalar mahsuloti va loyiha faoliyatining baholanishi, loyiha faoliyati refleksiya – auditoriya ishi.

2. Loyiha ustida ishlashni tashkillashtirish

1-bosqich - muammoni izlash yoki shakllantirish. Muammo manbasi bo`lib quyidagilar bo`lishi mumkin:

• Ishlab chiqarishga sayohat va uning faoliyatini tahlili, echilmagan muammolarni aniqlash;

• O`qituvchi tomonidan aniq ijtimoiy va ishlab chiqarish vaziyatlari bayoni;

• O`quv jarayonini takomillashtirishga oid aniq vazifalar (uslubiy va didaktik vositalar, qo`llanmalar, tavsiyalar, talabalarni mustaqil ishlashlari uchun materiallar, alohida savol va mavzular bo`yicha videofilmlarni ishlab chiqish).

Bu bosqichda o`qituvchini asosiy vazifasi – talabalarni muammoni anglab etishga olib chiqish, uni yechishga bo`lgan motivatsiyani va o`quv loyihaning mahsulotini-aniiq natijani olishni yaratish hisoblanadi.

2-bosqich, ijodiy guruhlarini shakllantirish, juftlikda va guruhli sharoitda amalga oshiriladi.

Loyiha turiga qarab (ijodiy laboratoriyalar, ijodiy ustaxonalar, konstruktorlik birlashmalar).

3-bosqich, o`quv loyiha ustida ishlashni rejalashtirish:

➤ Axborot manbalari aniqlanadi;

➤ Axborot yig`ish va tahlil qilish yo`llari aniqlanadi;

➤ Natijalarni taqdim etish yo`llari (hisobot, aniiq mahsulot) aniqlanadi;

➤ Mahsulotni baholash mezonlari aniqlanadi;

➤ Ijodiy guruh vazifalari aniqlanadi.

4-bosqich, axborotni izlash va yig`ish, bunda asosiy talab turli manbalardagi axborotlar (adabiyotlarni o`rganish, anketalar, intervyu, so`rovnomal, kuzatish, ommaviy axborot vositalarini o`qish va tahlil qilish) hisoblanadi.

5-bosqich, axborot tahlili, loyihani ishlab chiqish uchun olingan materiallarning hamkoriy muhokamasi amalga oshiriladi.

6-bosqich, loyihani rasmiylashtirish va taqdim etish. Natijalarni rasmiylashtirish turlicha bo'ladi: yozma hisobot, amaliy tavsiyanomalarni (kompyuter variantida), videofilm, texnik qurilmanni maketini tayyorlash.

7-bosqich, ish natijalarini tahlil qilish va baholash. Bunda:

- Loyiha mualliflarining o'z faoliyatlari natijalarini o'zi tahlil qilishi;
- Loyiha sifatini o'qituvchi va boshqa talabalarni baholashi.

3. Loyiha ishi to'g'risida hisobotga tayyorgarlik bo'yicha yo'riqnomaga

1. Siz taklif, va tavsiya etayotgan loyihani tatbiq etishni isbotlovchi, xulosalarni (1 betdan ko'p bo'lmagan matn) asosida ifodalang.

2. Siz hal etmoqchi bo'lgan muammoni, (5-6 so'z) bilan asoslang.

3. Loyiha maqsadingizni: uni nima uchun yaratilishi, oxirgi mahsulni qanday bo'lishi va u kimga qaratilganligini (1-3 taklif) orqali ko'rsating.

4. Loyiha vazifalarini (qisqa va bir ma'noli) ifodalang.

5. Loyihaning ish rejasini (jadval) bayon eting.

6. Vazifani yechimi natijalarini va loyihada bajarilgan ishlarni ko'rsating.

7. Siz taklif etgan loyiha mahsulini tatbiq etish imkonini tasdiqlovchi, xulosalarni shakllantiring.

8. Bajarilgan ish bo'yicha foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtiring.

9. Baholang:

- loyiha sifatini,

- loyiha ustida ishlash jarayoni: ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni engib o'tish yo'llari.

10. Ilovalarni tarkiblashtiring: loyiha ishtirokchilarining Anketalari va loyiha ishining ish materiallarini kiriting (hohishingizga ko'ra).

4. Loyihani MS Power Point da taqdimotga tayyorlash bo'yicha yo'riqnomaga

1. MS Power Point da taqdimotga *tayyorlash jarayoni* quyidagilardan iborat:

- taqdimot turini tanlash;
- taqdimotni umumiy rasmiylashtirishni tanlash;
- slaydlarni mazmunli tomonlarini tanlash;
- yangi slaydlarni qo'shish;
- slaydlarning belgilashni tanlash;
- zarur bo'lganda slaydlarni rasmiylashtirishni o'zgartirish;
- slaydlarni namoyish etish vaqtida turli ovozli animatsiyalarni yaratish.

2. Slaydlarni *texnik namoyish etish* quyidagi tavsiflarga javob berishi

kerak:

➤ Slaydlar *miqdori* (8-12).

➤ *Slaydlarni mazmunli ko'rsatkichlari:*

- birinchi slayd: loyiha nomi, muallif familiyasi, № o'quv guruhi, yaratilgan

kunidan iborat;

- oxirgi slayd axborot manbasiga bag'ishlangan;

- boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.

➤ Slaydlar o'z-o'zidan ishlash tartibida namoyish ettiriladi.

3. Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasi

➤ Agarda, matn og'zaki bo'lsa, quyidagicha bo'lishi zarur:

- yuqori axborotli;

- bog'lovchili;

- aniq va qisqa;

- oddiy sintaktikli (...quyidagilarga e'tibor bering, quyida taqdim etilayotgan... ro'yxatlar kabi aylantiruvchi kirish so'zlari kamroq bo'lishi)- bularni barchasini ma'ruzachini o'zi gapirishi mumkin;

- (asosan termin va ta'riflarda), tushunarli, mantiqiy, aniq bo'lishi zarur. Ommaga taqdim etish oldin matnni tekshirishga erinmang.

➤ Ovoz tiniq bo'lishi kerak. taqdimotni ovozli qilish kerak emas, bunda sharhlovchini ovozini eshitib bo'lmaydi- eng yaxshisi ma'ruzachini jonli ovozi hisoblanadi.

➤ Rasmlar aniq va yetarlicha kattaroq bo'lishi zarur. Rasmlarni o'lchamini katta qilishga urinmang – faqatgina Siz sifatni yo'qotasiz.

➤ Video - tasmlar taqdimot oynasini uch qismini egallashi zarur. Rasmlar namoyishli bo'lishi kerak. Bezaklar chalg'itishi mumkin.

➤ Jadvallar ajratuvchi ma'lumotlarni, xuddi shunday aniq, ularning tagiga yirik yozuvlardan, jadvallar nomlanishi zarur.

Taqdimot boshlashdan avval auditoriyada o'tirganlarga jadval va rasm nusxalaridan tarqatish zarur.

➤ Chizmalar bir bo'limdan boshqa bo'limga aniq va mantiqiy ravishda o'tishga moslashtirilishi kerak. O'tish chiziqlari ekranda yaxshi ko'rinishini tekshiring.

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruhli loyihada quyidagilar baholanadi:

➤ Loyiha mahsuli - Ma'lumotnoma (eng yuqori 10 ball);

➤ hisobot(eng yuqori 8 ball);

➤ loyiha taqdimoti (eng yuqori 5 ball);

➤ og'zaki taqdimot (eng yuqori 2 ball).

VIII bob. PEDAGOGIK JARAYONDA O'QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATI

Reja:

1. Innovatsion texnologiyalar yordamida iqtisodiy fanlarni o'qitish.
2. Pedagogik jarayonni samarali rejalashtirishda o'qituvchining innovatsion tayyorgarligi va ijodkorligi.
3. Zamonaviy o'qituvchi modeli.

1. Innovatsion texnologiyalar yordamida iqtisodiy fanlarni o'qitish

Respublikamizda davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, madaniy va texnik-texnologik sohalardagi rivojida ta'lim ustuvor soha deb e'tirof etilgan. Ta'lim - jamiyatning maqsad, muddaolariga muvofiq katta avlod tomonidan insoniyat jamiyati to'plagan tajribalarini yosh avlod o'zlashtirishini ta'minlaydigan uzluksiz tizimdir. Uzluksiz ta'lim tizimining har bir bo'g'inida ta'lim-tarbiya ishlarini hozirgi zamon va istiqbol talablari asosida tashkil etib, o'tkazishda bu jarayonni loyihalashtiruvchi va amalga oshiruvchi o'qituvchi-murabbiylarning o'z rni muhim bo'lib, uning sifat va samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Zero, o'quv-metodik majmualar (ta'lim standartlari, o'quv reja, o'quv dasturlari, darsliklar, o'qitish vositalari, didaktik materiallar kabilar) har qancha takomillashgan holda ishlab chiqilmasin, ularni bevosita amaliyotga o'qituvchilar tatbiq etadi.

“Innovatsiya” - so'zi inglizchadan kelib chiqqan bo'lib, uning ma'nosi yangilanish, yangilik kiritish, o'zgartirish degan ma'nolarni bildiradi. Pedagogik jarayonga yangiliklar kiritish bilan uning sifati va samaradorligini oshirish ko'zda tutiladi. Bunda o'qituvchining roli muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi. Unga innovatsion faoliyatini amalga oshirishda akmeologik jihatdan yondashish maqsadga muvofiq. Akmeologiya (akme) - yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, yetuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatni ongli tahlil qila olish;
- yangiliklarga nisbatan shaylik;
- faoliyatga ijodiy munosabatda bo'lish;
- o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish;
- o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy- pedagogik faoliyatda mujassam qilish kabilar.

Bundan, o'qituvchi innovatsion pedagogik texnologiyalarni yaratuvchisi, amalga joriy etuvchisi va targ'ibotchisi yoki inkor etuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarida interfaol metodlar yetakchi o'ringa ega. Interfaol ta'lim metodlari ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqillikka undovchi omildir. Keyingi paytlarda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari amaliyotga quyidagicha nomlangan interfaol ta'lim metodlari keng ko'lamda joriy etilmoqda: aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, klaster (tarmoq), insert texnikasi, pinbord, charxpalak, bumerang, muammoli vaziyat, ishbilarmonlik o'yini, bahs-munozara,

mashq va ko'plab shu kabilar. Bularning natijasida quyidagi chizmada ko'rsatilgandek, zamonaviy mutaxassisni tavsiflovchi kasbiy kompetentlikni tashkil etuvchi shaxsiy sifat va xislatlarni shakllantirish imkonini beradi. Shu o'rinda biz “Innovatsion ta'lim texnologiyalari” deganda ijobiy natija beradigan, malum nazariyaga tayangan, qo'llanishga qulay, ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar sog'ligiga putur etkazmaydigan, shu paytgacha amalda keng ko'lamda qo'llanilmagan, yani malum manoda yangiliklarni kiritib, nisbatan yuqori sifat hamda samaradorlikni taminlovchi omillarni tushunamiz. Shuningdek, kasbiy kompetensiyani tarkib toptirish uchun umumta'lim o'quv predmetlarini kasbga yo'naltirib, didaktik birliklarni yiriklashtirib, modullashtirib, mazmunan tutash o'quv predmetlarini integratsiyalab o'qitish texnologiyalari ham kasbiy kompetentlikni tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega. Kasb-hunar tayyorgarligi davrida o'rganiladigan o'zaro bog'liq murakkab, majmuaviy tavsifli masalalarni yechimini topishga, ularning xarakteridan kelib chiqib, tizimli tahlil qilish, integrativ yondashish zarur. Biz ta'lim mazmunini integratsiyalash deganda bir-biri bilan tutash axborotlarni sintezlashni ko'zda tutamiz. Shu paytgacha fanlar integratsiyasini sintezlash tushunchasi bilan sinonim deb qaralishi natijasida uning mazmuni va mohiyati birmuncha toraytirilgan. Sintez o'zaro tasir etuvchi elementlarning qo'shilishi natijasida yaxlitlikni hosil qilsa, integratsiya esa ko'p tomonlamalikning birligidir. Integratsiya- ichki yaxlitlikka intilib, axborotlarni sintezlab, mantiqan tugal tuzilma va unga mos ilmiy taffakurni ko'zda tutadi.

Integratsiyalash – bu o'quv materiallarini umumlashtirish, tizimlashtirish va zichlashtirish jarayoni bo'lib, o'quv vaqtini tejash qilish, qayta takrorlashlarni chek qo'yish, kasbiy yo'nalganlikni taminlash, o'quvchilarni mashg'ulotdagi ortiqcha o'quv materiallarini o'zlashtirishdan ozod qilish kabilar ko'zda tutadi. Ta'lim mazmunining integratsiyasi yaxlitlik, mantiqan tugallanganlik, tizimlilik bilan tavsiflanadi.

O'quv mashg'ulotlarining tashkil etish shakllarini ham integratsiyalash mumkin. Bunday mashg'ulotlarga ikki o'qituvchi yoki o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi ustasi hamkorlikda tayyorgarlik ko'radi, tashkil etadi va amalga oshiradi. Bunda o'quv materialari zichlashtiriladi, asosiy muammo ajratilib olinib, ularni mukammal o'rganishga diqqat-e'tibor qaratiladi. Shunday qilib, o'quv vaqtini tejashga, o'quvchilarni mashg'ulotdagi ortiqcha o'quv materiallarini o'zlashtirishdan xalos etishga, tanlagan kasbi va ixtisosliklariga qiziqtiriladi hamda eng asosiysi, o'quvchilarda tizimli bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar shakllantirish imkonini beradi. O'quv materialini integratsiyalashda quyidagi qoidalarga asoslanadi:

- a) o'quv predmetlarining o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolgan holda ularning birini ikkinchisiga funksional bo'ysindirilishi;
- b) o'rganilayotgan o'quv materialidan asosiy muammoga diqqat-e'tiborni qaratish, takrorlashlarni bartaraf etish yo'li bilan o'quv vaqtini tejash;
- v) materialning kasbiy yo'nalganligi, uzviyligi, politexnik yo'nalganligini taminlash;
- g) o'rganilayotgan obyekt haqidagi bilimlarning bir butun, yaxlit, tizimlili, moslashuvchanligini taminlash;

- d) materialning yetarli va zaruriy darajasi va hajmining saqlash;
- j) interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- z) o'quv dasturiga yangi materiallarni kiritish, yani dinamik o'zgarishlarga moslashuvchanligini taminlash kabilar.

Kasbiy turkum o'quv predmetlari mazmunini integratsiyalash fan ichidagi aloqadorlikni taminlash hisoblanadi. Shu o'rinda takidlash joizki, uzviy, predmetlararo, o'zaro aloqadorliklarni ham nisbatan quyi darajadagi integratsiyalash sifatida qarash mumkin. Chunki ularning ham asosida aloqadorlik yotib, kasb – hunar ta'limining yuqori sifati va samaradorligini tamin etishi ilmiy- amaliy jihatdan isbotlangan. Xulosa qilib aytganda, innovatsion ta'lim texnologiyalari – davr talabi. Bu talabni qondirish uchun Respublikadagi barcha ilmiy, amaliy pedagogik salohiyatni safarbar etish zarur.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQSHda, 60-yillarda paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, A.I.Shcherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazardan yoritilgan.

X.Barnet, Dj.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M.Mayez, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem ishlarida innovatsion jarayonlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning «hayoti va faoliyati» uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar masalalari tahlil kilingan.

Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti amerikalik innovatik E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Oliy maktab o'qituvchisining innovatsion faoliyati oliy maktab pedagogikasining bosh muammolaridan biridir.

Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir.

A.I.Prigojin innovatsiya deganda, muayyan ijtimoiy birlikka-tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Tadqiqotchilar (A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o'zaro ta'sirining mikrosathi.

Birinchi yondashuvda, hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi.

Ikkinchi yondashuvda, alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashidir. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayonning sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.

2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.

4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiiq etish bosqichi.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

7. V.A.Slastenin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalari bilan qondirish deb biladi.

Yangilik kiritishning tizimli konsepsiyasi mualliflari (A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar.

Birinchi shaklga, yangilik kiritishning oddiy ishlab chiqishi kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga taaluqlidir.

Ikkinchi shaklga, yangilikni keng ko'lamda ishlab chiqishga taaluqlidir. Yangilik kiritish ham ichki mantiq ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir. Pedagogik innovatsiyada «yangi» tushunchasi markaziy o'rin tutadi. SHuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va subyektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi.

Xususiy yangilik V.A.Slasteninning aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi. Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi shartli yangilik hisoblanadi. Mahalliy yangilik aniq obyektida yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi. Subyektini yangilik ma'lum obyekt uchun obyektning o'zi yangi bo'lishi bilan belgilanadi. Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik - bu vosita: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

«Innovatsiya» - bu ta'lim: ma'lum bosqichlar bo'yicha rivojlanadigan jarayon. V.I.Zagvyazinskiy «yangi» tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi «yangi» faqatgina bu g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlar bo'lib, o'zgarib bo'lib, o'zgarib turuvchi vaziyatda va sharoitda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi.

R.N.Yusufbekova pedagogik yangilikka o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi.

Pedagogik innovatsiyada R.N.Yusufbekova innovatsion jarayon tuzilmasining uch blokini farqlaydi:

Birinchi blok - pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me'yorlari, uni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchi blok - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

Uchinchi blok – yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, yani yangini tadbqiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir. M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari kishi e'tiborini o'ziga tortadi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

- faoliyat tuzilmasi-motiv-maqсад-vazifa-mazmun-shakl-metodlar-metodika komponentlari yig'indisi;

- subyektiv tuzilma-innovatsion faoliyat subyektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;

- mazmun tuzilmasi – o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi;

- bosqichlikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi-yangilikning paydo bo'lishi-ildam-o'sish-yetuklik-o'zlashtirish-diffuziya (singib ketish, tarqalish) – zamonaviylashtirish;

- boshqaruv tuzilmasi – boshqaruv harakatlarining 4ta turining o'zaro aloqasi: rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik qilish, nazorat qilish;

- tashkiliy tuzilma – diagnostik, oldindan ko'ra bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tatbiq etuvchi.

Innovatsiya jarayoni, tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

- pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaorlik qonuni;
- nihoyat amalga oshish qonuni;
- pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni;
- qoliplashtirish (streatiplashtirish) qonuni;

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, yani pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarining birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabani dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;

- o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

- o'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va o'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya – faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan TSO, kompyuter, masofali o'qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish, deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi-bu o'qituvchi va o'quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlar uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, yani o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, yani o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

O'qituvchi va o'quvchi-talabaning maqsaddan natijaga erishishda qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi-talabalarining bilim saviyasi,

guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchi-talabaga bog'liq.

Shu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonida o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, TSONi, eng asosiysi, o'quvchi-talabaning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchi-talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchi-talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalardan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlar. Usullarni bilish kerak bo'ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlarini asosida zamonaviy madaniyat va iqtisodiyotning pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etishga alohida ahamiyat berilgan. Shu jihatdan ham umumiy o'rta ta'lim maktablarida davlat ta'lim standartlari bo'yicha ko'zda tutilgan iqtisodiy ta'lim va iqtisodiy tarbiyani takomillashtirish, uni o'quvchilar ongiga singdirib borib, iqtisodiy tafakkurni shakllantirish muammosi dolzarbdir.

Chunki har bir o'quvchi-talaba bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan bir davrda – uni o'rab turgan iqtisodiy voqelikni, unda kechayotgan jarayonni anglashi, tadqiq va tahlil qilib, xulosalar chiqarish imkoniga ega bo'lishi lozim. Bu esa har bir fuqarodan iqtisodiyot nazariyasining asoslaridan xabardor bo'lishini, uni amalda joriy qilish yo'l va vositalarini talab darajasida o'zlashtirishini taqozo etadi. Bu masalalar asosan, o'quv muassasalarida amalga oshiriladi.

Iqtisodiy tarbiyaning bosh maqsadi – yoshlarda iqtisodiy savodxonlikni, iqtisodiy ongini, iqtisodiy madaniyatni yuksaltirishdan iboratdir. Bu esa shaxsning kamol topish faoliyati vositasida aniq iqtisodga bog'liq, nazariy bilimlar tizimini, shuningdek, iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi, o'rganuvchining iqtisodiy ongiga bevosita ta'sir etishga imkon beruvchi bosqichlarni amalga oshirishdir.

O'quvchi-talabalar bosqichma-bosqich uzluksiz ta'lim jarayonida iqtisodiy bilim asoslarini o'rganish mobaynida ularning tafakkurlari ham shakllana boradi. Ular quyidagi bilimlar majmui bo'lib xizmat qiladi: shaxsning ehtiyoj imkoniyatlarini hisobga olib, aniq reja va dasturlar tuzib, o'ziga xos uslub va metodlar asosida amalga oshirishda; shaxsning mustaqil faoliyatida samarali o'rin tutadigan aniq

iqtisodiy tushunchalarni; iqtisodning siyosiy va bozor munosabatlari bilan bog'liq qonuniyat asoslari va ulardan amalda foydalanish yo'l-yo'riqlarini; mustaqil faoliyat ko'rsatishda zarur bo'ladigan barcha iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalar majmuini o'zlashtirishni; hayotda qaysi sohani tanlashidan qat'i nazar, ehtiyoj darajasida iqtisodiy tayyorgarlikni o'zida shakllantirishni; iqtisodiy bilim asoslaridan to'g'ri va maqsadga muvofiq holda foydalana olish shaxs barkamolligini belgilovchi axloqiy sifatlaridan biri deb qarashni; iqtisodiy bilim asosidan xabardorlikni o'z faoliyati davomida jamiyat va davlat iqtisodiy, huquqiy siyosati asosida namoyon etadi.

Bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlari bilan bir qatorda, ma'rifat va madaniyat hamda iqtisodiy sohalarga, shu jumladan, ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiy bilimlar doirasiga ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida iqtisodiy yo'nalishdagi o'quv yurtlarida maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borishni ko'zda tutadi. Bunda eng avvalo, quyidagilarni aniqlash lozim:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish uchun ijtimoiy-pedagogik asoslar mavjudligini aniqlash;

- ta'lim majmui sifatida nimani anglatishi va qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligini belgilash;

- pedagogik texnologiyaning funksional majmui jarayon sifatida nimalardan iboratligini aniqlash;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadlariga qay darajada to'g'ri kelishi va uni baholash mumkinligini ko'rsatib berish;

- pedagogik texnologiyaning majmualar nazariyasining asosiy qonuniyatlariga mosligini nazoratda tutib turish yo'l-yo'rig'ini ishlab chiqish.

Shuni aytish lozimki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, pedagogika ilmining tadqiqot obyekti sifatida, aniq fanlarni o'qitish uslubi bo'libgina qolmay, balki ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o'qitishga ham yangicha yondashuv sifatida qayd qilinishi kerak.

Hozirgi kunga kelib, jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqei kundan-kunga ortib bormoqda. Biroq ijtimoiy sohada va ayniqsa, ta'lim-tarbiya jarayonida umumiy taraqqiyotdan biroz orqada qolish sezilmoqda. Bunday noxush vaziyatdan chiqib ketish yo'llaridan biri ta'lim-tarbiya jarayonini qabul qilingan davlat standartlari asosida texnologiyalashtirishdir.

Rivojlangan bir qator mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganib, xalqimizning milliy pedagogika an'alaridan hamda ta'lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda respublikamizning milliy pedagogik texnologiyasini yaratish bugungi kunning talabidir.

Hozirgi vaqtda ta'limni axborotlashtirishda asosiy yo'nalish turli o'quv fanlari bo'yicha pedagogik dastur vositalarini yaratishdan iborat bo'lib qoldi. Biroq mavjud va ishlab chiqilayotgan kompyuter texnikasi bazasidagi pedagogik dastur vositalari

o'qitish nuqtai nazaridan ta'lim sifatida muhim siljishlarga olib kelishi mumkin emas. Buning sabablaridan biri kompyuter texnologiyalarini an'anaviy tashkil etilgan o'qitish jarayoniga joriy etila boshlanganligida bo'lib, o'z mazmuni va metodi bo'yicha bu texnologiya aniq maqsadga yo'naltirilmagan. SHu munosabat bilan iqtisodiy ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini joriy qilish muammo va istiqbollari ko'rib chiqish favqulodda muhimdir.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali uzluksiz ta'lim samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berilayapti. Pedagogik texnologiyalar – ta'lim berish va zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash yordamida talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatini beruvchi o'quv vositalari bo'lib, u o'ziga xos didaktik va uslubiy asosga ega. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – bu o'qituvchi va o'quvchi-talabani belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liqdir. Ta'lim jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llanadigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil etib, ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlay olsalar – bu ta'lim jarayonining asosi hisoblanadi.

Iqtisodiy fanlarning o'qitilish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida, pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot texnologiyalar imkoniyatlari asosida uch turdagi o'quv mashg'ulotlariga, yani ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks holda qo'llash tavsiya etiladi.

Iqtisodiy fanlardan o'rganilayotgan materiallarning o'quv soatlari miqdori hisobga olingan holda mavzu bloklariga ajratiladi, har bir ma'ruza mavzu blokiga 2-8 o'quv soati oralig'ida vaqt ajratiladi hamda ushbu mavzu blokiga mos amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni va hajmi belgilanadi. Bu usulda har bir mavzuni o'rganishdagi ichki izchillik va uzviylik to'la saqlanadi va talabalarda mavzuga oid malaka va ko'nikmalarni to'laroq va maqsadliroq shakllantirish imkoniyati kuchayadi.

Innovatsion texnologiyalarni o'qitish jarayonida yuqori malakali, raqobatbardosh o'qituvchi kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy omilkorliklarini shakllantirish, metodik mahoratini ko'tarish, o'qituvchi-pedagoglarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish omili bo'lib qolmoqda.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi (pedagog) va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar jamoa bo'lib fikrlashdir, yani pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabani mashg'ulot davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etishi;

- o'quvchi-talabalarni ta'lim jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

- o'quvchi-talabani bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

- o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talabani doimiy hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirishi.

Shuningdek, iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida turli xil innovatsion texnologiyalardan foydalaniladi. Biz quyida o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi bir treninglar (texnologiyalarga)ga tavsifnoma berib, ba'zilarini o'tkazish tartibi to'g'risida metodik tavsifnoma berib o'tamiz:

«**Tarmoqlar**» metodi - o'quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

«**3x4**» metodi - o'quvchi-talabalarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan.

«**Blits-o'yin**» metodi – harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

«**Intervyu**» texnikasi - o'quvchi-talaba savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan.

«**Ierarxiya**» texnikasi – oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o'tish usullarini qo'llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan.

«**Bumerang**» texnikasi - o'quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchi-talabalarni baholay olishga qaratilgan.

«**Talaba**» treningi - o'quvchi-talabalar bilan individual holda ishlash o'qituvchi va talaba o'rtasidagi to'siqni yo'q qilish, hamkorlikda ishlash yo'llarini o'rgatishga qaratilgan,

«**O'qituvchi shaxsi**» treningi – o'qituvchining innovatsion faoliyatini ochib beruvchi «O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar» mavzusidagi mustaqil fikrlashga, ijodiy insho yozish orqali fikrlarni bayon qilishga qaratilgan.

«**Muloqot**» texnikasi o'qituvchilarni auditoriya jiqqatini o'ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga, uni tashkil etishni o'rgatishga qaratilgan.

«**Boshqaruv**» texnikasi o'qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda o'quvchi-talabalarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o'rgatishga qaratilgan.

Fikrlar hujumi (aqliy hujum)

«Aqliy hujum» - muammolarni hal qilishda keng qo'llanadigan anchagina mashhur metoddir. Bu usul katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inersiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni engishdir. U qatnashchilarni o'z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga undaydi va berilgan har qanday muammoga ko'p sonli yechimlar topishda yordam beradi (bu vaziyatda men nima qilishim kerak? Bu to'siqni qanday bartaraf qilishimiz kerak?). Aqliy hujum qadriyatlarini tanlash va muqobillarini aniqlashda yordam beradi.

Aqliy hujumni o'tkazish qoidalari, foydalanish usullari quyidagilardan iborat:

1. O'ylash jarayoni hech qanday baholashlarga yo'l qo'yilmaydi. Agar o'ylash jarayonida g'oyalarni baholaydigan bo'lsak qatnashchilar e'tiborlarini o'z fikr va g'oyalarni himoya qilishga qaratib, ularning yangilari va yaxshilari ustida bosh qotirmay qo'yadilar. Baholash qoidadan istisno qilinishi kerak.

2. Hammani o'ta xilma-xil kutilmagan g'oyalar doirasini o'ylashga undash kerak. Haqiqatdan ham aqliy hujumda kutilmagan g'oyalar yuzaga kelmas ekan, ayrim qatnashchilar o'z shaxsiy fikrlarini qayta ko'rib chiqishlari aniq bo'lib qoladi.

3. G'oyalar miqdori rag'batlantiriladi. Miqdor deyarli doimo o'sib, sifatga aylanadi. Tezkor izchillikda katta miqdorda g'oyalar paydo bo'lganda, odatda baholash istisno qilinadi.

4. Har bir kishi o'zgarar g'oyasiga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin. Oldin taklif etilgan g'oyalarni birlashtirish yoki o'zgartirish ko'pincha sabab bo'lganlardan ko'ra yaxshiroq g'oyalarni keltirib chiqaradi.

Samarali «Aqliy hujum» metodidan foydalanish quyidagilarni taqozo etadi:

- 🍌 qatnashchilar bemaolol o'tiradigan qilib joylashtiriladi;
- 🍌 g'oyalarni yozish uchun doska yoki varaqlar tayyorlab qo'yiladi;
- 🍌 muammo aniqlanadi;
- 🍌 ish qoidalari belgilanadi;
- 🍌 g'oyalar hech qanaqasiga baholanmaydi;
- 🍌 fikrlarga to'liq erkinlik beriladi;
- 🍌 miqdorga intilish;
- 🍌 o'qish, qayta o'zgartirish va boshqalar;
- 🍌 g'oyalar haqida so'rash va aytilishi bilan yozib olish;
- 🍌 qog'oz varaqlari to'lganda, ularni devorlarga osib qo'yish;
- 🍌 o'zidan qo'shib yangi g'oyalarni rag'batlantirish;
- 🍌 ishni davom ettirish va o'zgarar g'oyasiga aralashmaslik.

«Aqliy hujum» metodining mohiyati ham o'ziga xos xususiyatga ega. Bunda maqsad berilgan qisqa vaqt ichida ma'lum muammoning yechimini topishga qaratilgan. Bu psixotexnik o'yin mashg'ulot jarayonida ijodiy va noandoza fikrlashni uyg'otadi. Bitta yoki bir necha guruh tashkil etiladi va ular oldiga muammo qo'yiladi. Talabalar o'z oldiga qo'yilgan muammoni yechish uchun turli g'oyalarni ilgari suradi. Yechim variantlari qancha ko'p bo'lsa, tanlash jarayoni shunchalik oson bo'ladi. Har bir ilgari surilgan g'oyani atroflicha ko'rib, kengaytiriladi va ular orasidan eng to'g'ri g'oyani muammoning yechimi sifatida qabul qilinadi.

Muammoni yechish vaqti oldindan belgilab olinadi va unga qat'iy amal qilinadi. «Aqliy hujum» o'yini qiyin vaziyatlardan qutulish chorasini tez topishga, muammoni ko'ra bilish chegaralarini kengaytirishga, fikrlash bir xilligini yo'qotishga va keng doirada tafakkur yuritishga imkon beradi. Bundan tashqari jamoadagi munosabatlar o'zgaradi, kurashish kayfiyatidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o'tiladi va guruh yanada jipslashadi.

«Tarmoqlar» metodi (Klaster)

Bu usulning ma'nosi – fikrlarning tarmoqlanishi. «Klaster» texnologiyasi – pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchi-talabalarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam beradi. O'quvchi-talabalarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi. Bu usul biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchi-talabalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirish hamda o'quvchi-talabalarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

«Bumerang» texnologiyasi

Bu texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib etish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi. Har bir mashg'ulot davomida talabalarning turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'qituvchi yoki talaba, iqtisodchi yoki tadbirkor ro'lida bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat yaratadi.

«Bumerang» texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi hamda g'oya va fikrlarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi, yani; bo'lajak iqtisodchilarda jamoa bilan ishlash mahorati, muomalalik, xushfe'llik, o'zgarar fikriga hurmat, rahbarlik sifatlarini shakllantirish, ishga ijodiy yondashish, o'z faoliyatini samarali bo'lishiga qiziqish, o'zini xolis baholash kabilar.

«Veer» texnologiyasi

Bu texnologiya murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi va ularning har biri alohida muhokama etiladi. «Veer» texnologiyasi tanqidiy, tahliliy, aniq va mantiqiy fikrlarni rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari va fikrlarini yozma va og'zaki shaklda bayon etish hamda himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

Ushbu texnologiya mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

- boshida o'z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o'rganish jarayonida uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab etish;

- yakunlash bosqichida olingan bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

1. Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa va tushuncha tekshiriladi.
2. Afzallik – biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.
3. Fazilat – ijobiy sifat.
4. Nuqson – nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.
5. Xulosa – muayyan bir fikrga, mantiqiy qoidalar bo'yicha dalildan natijaga kelish.

Ta'limdan tashqari bu texnologiya tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- jamoa, guruhlarda ishlash mahorati;
- muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati;
- murosali qarorlarni topa olish mahorati;
- o'zgalar fikriga hurmat;
- xushmuomalalik;
- faollik;
- ishga ijodiy yondashish;
- muammoga diqqatini jamlay olish mahorati.

Ta'lim samaradorligini oshirishda «Blis-o'yin», «Chorraha», «Muomala texnologiyasi» kabi ish o'yinlaridan ham foydalanish mumkin. Masalan, «Agar men ... bo'lsam», «Men shunday qilgan bo'lar edim» kabilari.

«Iqtisodchi-rahbar» texnologiyasi

Bu usul talabalarni ijodiy, mustaqil, obrazli fikrlashga o'rgatadi. Ish rejasini tuzish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, «O'zini-o'zi boshqarish», «Rahbarning tashkiliy qobiliyatlari», «Zamonaviy tadbirkor shaxsi», «Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» deb nomlanuvchi mavzularning yakunida «Iqtisodchi-rahbar» degan yangi usuldan foydalaniladi. Har bir talabaga varaqlar tarqatiladi, ularda «Men firma direktori», «Men rektor», «Men bankir», «Men tadbirkor», «Men deputat» kabi savollar yozilgan. Har bir guruh talabasi o'ziga tushgan faoliyatni ta'riflab, mazmunini ochib beradi.

«Skarabey» texnologiyasi

«Skarabey» interfaol texnologiya bo'lib, u o'quvchi-talabalarda fikriy bog'liqlik, mantiq va xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Talabalarda muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarini aniqlash imkonini beradi hamda turli g'oyalarni ifodalash va ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

«Skarabey» texnologiyasi o'quvchi-talabalar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U talabalar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega. «Skarabey» texnologiyasidan alohida ishlarda, kichik guruhlarda va mashg'ulotlar o'tish jarayonida qo'llanilishi mumkin.

«Skarabey» texnologiyasidan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi:

-boshida-o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida («Aqliy hujum»);
-mavzuni o'rganish jarayonida - uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarni ko'rsatish;

-oxirida-olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.

Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni engillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko'rsatish mumkin.

«Skarabey alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o'quv jamoalarida qo'llanilishi mumkin.

Ta'limdan tashqari «Skarabey» texnologiyasi tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- o'zgalar fikriga hurmat;
- jamoa bilan ishlash mahorati;
- imkoniyatni ko'rsatish ehtiyoji;
- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashish;
- o'z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
- «men»ligini ifodalashga imkon beradi;
- o'z faoliyati natijalariga mas'ullik va qiziqish uyg'otadi.

Psixotexnik o'yinlar didaktik o'yinlarning o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lgan turi hisoblanadi. Bu o'yinlar o'quv jarayonida kerak bo'luvchi malaka, xotira, fikrlash, diqqat va tasavvur kabilarni shakllantiruvchi o'qitish usuli hisoblanadi. Psixotexnik o'yinlar ko'proq o'quvchi-talabalarni bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari ta'lim sohasida iqtisodiy fanlarni o'qitish, iqtisodiy ta'lim-tarbiya, o'zlashtirilgan iqtisodiy bilimlar darajasini zamonaviy pedagogik texnologiyalarga suyangan holda tashkil qilish, baholash, iqtisodiy fanlar bo'yicha yangi o'quv dasturlarini yaratish muhim muammolardan biridir. Shu o'rinda aytish kerakki, iqtisodiy tarbiya tizimini ishlab chiqishda uzluksizlik, yaxlitlik va bog'liqlikni ta'minlovchi «bosqichli ta'lim» konsepsiyasi tavsiya etildi. Konsepsiya negizida maktabgacha ta'lim sohasida o'zlashtirilgan elementar iqtisodiy ta'lim-tarbiyadan to iqtisodiy madaniyatlilik darajasigacha bo'lgan jarayon qamrab olinadi. Bu jarayon tarbiyalanuvchilarga iqtisodiy tayyorgarlik, iqtisodiy tafakkur, fikrga egalik, iqtisodiy ong va iqtisodiy madaniyatlilik kabi sifatlarni yetkazishni talab qiladi.

Ma'lumki, bilimlarni nazorat qilish hamda baholashning reyting tizimiga o'tilguniga qadar maxsus, kasb-hunar ta'limida o'quv jarayoni faqat o'qituvchi (pedagog)ning mahoratiga asoslangan bo'lib, bilim olishni o'quvchi-talabaning faolligi, ijodiy mehnati asosida tashkil etishga imkon bermas edi, berilayotgan bilimlar miqyosi oshib borayotgan bo'lsa ham, o'quvchi-talabaning bu bilimlarni o'zlashtirish darajasi talab doirasida emas edi. Bu hol ta'lim jarayoniga o'quvchi-talabalarni bir xil uzluksiz bilim olishga undaydigan, ular olgan bilimlarni jahon

tablari darajasiga yetkazish imkonini beradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ta'lim uslublarini joriy qilishni taqozo etdi. SHu maqsadda oliy ta'limdan so'ng, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida ham bilimlarni nazorat qilish va baholashning reyting amaliyotiga o'tdi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi yoshlarimizni iqtisodiy tarbiyalangan, ta'lim olgan, iqtisodiy savodxonlik va tayyorgarligi davr talabi darajasida bo'lgan, iqtisodiy tafakkur va ongi yuksak barkamol insonlar qilib tarbiyalash muammosiga har tomonlama amaliy va nazariy yordam berish har bir ziyoli fuqaroning burchidir.

2. Pedagogik jarayonni samarali rejalashtirishda o'qituvchining innovatsion tayyorgarligi va ijodkorligi

Hozirgi zamon jamiyatining hamma sohada har kimdan tashabbuskorlikni, ijodni, mustaqil fikrlashni talab qiladi. Dars- pedagogik ijodkorlikning asosiy maydoni. Pedagogning asosiy pedagogik ehtiyoji-o'rgatish, etkazib berish- aynan darsda amalga oshadi. Shunday ekan, dars ta'lim jarayonini tashkil qilishga to'g'ri, yangicha munosabat kerak. Dars jarayonida pedagog oldida muhim bir masala turadi. Talabalarni bilim olishga jalb qilish, ularni olg'a harakatlantirishdir. Bu esa pedagog va talabalarni (o'zaro) birgalikdagi mehnatga jalb qiladi. Buning uchun o'qitishga majbur qilmaslik kerak. Pedagogik hamkorlikning qarashlaridan biridarsda talabadagi qo'rquvni yo'qotish, uni erkinroq, dadilroq qilish, o'zini kuchiga ishontrish, unga jiddiy ijod qilishga qodir shaxs sifatida qarash. Darsda aniq maqsad g'oyasi. Bu-talabalar bilan hamkorlik ruhida ish olib borish, ularga aniq bir maqsad qo'yib, bu maqsadning murakkabligiga va buni amalga oshirishga ishontrish - ularda o'ziga bo'lgan ishonchini, aniq, mushkul masalani ham echa olish mumkunligini shakillantrish.

Pedagogning pedagogik mahoratida darsning o'rni muhim. Dars shunday markazki, pedagogning har bir tafakkuri va harakatlari shu markaz atrofida aylanib, yana unga qaytib keladi. Har bir dars o'qitish jarayoniga o'zining, faqat unga xos bo'lgan hissasini qo'shadi. Zamonaviy dars faqat o'qitishning metod va formalari bilan cheklanib qolmay, balki ta'lim-tarbiya, rivojlantirish maqsadlarini amalga oshirish, pedagog va talaba faoliyatida birgalikdagi o'zaro bog'liqligini ro'yobga chiqarishni talab qiladi.

Dars pedagogdan ijodiy pedagogik tafakkur, pedagogik mahoratni talab qiladi.

Pedagogning o'qitish vositalari uning ijrkorligiga, ko'p qirrali bilimga, talabalarni sevish, faoliyatiga asoslanadi. Dars berishda pedagogning muvaffaqiyati uning nazariy va kasbiy tayyorgarligiga bog'liq.

Dars tayyorlash jarayonida pedagog shu predmetga qarashli, psixologik-pedagogik, metodik kitoblarni, jurnal va gazetalarni muntazam ravishda o'qib borishi, badiiy adabiyotdan, har xil kinofil'mlardan foydalanishi kerak. Dars berish jarayonida vositalar har xil bo'lishi mumkin. Bu pedagogning ixtisosligiga, uning qiziquvchanligiga, ehtiyojariga, intiliktual faoliyatiga bog'liq. Albatda bunda o'rganilayotgan material mazmunini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Dars bir nechta omillardan iborat. Shularning asosiy davlat pedagogikasi tomonidan qabul

qilingan material. Pedagog o'quv programmaning asosiy yo'nalishlarini bilishi kerak. Har bir darsda 3 ta masalaga e'tibor qaratishi kerak. Bular;

1. Tarbiyaviy masalalar - pedagogning bo'layotgan masalalarga, atrofga bo'lgan dunyoqarashini shakillantradi. Ularda inson parvarlie, vatanparvarlik ruhini tarbiyalaydi.

2. Ilm oshiradigan masalalar - o'z ichiga talabalarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantrishini oladi.

3. Bilish masalalari - talabalarda o'rganilayotgan materiallardan asosiysini, muhim joylarini ajrata olish qobiliyatini, o'quv faoliyatida va fikrlashda mustaqil bo'lishni, o'qishda qiyinchiliklarni engishni shakillantrish.

Tajribali pedagoglar tomonidan talabalarning darsdagi muxim, kerakli joylari qaysiligini, qaysi joyini eslab qolish, qaysi joyidan shunchakiy xabardor bo'lishi kerakligi aniqlanadi.

Pedagog tomonidan darsni ishlab chiqish, yani pedagog-darsning muallifi. Darsning qanday bo'lishi uning ijtkorligiga va maxoratiga bog'liq. Avvalo darsning ijodiy rejası tuziladi. Reja o'z ichiga quyidagilarni oladi;

- o'quv darsidan kelib chiqib, har bir mavzu materialining mazmunini chuqur bilish;

- pedagogning hayotiy va tajribaga, ma'naviy holatiga mos bo'lishq;

- o'rganilayotgan mavzuning oldingi o'tilgan, keyingi o'tilishi kerak bo'lgan mavzularga mos kelishi;

- har bir mavzuning talabalar psixologiyasiga moslashishi maqsadga muvofiqdir.

Dars jarayonini pedagog tashkil yetar ekan, u o'rganishning samaradorligiga, talabani ta'limning subyektiga aylantrishga, talabalar ham shu darsning ham muallifligiga aylantrishga intiladi. Darsni ishlab chiqish-tegishli materialni o'zlashtirishning eng samarali usul va vositalarni tanlash demakdir. Shuni ta'kidlash kerakki, darsni ishlab chiqishda o'rganilayotgan material o'zlashtirishning metodik usullarini tanlash-birinchi o'rinda turish kerak, keyin esa uning boshqa kampanentlari uy vazifani tekshirish mustaxkamlash metodlariga amal qilish kerak.

Munozara darsi - talabalarni muammoli masalalar bilan to'qnashtrish o'zlarining fikrlarini bayon ettirish uchun (o'quv) pedagogdan katta mahorat talab etiladi. Konkursli darslar - noan'aviy hisoblanadi. Chunki ularni talabalarning o'zlari o'tkazadilar. Ular o'zlari material topishadi, izlanishadi va x.k. Muammoli o'qitish - bu shunday metodki, unda pedagog o'rtaga bir muammoni tashlab, bu muammoni yechishda vujudga keladigan qaramaqarshi-liklar, e'tirozlarni ko'rsatib beradi, eksperiment orqali haqligini isbotlaydi, turli xil nuqtai nazarlarni tushuntiradi. Talabalarga formula, qonunlar, sana va ming xil qoidalarni quruq yodlatishdan foyda yo'q. Shuning uchun ijodiy xarakterdagi savollar bilan talabalarga murojat etish muhim. Bunda tajribali mutaxassis talabalar bilan pedagogik jarayonni hamkorlikda amalga oshiradi. Bunday darsda talabalarning bilim olishga qiziqishi, ehtiyoji, talabchanligi oshadi. Ular savol berib, shu savolga javob izlashadi. Bundan tashqari mustaqil ishni yangi materialni o'rganishda ham qo'llash mumkin. Birinchi va ikkinchi xolatlarda mustaqil ishni o'qitish jarayoniga singdirish pedagog rahbarligida

olib boriladi. Tajribali pedagoglar talabalarni darslik bilan mustaqil ishlashga, konspekt qilish texnikasiga, ijodiy ishlarning metodikasiga o'rgatib borish kerak. Tajribali pedagog darsda, talabalarning darslik bilan ishlayotgan paytida, tez ishlaydigan talabani to'xtatmaydi, sekin ishlaydigan o'quvchini shoshiltirmaydi.

Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga va mashqqa degan edi ulug' olim Arastu. Ana shu g'oyalarga asoslangan holda tarbiyachilar quyidagilarga amal qilishlari lozimdir:

- tarbiyada ulg'ayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir talaba, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligining e'tiborga tutilishi:

- milliylikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish, jahon madaniyatining ilg'or tajribalariga asoslanish;

- talabalar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish, qiziqarli, tulaqonli talabalar yosh jihatlariga mos hayot iqlimini yaratish, mehnat, xayriya, ijtimoiy foydali, ijtimoiy ko'ngilochar va shunga o'xshash tadbirlar tashkil etish lozimki, natijada talabalar o'zlarini xohlagan ishga qo'l ursinlar, muvaffaqiyat hissini tushunib o'zlariga ishonchlarini ortsin, axloqan barqaror bo'lsin.

Pedagog o'zining tarbiyachilik mahoratida milliy istiqloq g'oyasi, ozod va obod vatanga muhabbat va insonparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, ekologik tarbiya, nafosat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, komil insonni voyaga yetkazish kabilarga e'tibor berishi lozim.

3. Zamonaviy o'qituvchi modeli

Pedagogik mahorat asoslari fanining paydo bo'lishi buyuk pedagog A.S.Makarenko (1889-1939) nomi bilan bevosita bog'liq. U bolalar kalonnasidagi faoliyatida, yani faqat tarbiyasini emas, ma'naviy qiyofasini ham yo'qotgan bolalar bilan ishlab, ularning benihoya hurmati va ishonchiga sazovor bo'ldi. Shaxsiy tarbiyaviy usuli bilan butun olamga mashhur bo'lganligining o'zi ham A.S. Makarenkoning yuksak pedagogik mahorat cho'qqisiga erishganligining yaqqol dalilidir. YUNESKO qarori bilan uning 100 yilligiga 1988- yil - «Makarenko yili» deb e'lon qilindi.

Buyuk pedagogning bu fikriga Ukraina pedagogika instituti olimlari katta mas'uliyat bilan qarashdi. Ular bir necha yillar davomida A.S. Makarenko pedagogik mahorati maktabini, mavjud bo'lgan ilg'or nazariya va amaliyotni atroflicha tahlil qilishdi. Natijada 1979- yili «Pedagogik mahorat asoslari» fani yaratildi va u barcha pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'qitila boshlandi. Bu fanning tuzilish prinsipining o'ziga xosligi shundaki, u pedagogda shaxs va jamoaga ta'sir eta olishni ta'minlaydigan va turli fanlarga bog'liq bo'lgan bilimlarni tanlab, ularni o'zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham fan dasturiga pedagogik mahorat mohiyati, o'quvchiga ta'sir etish vositalari va usullari kabi pedagogik mahoratning odatdagi masalalaridan tashqari, teatr pedagogikasi va notiqlik san'ati haqidagi ma'lumotlar ham kiritilgan. Bu fanni o'rganish pedagogika, psixologiya, metodika va boshqa pedagogik fanlardan egallangan bilimlarga asoslanadi. Pedagogik faoliyat bu

mazmunini o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish tashkil qilgan faoliyatdir. Shuni yodda tutish kerakki, pedagogik faoliyat bu bir tomonlama emas, balki ikki tomonlama (hamkorlikdagi) faoliyatdir. Unda ikkita faol tomon ishtirok etadi: o'qituvchi – o'quvchi (o'quvchi). Maqsad – o'quvchi, o'quvchi shaxsi, uning rivojlanishidir. Mohir pedagog deb ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkillay oladigan, buning uchun o'quvchi psixologiyasini yaxshi bilgan, o'zida pedagog uchun zarur bo'lgan kasbiy fazilatlarini mujassam etgan, ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar qonuniyatlari asosida samarali tashkillay oladigan va olib boradigan pedagogga ayta olamiz (shu sababli pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanlari bir o'quv faniga birlashtirilgandir).

Mahorat faoliyatda namoyon bo'ladi. Pedagogika fanida “pedagogik mahorat” tushunchasining turli ta'riflari mavjud:

- pedagogik mahorat pedagogik faoliyatning yuqori darajasi bo'lib, u pedagogning belgilangan vaqt ichida optimal natijalarga erisha olishida namoyon bo'ladi. (N.V.Kuzmina., N.V.Kuxarev);

- “pedagogik faoliyatni egallanganlikning yuqori darajasi, ixtisoslikka doir bilim, ko'nikma va malakalar hamda kasbiy ahamiyatli sifatlar majmui” (Pedagogik lug'at);

- “kasbiy faoliyatning yuqori darajada tashkillanishini ta'minlovchi shaxs xususiyatlari kompleksi (o'qituvchi faoliyatining gumanistik yo'naltirilgani, kasbiy bilimlari, kasbiy qobiliyatlari va pedagogik texnikasi” (I.A.Zyazyun);

- pedagogik mahorat – pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi (N.N.Azizxo'jayeva);

- “pedagogik mahorat – o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir” (A.Xoliqov);

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, “pedagogik mahorat” tushunchasiga quyidagi tarzda umumlashgan ta'rifni berish mumkin:

Pedagogik mahorat – bu o'quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, talabalarda (o'quvchilarda) dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir.

Pedagogik mahorat yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

- pedagog shaxsini insonparvarlik yo'nalishiga ega bo'lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo'nalishlari va ideallarining oliy maqsad-barkamol avlod tarbiyalashga yo'naltirilganligi;


- mutaxassislik fanlari, o'qitish metodikasi, pedagogika-psixologiyadan mukammal bilimga ega bo'lish;

- pedagogik madaniyat va texnikani egallash, ya'ni o'z-o'zini boshqara olish, o'zaro ta'sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalash.

N.M. Egamberdiyevaning fikricha, pedagog shaxsining insonparvar yo`nalganligi quyidagilarda yorqin namoyon bo`ladi:

I. Ta`lim maqsadi, o`quv-tarbiya jarayonining shaxsga yo`naltirilganligi sifatidagi shaxsga yangicha qarash: 1) shaxs pedagogik jarayonning obyektini emas, subyektini sifatida aks etadi; 2) shaxs – qandaydir tashqi maqsadlarga erishish vositasi emas, ta`lim tizimi maqsadi; 3) har bir o`quvchi qobiliyatli, ko`plab o`quvchilar iqtidorli.

II. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish: 1) pedagogik muhabbat, o`quvchilar taqdiriga qiziqish bilan qarash; 2) o`quvchiga yuksak ishonch bilan qarash; 3) hamkorlik, muloqot mahorati; 4) to`g`ridan-to`g`ri majburlashdan voz kechish; 5) ijobiy rag`batlantirishning muhimligi; 6) o`quvchi shaxsiga ta`lim subyektini, faollik va erkin tanlash sohibi sifatidagi munosabat; 7) o`qituvchi va o`quvchi huquqlarini tenglashtirish; o`quvchining erkin tanlashga bo`lgan huquqi tushuniladi.



12-rasm. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari

III. Zamonaviy sharoitda to`g`ridan-to`g`ri majburlashdan natija bermaydigan metod sifatida voz kechish. Majburlashsiz o`qitish quyidagilar bilan tavsiflanadi:

1) majburlovsiz, ishonchga asoslangan talabchanlik; 2) o`qitishga tug`ma qiziqishlarni ko`payganligi; 3) majburlashning o`rnini muvafaqqiyatga erishishga

imkon beradigan istak bilan almashtirish; 4) o`quvchilarni erkinlik va tashabbuskorlikka qo`yib berilishi; 5) jamoa orqali bilvosita o`quvchilarning qo`llanilishi; 6) o`quvchilarga ularning subyektivligi, o`z-o`zini namoyon etishi, ijtimoiylashuvi, madaniy tenglashuvi, hayotiy o`z o`rnini belgilashiga yordam ko`rsatish, pedagogik qo`llab-quvvatlash.

IV. Individual yondashuvni yangicha talqin etish: 1) “o`quv fanidan o`quvchiga qarab borish emas, o`quvchidan o`quv faniga borish” tamoyilining bajarilishi; 2) o`quvchilarning qobiliyatlari va mavjud imkoniyatlarini hisobga olgan holda o`qitish; 3) o`rtacha o`zlashtiruvchi o`quvchiga yo`nalganlikdan voz kechish; shaxsning eng yaxshi sifatlarini izlash; 4) shaxsni psixologik-pedagogik tashxis etish (qiziqishlari, qobiliyatlari, yo`nalganligi, Men-konsepsiyasi, xarakteri, fikrlash jarayonlarining o`ziga xosligi)ning qo`llanilishi; 5) shaxsning o`quv-tarbiya jarayonidagi o`ziga xosliklarini hisobga olish.

V. Ijobiy ma`nodagi “Men-konsepsiyasi”ni shakllantirish: 1) pedagogik muloqotning o`quvchilarda o`ziga ijobiy munosabatni rivojlantirishning yo`nalganligi; 2) hayotiy faoliyatning ijobiy yo`l-yo`riq va motivlarini shakllantirish.

Pedagogik mahorat o`z ichiga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to`g`risidagi, maktab haqidagi, ta`lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o`qituvchi, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o`z ishining chinakam ustasi bo`la olmaydi, yomon, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andozalarni ishlatishdan nariga o`tmaydi.

Pedagogik mahoratning asosi pedagogik bilimdonlikdir. Pedagogik bilimdonlik deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me`yorlar (normalar), standartlar va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga qobillik va tayyorlik bilan belgilanadigan integral kasbiy-shaxsiy tavsifnoma tushuniladi. Kasbiy-pedagogik bilimdonlik deganda esa, pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. N.Azizxo`jaeva ta`kidlab o`tganidek, bu xislat pedagogik jarayon mantig`ining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko`ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va yo`nalishlarini tushunish imkoniyatini ta`minlaydi, maqsadga muvofiq faoliyatni konstruksiyalashni osonlashtiradi.

O`qituvchining pedagogik madaniyati quyidagi kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarining mavjud bo`lishini taqozo etadi:


1) shaxsga yo`nalganlik: e`tiqod, ijtimoiy faollik, fuqarolik tuyg`usining mavjudligi;

2) kasbiy-axloqiy sifatlar: insonparvarlik, jamoaviylik, adolat, mehrbonlik, haqiqatparvarlik, samimiylik, talabchanlik, bolalarga nisbatan mehr va hurmat, oliyanobillik, xolislik;

3) pedagogik mehnatga munosabat: vijdonlilik, javobgarlik tuyg`usi, fidokorlik, berilib ishlay olish va o`z pedagogik faoliyatidan qoniqish hissi, uni hayotining mazmuniga aylantira olish;

4) qiziqishlar va ma`naviy ehtiyojlar: bilishga oid faollik, tafakkurning kengligi va teranligi, estetik madaniyat, qiziqishlarning va ma`naviy ehtiyojlarning

ko'pqirraliligi, yoqtirgan ijodiy ishning mavjud bo'lishi, tashqi ko'rinish va nutq madaniyati.



13-rasm. Zamonaviy o'qituvchi modeli

Pedagog olim Komil Zaripov o'qituvchining kasbiy mahorati mazmun va mohiyatini "Ilg'or o'qituvchi", "Ijodkor o'qituvchi", "Novator o'qituvchi" timsolida asoslaydi va shunday ta'riflaydi:

"Ilg'or o'qituvchi" avvalo boshqa o'qituvchilarga qaraganda o'z ishiga mas'uliyat bilan qaraydi. Shu sohadagi ijobiy tajribalarni o'rganib, o'z darslarida, ta'lim muassasasidan va guruhdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda qo'llaydi. SHu orqali u ta'lim va tarbiya sohasida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritadi.

"Ijodkor o'qituvchi"da ham "Ilg'or o'qituvchi"dagi xususiyatlar bo'lishi mumkin. Ularning jiddiy farqi shundaki, ilg'or o'qituvchi mavjud manbalarni o'rganib, shular asosida ta'lim - tarbiya bo'yicha muayyan ishlarni amalga oshirsa, ijodkor o'qituvchi bor manbalarga tanqidiy ko'z bilan qaraydi. Ko'p hollarda mavjud metodik yo'l - yo'riqlarga o'z munosabatini bildirib, sharoit va vaziyat taqozosiga, o'zining imkoniyatlariga qarab mavjud tartiblardan farqli zamonaviy metodik usullardan foydalanadi".

Shunday qilib, "Novator o'qituvchi", o'zining yaxlit pedagogik vosita va usullari mavjudligi bilan farqlanib turadi. Shu bilan birga novator o'qituvchilarda ilmiy tahlil, o'ziga tanqidiy ko'z bilan qaray bilish xususiyatlari ham ega bo'ladi. Ularning ko'pchiligida g'oyat murakkab, boshqalar o'ziga ishonmaydigan sharoitlarda ham o'z ishlarining to'g'ri ekanligiga ishonch bo'ladi.

IX bob. PEDAGOGIK MAHORAT TUSHUNCHASIGA ZAMONAVIY YONDASHUV, UNING BO'LAJAK O'QITUVCHI KASBIY FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Reja:

1. O'qituvchining kasbiy mahorati haqida tushuncha.
2. Yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta'minlovchi omillar.
3. Bo'lajak o'qituvchi kasbiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

1.O'qituvchining kasbiy mahorati haqida tushuncha.

Pedagog jamiyat hayotida yetakchi o'rin tutuvchi, murakkab shaxs strukturasi ega bo'lgan insonning kasbiy qiyofasidir. Ijtimoiy turmushning barcha sohalarida erishilgan yutuqlarning zaminida uning mehnatining natijalari yotadi. Pedagoglarning pedagogik, psixologik tayyorgarligi va bilimlar integratsiyasi, muomala madaniyati, psixologik vaziyatlarni e'tiborga olish kabilar kuchli bo'lishi kerak. Yuksak saviyali, zo'r mahoratli tarbiyachilargina xalq orzusidagi barkamol insonni tarbiyalaydi. Ilm insonni yuksaklik sari olib boradi. A.Avloniy aytganlaridek, «Ilm insonlarning madori, hayoti, porloq kelajagi, rahbari, najotiga aylangan». Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas fazilatdir. Shuning uchun avvalam bor ilmi, tarbiyali bo'lmoq har bir yosh insonning burchi.

Shu maqsadda ko'nglida eng oliy orzularni jamlab, pedagog ter to'kib ishlaydi. Ularning mehnatini hurmat qilib, bergan bilimlarni egallamoq kerak. Behbudiy aytganlaridek: «Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir». Ibn Sino ta'kiddaganidek: «Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga avvalo o'zing amal qil».

Xalqimizda tarbiyachilik san'ati qadimdan juda yuksak darajada rivojlangan. Sharq mutafakkirlari, pedagog olimlari barkamol insonni etishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyatini va mazmunini asoslab berganlar. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning milliy va nazariy asoslari mavjud bo'lib, pedagoglar o'zlarining tarbiyachilik faoliyati jarayonida;

- mustaqillik tufayli o'zbek xalqining milliy, diniy g'oyalarning keng ro'yobga chiqishi;

- ma'rifatparvarlik va jadicilik harakatining tarixiy asoslari;

- ona tilimiz, uning sofligini asrash;

- Turkiston xalqlarining avlod-ajdodlari yaratgan xalq ogzaki ijodiyotining milliy tarbiya vositasi sifatida qo'llanishini yuzaga chiqarish va keng foydalanish;

- xalqimiz yaratgan milliy urf-odatlar va an'alarimizdan keng foydalanish;

-Qur'oni karim va hadisi sharifdagi inson kamolati haqidagi g'oyalarni yoshlarga o'rgatish;

-ma'rifatparvar mutafakkirlar, milliy qahramonlar faoliyati, ularning asarlarini o'rganish, ilg'or tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi ta'limotlarga amal qilish va boshqalar.

Albatta bu o'rinda har bir tarbiyachi pedagogik tashkilotchilik mahoratiga ega bo'lishi kerak. Tarbiya jarayonini to'g'ri tashkillashtirish, darsdan so'ng talabalarning

bo'sh vaqtini taqsimlash kerak. Bunda talabalarning ota-onalari bilan yaqindan munosabatda bo'lishlari kerak, ular bilan suhbatlarni quyidagi yo'nalishlarda olib bormoq lozim:

1. Talabani xarakter xususiyati, oiladagi o'rni, mavqei, ruhiy holatini o'rganishda.

2. Odob va axloqqa doir suhbat (sharqona urf-odat, rasm-rusumlar, yangi chiqqan adabiyotlar).

3. Tarbiyasi murakkablashgan talabalarning ota-onasiga maslahat berish, pedagogning yakka-yakka suhbat puxta, asosli va mantiqan boy bo'lsa, ota-onani unga ishonchini oshiradi - natijada erkin dil so'zlari, maslahat, o'zaro yordam kabi hamkorlik holati vujudga keladi.

Ijodkor pedagog talaba-yoshlarning xulq madaniyatini shakllantirishda ma'naviy qadriyatlarining imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi. Pedagog ijodkorligi natijasida talaba yoshlar ajdodlar tarixi, adabiyoti, san'ati, an'analari va urf-odatlariga haqida chuqur bilim oladi. Talabalarning ma'naviy merosga bo'lgan qiziqishi oshadi. Dars jarayonida samimiy, sog'lom ma'naviy muxit yaratiladi. Ma'naviy meros manbaalaridan samarali foydalanish natijasida talabalarning xulq madaniyati kamol topadi. Talaba yoshlarning xulq madaniyatini shakllantirish, birinchidan, dars jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishiga, ikkinchidan ta'lim mazmuniga va pedagog -talaba hamkorlik faoliyatiga bog'liq. Hamkorlikdagi faoliyat ijodkorlikni, mas'uliyatni, faollikni talab qiladi. Bunday xar bir darsdan pedagog maqsadni aniq ko'ra bilishi, amalga oshiriladigan vazifalarni tug'ri belgilab olishi lozim, yani dars jarayonidagi bilimlar mazmunining ilmiyligi, izchilligi va tarbiyaviy xarakteri, qiziqarliligi talabalarda ta'lim va tarbiyaviy tomondan o'rganiladigan bilimga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Ularning bilimni kengaytirish yuksak xulqli bo'lish kabi ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Albatta, bunda dars shakllarini tanlashda mavzuning mohiyatiga alohida e'tibor beriladi. Masalan, kasb-hunar kollejlarda adabiyot darsi an'anaviy dars yoki munozara tarzida uyushtirilsa metodika darsi seminar, yoki munozara tarzida, chet tili darslari o'yin yoki savol javoblar, suhbat darslari tarzida uyushtirilishi mumkin. Barcha shakldagi dars jarayonlarida talabalarning xulqi va madaniyatini shakllantirish samaradorligini oshirish uchun savol-javob qilish, munozarali vaziyat paydo qilish, mustaqil ishlash, turli o'yinlardan foydalanish kabi usullardan foydalanish muhimdir.

Talabalarning ma'naviy sifatlarini shakllantirishda ularga o'tmish adabiyoti, tarix, milliy urf-odatlar, an'analar haqida bilim berish pedagogdan doimo faollik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi. Talabani ma'naviy ehtiyojini qondirish, qiziqishini o'stirish mustaqil ishlar (insho, referat, taqdimot materiallari va boshqa) orqali amalga oshiriladi. Mustaqil ishlar pedagog va talaba faoliyatining uzviy bog'langan tomonlaridir. Mustaqil va ijodiy ishlarda talaba o'z ustida mehnat qiladi, ijodiy izlanadi, o'z nuqtai nazari, qarashlarini shakllantirish bilan birga dunyoqarashi va ma'naviy saviyasini namoyon etadi. Mustaqil ishlash ko'proq darslik ustida ishlash, manbalarning u mazmunini tahlil etish, ma'ruza, referat, konspekt tayyorlash, ijodiy insho yozish (chet tilida ham) kartochkalarga

yozma javob berish, turli jadval, diagramma va sxemalar tuzishni taqozo etadi. Bularning barchasi talabdan izlanuvchanlikni talab qiladi. Mustaqil ishlar, seminarlarni tashkil etishda 4 xil manbalarga asoslanadi:

1) Darslik materiallariga:

2) Ma'naviy meros, hisoblangan xalq og'zaki ijodi, diniy manbalar, mumtoz adabiyot va boshqalar:

3) Ommaviy axborot vositalari materiallariga (jurnal, gazetalar, radio, eshittirishlar, oynai jahon ko'rsatuvlari):

4) Hayotiy misollarga (oilaviy-maishiy an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, ma'naviy qadriyatlar va h.k).

Og'zaki mustaqil ish turlari va o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini talabalar amaliy faoliyatida mustahkamlashtirishga yo'naltirilgan ba'zi bir yozma shakldagi mustaqil ishlar (insho, savollarga yozma javob topish, jadval, diagramma, kartochkalarni to'ldirish) dan aralash dars shaklida keng foydalanish yaxshi natija beradi. Chet tili, adabiyot darslarida o'yin holatlaridan foydalanish samarali foyda beradi. Masalan, adabiyot darslarida «Allomalar mehmonimiz», «Temuriy ijodkorlar», «Bugungi davr - allomalar ko'zi bilan» kabi munozaralar, bahslarni tashkil etish mumkin. Metodika darslarida esa u «Sharq allomalarining tarbiya haqidagi fikrlari» va ularning ma'naviy merosi, haqida talabalarning o'zaro fikr almashishlarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Dars jarayonida pedagog ma'naviy meros manbalaridan ustalik bilan foydalanishi, ularning ta'lim va tarbiyaviy ta'sirini hisobga olish darsni qanday tarzda tashkil etilishidan qat'iy nazar (o'yin darsi, munozara darsi, sinov darsi va x.k.), uni uyushtirishda faol, ijodkor, qat'iy bo'lishi, ma'naviy merosni yaxshi bilishi va uni amaliyotga tatbiq qila olishi zarur. Talabalarning og'zaki mustaqil tayyorgarligi asosida noan'anaviy dars shakllarini uyushtirish xam xulq madaniyatini shakllantirishning samarali usullaridan hisoblanadi. Bunda turli mavzulardagi bahs -munozara darslarini o'tkazish mumkin. Bunday darslarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida talaba keng hajmdagi ma'naviy manbalarga, badiiy asarlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, pandnomalar, diniy manbalar, sharq allomalari hayotiga bag'ishlangan ilmiy, ommabop, avtobiografik asarlar, matbuot va ommaviy axborot materiallariga murojaat qiladi. Natijada muammoli savollarga javob topadi, ajdodlar ma'naviy merosi bilan tanishishga muvaffaq bo'ladi. Bunday darslar yetarli tayyorgarlik, mahorat va keng ko'lamlil bilim, tajriba, mustaqillikka asoslangan holda tashkil etilsa, talabani xulq madaniyatini shakllantiruvchi quyidagi ijobiy natijalarni beradi:

birinchidan, dars davomida talabani erkinligi, mustaqilligi, faolligiga erishiladi;

ikkinchidan, talabalar jamoa fikriga tayanishga, uni xurmat qilishga o'rganadilar, bu bilan ularda o'zaro xurmat, muloqot madaniyati tarbiyalana boradi;

uchinchidan, talabalarda u yoki bu adibning qarashlarini, xalq pedagogikasi, hayot tajribasi asosida ko'tarib chiqilgan muammolar mohiyatini davr bilan bog'lash atrof-muhit talabi imkoniyati asoslarni haqqoniy baholash malakasi shakllanadi;

to'rtinchidan, talabalarning o'zbek xalqining ma'naviy turmush tarzi haqidagi bilim darajasi ortadi, axloqiy-ma'naviy sifatlari shakllanadi;

beshinchidan, har bir talabada o'z-o'ziga talabchanlik, o'z-o'zini nazorat qilish hissi ortadi, o'z ustida ishlashga, o'zini anglashga e'tibor kuchayadi.

Bunday muvaffaqiyatli natija amaliy darslar, yakuniy darslarda namoyon bo'ladi. Talaba xulq madaniyatining asosiy mezonlari: insonparvarlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, mehr-muhabbat, iymon, ijodkorlik, faollik, tashabuskorlik, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini baholashni talab etadi. Bu talab talabning Vatan, ota-ona, do'stlari, jamoa oldidagi burchi vazifalariga, ta'lim-tarbiya jarayonida namoyon bo'ladigan faollik, ijodkorlik xususiyatlariga munosabati orqali amalga oshiriladi. O'z bilimi, hatti-harakati, atrof-muhitga munosabatini nazorat qilish, o'z-o'zini baholashni tashkil etish talabning yozma ijodiy faoliyati orqali samarali namoyon bo'ladi. Ta'limning samarali shakllari an'anaviy va noan'anaviy dars turlari vositalari va usullaridan jumladan, ta'lim jarayonida talabalarning turli ijodiy yozma ishlari: insho, referat, konspekt, ma'ruza kabi turlaridan keng foydalanish zarur. Dars jarayonida talabalarning yozma ijodiy ishlaridan samarali foydalanish uchun qator pedagogik shartlarga amal qilish zarur.

Bunda:

☞ mustaqil ijodiy ishlarning turlari, mavzusi, xarakteri va unga qo'yiladigan talablar aniq belgilab berilishi;

☞ chet tili, adabiyot na boshqa darslarda mustaqil yozma ishlarni uyushtirish va ularni amalga oshirish uchun qisqa uslubiy tavsiyalarni tayyorlash;

☞ pedagogning ma'naviy sifatlarini, ma'naviy tarixiy kadriyatlarining mazmuni va mohiyati haqida yetarlicha bilimga ega bo'lishi, ularning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo'llarini bilishi;

☞ pedagog ham, talaba ham darslik va qo'shimcha manbalar bilan mustaqil ishlashi;

☞ pedagog ta'limni tashkil etishning an'anaviy va noan'anaviy shakllari, ularning tarbiyaviy imkoniyatlari, ish natijalari haqida to'liq pedagogik bilim bilan qurollangan bo'lishi;

☞ pedagog har bir dars shakli, usul va vositalarini talaba xulq madaniyatining shakllariga ta'sirini oldindan ko'ra bilishi;

☞ yozma ijodiy ishlar talabalarning ixtiyoriyligi, ijodkorligi, qiziqishi asosida amalga oshirilishi lozim.

Dars jarayonida yaratilgan ma'naviy muhit talabalarda ijodkorlik erkinlik, faollik, tasavvur boyligi va bilimga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi. Dars jarayonida ma'naviy merosimiz, o'tmish allomalarning fikr-qarashlari, odob-axloq, to'g'risidagi turli hikoyalar, xalq og'zaki ijodidan turli rivoyatlar, maqollardan foydalanish talabaga ma'naviyatimiz xazinasini haqida puxta bilim olish, egallangan bilimni namunalari namoyon etish, dastur va darslik materiallarini hayotiy tajribadan olingan

misollar bilan mazmunan to'ldirish, ruhiy holatlar, tasavvur idrok, hissini bayon etish, hozirjavoblik, ta'sirchanligi bilan farqlanadi.

Talabalarning xulq madaniyatini shakllantirishda ijobiy ta'sir etadigan vositalar quyidagilar:

☞ inson hissiyoti bilan bog'liq, uning idroki, tafakkuri, tasavvuri, mahsuli bo'lgan madaniy estetik manbalar, adabiyotlar, tasviriy san'at, asarlari, musiqa, ilmfan, diniy manbalar va h.k;

☞ illyustratsiya materiallari madaniy meros sifatida qadrlanadigan jug'rofik xaritalar, (Xorazmiy yaratgan xarita), matematik-astronomiya jadvallari (Beruniy, Ulug'bek), miniatyuralar (Behzod), xalq amaliy san'ati namunalari, milliy kiyimlar, va h.k;

☞ tabiiy o'lkashunoslik materiallari: tarixiy me'morchilik obidalari, aziz qadamjoylar, ma'rifiy maskanlar, uy-muzeylar va h.k;

☞ obrazli-ta'sirchan ifoda vositalari (ma'naviy meros haqida hujjatli filmlar, kinofilm, sahna asarlari, radio eshittirishlar, oynai-jahon ko'rsatuvlari, matbuot materiallari);

☞ o'quv-tarbiyaviy, ijodiy ko'rgazmali vositalari talabalar yoki pedagog tomonidan tayyorlanadigan jadvallar, har xil ijodiy ishlar, referat, ma'ruza, konspekt, mustaqil ishlar, kichik-kichik poetik asarlar, manzaralar tasviri va h.k.

Bu vositalardan dars jarayonida unumli foydalanish, noan'anaviy dars shakllarining amaliyotga keng joriy etish imkoniyatini yaratadi, talabalarning darsga qiziqishini oshiradi, o'rganiladigan mavzularning mohiyatini chuqur anglab etish imkonini beradi, mustaqil fikrlash, og'zaki va nutqni boyitish kabilarni shakllantiradi.

Mustaqil ishda talaba o'z ustida mehnat qiladi, ijodiy izlanadi, o'z nuqtai nazari, qarashlarini shakllantiradi, dunyoqarashi va ma'naviy saviyasini namoyon etadi.

Dars jarayonida ma'naviy meros manbalaridan foydalanish natijasida talabalarda ma'naviy merosga muhabbat, sadoqat, milliy o'zligini anglash, milliy g'urur shakllanib boradi. Bu esa o'z navbatida talabalarda xulq madaniyatini shakllantirishga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, dars talabalarning xulq madaniyatini shakllantirishning muhim shakli bo'lib, ma'naviy merosdan foydalanishda ta'lim-tarbiya tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy meros manbalaridan foydalanish, darsni samarali va qiziqarli tashkil etish, turli ko'rgazmali qurollardan, darsda noan'anaviy vositalardan foydalanish talabalarda xulq madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi muhim omillar bo'lib hisoblanadi. Albatta bunda pedagogning darsni tashkil etishi ham muhim ahamiyatga egadir. Ushbu mavzuga xulosa qilib, shuni aytish kerakki, o'qib-uqqan, chuqur odob axloqli, adolatli va adolatsizlikning farqiga tushungan inson qaysi yo'ldan borayotganligiga tushunib etadi. Yurtiga nisbatan mehr g'urur paydo buladi. Natijada u ham Vatanning ravnaqiga munosib farzand sifatida o'z hissasini qo'shadi. Ajdodlarimiz yashab o'tgan, meni o'z bag'riga olib ulg'aytirayotgan Vatan uchun men nima qila oldim, meni go'dakligimdan edirib-ichirgan ota-onam, ona zamin, qonlari tomirimda jo'sh

urayotgan ajdodlarimiz sha'niga munosib ishlar qilayapmanmi degan savollarni o'z vijdoni oldiga ko'ndalang qo'yadi. Demak, har bir talaba qaysi mutaxassis egasi bo'lishidan katiy nazar, Vatanga muxabbatli, iymonli, adolatparvar bo'lishi muhimdir.

Bunday fazilatlarini o'zida kasb etgan yoshlar qanday vaziyatda bo'lmasin hamma vaqt o'ziga to'g'ri yo'l tanlay oladi.

Mustaqil jamiyatimizning kamol topishida o'zlarining chuqur bilimlari va adolatli xatti-harakatlarini ko'nikmaga aylantirish nufuzli talaba-yoshlarning asosiy vazifalaridir.

2. Yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta'minlovchi omillar

Keyingi yillarda mamlakatimiz hayotida katta o'zgarishlar ro'y berdi: yangicha ijtimoiy tuzum mustahkamlanib bordi, iqtisodiy munosabatlar tizimi tamomila yangicha asosga qurilmoqda, natijada, yangi kasblar paydo bo'lib, mavjudlariga ham o'zgacha talablar qo'yilmoqda. Shu sababli o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga avvalgidan o'zgacha tarzda tayyorlash talab etilmoqda. Mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiyalash zarurati ayni shu holatlar bilan belgilanadi.

Hozirda ta'limni modernizatsiyalash davlat ta'lim siyosatining yetakchi g'oyasi va asosiy vazifasi sanaladi. Ta'limni modernizatsiyalash - ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari va ta'lim faoliyatining barcha sohalarini milliy ta'limning eng yaxshi an'alarini saqlagan va boyitgan holda bugungi kun talablari darajasiga ko'tarishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlardir.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiyalash zarurligi haqida ko'p gapirilmogda. Bu jarayonda ayrim muammolar yuzaga kelishi tabiiy. Birinchi muammo - amaldagi tizimda mavjud ijobiy holatlarni saqlab qolish. Ikkinchisi - avvalgi yillarda jamiyat uchun foydali bo'lgan biror jihatlar boy berilgan bo'lsa, ularni tiklash. Nihoyat, uchinchisi - ta'lim tizimini jamiyat talablari bilan muvofiqlashtirish.

Ta'limning yangi ijtimoiy-madaniy tipiga o'tish ta'lim oluvchilarda zamonaviy bilimlarga adekvat bo'lgan dunyo manzarasini, yaxlit dunyoni idrok etishni va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, shaxsni milliy madaniyatga integratsiyalash zarurati bilan belgilanadi. Bu kabi o'tish ta'lim qadriyatlarini gumanistik xarakterdagi, subyektiv xarakterdagi ongli va maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatidagi ta'lim jarayoniga tayyorlikni shakllantirishga ko'maklashadigan fundamental instrumentariyga qayta yo'naltirish sharoitidagina amalga oshishi mumkin.

Pedagogika fani va amaliyotida ta'limni modernizatsiyalash muammosining ta'lim mazmunini integratsiyalash - o'sib kelayotgan avlodning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yagona tamoyillar asosida rivojlantiruvchi muhitni yaratish: universal malaka va qobiliyatlarni - asosiy: kommunikativ, ijtimoiy, axborot, kognitiv va boshqa kompetensiyalarni shakllantirish bilan bog'liq yechimlari belgilangan.

Shu asosda proyeksiyalanadigan ta'lim mazmuni o'quvchi va talabalarning kompleks ta'limini - bilish jarayonini tashkil qilish va uning natijalarining bazaviy

kategoriyaalarini turli nuqtai nazardan, turli ta'lim sohalarida o'rganadigan, mazmuni bir tildan boshqasiga tarjima qilish usullarini o'zlashtiradigan yagona yaxlit jarayon sifatida aniqlashni ta'minlaydi. Bu bilish jarayonida yoshlar bilish faoliyatida shaxsiy va madaniy mazmunini keltirib chiqaradi, ta'limni mintaqalashtirishni ta'minlaydi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturning amalga oshirishdagi asosiy tamoyillaridan biri - ta'limni tuzilishi va mazmun jihatdan isloh qilish uchun o'qituvchi va murabbiylarning yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, ta'lim bo'yicha mutaxassislarining faoliyatini uyg'unlashtirish, pedagogik innovatsiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish hisoblanadi. Ammo innovatsiyalar va pedagogik texnologiyalar o'z-o'zidan ta'lim tizimiga kirib kelmaydi.

Bu o'qituvchi faoliyati va uning yangilikka intilish motivatsiyasiga bog'liq jarayon. O'qituvchi faoliyatini o'zgartirmay turib, uning mas'uliyati, ijodkorligi va faolligini oshirmasdan turib ta'limda bir qadam ham oldinga siljib bo'lmaydi.

Shu munosabat bilan ta'lim jarayonida innovatsiyalarni yangiliklarni yaratish, izlash, to'plash va pedagogik jarayonga qo'llash zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Pedagogik innovatsiyalar to'g'risida turli daraja va pog'onalarda fikr yuritish mumkin; davlat, regional, oliy ta'lim, kasb-hunar, akademik litsey va umumta'lim maktab, maktabgacha ta'lim, musiqa maktablari va maktabdan tashqari ta'limda innovatsiyalar bo'lishi mumkin.

Umuman, pedagogik innovatsiyalar deganda pedagogik tizimga yangiliklarni kiritish, o'quv-tarbiyaviy jarayonlarning borishini yangilash, natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishdir. Innovatsiya - mavjud bo'lgan xolatdan, o'zgaragan, farq qiluvchi degan ma'noni bildiradi.

Ilgaridan loyihalashtirilgan har bir didaktik jarayon ma'lum prinsipial imkoniyatlarga ega bo'lib, u o'quvchi va talabalarda bilim, ko'nikma, malakalarni sifatli shakllanishini ko'zda tutadi.

Ta'lim va tarbiyada zaruriy darajadagi natijani olish - pedagogik tizimni takomillashtirish, uning funksiyasini ijobiy tomonga yo'naltirish, intensiv pedagogik jarayonni vujudga keltirishni taqozo etadi.

Chunonchi ta'lim-tarbiyada sifatli, samarali natijani olish uchun mavjud pedagogik tizimni modernizatsiyalash lozim.

Shu munosabat bilan innovatsiyalarni obyekt sifatida quyidagi pedagogik omillar keltirish mumkin:

- ✚ o'quv-tarbiyaviy faoliyatning motivatsiyasini oshirish;
- ✚ darsda o'quv materiallarini, mazmuni, hajmini oshirish;
- ✚ o'quv jarayonini samaradorligini oshirish;
- ✚ ta'lim jarayonida taym menejmentdan foydalanish;
- ✚ ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchining shaxsiy ishtiroki, faolligi va mas'uliyatini oshirish.

Jumladan, innovatsiyalarni pedagogik jarayonga joriy etish yo'llarini belgilash zarur:

- ✚ yangi pedagogik g'oyalarni shakllantirish;

- ☞ konsepsiyasini ishlab chiqish;
- ☞ dastur yaratish;
- ☞ ijro mexanizmini ishlash;
- ☞ amaliyotga joriy etish.

Hozir respublikamizda pedagogik innovatsiyalarning yaratilishi va rivojlanishi keng pedagogik jamoatchiligining harakati, umumta'lim maktablarini modernizatsiya qilinishi, standartlarni takomillashtirilishi va dasturlarning yangilanish jarayoni ketmoqda.

Yangiliklarni yaratish, izlash, to'plash, qo'llash ishlari jadallashib bormoqda. Shu sababli, ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonlarga kiritish to'rt bosqichda amalga oshirilishi mumkin:

1. Muammoning ko'pgina yechimini tahlil asosida aniqlash;
2. Mo'ljallanayotgan ta'lim mazmuni, yangilikni loyihalash;
3. O'zgarish va yangiliklarni rejalashtirish;
4. O'zgarishlarni amalga oshirish.

Ilmiy izlanishlar natijasida takomillashtirilgan standartlar va modernizatsiya qilingan dasturlar, darsliklarni yangi avlodi ta'lim muassasalariga etkazildi.

Navbatdagi kechiktirib bo'lmaydigan eng muhim vazifa – ta'limning yangi mazmunini innovatsiyalar asosida tezroq o'quv jarayoniga tatbiq etish mexanizmini yaratish va qo'llash zaruratidir.

Chunki davlat ta'lim standartlari, yangi dasturlarni o'quvchi va talabalar bilimiga qo'yiladigan majburiy minimal bilim darajalarni ta'minlash, ta'lim sifatini kafolatlashning, ularning iqtidor, talab, ehtiyojlarini ta'minlovchi yagona omil – ularni amalga kiritishga innovatsion yondashuvdir.

O'qituvchi innovatsion faoliyatini shakllantirishning quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

Birinchi bosqich – tayyor innovatsion metodik tavsiyalarni olib qo'llaniladi.

Ikkinchi bosqich – mavjud tizimga ayrim modifikatsiyalar kiritiladi.

Uchinchi bosqich – yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, metod, shakl, vositalari ishlab chiqiladi.

To'rtinchi bosqich – o'quvchini yangicha o'qitish va tarbiyalashning o'z konsepsiyasini va metodikasi ishlab chiqiladi.

Buning uchun pedagogik innovatsion texnologiyalarni to'plash, nazorat qilish va joriy etish ishlarini tashkil qilish, shunga oid seminar, treninglar, qisqa muddatli o'quv kurslar tashkil etish yaxshi natijalar beradi.

Innovatsion texnologiyalarni yaratish, izlash, topish, to'plash haqida tegishli ma'lumotlar jamg'arma bankini yaratish, tahlil qilish, tanlash, ta'lim muassasasiga joriy etish bo'yicha tashkiliy-pedagogik ishlarni tashkil etish.

Endi innovatsiyalarni o'quv jarayoniga qo'llash bosqichlarini keltiramiz.

Birinchi vazifa – innovatsiyalarni izlash, to'plash jarayonini amalga oshiriladi. Innovatsion ilg'or texnologiyalarni to'plab, o'rganish va qayta ishlash maqsadida ularni kompyuterda, kartoteka va maxsus yig'ma materiallar banklari tuziladi.

Ikkinchi vazifa – tanlash jarayoni innovatsiyalarni yig'ma banklardan olib o'rganiladi. Mazkur ishlarni ta'lim muassasalari Ilmiy va metodik kengashlari, fan metod birlashmalari, tuman, shahar xalq ta'limi, o'rtacha maxsus kasb-hunar boshqarmalarida o'rganib chiqiladi.

Ular to'plangan innovatsiyalarni respublika miqyosidagi konferensiya, metod kabinetlar, malaka oshirish institutlari, ko'rik tanlov materiallari, avgust kengashlarida targ'ib qilingan innovatsiyalar; axborot va monitoring markazlari, internet xabarlaridan to'plangan innovatsiyalarni o'rganib, to'plab, tanlab ulardan qulaylarini amaliy faoliyatga qo'llash uchun moslarini, ta'lim muassasalariga tarqatadilar.

Umuman innovatsiyalarni o'quv jarayoniga qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilarning munosabatlari hamkorlik, hamijodkorlikda kechadi:

☞ O'qituvchi bilimni tashuvchi, yetkazuvchigina emas, talabani mustaqil o'qishi, bilim olishida yordamchi, maslahatchi-tashkilotchi rahbarga aylanadi;

☞ O'qituvchi konstruktivlash, modullashtirish, algoritmlash, loyihalash, atroflicha fikrlash sharoitida ish yuritadi;

☞ O'quv jarayoni talaba-o'qituvchilarni o'zaro faol ish yuritishga o'rganishga odatlantiradi;

☞ Talabaga o'zini-o'zi o'qitish, faollikda, yakka, juft, kichik, katta guruhlarda ishlashga muhit yaratishi, o'quv jarayonini individuallashtirishni talab etadi. Shu xotlalarda o'quv mazmunini, DTS talablari to'la o'zlashtirish kafolatlanadi.

Agar innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llashni yo'lga qo'yilsa:

- o'qituvchi-professorlarning yangilikka intiluvchanligi, yangilikni yaratish, izlab topish, to'plab ta'lim jarayoniga qo'llash, ko'nikma va malakalari shakllanadi;

- uzluksiz mustaqil o'z ustida ishlash asosida yangiliklarni pedagogik faoliyatga tizimli olib kirish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

- professor-o'qituvchilar innovatsiyalar, modulli, interfaol, loyihalash, algoritmlash muhitida ish yuritadi;

- o'quv jarayonida talabani faol qatnashishiga, mas'uliyatni his qilib o'z fikrini bildirishga ijodiy muhit yaratadi;

- unda talaba ta'lim jarayonini sifat va samaradorligini ta'minlashda harakatlantiruvchi kuchga aylanadi.

Pedagogik qobiliyatlar – ta'lim-tarbiyaviy maqsadlar va o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda zaruriy shakl, metod va vositalarni samarali qo'llay olishdir.

Pedagogik qobiliyatlarni shartli ravishda uch katta guruhga bo'lish mumkin: shaxsiy, didaktik va tashkiliy-kommunikativ qobiliyatlar.

Shaxsiy qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:

☞ ta'lim oluvchilarga ijobiy yo'nalganlik – ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikda faoliyat olib borishga, muloqot qilishga intilish, ularga nisbatan do'stona munosabat, xayrixohlik;

☞ vazminlik, o'z hissiyotlarini nazorat qila olishi – har qanday vaziyatda o'zini yo'qotib qo'ymaslik. Lekin vaziyat talab qilganda o'qituvchi zaruriy tarzda o'z

hissiyotlarini namoyish qiladi (quvonch, qayg'u, g'azab). Lekin vazminlik befarqlikka aylanib ketmasligi kerak;

o'z psixik holati, kayfiyatini boshqara olish – o'qituvchi hayotida, faoliyatida har qanday noxush holat ro'y bergan bo'lsa ham o'zini tetik tutishi kerak.

Didaktik qobiliyatlar sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

tushuntirish qobiliyati – o'rganilayotgan materialni ta'lim oluvchilar uchun tushunarli qilib yetkazish, buning uchun o'qituvchi ta'lim oluvchilar uchun yangi bo'lgan materialni “ularning ko'zlari bilan ko'ra bilishi kerak”;

akademik qobiliyat – o'z fanini, sohasini chuqur bilishi, umumiy va ilmiy dunyoqarashning kengligi;

nutq qobiliyati – o'z fikrlari, his-tuyg'ularini tushunarli qilib ifoda etishi, muloqotning noverbal vositalari: mimika va pantomimikalardan o'rinli foydalana olishi.


Bunda suhbat predmetini bilish, yetkazayotgan ma'lumotlariga nisbatan ishonch, nutqni “og'irlashtiruvchi” tuzilmalardan foydalanmaslik, qo'llanilayotgan atama va tushunchalarga izoh berish, nutq tezligi va ovoz balandligi nazarda tutiladi.

Tashkiliy-kommunikativ qobiliyatlar quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi: tashkilotchilik qobiliyati – o'quvchilar jamoasini tashkillay olish va o'z faoliyatini tashkillay olish; rejalashtirish, nazorat qilish; kommunikativ qobiliyat – o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda muloqotni to'g'ri tashkillash; pedagogik kuzatuvchanlik – o'quvchining ko'rinishidan dagi ichki kechinmalar, kayfiyatini bilib olish, sezgirlik; pedagogik takt – ta'lim oluvchiga pedagogik ta'sir ko'rsatishda aniq vaziyatdan, ta'lim oluvchi shaxsi xususiyatlaridan kelib chiqish va uning nafsoniyatiga tegmaslik; suggestiv qobiliyat – ta'lim oluvchiga emotsional-irodaviy ta'sir o'tkazish, talab qo'yish va talabning bajarilishini qat'iy nazorat qilish (bir tomondan qo'rqitishsiz, qistovsiz – boshqa tomondan bo'shlik qilmasdan); pedagogik prognoz – o'z harakatlari natijasini, shaxsida bo'lib o'tadigan o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish; diqqatni to'g'ri taqsimlay olish – bir paytning o'zida bir necha faoliyatni olib borish: materialni bayon qilish, o'z fikrlarini kuzatib borish, berilayotgan savollarga javob berish, ta'lim oluvchilar jamoasi hulqini nazorat qilib turish.

Bugungi kunda, talabalarining mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat ko'rsatishlariga e'tibor kuchayganda talaba ta'lim subyektiga aylangan bir davrda muammoli o'qitishning ahamiyati kuchaydi. Zero, muammoli ta'lim ilmiy bilish, pedagog tomonidan yaratilgan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan talabning mustakil faoliyati, ijodiy qobiliyatini o'stirish orqali o'quv natijalarini maqsadli o'zlashtirishga qaratilgan ta'limdir.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi talabalar o'rtasida o'zaro jonli til, fikr olishuv, samimiy munosabat, hurmat, asosiy maqsadga erishishda hamkorlik lozim. Mazmuni sayoz, amaliy tajribadan, turmushdan ajralib qolgan, umumiy so'z va quruq nasihatgo'ylikdan iborat bo'lgan, rasmiyat uchun yuzaki o'tkaziladigan dars ma'ruza va boshqa o'quv mashg'ulotlari o'quvchi talabalarni qiziqitirmaydi, ularni ilmiy, g'oyaviy jihatdan yetarli oziqlantirmaydi. Shunday ekan, o'quv

mashg'ulotlarini shunday tashkil etish kerakki, uning ta'sirida talabalarda shu fanga nisbatan turli qarashlar, ilmiy tafakkur va e'tiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi dardor. Bunda o'qituvchidan katta mahoratni talab etadi. U yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, slaydlar asosida, darsni amaliyotga bog'lab o'tsa, talaba e'tiborini yanada ko'proq qozonadi.



14-rasm. Professionallikning individual uslubi

Ta'lim va tarbiya jarayoni ta'sirchanligining yanada yuksak bo'lishi, avvalo o'qituvchining ilmiy salohiyatiga, yoshlar oldidagi obro'siga, shaxsiy sifatlariga, ilmiy iste'dodiga, ta'lim sohasidagi tajriba va mahorati hamda o'quvchi talabalar bilan o'rnatilgan do'stona munosabatiga bog'liqdir.

Dars berish san'atini egallashda o'qituvchi tashkillashtirgan o'quv mashg'uloti, chuqur bilim berish vositasi bo'lishi bilan birga, mustaqil O'zbekistonning ravnaqi, ertangi kunga bo'lgan ishonchi, xalqimizning aql-zakovati va mehnatining nimalarga

qodirligi, jamiyatning munosib fuqarosi va quruvchisi bo'lish uchun nimalar qilish zarurligini ko'rsatuvchi ko'zgu bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik adabiyotlarda o'qituvchining kasbiy va ijtimoiy moslashuviga ta'sir etuvchi mahsulдор sabablar (omillar) umumlashtirilib pedagogik madaniyat nomi bilan qayd etiladi. Boshqa tushunchalar singari pedagogik madaniyatning ham bir necha xil ta'riflari mavjud. Biroq barcha ta'riflarda pedagogik madaniyat tushunchasi uch ilmiy jihatdan, yani aksiologik, faoliyat va shaxsga yo'naltirilganlik nuqtai nazaridan talqin etilishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Aksiologik yondashuvga ko'ra, pedagogik madaniyat – tarbiya haqidagi fan sifatida pedagogika tayanadigan pedagogik qadriyatlar majmuidir. Ushbu qadriyatlar moddiy va ma'naviy shakllarda mavjud bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv nuqtai nazariga ko'ra, pedagogik madaniyat – pedagogik faoliyatdagi tarbiyaviy munosabatlarni amalga oshiruvchi subyekt sifatida kasbiy etuk pedagog shaxsining muhim sifati. Faoliyatli yondashuvga ko'ra, pedagogik madaniyat – bu pedagogik qadriyatlarning tadbiiq etilishini ta'minlovchi, o'qituvchi kasbiy faoliyatining o'ziga xos usullari majmuidir.

Shunday qilib, pedagogik madaniyatning mufassal tavsifi L.D.Stolyarenko tomonidan quyidagicha ochib berilgan: “Pedagogik madaniyat – umuminsoniy madaniyatning bir bo'laki bo'lib, unda eng avvalo, avlodlar almashinuvi va shaxsning ijtimoiylashuvi kabi tarixiy jarayon uchun xizmat qilishda insoniyat uchun zarur bo'lgan ma'naviy va moddiy qadriyatlar aks etgan”.

3.Bo'lajak o'qituvchi kasbiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari

Ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash avvalo pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirishni talab etadi. Chunki pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirishni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo'lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlik, ta'lim oluvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod bilan shug'ullanishi va o'zini o'zi rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratadi. Mazkur jarayonda talaba o'z o'quv faoliyatining subyektini sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda yagona ta'lim jarayonining subyektini - ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etadi.

Pedagogik texnologiya texnologik yondashuvga asoslanadi. Texnologik yondashuv deganda tayyor mahsulot (ishlab chiqarish texnologiyasiga o'xshash) olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar to'plami tushunilib, qo'yilgan maqsadlarga erishishda kutilgan natijalarni kafolatlaydigan usul metodlari majmuasi anglashiladi.

Agar metod bilish yo'li, tadqiqot yo'li yoki biror faoliyatdagi ma'lum amaliyot va nazariy bilimlar sohasini egallashni harakatlar, operatsiyalar, usullar majmuasi deb

tushunsak, pedagogik texnologiya – ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmuasini anglatadi.

Pedagogik texnologiya usuli tarkibiy qismiga ta'limning umumiy maqsadlari (o'qituvchi va talabaning maqsadlari)ni ishlab chiqish, ta'lim maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga o'tkazish, maqsadga erishish usullari kiradi.

Loyihalashtirish faoliyati talabalar bilan ishlashni tashkillashtirishning eng ommabop shakllaridandir. Loyihalash metodi – o'qitishning tashkillashtirilishi bo'lib, talabalar rejalashtirish jarayoni va amaliy vazifalarni bajarishlari orqali loyiha ko'rinishda bilim oladi. Loyihalashtirish metodini qo'llash natijasida loyiha ko'rinishidagi bilim o'zlashtiriladi.

O'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi hamkorlik pedagogikasiga tayanib, talabalarning birgalikda ta'lim olishlari amalga oshiriladi. Talabalarni hamkorlikda ta'lim olishlari, ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish, talabalar bilan ishlashni loyihalashtirish kabilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy metodlari hisoblanadi.

Ta'limga texnologik yondashuv o'quv jarayonini o'zaro uzviy bog'liq etaplar va amallarga ajratishni va bo'lishni; ta'limdan ko'zlangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, bosqichma-bosqich amalga oshirishni; loyihalashtirilgan ish va amallarning barchasini bir xil tarzda bajarishni nazarda tutadi.

Qayta takrorlanish xususiyati tufayli ushbu tizim modul shakliga ega bo'lib, mazmunlar bilan to'ldirilgan va umumiy tarixga bog'langan birliklar, yani ta'limning umumiy maqsadi va mazmuni, o'quv maqsadi, o'qitish va baholash jamlamalaridan tashkil topadi. Amalda bu pedagogik qayta-qayta takrorlanuvchan harakatning algoritmi hisoblanadi. Ushbu algoritmining yangi bo'limlarda qo'llanishi o'quv jarayoni ko'lamini qamrab oladi.

Ta'lim jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil etishning rejalashtirish bosqichida, yetakchi pedagoglar pedagogik texnologiyaning qonun-qoida va tamoyillari asosida uslubiy ashyolarni ishlab chiqish paytlarida yuqoriroq malaka talab etiladi. Loyiha tayyor bo'lgach, pedagog asosan tashkiliy va maslahatchi vazifalarini bajaradi. Bu yondashuv asosan, reproduktiv ta'limga xosdir. Reproaktiv ta'lim tipik vaziyatlarda biror ish-harakatni oldin bilib olingan qoidalar asosida bajarishdir. Reproaktiv darajasi uchun pedagogik texnologiya usulida ta'lim – takror ishlab chiqiladigan konveyerli jarayon sifatida tashkil etiladi, undan kutiladigan natija ham mufassal tasvirlanib, aniq qayd etiladi. O'quv materiali aniq ifodalangan o'quv maqsadiga mos qayta tuzilib, ishlab chiqiladi, ba'zi bo'laklari qismlarga ajratilib, har bir bo'lakni o'rganish mustaqil nazorat qilinib, xato va kamchiliklari to'g'rilanib boriladi.

Keng ko'lamda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari ta'lim jarayonining ilg'or texnologiyalarini o'rganish va o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etishni taqozo qiladi. Bu esa, o'z navbatida, pedagoglardan ta'lim sohasiga texnologik yondashuvni, pedagogik texnologiya usulini egalashni va hududimizning milliy, ma'naviy-madaniy xususiyatlarini va an'analarini hisobga olgan holda pedagogik amaliyotda qo'llash va rivojlantirishni talab etadi.

Umuman, texnologik yondashuv doirasida yaratilgan didaktik loyihalash usullariga bo'lgan munosabat oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini samarali va ijodiy rejalashtirish, yangi fikrlar bilan boyitish, ularning natijalarini baholashga yordam beradi.

Chunki, hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti bo'lajak pedagoglarning ijodkor bo'lishini fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yuritish olishi, fan yutuqlarini o'quvchi-talabalarga etkazish olishi va nihoyat tinglovchilarni ham ijobiy fikrlash, tadqiqotchilik ishlarini o'rgatish olishini talab qiladi. Shuning uchun pedagog, avvalo, tadqiqotchilik ishlarini olib borishi va bu sohada malakalarni egallashi zarur. Pedagog ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishi davomida, tajribalarni to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U shu xulosalardan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon pedagog uchun zarur bo'lgan juda muhim bilimlarni egallaydi.

Bo'lajak pedagoglar pedagogik mahoratini takomillashtirishda shaxsiy pedagogik izlanishning ahamiyati kattadir. Pedagog ishidagi muvaffaqiyatni kunlik faoliyatida kattalar va talabalar, ayrim guruh va yakka shaxslar bilan aloqaga kirish olish qobiliyatini ta'minlaydi.

Keng ilmiy saviyaga ega bo'lish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish, pedagogik mahoratni oshirishga intilish pedagogga xos xususiyatlardan hisoblanadi.

Shaxsiy izlanishlar va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish bo'lajak pedagogning pedagogik mahoratini takomillashtirishning muhim omili bo'lib hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida ishlaydigan pedagog vatanparvarlik burchini turli anglagan holda ixtisosga doir bilimlarni chuqur bilishlari lozimdir.

Shuningdek nazariy, milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarini, dunyoviy, diniy ilmlardan ham xabardor ma'naviy barkamol bo'lmog'i lozim. Xalqimizning kelajagi mamlakatimizning istiqboli ko'p jihatdan pedagogga, uning saviyasiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Haqiqiy fidoyi pedagoglar o'z faoliyatida eng yaxshi natijalarga erishadilar. Tajribali novator pedagoglar talabalarga samarali ta'lim- tarbiya berish bilan bir qatorda pedagogika fanidan yangi yo'l ham ochmoqdalar.

Bo'lajak pedagoglar pedagogik mehnatni amalga oshirish jarayonida quyidagi xususiyatlarni o'z faoliyatida amalga oshirishlari zarur.

1. Pedagogning siyosiy qarashlari va e'tiqodining aniqligi hamda barqarorligi, talabalar oldida chinakam obro' e'tibor qozonishi.

2. Mamlakatning butun ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish va egallagan tajribalarni ta'lim muassasalariga olib kirish, bu faoliyatga o'z talabalarini jalb qilish ularni ijtimoiy, hayotda faol ishtirok etishini ta'minlash.

3. Har bir talaba shaxsiga katta qiziqish bilan qarash va barcha jamoa ishlarini tashkil etish.

4. Pedagoglar o'z ishlariga bugungi kun talabi bilan emas, balki kelajakni o'ylab ish yuritish.

5. O'quvchi-talabalarga bo'lgan munosabatlari, ularning taqdiri haqida g'amxo'rlik qilish, o'z tarbiyalanuvchilarining kelajagi bilan qiziqish.

6. Tarbiyalanuvchilar shaxsiga har tomonlama ta'sir ko'rsatish.

7. Ilg'or pedagogik tajribani hamda ta'lim va tarbiyaning nazariyasini chuqur o'rganish, hamma yangiliklarni tushunib olish, ularni o'z tajribalari bilan solishtirib ko'rish, ba'zilarini o'z ishida tatbiq qilish.

Shunday ekan, bo'lajak pedagoglarning pedagogik mahoratida shaxsiy faoliyat tizimini ishlab chiqish muhim. Hayot kashfiyotlar olami. Tajriba, uslub, fikrlar rang-barang. U samarali mehnat natijasida isbot va dalillar orkali talabalar qalbiga ko'chadi. Ularning tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi. Talabalar muallimning faxri, kelajagidir.

X U L O S A

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish bilim olishga, iqtisodiyot sirsorlarini o'rganishga bo'lgan harakatni, fanni chuqur o'rganishga bo'lgan talablarni ham kuchaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy qonunlarni yaxshi biladigan, turli vaziyatlarni taqqoslash, iqtisodiy resurslar cheklanganligi sharoitida samarali xo'jalik yuritish uchun muqobil variantlarni to'g'ri tanlash va qaror qabul qilish malakasiga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashnigina emas, balki ularga ta'lim-tarbiya beradigan rahbar iqtisodchilar tayyorlashni ham talab qiladi.

Mutaxassislar tayyorlashdagi asosiy maqsad - zarur bilimlarni o'zlashtirish bilan birga talabalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish, ularda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmasini hosil qilishdir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonini, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish asosiy va bosh maqsad bo'lib qolmoqda.

Globalashuv sharoitida mamlakatimizda pedagogik texnologiyalarni o'rganishga nisbatan e'tibor kuchaya boshlandi. Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etish muammosi mazkur jarayonda qo'llaniladigan o'qitish prinsiplarining ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari va uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatish prinsiplariga qanchalik mos kelishi va ularni amaliyotga joriy etishga safarbar etilganligiga bog'liq. Ma'lumki, o'qitish prinsiplari - ta'lim tizimi tuzilishi, mohiyati, uning qonunlari va qonuniyatlari haqidagi, shuningdek, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tashkil etadigan, amaliyotni boshqarishda namoyon bo'ladigan bilimlar majmuasi sanaladi. Shu ma'noda yaratilgan mazkur monografiya bo'lajak iqtisodchi mutaxassislar uchun amaliy dastur bo'lib xizmat qiladi. Unda keltirilgan mavzular, topshiriqlar, ilg'or innovatsion-pedagogik texnologiyalar bo'lajak mutaxassislar uchun metodik qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

O'quv-tarbiya ishlari jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarini ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda ularning amaliy mashg'ulotlarda axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar, innovatsiyalar va multimedialardan foydalana bilishi muhimdir. Bu esa, talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalashni, o'quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini o'rttirish ularning ichki ehtiyojiga aylantirilishini talab etadi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'quv-tarbiya jarayonining bir tizimga solingan ilmiy-nazariy va metodik asoslangan yangi shakl, usul va vositalarining majmuidir. Bunda yangi mazmun, shakl, usul va vosita uyg'unligida maqsad, vazifa, faoliyat va pedagogik natija yaxlitligi ta'minlanadi hamda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan

natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

Bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda pedagogik texnologiyalarni mukammal o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, mazkur o'quv kursi nafaqat pedagogik bilim beradi, balki u talabalarga iqtisodiy bilimlarni berishning shakl, metod va vositalarini qay darajada tanlay bilishlari, ulardan foydalana olish qobiliyatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shuni alohida qayd qilish kerakki, mazkur o'quv qo'llanmada asosiy e'tibor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professor-o'qituvchilarining tajribalaridan keng foydalanildi.

IZOHLI LUG'AT (Glossariy)

Avtokratik – hokimlik, kishining buyruqbozlik, ko'rsatmalar berish jazolash kabi shakllarda boshqalarga (masalan, u o'kituvchiniig talabaga) nodemokratik usullardan foydalangan holda ta'sir etishga moyilligi.

Aksiologiya – qadriyatlar to'g'risidagi falsafiy ta'limot, aksiologik qadriyatlar mohiyati.

Aksiologik yondashuv – insonparvarlik pedagogikasiga xos bo'lgan xususiyat, bunda inson ijtimoiy qadriyat va jamiyat rivojlanishining pirovard maqsadi sifatida qaraladi. Aksiologik tafakkur o'zaro aloqadagi ham o'zaro harakatdagi dunyo konsepsiyasiga asoslanadi.

Amaliy tadqiqotlar – pedagogik jarayonning ayrim jihatlarini chuqur o'rganishga qaratilgan ishlar, pedagogik amaliyot qonunlarini ochish.

Anketalashtirish – anketa yordamida ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, psixologik, pedagogik va boshqa tadqiqotlar uchun dastlabki materiallarni yig'ish jarayoni.

Axborotli malaka – ta'lim-tarbiya masalalariga axborotlarni moslashtirish va talqin qilish malakasi.

Axloq – shaxsning jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me'yorlar tizimi, ma'naviy xulq qoidalari, u ijtimoiy ong shakllaridan biri.

Bayon qilish – o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan material mazmunini izchil so'zlab berish metodi.

Bilish, anglash – dunyo haqidagi yangi bilimlar hisoblanadigan subyekt va obyektning o'zaro ta'sirini, voqelikning ruhiyatda qayta ta'sir etilishi va aks ettirish jarayonidir.

Bilish faoliyati – idrok qilish hissi, nazariy fikrlash va amaliy faoliyat birligi.

Burch – muayyan axloqiy majburiyatlarni his qilish, uning zarurligini anglash.

Boshqarish – tashkil etish, qaror qabul qilishga qaratilgan faoliyat, obyektning o'z xizmat vazifasi doirasida nazorat qilish, tartibga solish, ishonchli axborotlar asosida tahlil qilish va yakun yasash.

Vazifa – maqsad va uni amalga oshirish bosqichlarining oydinlashtirilishi.

Verbal – ifodali, og'zaki.

Gumanizm – 1) insonning insonga bo'lgan mehr-muhabbati, uning sha'ni, qadrini hurmat qilish, kishi manfaatlarini uchun kayg'urish g'oyalari bilan sug'orilgan va kishilar o'rtasidagi tenglik, halollik, insoniy munosabat tamoyillariga asoslangan dunyoqarash.

Davlat ta'lim standarti – uzluksiz ta'limning muayyan bosqichida shaxs (mutaxassis)ning tayyorgarlik darajasi va mazmuniga qo'yiladigan minimum talablar.

Dars – ma'lum maqsad asosida, belgilangan vaqtda alohida, bir xil yoshdagi o'quvchilar, yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan ta'lim jarayoni.

Didaktika – ta'lim va o'qitish nazariyasi hamda o'qitish jarayonida tarbiyalash mazmunini ifodalovchi pedagogikaning tarkibiy qismi.

Jamoa – insonparvarlik va javobgarlik mas'uliyatlariga bog'liqligi bilan xarakterlanadigan munosabatlar hamda hamkorlikdagi ijtimoiy ijobiy faoliyatiga asoslangan, kishilarning tashkil etilgan umumiyliigi, jamoasidir.

Idrok – mazkur muddatda sezgi organlarida ularning bevosita ta'sir etishi davomidagi bir butun hodisalar yoki narsalarning inson ongida aks etishidir.

Izohlash, tushuntirish – og'zaki izoh, yoritilishi lozim bo'lgan turli materiallarni izohlash, isbotlash, tahlil qilish.

Ilmiy muammo – fan orqali hal qilinadigan asosiy ziddiyatlar.

Istiqbolni belgilash malakasi – ijtimoiy va bilish jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish.

Intellekt – shaxsning turli faoliyat turlarini muvaffaqiyat bilan o'zlashtirishini belgilaydigan tug'ma va o'zlashma barcha aqliy kobilyatlar tuplami.

Interaktiv – shaxslararo munosabatlarda bir-biriga xulq-atvor ta'sir ko'rsatish jarayoni.

Kasb – faoliyat shakllari birlashmasi bo'lib, mazmun, vositalar, tashkilotlar, mehnat natijalari hamda mehnat subyektini tayyorlashga qo'yiladigan talablar majmui.

Kasbiy-pedagogik muloqot – pedagog va talabaning o'zaro zich ijtimoiy-psixologik aloqasi tizimi bo'lib, uning mazmuni axborotlar ayriboshlash, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, kommunikativ vositalar yordamida o'zaro munosabatlarini tashkil etish hisoblanadi.

Kasbiy tayyorgarlik – bo'lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligi.

Kasbiy bilimdonlik – pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy tayyorgarlik birligi.

Kuzatish – biror pedagogik hodisa bo'yicha aniq faktik material olish maqsadini ko'zlagan idrok etishning shakli.

Kognitiv – bilish jarayoni.

Kreativlik – betakror qadriyatlar yaratuvchi, nostandart yechimlar qabul qiluvchi individning botiniy qobiliyati.

Ko'nikma – o'rganish natijasida qo'lga kiritilgan, beixtiyor, avtomatik tarzda bajariladigan harakat. Ko'nikmalar biror harakatni nazoratsiz, avtomatik tarzda bajarish qobiliyatidir.

Laboratoriya ishi – asbob-uskunalar va boshqa texnik moslamalardan foydalangan holda talabalar bilan tajribalar o'tkazish, biror hodisani maxsus jihozlar yordamida o'rganish.

Leksiya (ma'ruza) – odatda oliy o'quv yurtlarida biror fan mazmunini og'zaki bayon qilishga asoslangan o'quv jarayoni, metodi.

Malaka – shaxsning o'zi egallagan bilimlari asosida ularning yangi sharoitdagi yangiliklar bilan birga, ma'lum bir faoliyatni samarali bajarish qobiliyatidir.

Mafkura – g'oya va qarashlar tizimi.

Maqsad – bo'lg'usi natijalar haqida har doim aqlan o'ylab ko'rilgan, rivojlantirilgan xayoliy tasavvurlar, kelgusidagi rejalar.

Metod – 1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli; 2) harakat qilish usuli, tarzi.

Metodika – biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo'llanadigan metodlar.

Metodologiya – dunyoni ilmiy bilish metodi haqidagi ta'limot.

Motiv – ma'lum ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo'ladigan kishining ichik faoliyat mazmuni.

Muammoli o'qitish – o'quv mashg'ulotini tashkil etish shakli bo'lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi va uning hal qilinishida ta'lim oluvchilar faol mustaqil harakat qiladilar.

Mutaxassislik – faoliyatning aniq shakli bo'lib, mehnat egasining kasbiy tayyorligi, mehnat vositalari, mehnat jarayoni va maqsadining maxsus xususiyatlari bilan belgilanadi.

Pedagoglik ixtisoslik – ta'lim natijasi o'laroq bilim, malaka va ko'nikmalar majmuidan iborat kasbiy guruh doirasidagi faoliyat turi.

Pedagogik malaka – muayyan toifadagi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

Pedagogik texnologiya – 1) oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotga rejali va bir maromda tatbiq etish yoki pedagogik masalani yechishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o'zaro bog'langan harakatlari tizimidir; 2) ta'lim-tarbiya metodlarini u yoki bu to'plamini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan pedagogning uzluksiz, o'zaro shartlangan harakatlari tizimidir; 3) ta'lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan, texnika hamda inson omillari, uning o'zaro hamkorligi asosida o'qitish jarayoni va bilimlarni egallash, yaratish, qo'llash hamda belgilashning tizimli metodidir.

Pedagogik faoliyat – ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

Pedagogik jarayon – ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlari.

Pedagogik uyin – bilim olishga qaratilgan va ma'lum bir pedagogik natijani ko'zlagan xamda ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat turi.

Pedagogik masala – pedagogik jarayonning asosiy birligi, o'ziga xos tizimidir. U voqelikni bilish va qayta yaratish zaruriyati bilan bog'liq, tafakkur qilinadigan pedagogik vaziyatdir. Ta'lim qatnashchilarining ma'lum bir maqsadni ko'zlagan ta'lim va tarbiyadagi moddiydashtirilgan vaziyatdir.

Pedagogik mahorat – pedagogik jaraenni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsing ish sifati va xususiyatlari sintezi.

Pedagogik muloqot – ta'lim oluvchilarning maqsadlari hamda ularning birgalikdagi faoliyatlari mazmunidan kelib chiqadigan o'zaro aloqalarni o'rnatish

va rivojlantirishni, bir-birini anglash na qo'llab-quvvatlashni tashkil etishning ko'p qirrali jarayoni.

Pedagogik takt – bolalar faoliyatining turli doiralarida ular bilan muloqotda bo'lishning pedagogik tamoyili, o'lchovi, o'quvchilar bilan ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri muloqotda bo'la olish malakasi.

Pedagogik malaka – muayyan toifadagi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

Pedagogik texnika – 1) har bir ta'lim oluvchiga va jamoaga pedagogik ta'sir o'tkazishni samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar majmuasi; 2) har bir ta'lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jihatdan ta'minlash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar.

Pedagogik tizim – shaxsni rivojlantirish va yaxlit pedagogik jarayonni birlashtirgan ta'limning o'zaro bog'langan tashkiliy tuzilmasi.

Ruhiiy pedagogik tayyorgarlik – pedagogikaning metodologik acoclari va kategoriyalarini, shaxsni ijtimoiylashuvi va taraqqiyoti qonuniyatlari, ta'lim va tarbiyaning mohiyati, maqsadi va texnologik g'oyalarini bilish.

Suhbat - kuzatuv juda yetarli darajada aniq, bo'lmagan zarur axborotni olish uchun qo'llanadigan tadqiqot metodi.

Talabalarni kasbga yunalirish – talaba-yoshlarga kelajakda o'z kasblarini aniqlab olish uchun yordam ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chiqarish texnik tadbirlarning asoslangan tizimi.

Ta'lim – 1) shaxsning jismoniy va ma'naviy shakllanishining yagona jarayoni, ijtimoiy etalonlarning ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yo'naltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash g'oyaviy-axloqiy qadr, malaka, ko'nikma, axloq me'yorlariga qaratilgan jamiyat a'zolarining ta'lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustaqil tizim.

Tarbiya – 1) shaxsning ma'naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq tasir etish; 2) pedagogik jarayonda ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

Tafakkur – inson aqliy faoliyatining oliy shakli, insonlarni o'rab olgan dunyodagi o'zaro bog'langan narsa va hodisalarni bilish jarayoni, muhim hayotiy jarayonlarni his qilish va muammolarni hal qilish, ma'lum bo'lmagan voqea hodisalarni qidirish, kelajakni ko'ra olish. Tafakkur, tushuncha, hukm, xulosa shakllarida namoyon bo'ladi.

Temperament - 1) shaxsning psixik faoliyati dinamikasining turli jihatlarinn bildiradigan turg'un individual xususiyatlarining qonuniy munosabatlari; 2) shaxsning dinamik xususiyatlari: intensivlik, tezlik, temp, psixik jarayonlar va holatlar ritmi.

Test – 1) standart shakldagi topshiriqlar bo'lib, aqliy taraqqiyot, qobiliyat, bilim va malakani aniqlash maqsadida o'tkaziladigan sinovdir; 2) aniq sosiologik tadqiqotlarda foydalaniladigan tarqatma material, savolnoma; 3) shaxs ruhiyati va xulqini aniq miqdoriy va ma'lum sifat baholarini oldindan berilgan ba'zi standart –

test ma'yorlari bilan qiyosiy o'rganishga mo'ljallangan psixologik tadqiqotlarning standartlashtirilgan metodi.

Texnologiya – ishlab chiqarish jarayonida ashyolar, materiallar, yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ashyoning holati, xususiyati, shaklini o'zgartirish metodlari to'plami.

Tizim – 1) yaxlit ta'limni, uning birligini belgilovchi bir-biri bilan qonuniy bog'liq aksariyat unsurlar (predmetlar, hodisalar, qarashlar, bilimlar va boshqalar); 2) qismlarning ma'lum bir bog'lanishlarda, harakatlarning o'ta izchillikda rejali, to'g'ri joylashish tartibi.

Faoliyat – 1) ongli maqsad bilan boshqariladigan kishining ichki (ruhiy), tashqi (jismoniy) faolligi; 2) atrof-muhitning kishilar tomonidan maqsadga muvofiq qayta bunyod etilishi.

Shaxs – 1) kishilarning ijtimoiy xulqi, insonlar orasida o'zini tutishini aks ettiradigan ruhiy sifatleri majmuini bildiruvchi tushuncha; 2) turli-tuman sifatlar tizimidagi kishining ruhiy, ma'naviy mohiyati; 3) ijtimoiy mohiyat kasb etgan va o'z-o'zini anglash qobiliyatiga ega bo'lgan kishi.

Shaxs dinamikasi – kishining ontogenetik rivojlanishini o'z ichiga olgan holda subyektning xususiyatlari va sifatining vaqtga nisbatan o'zgarish jarayoni.

Shaxsiy fazilat – shaxs tomonidan o'zining axloqiy, ruhiy va ishchanlik qobiliyatining ijtimoiy ahamiyatini, jamiyatdagi o'rnini anglay olish xususiyati.

E'tiqod – shaxs amal qiladigan bilim, tamoyil va hodisallarning qalban va asosli ishonch bilan bog'langan, uning atrof-muhitga hamda o'zining xatti-harakatlariga bo'lgan subyektiv munosabati.

Evratika – ilmiy tadqiqotning mantiqiy usullari va metodik ko'rsatmalari.

Empirik – tajribaga asoslangan.

Empirik bosqich – tadqiqot obyekti to'g'risida har tomonlama tasavvur hosil qilish, ta'lim amaliyoti, ilmiy bilimlar saviyasi va hodisalar mohiyatiga erishishga bo'lgan talab o'rtasidagi ziddiyat, ilmiy muammoni nomlash.

Estetik tarbiya – go'zallikni his qilish, atrof-muhitdan go'zallikni payqay olish va tushunishga bo'lgan qobiliyatni tarbiyalash.

Extiyoj – individning biror narsa-hodisaga muhtojligi va kishining ruhiy quvvati hamda faolligi manbai hisoblanadigan asosiy xususiyati.

Ehtimollik – tasodifiylik, pedagogik hayotdagi o'zgarishlarni aniq aytib berish mumkin bo'lmagan, ehtimol kutilgan jarayon.

O'z-o'zini baholash – shaxsning o'z psixologik sifatleri, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmati, kamchiliklarini baholay olishi.

Uyin – faoliyatning bir turi bo'lib, ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va bunyod etishga, o'z xatti-harakatlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

O'z-o'zini baholash – shaxsning o'z psixologik sifatleri, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmati, kamchiliklarini baholay olishi.

O'z-o'zini tarbiyalash – 1) shaxsga xos bo'lgan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning o'z jismoniy, ruhiy va axloqiy sifatlarini tinmay amalga oshirish.

O'qituvchining innovatsion faoliyati – ijtimoiy pedagogik fenomen bo'lib,

ijobiy imkoniyatni aks ettirish, kundalik faoliyatdan chetga chiqishdir.

O'qitish vazifasi – ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlanish vazifalari.

O'qitish turlari – sokratcha suhbat metodi, qoloq ta'lim, izohlash-namoyish etish asosida o'qitish, bilimlarni mustaqil egallash, dasturlashtirilgan ta'lim, o'quv jarayonini algoritmlash, differensiasiyali hamda individual ta'lim va boshqalar.

O'qish – o'quvchining o'z qobiliyati, bilimi, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan harakat.

O'quv-bilish faoliyati – insoniyat tomonidan to'plangan madaniy boylikni egallash bilan bog'liq faoliyat.

O'quv faoliyati – shaxsning yangi bilim, malaka va ko'nikalarni egallash jaraeni.

Qiziqish – shaxs harakatiga sabab bo'ladigan faoliyat yo'nalishining ongli shakli.

Qobiliyat – shaxsning ma'lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biror faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyati.

Yaxlit pedagogik jarayon – tarbiya jarayonida va ta'lim jarayonida tarbiya berishning o'zaro singib ketgan, yaxlit holga kelgan jarayoni.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2012.-40 bet.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. -T.: Sharq, 2001. Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlar to'plami.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - T.: Sharq, 2001. Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlar to'plami.
4. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. PF-4947-sonli 2017-yil 7-fevral.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, PQ – 2909 -sonli, 18-son, 313-modda, 2017-yil 20-aprel.
6. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. PQ-3775 23-son, 474-modda. 05.06.2018 y.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009-yil 14- avgustdagi «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha yo'riqnomaga to'g'risida»gi 286-sonli buyrug'i.
8. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: O'zbekiston, 2016. -56 b.
9. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston, 2017. -488 b.
10. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqbol va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. - T.: O'zbekiston, 2015.
11. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
12. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – T., 2001.
13. Avliyoqulov N.X. O'qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari. Uslubiy qo'llanma. – Buxoro, 2001.
14. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.- TDPU, 2013.
15. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – T.: Iqtisodiyot, 2011. -206 b.
16. Ibragimov X. Pedagogika nazariyasi. - T.: Fan, 2011.
17. Inomov I. Iqtisodiy tarbiya nazariyasi.-T.,TDIU.2009.
18. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - T. Iste'dod, 2008.
19. Karimova V., Xayitov O, Djalolova S. Boshqaruv psixologiyasi. O'quv qo'llanma. - T.: 2008.
20. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. - T.: Fan va texnologiya, 2012.
21. Mavlonova R. Pedagogika. - T.: O'qituvchi, 2010.

22. Mavlonova R.A., N.N.Raxmonqulova va boshqalar. Umumiy pedagogika. –Navro'z, 2016.
23. Muradova N.K., Majidov R.R., Xayitmatov U.T., Maxmudova B.A. Kasbiy ta'lim uslubiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006.
24. Omonov H.T., Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. -T.: Moliya, 2012.
25. Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. - T.: Moliya, 2002.
26. Petrovskiy V.A. i dr. Lichnostno-razvivayushie vzaimodeystvie.- Rostov na Donu, 2002.
27. Podlasy I.P. Pedagogika. - M.: Vlados, 2007.
28. Slastenin V.A., Isaev I.F., Mishenko A.I., Shiyonov E.N. Pedagogika.- M.: Shkolnaya pressa, 2004.
29. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A, Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. -T.: Fan va texnologiya, 2008.
30. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2018.
31. Tolipov U., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya. Nazariya va amaliyot. -T.: Fan, 2005.
32. Xodiyev B.Y., Golish L.V. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari (birinchi bosqich talabalariga yordam tariqasida): O'quv-uslubiy qo'llanma – T.: TDIU, 2010.
33. Xodiyev B.Y., Bekmurodov Sh.A., Boltaboyev R.M, Golish L.V. Gimranova B.O. Ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorgarlik asoslari: O'quv-uslubiy qo'llanma – T.: iqtisodiyot, 2010. 138 bet.
34. Hasanboyev J. Pedagogika. - T.: TDPU. 2011.
35. Hakimova M. Kasb pedagogikasi. -T.: Fan va texnologiya, 2008.
36. Christian Sorgenfrei. The Effectiveness of E-Learning Systems: A Review of the Empirical Literature on Learner Control. Decision Sciences Journal of Innovative Education Volume 14 Number 2 April 2016. P.154-174
37. Michael Watts and Chineze Christopher. Using Art (Paintings, Drawings, and Engravings) to Teach Economics. THE JOURNAL OF ECONOMIC EDUCATION, 43(4), 408–422, 2012.